

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**B.X.Qodirov, X.H.Matyaqubov, B.B.Qodirov**

**O'ZBEKISTON TARIXIDAN  
MAVZULAR BO'YICHA  
IZOHLI LUG'AT**

Toshkent 2014

Mazkur izohli lug'at oliy o'quv yurtlari notarix yo'nalishidagi fakultet talabalari, o'qituvchilar va O'zbekiston tarixiga qiziquvchi kitobxonlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Vatanimiz tarixining eng dolzarb mavzularida uchraydigan tarixiy tushunchalarga izoh berilgan.

**Mas'ul muharrir:**

M.F.Lafasov

tarix fanlari nomzodi, professor

**Taqrizchilar:**

tarix fanlari doktori R.Nosirov

tarix fanlari nomzodi, dotsent Z.Ilhomov

Nizomiy nomidagi TDPU Kengashi yig'ilishining 2014 yil 19 iyundagi 16-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

## SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar bilan bir qatorda fan va ta'lim sohalarida ham asrlarga tatigulik chuqur, keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Xalqimizning o'tmish tarixi, milliy urf-odatlar, qadriyatlar o'ziga qaytarildi. Mustamlakachilik va qaramlik yillarida oyoq osti qilingan ma'naviyatimiz mustaqillik sharofati bilan tiklanib, uni boyitish yo'lida qator hayrli ishlar qilindi. Jumladan, Vatanimiz tarixini har qanday mafkura va tazyiqlardan holi tarzda yoritish va holisona o'rganishga keng yo'l ochildi.

Vatanimiz tarixi bilan qiziqib tarixiy-badiiy va ilmiy asarlarni o'qiyotgan har qanday kitobxon ma'lum bir tarixiy atama yoki tushunchaning mazmunini to'g'ri anglashda ozmi-ko'pmi qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy hol. Chunki, aksariyat tarixiy asarlar, darsiiklar va o'quv qo'llanmalarda kitobxon uchun notanish tushunchalar yo'l-yo'lakay izohlarsiz bayon etib ketilgan. O'quvchi oldida paydo bo'ladigan ana shunday muammolarni bartaraf etish maqsadida ushbu tarixiy izohli lug'at tayyorlandi.

Mazkur izohli lug'at oliy o'quv yurtlari notarix yo'nalishdagi fakultet talabalariga, tarix faniga qiziquvchilarga, shuningdek, abituriyentlarga moslab tariximizning ibtidoiy davrlaridan boshlab hozirgi mustaqillik davrini o'z ichiga olgan eng dolzarb mavzular asosida yaratildi. Ushbu qo'llanmadan ko'zlangan maqsad Vatanimiz tarixining turli bosqichlarida ilmiy-ommabop asarlar va manbalarda eng ko'p uchraydigan tarixiy tushunchalar haqida ma'lumot berish orqali tariximizning o'quvchiga noma'lum bo'lib kelayotgan tushunchalari haqida ma'lum xulosalarni shakllantirishdir. Mintaqamiz tarixiy geografiyasiga oid joy nomlarining davrlar osha turli nomda atalib kelinganligi (Masalan: Amudaryoning qadimda Oks, Ukuz, Araks, Jayxun va hokazo) o'quvchi tasavvurida ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ushbu va shunga o'xshash muammolarni baholi qudrat bartaraf etish ham ushbu qo'llanmaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir.

Lug'atni tayyorlashda Milliy istiqol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug'at, 2002), Falsafadan qisqacha izohli lug'at (2004), Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at (2006), shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi materiallaridan ham foydalanildi.

O'zbekiston tarixi fanidan mavzular bo'yicha yaratilgan ushbu izohli lug'at juz'iy kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Biz lug'at yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qilamiz.

## MAVZU: O'ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

**ANTROPOLOGIYA** (yunoncha “antropos” – odam, “logiya” – fan) – qadimgi odamlarning kelib chiqishi, tashqi ko‘rinishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganuvchi fan.

**ARXELOGIYA** (yunoncha “archaios” – qadimgi, “logos” – fan) – insoniyat o‘tmish tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari (mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog‘lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlarini) qazishmalar orqali o‘rganuvchi fan.

**DAVRLASHTIRISH** – insoniyat tarixini ijtimoiy-iqtisodiy hayot va turmush tarziga qarab ma‘lum davrlarga bo‘lish. Sobiq sovetlar hukmronligi davrida tarix fani, jumladan vatanimiz tarixi besh davrga bo‘lindi:

- 1) Ibtidoiy jamoa tuzumi davri.
- 2) Quldorlik tuzumi davri.
- 3) Feodalizm tuzumi davri.
- 4) Kapitalizm tuzumi davri.
- 5) Sotsializm va kommunizm davri.

Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta “kommunizm”ga olib boradi degan g‘oyani ilgari surish edi. Bunday g‘oya soxta va xom xayol ekanligini tarixning o‘zi isbot qildi.

O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasida akademik A. Asqarov tomonidan taklif etilgan fikr bugungi kunda eng maqbul va maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin. Olim quyidagi yettita asosiy davrni ko‘rsatib o‘tadi:

- 1) Ibtidoiy to‘da davri (1-mln. – 40-ming yilliklar).
- 2) Urug‘chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (40-ming yillikdan milodiy III-IV asrlargacha).
- 3) Ilk O‘rta asrlar davri (milodiy III-IV asrlardan to IX asr boshlarigacha).
- 4) O‘rta asrlar davri (IX asr boshlaridan to XIX asrning o‘rtalarigacha).
- 5) Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri (XIX asr o‘rtalaridan 1917-yilgacha).
- 6) Sovetlar (Sho‘ro) davri (1917-1991-yillar).
- 7) Milliy istiqlol, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish davri.

**DIALEKTIKA** (yunoncha “dialektike” – bahs yuritish san‘ati) – tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi ta‘limot. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo‘ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi, deb hisoblaydi.

**ETIMOLOGIYA** (yunoncha “etymon” – haqiqat, chin. “logos” – fan) – biron bir so‘z yoki atamaning kelib chiqishi, uning boshqa so‘zlar bilan o‘zaro yaqinlik aloqalarini o‘rganuvchi fan sohasi.

**ETNOGRAFIYA** (yunoncha “etnos” – xalq, “grapho” – yozaman) – tarixning yordamchi fan sohasi bo‘lib, xalqlarning urf-odatları, xo‘jaligi va madaniyatini; xalqlar, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmushi, tarixiy va madaniy munosabatlarini o‘rganadigan ijtimoiy fan. Etnografiya fani

asosiy e'tiborni hozirgi xalqlarga qaratgan holda o'tmishda mavjud bo'lgan barcha etnik birliklarni ilmiy o'rganishni ham qamrab oladi.

**EPIGRAFIKA** – qadimgi bitik, yozuvlarni o'rganuvchi fan.

**GENEOLOGIYA** (yunoncha “genealogia” – shajara, nasl-nasab) – 1) Insonlar shajarasini, qarindosh-urug'chilik aloqalarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi. 2) Shajara, biron bir urug' yoki shaxsning tarixi: nasl-nasab shajarasi.

**GERALDIKA** – Davlat nishonlari va muhrlarini o'rganuvchi fan.

**GNOSEOLOGIYA** (yunoncha “gnosis” – bilim, “logos” – fan) – borliqni, dunyoni bilish va chin haqiqatga erishish haqidagi hamda bilishning manbalari va shakllari to'g'risidagi ta'limot. Borliqni bilish nazariyasi.

**IDEALIZM** – moddiylikni inkor etib, olamning asosida rux yoki g'oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g'oyalar muhim rol o'ynaydi deb ta'kidlovchi falsafiy qarash va ta'limot. Idealizm materializmning aksidir.

**LINGVISTIKA** – qadimgi tillarni o'rganuvchi fan.

**MATERIJALIZM** (lotincha “materialis” – moddiy) – olam moddiy, ongimizga bog'liq bo'lmagan holda, obyektiv tarzda mavjud. Materiya birlamchi. hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir. olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin deb qarovchi falsafiy yo'nalish, oqim.

Materializm idealizmga qarama-qarshi bo'lib, ular o'rtasida tarixda ko'p baxslar bo'lgan va u hozirda ham davom etmoqda.

**METODOLOGIYA** (yunonca “methodos” – yo'l, usul, “logos” – ta'limot) – insonning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri uyushtirish va tuzish to'g'risidagi ta'limot. Boshqacha qilib aytganda 1) ilmiy bilish metodlari va usullari to'g'risidagi ta'limot; 2) inson faoliyatining biron bir sohasiga qo'llaniladigan metod, usullar majmuasi.

**MILODIY YIL HISOBI** – jahon xalqlari o'tmish tarixdagi voqea-hodisalarni ma'lum tartib, ketma-ketlikda bayon etishga ehtiyoj sezib, o'zlarining yil hisoblarini – kalendarlarini yaratishgan. Qadimgi Misrda, Mesopotamiya xalqlarida, hindlarda, xitoyliklarda, yunonlarda va qadimgi rimliklarda o'ziga xos yil hisobi (kalendar) amal qilgan. Jumladan, musulmon dunyosida bugunga qadar amal qilib kelinayotgan hijriy yil hisobi mavjud. O'rta Osiyo xalqlari ham Movarounnahrda islom dini va islom madaniyati kirib kelishi bilan bir vaqtda hijriy yil hisobidan foydalana boshlaganlar. Vatanimiz tarixining arab istilosidan to XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy voqealari o'rta asr qo'lyozmalari va boshqa yozma manbalarda hijriy yil hisobi bilan yoritib kelingan.

Turkistonda Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovetlar hokimiyati o'rnatilgach, O'rta Osiyoda ham Yevropada amalda bo'lgan milodiy yil hisobi joriy qilindi va bu hozirgacha amalda bo'lib kelmoqda. Milodiy yil hisobi xristian (nasroniylik) dinining payg'ambari Iso alyahissalom (Iesus Xristos)ning tavallud topgan yilidan boshlanadi. “Milod” so'zi arabchadan “tug'ilmoq” degan ma'noni anglatadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, masalan: hozirgi 2014-yil bu Iso payg'ambarning yoshi. Iso payg'ambar tug'ilganidan keyin sodir bo'lgan voqealar milodiy (eramiz), Iso payg'ambar tug'ilishidan oldin bo'lib o'tgan voqealar esa miloddan avvalgi (eramizdan avvalgi) deb yuritiladi.

**NUMIZMATIKA** – tangashunoslik fani. Qadimiy tangalardagi belgi-rasmlar, tasvirlar, tamg'alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

**XRONOLOGIYA** (yunoncha "xronos" – vaqt, "logos" – fan) – tarixiy taraqqiyot bosqichlari, voqealarning davriy ketma-ketligini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

### **MAVZU: O'RTA OSIYO INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING QADIMIY O'CHOQLARIDAN BIRI.**

**ANIMIZM** (lotincha "anima" – rux, jon) – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruxlarning mavjudligiga ishonish, go'yo ular kishilar, hayvonlarning hayotiga, tevarak atrofdagi olam, buyumlar va hodisalarga, ularning o'zgarishlariga ta'sir etib, ularni boshqaradi deb hisoblash. Animistik tasavvurlar ibtidoiy davr odamlarida bundan taxminan 40-35-ming yil avval paydo bo'la boshlagan. Ibtidoiy kishilar narsalar, o'simliklarning joni bor deb tushunishgan. Rux esa egalaridan ajralgan holda ham mavjud bo'lib, u har qanday narsalarga ta'sir ko'rsatadi.

Animizm tushunchasini birinchi bo'lib fanga nemis olimi Shtal 1708-yil kiritgan.

**ANTROPOGENEZ** (yunoncha "antropos" – odam, "genezis" – rivojlanish) – odamning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni. Bu jarayon to'g'risida turli fikrlar mavjud. Darvin, Geksl va Gegellar inson oliy darajada taraqqiy etgan odamsimon maymunlardan kelib chiqqan deb hisoblaganlar. Zamonaviy fan antropogenez jarayonining ijtimoiy mehnat nazariyasini tasdiqlamoqda.

Insonning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni (antropogenez) bir necha bosqichlarga bo'linadi. Antropogenez jarayonining birinchi bosqichi Avstralopitek va Zinjantrop odamlar yashagan davr hisoblanib, bu ibtidoiy odam turlari taxminan 3-2-mln. yil ilgari yashagan. Odam taraqqiyotining ikkinchi bosqichi Pitekanthrop va Sinantrop davridir. Ular bundan 1-mln. – 800-ming yil ilgari yashaganlar.

Avstralopitek, Zinjantrop, Pitekanthrop, Sinantrop odamlari fanda arxantropolar (eng qadimgi odamlar) deb yuritiladi. Arxantropolarga mansub odam izlari O'zbekistondan ham topilgan bo'lib (Sulung'ur g'ori), fanda u Fergantrop (Farg'ona odami) deb yuritiladi. Antropogenez jarayonining uchinchi bosqichi Neandertal odamlariga to'g'ri kelib, ular bundan 100-40-ming yil muqaddam yashashgan. Fanda bu odam turi paleoantropolar (qadimgi odamlar) deb nomlanadi. Neandertallar ibtidoiy odam shakllanishi jarayonining so'nggi bosqichi bo'lib ular dan keyin 40-35-ming yillikka kelib zamonaviy qiyofadagi Kromanon odamlari (Neantropolar) shakllangan.

**ARXANTROPLAR** (yunoncha "arxeos" – qadimgi, "antropos" – odam) – ibtidoiy odamning dastlabki vakillari. Arxantropolar ilk paleolit davrida yashaganlar. (Avstralopitek, Zinjantrop, Pitekanthrop, Sinantrop, Fergantrop).

**AVSTRALOPITEK** (lotincha "australis" – janub, "pithekos" – maymun) – bundan 3-2-million yil oldin yashagan odamning ilk ajdodlaridan biri bo'lib, uning qoldiqlari 1924-yilda Janubiy Afrikada topilgan. Olimlarning xulosasiga ko'ra avstralopitek odamzodning hayvonlar (maymunlar) olamidani odamlar dunyosiga o'tishdagi birinchi vakildir.

**BIRINCHI YIRIK MEHNAT TAQSIMOTI** – dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi. Mezolit-neolit davridan boshlab insoniyat ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'ta boshlaydi. Eneolit va bronza davriga kelib mehnat qurollarining takomillashuvi va yerga ishlov berish usullarining mukammallashuvi natijasida ortiqcha mahsulot paydo bo'ladi. Bu hol birinchi ijtimoiy mehnat taqsimotini yuzaga keltiradi.

**BRONZA DAVRI** (jez davri) – mehnat qurollari asosan mis bilan qalayning aralashmasi – bronzadan yasalgani uchun shunday nom berilgan. Miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Bronza davriga kelib hozirgi O'zbekiston hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan sug'orma dehqonchilik madaniyati shakllandi. Bu davrgi oid moddiy madaniyat yodgorliklari Zamonbobo (Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida), Sarazm (Tojikistonning Panjikent viloyati), Sopolitepa, Jarqo'ton (Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida) va Tozabog'yob, Qavat-3, Amirobod (Xorazm-Qoraqalpog'iston) manzilgohlaridan topib o'rganilgan.

**ENDOGAM OILA** (yunoncha "endon" – ichida, "gamos" – nikoh) bir urug' doirasida tuzilgan oila, nikoh.

**ENEOLIT** (lotincha "aeneus" – mis, yunoncha "litos" – tosh) – mis-tosh davri. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda birinchi marta mis ma'dani qo'llanila boshlangani uchun shunday nom berilgan. Eneolit davri 4-3-ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Eneolit davridan ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi, sinfiy jamiyatning shakllanish jarayoni boshlangan. Sharqda (Old Osiyo va Mesopotamiyada) dastlabki davlat birlashmalari vujudga kela boshladi, O'rta Osiyoning janubiy hududlari (Turkmaniston) da esa sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati va paxsa, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurish boshlandi.

Eneolit davrining ko'plab yodgorliklari Turkmaniston hududlaridan topib o'rganilgan (Anov, Nomozgoh va Oltintepa).

**EKZOGAM OILA** – urug' doirasidan tashqari, qo'shni urug' vakillari bilan tuzilgan nikoh, oila.

**EVOLYUTSIYA** (lotincha "evalutio" – ochilish, yozilish, takomillashish) – tadriijiy rivojlanish degan ma'noni anglatadi. Tabiat, jamiyat va ruxiy-ma'naviy rivojlanish konsepsiyalarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiluvchi tushuncha. Evolyutsiya tushunchasi keng ma'noda rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

**FETISHIZM** (fransuzcha "fetiche" – but, sanam, tumor) – tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inish. Unga ko'ra alohida buyumlar kishilarning o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarni o'zgartirish kuchiga ega deb hisoblangan. Fetish ham ijobiy ham salbiy ta'sir kuchiga ega deb qaralgan.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlar paydo bo'lishi bilan bir paytda ibtidoiy jamoa tuzumining urug'chilik bosqichida vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar bu butlar va tumorlarda g'ayritabiiy dunyoda keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rganlar.

Fetishizm belgilari ba'zi bir hozirgi zamonaviy xalqlarning diniy rasm-rusmlari va e'tiqod-an'analarida ham saqlanib qolgan.

**HARBIY DEMOKRATIYA DAVRI** – urugʻchilik jamoasining soʻnggi bosqichida jamoani boshqarishda harbiy ruhning kuchaygan davri. Bu davrda jamoa qabila va urugʻ boshliqlari tarkibidan tashkil topgan harbiy, diniy va dunyoviy kengash tomonidan boshqarilgan. Urugʻchilikdan sinfiy jamiyatga oʻtish davridagi boshqaruv shakli hisoblanadi.

**“HOMO HABILIS”** – ishbilarmon odamlar. Ibtidoiy odamlarning eng dastlabki vakillari boʻlib, ular mehnat qurollari yasay olishlari va ularni xoʻjalik hayotida foydalana bilganliklari uchun shunday nomlanganlar.

**“HOMO SAPIENS”** – “aql idrokli odam”. Zamonafiy qiyofadagi odam – Kromanonlarning fandagi nomi.

**HUDDIY QOʻSHNICHILIK JAMOASI** – xoʻjalikning ilgʻor shakllariga oʻtilishi, ortiqcha mahsulotning paydo boʻlishi va mehnat taqsimotining yuzaga kelishi oqibatida jamiyatda mulkiy tengsizlik paydo boʻlgach urugʻchilik jamoasi oʻrnida vujudga kelgan jamoa. Hududiy qoʻshnichilik jamoasining belgilaridan biri shuki, unda aholi bir necha guruhlarga (zodagonlar, harbiylar, zaroatchilar, chorvadorlar, hunarmandlar) boʻlinib ketadi va oʻzlariga xos hayot tarziga ega boʻladilar.

**IBTIDIOY TOʻDA** – eng qadimgi odamlarning ulkan jamoasi. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichida odamlar toʻda tarzida hayot kechirganlar. Ibtidoiy toʻda davri odam paydo boʻlganidan to urugʻchilik jamoasiga qadar, yaʼni 40-35-ming yillikkacha davom etgan.

**IKKINCHI YIRIK MEHNAT TAQSIMOTI** – dehqonchilik va chorvachilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi. Bu jarayon asosan encolit-bronza davrlarida sodir boʻlgan.

**ISHLAB CHIQUVCHI XOʻJALIK** – insoniyatning tabiatdagi tayyor mahsulotlardan foydalanib qolmasdan balki, xoʻjalik va hayot uchun zarur boʻlgan oziq-ovqat, xom ashyo va mehnat qurollarini bevosita oʻzlari tomonidan yaratishga oʻtilgan xoʻjalik shakli. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi xoʻjalik turlaridir. Insoniyat ishlab chiqaruvchi xoʻjalik shakliga asosan mezolit-neolit davridan oʻta boshlagan.

**KROMANON** – soʻnggi (yuqori) paleolit davrida, bundan 40-12-ming yil avval yashagan odam turi. Fanda kromanon odamlari “Homo sapiens” – aqlli odam, yoki “Neotrop” – yangi odam deb ham yuritiladi. Dastlab Fransiyaning Kromanon degan joyidan topilganligi uchun shunday nom berilgan.

**MADANIYAT** – koʻp qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha boʻlib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qoʻlga kiritgan barcha moddiy va maʼnaviy yutuqlarining majmuasidir.

Moddiy madaniyat deganda insonlarning faoliyati tufayli yaratilgan “ikkinchi tabiat”, yaʼni ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklar nazarda tutiladi.

Maʼnaviy madaniyatning qamrovi behad keng boʻlib, u ijtimoiy ongning barcha shakllarini, yaʼni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, taʼlim-tarbiya, maktab, sanʼat, xalq maʼnaviy ijodiyotining barcha turlarini qamrab oladi.



Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

**MAGIYA** (yunoncha "magiya" – sehrgarlik, afsungarlik) – ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari majmuasi. Sehru-jodu, kuf-suflar orqali tabiat va hayotdagi yaxshilik va yovuzlik kuchlariga, shayotonu-iblislariga ta'sir ko'rsatish amallari.

**MATRIARXAT** – ona urug'i davri. Urug'chilik tuzumining birinchi bosqichi. Matriarxat davri paleolit davrining so'nggi bosqichida paydo bo'lib, u neolit va eneolit davrigacha davom etgan.

**MEZOLIT** (yunoncha "mezo" – o'rta, "litos" – tosh) – o'rta tosh davri. Muzliklarning chekinishidan mezolit davri boshlanib, u 12-7-ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Mezolit davriga kelib yerda iqlim isiy boshlagan. Bu davr yodgorliklari Respublikamizda yuzdan ortiq bo'lib ulardan eng yaxshi o'rganilganlari Obishir (Farg'ona), Qo'shilish (Toshkent viloyati), Machay va Zarautsoy (Surxondaryo) yodgorliklaridir.

**MIKROLITLAR** – mayda tosh qurollari. Mikrolit tosh qurollari (o'q-yoy uchlari, mayda mehnat qurollari, bigizlar va h.k.) mezolit davrida paydo bo'lgan.

**MONOTEIZM** (yunoncha "mono" – yakka, bitta, "theos" – xudo) – yakka xudolik dini. Faqat bitta xudoga sig'inuvchi, birgina xudoni e'tirof etuvchi e'tiqod shakli. Zardushtiylilik, xristianlik, islom dinlari monoteistik dinlar hisoblanadi.

**MONOGAMIYA** (yunoncha "mono" – yakka, "gamos" – nikoh) – yakka nikohlilik, ya'ni bir erkakning bir ayol bilan yakka nikoh asosida yashashi.

**NEANDERTAL** – ibtidoiy odam turi. Neandertal odamlari bundan 100-40-ming yil avval yashashgan. Bu davr odamlarining suyak qoldiqlari birinchi marta (1856-yil) Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu nom berilgan. Neandertal odamiga tegishli suyak qoldiqlari O'zbekistondan Surxondaryo viloyatining Teshiktosh g'oridan ham topilgan.

**NEOLIT** (yunoncha "neo" yangi, "litos" tosh) – yangi tosh davri. 6-4-ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Neolit davriga kelib insoniyat dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, to'qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalarini o'rgandi. Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo'jalik tarixi boshlandi. Bu davrda O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida ilk dehqonchilik madaniyati (Joytun madaniyati), shimoliy mintaqalarida esa ovchi baliqchilar madaniyati (Kaltaminor) shakllandi.

**NEONTROPLAR** (yunoncha "neo" – yangi, "antropos" – odam) – yangi odamlar. Zamonaviy qiyofadagi Kromanon odamlari fanda shunday yuritiladi.

**PALEOLIT** (yunoncha "paleos" – qadimgi, "litos" – tosh) – qadimgi tosh davri. Paleolit davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan tarixiy davr bo'lib 2,5-mln. yildan 12-ming yillikkacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Paleolit davri o'z navbatida ilk paleolit (2,5-mln. – 100-mingginchi yilliklar), o'rta paleolit (100-40-ming yilliklar) va so'nggi (yuqori) paleolit (40-12-ming yilliklar) bosqichlariga bo'linadi.

Paleolit davri shuningdek, shell, ashel, muste, orinyak, solyutre va madlen kabi arxeologik bosqichlarga ham bo'linadi.

Shel – paleolit davrining ilk bosqichi bo'lib, bu davrda pitekantrop odam turi yashagan.

Ashel – paleolit davrining ikkinchi bosqichi bo'lib, bu davrda asosan sinantrop odamlari yashashgan. Ashel davrining oxiriga kelib yerda iqlim soviy boshlagan va muzlik davri boshlangan.

Muste – paleolit davrining o'rta bosqichi. 100-40-ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bu davrda yer iqlimi ancha sovuq bo'lib, neandertal turidagi odamlar keng tarqalgan.

Orinyak, Madlen, Solyutre so'nggi paleolit davri madaniyati bosqichlari hisoblanadi.

**PALEONTROP** (yunoncha “paleos” – qadimgi, “antropos” – odam) – qadimgi davr odamlari. Paleontropalar asosan o'rta paleolit davrida (100-40-ming yilliklar) yashaganlar. Neandertal odamlari paleontropalar deb ham yuritiladi.

**PATRIARXAT** – ota urug'i davri. Urug'chilik tuzumining matriarxatdan keyingi ikkinchi bosqichi. Ibtidoiy jamoa davrida mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida kundalik ehtiyojdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan jamiyatda onalar o'z o'rnini otalarga bo'shatib berishga majbur bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3-ming yilliklardan boshlab patriarxat davriga o'tila boshlangan.

**PETROGLIF** (yunoncha “petra” – tosh, “glyphe” – o'yish) – ibtidoiy odamlarga tegishli qoyatosh bitigi yoki tasviri.

**PITEKANTROP** (yunoncha “pitek” – maymun, “antropos” – odam) – maymun odam demakdir. Indoneziyaning Yava orolidan 1890-yilda topilgan ibtidoiy odam turi. Ular taxminan, 1-mln. yil avval yashagan.

**POLIGAMIYA** (yunoncha “poly” – ko'p, “gamos” – nikoh) – ko'p nikohlilik. Ko'p xotinlilik yoki ko'p erlilik. Bir erkakning bir necha xotin bilan nikohda yoki aksincha, bir xotinning bir necha erkak bilan nikohda bo'lib yashashi. Poligamiya ibtidoiy jamoa tuzumi davri (matriarxat)ga xos bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va sinfiy jamiyatning shakllanishi bilan bu nikoh shakliga asta-sekin barham berilib, monogam oilalar paydo bo'ladi.

**POLITEIZM** (yunoncha “poly” – ko'p, “theos” – xudo) – ko'pxudolik dini. Politeizm ibtidoiy davr odamlariga xos bo'lib, unga ko'ra har bir qabila yoki urug'ning o'z xudosi va e'tiqod shakli mavjud bo'lgan (fetishizm, animizm, shomonlik, totemizm va boshq.). Insoniyat jamiyati taraqqiy eta borgan sari ibtidoiy odamlar ko'p xudolikdan yakkaxudolik dinlariga o'ta boshlaganlar. Bu ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilib, sinfiy jamiyat va davlatchilik bosqichiga o'tish jarayoni bilan bir vaqtda sodir bo'lgan.

**SIVILIZATSIYA** (lotincha “civilis” – fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sun'iy olamni moddiy va ma'naviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari ko'rsatkichi.

Insoniyat jamiyatining hayvonot olamidani asosiy farqi shundan iboratki, inson o'z mehnat faoliyati, aql va zakovati bilan yaratgan sun'iy dunyoda yashaydi. Tabiatda uy-joy, non, mashina, kitob va shu kabi moddiy va ma'naviy ne'matlar tayyor holda uchramaydi, ularni tabiat yaratmaydi. Ularni odam o'z mehnati va aql-zakovati bilan vujudga keltiradi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi ana shu sun'iy

narsalarning soni va sifati bilan belgilanadi. Tarix fani shu ma'noda sivilizatsiya – tarixiy taraqqiyotni o'rganuvchi fandir.

Insoniyat tarixi doimo bir tekisda rivojlanmagan. Tarixda yuz bergan davriy madaniy yuksakliklar sivilizatsiyalar tarixini tashkil etgan. Taniqli olim, akademik A. Asqarov kishilik tarixi o'z taraqqiyot yo'lida 5 marta sivilizatsion yuksalishlarni boshidan kechirdi deb, ularni quyidagicha ko'rsatadi: Birinchi sivilizatsiya dastlab, miloddan avvalgi 3-ming yillikda Yefrat va Dajla, Nil va Hind daryolari havzalarida yuz berdi. Shuning uchun u tarixga "Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi" nomi bilan kirdi. Uning ta'sir doirasi miloddan avvalgi 3-ming yillikning oxirlarida Xurosonga va 2-ming yillik boshlarida esa Movarounnahrqa yoyildi. Ikkinchi jahon sivilizatsiyasi miloddan avvalgi 1-ming yillikning o'rtalarida Gretsiya va Rimda yuz berdi. U tarixda "Antik davr sivilizatsiyasi" nomi ostida ma'lum. Uning ta'sir doirasi makedoniyalik Iskandarning qadimgi Sharqqa tomon harbiy yurishlaridan so'ng O'rtal Osiyoga kirib keldi va u "Osiyo-Yevropa ellinizm sivilizatsiyasi"ning shakllanishiga olib keldi. Uchinchi sivilizatsiya o'chog'i Movarounnahr va Xuroson bo'lib, ushbu hududlarida milodiy IX-XIII asr boshlarida yuz berdi va uning ta'sirida Yevropa uyg'ondi. To'rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Yevropa va Osiyoda yuz bergan uyg'onish davri bilan bog'liq va nihoyat beshinchi sivilizatsiya jamiyat rivojlanishining barcha jabhalarini qamrab olgan XX asr sivilizatsiyasidir. Sivilizatsiyalar oraliqida notekis rivojlanishlar, uzoq yillar davom etgan turg'unliklar va tez-tez davriy inqirozlar yuz berib turgan.

**TOTEMIZM** – biror urug' yoki qabila ibtidosiga sig'inish e'tiqodi. Totem so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida "uning urug'i" ma'nosini anglatadi. Uning mohiyati "odamlarning hayvonot va o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor" deb e'tiqod qilishdir. Totem – biror urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari topinib, uni muqaddas tutgan hayvon.

**URUG' JAMOASI** – birgalikda yashagan va hamkorlikda mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yaroqqa ega bo'lgan qon-qarindoshlar jamoasi. Urug' jamoasi so'ngi paleolit davriga kelib (miloddan avvalgi 40-35-ming yilliklarda) paydo bo'lgan.

**ZINJANTROP** – "ishbilarmon odam". Zinjantrop odamzodning ilk ajdodlaridan bo'lib, uning suyak qoldiqlari Sharqiy Afrikaning Zinj qishlog'i yonidagi Olduvoy darasidan topilgan. Odamzodning kelib chiqishi shajarasida zinjantropalar avstralopitekalar bilan pitekantropalar orasini to'ldiruvchi bo'g'in deb hisoblanadi.

**O'ZLASHTIRUVCHI XO'JALIK** – tabiat in'om etgan narsalardan foydalanib hayot kechirish. Kishilarning eng qadimgi mashg'uloti bo'lgan termachilik va ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik deb yuritiladi. O'zlashtiruvchi xo'jalik tarzi odam paydo bo'lganidan to mezolit-neolit davriga qadar davom etgan.

**SHAMANIZM (SHOMONLIK)** (tunguscha "shomon" – sehrgarlik) – sehrgarlik (afsun, magiya) ma'lum bir natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual, urf-odatlar majmuasidir. Shomonlik e'tiqod shakli ibtidoiy urug'chilik davrida paydo bo'lgan. Shamanizm urf-odatlar bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Odamlar ularning

ruxlar bilan muloqotda bo'lish, ruxlarga jamoaning umid va niyatlarini yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanliklariga chuqur ishonganlar.

Afsungarlik maqsadlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) Zarar keltiruvchi yovuz afsungarlik; 2) Harbiy afsungarlik (bu dushmanga qarshi ishlatiladi); 3) Sevgi afsungarligi (undan "issiq" yoki "sovuq" qilish maqsadida ishlatiladi); 4) Tibbiy afsungarlik (undan davolash maqsadida foydalanish); 5) Ob-havo afsungarligi.

Shamanizm hozirda ham zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**CHOPPER** – ibtidoiy odamlarning tosh qurollari. Ular qo'pol daryo toshlari bo'lib, bir tomoni o'tkirlashtirilgan bo'ladi.

## MAVZU. O'ZBEK XALQINING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISH JARAYONI TARIXIDAN.

**AJDOD** (arabcha "bobo" so'zining ko'pligi) – bobo degan ma'noni bildirib, shaxsning ilgari o'tgan ota-bobolarini anglatadi.

**ASSIMILATSIYA** (lotincha "assimilatio" – o'xshash, muvofiqlashish) – etnografiya va sotsiologiyada qabila, elat yoki xalqlarning bir biriga qo'shilib, aralashib ketishi. Bu jarayonda qorishib ketgan ikkita etnik qatlamdan biri o'z tili, madaniyati yoki boshqa o'ziga xos etnik belgisini ikkinchisi foydasiga yo'qotib yuboradi. Masalan: o'zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan vatanimiz hududidagi qadimgi sug'diylar, baqtriyaliklar va xorazmliklar turkiy xalqlar bilan qorishib, vaqt o'tishi bilan o'z tillari, yozuvi va madaniyatini ham unutib turkiylashib ketganlar.

**AVLOD** (arabcha "valad" – bola so'zining ko'pligi) – umumiy ajdodlaridan qarindoshlik munosabatlari bilan bir xilda uzoqlashgan kishilar guruhi.

**AVTOXTON** (yunoncha "autochtones" – mahalliy, shu joyga xos, tub joy aholisi) – geologiya, biologiya, etnografiya fan sohalarida ishlatiladigan tushuncha. Etnografiyada o'zga hududlardan ko'chib kelmay, ma'lum bir hududda azaldan yashab kelayotgan mahalliy yer egasi bo'lgan tub joy aholisi.

**AYMOQ** – 1) mo'g'ul va turkiy xalqlarda qadimgi urug'larning parchalanishidan kelib chiqqan turli tarmoqdagi o'zaro qon-qardosh oilalar birlashmasi yoxud ittifoqi. 2) O'rta asrlarda mo'g'ullarda yirik yer-mulk, ba'zan xonlik. 3) Aymoqlar – bugungi Afg'oniston va O'zbekistonda yashovchi bir qancha turkiy qabila va urug'larning umumiy nomi.

**DEMOGRAFIYA** (yunoncha "demos" – xalq, "grapho" – yozaman) – aholining joylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganuvchi ijtimoiy fanlardan biri. Aholi sonining o'zgarishi, uning bandligi, tabiiy ko'payishi va ko'chib yurishlari (migratsiya) ni o'rganish demografiyaning markaziy masalasi hisoblanadi.

**EL** – bu atama eng qadimgi turkiy so'zlardan hisoblanadi. El avvalo bir joyning odamlari ma'nosini bildiradi; Xorazm eli, Qoshqar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo'llaniladi; qipchoq eli, mang'it eli. El so'zi ba'zan xalq, millat ma'nolarida ham ishlatiladi. XX asr boshlarida "El bayrog'i" gazetasi ham chiqqan. Yurt, mamlakat ma'nolarida ham qo'llaniladi. Masalan: qozoq eli deganda qozoq xalqini ham, Qozog'iston Respublikasini ham tushunishimiz mumkin. Yoki

bo'lmasa, chet ellar deganda, xorijiy xalqlarni ham, xorijiy mamlaktlarni ham anglash mumkin.

El iborasida, shuningdek, ittifoq, totuvlik, ahillik ma'nolari ham bor. "El bo'ldi", deganda do'stlashdi, birlashdi ma'nosi anglashiladi. Elning ana shu ma'nosidan elat atamas kelib chiqqan.

**ELAT** – kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Uni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar.

Til jihatdan bir yoki o'zaro yaqin qabilalarning uyushuvi elat bo'lishning asosiy shaklidir. Bir qabilaning boshqasi tomonidan istilo qilinishi natijasida, bir necha qabila aralashib, elat paydo bo'lgan. Masalan: fransuz elati gall, german qabilalarining rimliklar bilan o'zaro aralashuvidan shakllangan.

Elat o'z qiyofasini saqlab qolishi uchun hamda ravnaq eta borib, xalq va millat darajasiga yetishi uchun ham o'z davlatiga ega bo'lishi shart. O'z davlatisiz elat yo'q. Bo'lsa-da, elat shaklida uzoq yashay olmaydi. hukmron elat uni o'ziga "yutib" yuboradi.

Etnografiya fanida qoidaga ko'ra o'rtoq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholiga nisbatan "xalq", ko'chmanchi chorvador aholiga nisbatan "elat" tushunchalari ham qo'llaniladi.

**ERON** – Amudaryodan janub tomon yoyilgan hududlar. Avestoda Eron haqida gap ketganda ko'chmanchi chorvador turlardan farqli ravishda, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi urug' va qabilalar yurti tushunilgan.

Chorvador oriyatlarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlariga o'rnamshib qolgan joylar Avestoda "Ariana" deb nomlangan. Eron Ariana so'zining yangi shaklidir.

**ETNIK JARAYON** – kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo'shilib, aralashib borish jarayoni.

**ETNIK TARIX** – biron bir xalqning etnik shakllanishi nihoyasiga yetganidan keyingi tarixi. O'zbek xalqining etnik tarixi XI-XII asrlardan doshlendi va u XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha davom etdi. XX asr boshlaridan o'zbek millatining shakllanish jarayoni boshlandi. Bu tarixiy jarayon hozirgacha davom etmoqda.

**ETNOGENEZ** (yunoncha "etnos" – xalq, "genesis" – tug'ilish) – biron bir xalqning kelib chiqish jarayoni.

**ETNONIM** – biron bir xalqning nomi.

**MASSAGETLAR** – O'rta Osiyoning tog'lik, cho'l va sahro yerlarida istiqomat qilgan ko'chmanchi chorvador qabilalar. Massagetlar, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra aynan sak qabilalarining yirik harbiy-siyosiy uyushmasidir. Olimlar massaget so'zini ikki xil – "ulug' getlar" (O. Franke) yoki "yirik sak o'rdasi" deb tarjima qilishadi. Shuni ta'kidlash joizki. "massaget" so'zining aniq etimologiyasi (kelib chiqishi) masalasi to'liq o'z yechimini topmagan.

Massagetlar asosan Amudaryo va Sirdaryo orasidagi saholarda yashaganlar. Miloddan avvalgi VI asrda ular yirik harbiy qabila ittifoqiga birlashganlar.

Ahmoniyar podshosi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda massagetlar yurtiga yurish qilganda o'z ajalini topgan edi (To'maris jasorati).

**MENTALITET** (lotincha "mens" – aql, fahm, zehn, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixan tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari va diniy e'tiqodlarini ham qamrab oladi.

O'zbek xalqi mentalitetining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. Shu davr mobaynida o'zbek xalqi insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatini bebaho durdonalar bilan boyitdi.

**MILLAT** – kishilar uyushuvining eng oliy formasi bo'lib, u kishilarning madaniy va psixologik ongi (mentaliteti) bilan ajralib turadigan shaklidir. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanib borishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar va xalqlar millatga aylanadi.

Millat bilan xalq ta'rifli tashqaridan qaraganda bir-biriga o'xshash ko'rsada. ammo, mohiyatan ular bir ma'noni anglatmaydi.

Birinchiidan, xalq uzil-kesil shakllangan feodal (o'rta asr) jamiyatining ijtimoiy mahsuli, millat esa kapitalistik jamiyatning ijtimoiy mahsulidir. Ikkinchiidan, xalqni uyushtiruvchi etnik omillardan hududiy birlik chegaralari tarix taqozosiga ko'ra, o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ammo, millat davlat chegaralari qat'iy, mutlaqo dahlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olingan bo'ladi. Uchinchiidan, xalq shakllangan paytda hamma vaqt ham uning etnik nomi bo'lavermaydi, xalq millat darajasiga ko'tarilganda esa uning etnik nomi bo'lishi shart. Masalan: o'zbek xalqi nomi uning elat sifatida shakllanib bo'lganidan ancha keyin (XVI asrda) paydo bo'ldi. To'rtinchiidan, xalqning siyosiy uyushmasi – davlat tarix taqozosiga ko'ra, hamma vaqt ham etnos nomi bilan atalavermaydi, ammo xalq millatga aylanganida davlat nomi millat nomi bilan yuritilishi shart. Beshinchiidan, etnosning xalq darajasida o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatan fidoiysi bo'lish, o'z xalqidan faxrlanish hissi o'sha davr jamiyati tartib-qoidalariga ko'ra, ko'pchilikda bir xil, yuksak darajada bo'lavermaydi. Ammo xalq millat darajasiga ko'tarilganda bu sifatlar yuksak darajada bo'ladi. Oltinchiidan, etnosning til birligi elatning xalq darajasida hamma vaqt ham davlat maqomini olavermaydi, xalq millat darajasiga chiqqanida uning tili albatta davlat tili maqomini olishi shart. Millat o'zining tili uchun qayg'uradi va uni himoya qiladi, uning adabiy tili tarkibiga har qanday chet so'zlarni tiqishtiravermaydi. Millat vakili har joyda o'z ona tilida gapiradi. Yettinchiidan, mentalitet etnosning xalq darajasida emas, balki millat darajasida shakllanadi va nihoyat. sakkizinchiidan, millat uzil-kesil shakllanganda davlat jamiyat tomonidan beshqariladi, ya'ni davlat xalq xizmatchisi, barcha sohalarida millat talabi va hohish irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

**ORIYLAR (ARIYLAR).** Oriy so'zi "erkin" degan ma'noda tarjima qilinadi. Avestoga ko'ra, ariylar ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, jangovar mulkdorlar tabaqasi bo'lib, mana shu tabaqa va uning oila a'zolari o'z urug'-aymoqlaridan farqli o'laroq "ozodlar" ya'ni "oriylar" deb yuritilgan. Ular yashagan yurt oriylar vatani, oriylar kengligi, ya'ni "Aryanam Vaychah" deb nomlangan.

Oriylar Markaziy Osiyo chorvador qabilalarining iqtisodiy yuksalishidagi ko'chmanchilik hayot bosqichining ijtimoiy mahsuli, ularning tashabbuskor va ishbilarmon qatlami, endi shakllanib kelyotgan sinfiy jamiyatning aslzodalar tabaqasi edi. Tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, ular kelib chiqishi jihatidan eroniy til sohiblari bo'lmay, balki turkiyda so'zlashganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Yevroosiyo cho'llarining oriyolari o'z chorvalariga yangi yaylovlar qidirib, janubga tomon, nafaqat O'rta Osiyoning ichki rayonlariga, hatto Eron va Hindistongacha kirib boradilar.

Chorvador oriylarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlariga o'rtnashib qolgan joylar Avestoda "Ariana" nomini olgan. Demak, Eron Ariana so'zining yangi shaklidir.

Avesto va "Rigveda"ga ko'ra, dastlab oriylar Eron va Hindistonga kelganda mahalliy aholiga nisbatan "begona", "kelgindi", "bosqinchi" ma'nosini anglatgan. Keyinchalik esa "xo'jayin", "aslzoda" ma'nosini kasb etgan. Ahmoniy podsholari Kir II va Doro I lar qoyatoshlarga bitilgan yozuvlarida o'zlarini "haqiqiy oriy" ekanliklarini alohida ta'kidlab ko'rsatadilar.

"Oriy" atamasi dastlab ijtimoiy ma'noda qo'llanilgan, keyinroq esa ular mahalliy aholi bilan qorishib ketgach, bu so'z yangi etnik ma'no va mazmun kasb etdi, ulardan son jihatdan bir necha marta ko'p bo'lgan Eronning mahalliy aholisi til muhiti ta'sirida oriylar asta-sekin o'z tillarini yo'qotib, eroniylashib ketadilar.

**SAKLAR** – O'rta Osiyoning tog'lik, cho'l va sahro yerlarida istiqomat qilgan ko'chmanchi chorvador qabilalar. Ahmoniy podsholarining qoyatoshlarga yozilgan bitiklarda O'rta Osiyoning ko'chmanchi chorvador aholisi shunday nom bilan yuritilgan.

Qadimgi yunon va rim tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga bo'lingan. Ularning ko'pchilik qismi "saka-tigraxauda", ya'ni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar.

Saklarning ikkinchi guruhi "saka tiay-tara-darayya", ya'ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryo (Yaksart)ning quyi oqimida yashaganlar.

Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada "saka-xaumovarka" deb ataluvchi saklar yashagan.

**SART** – O'rta asrlardan to o'tgan asrning o'rtalariga qadar jonli tilda va adabiyotlarda keng ishlatilgan tarixiy tushuncha. Ushbu atama turli davrda turli ma'nolarda qo'llanilgan:

1) VI asrlarda turklar O'rta Osiyoni bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini sart deb atashgan.

2) XII-XIII asrlarda mo'g'ullar o'z yurtlariga kelgan asosan musulmon savdogarlarini sart deb atashgan.

3) XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan ko'chmanchi o'zbeklar mahalliy shahar va o'troq aholini sart deb atagan.

Sart atamasi etnik nom emas. Bu haqda fanda turli qarashlar mavjud. Uning muayyan bir etnosga tegishli ekanligi ma'lum emas. V.V. Bartoldning fikricha, "sart atamasi tojik ma'nosini beradi. Ammo u kelib chiqishi jihatdan turkiylashgan

sug'diylar bo'lib, tojik va o'zbeklarga tegishli muqim yashovchi, savdo-sotiq va hunarmandchilik ahlining yig'indi nomi ekanligi tarixiy haqiqatdir. O'rta Osiyodan Sharqiy o'lkalarga savdo karvoni bilan borgan savdogarlar kelib chiqishi qaysi etnosga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, ular sartlar deb atalgan".

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida sart qadimgi turkchada savdogar ma'nosida berilgan. Dastlab sartlar forsiy va turkiyda so'zlashgan bo'lsalar. XVI-XVII asrlardan ular faqat turkiyda, eski o'zbek tilida so'zlasha boshlaganlar. Endi bu atama ko'proq Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Xorazmda turg'un yashovchi o'zbeklarga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, rus olimlari va tadqiqotchilarining asarlarida ham Turkistonning o'troq aholisini shu nom bilan yuritishgan.

**SKIFLAR** – qadimgi yunon tarixchilari O'rta Osiyo va Dashti Qipchoqda yashovchi saklarni skiflar deb atashgan. Tarixchi Gerodotning yozishicha, saklar skiflarning o'zginasi bo'lib, "forslar barcha skiflarni saklar deb ataganlar". Saklarni sug'diylardan Sirdaryo ajratib turgan. Massagetlar, derbiklar, osiylar, daxlar, pasianlar, toxarlar, usunlar, sakaravakalar va yana boshqa nomlarda ataluvchi qabilalarning barchasi sak-skiif qabilalari ittifoqiga kirgan O'rta Osiyoning qadimgi ahelisidir.

**TURK, TURKIYLAR** – jahondagi eng qadimiy yirik etnoslardan birining nomi. Ushbu atama ilk bor qadimgi xitoy manbalarida bundan 3,5-4-ming yil muqaddam rasmsimon ierogliflarda "tiek" va "tiauk" shaklida uchraydi. Turk so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi degan fikrlar mavjud.

Miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan davrda Turklar Xunnu hoqonligi tarkibida bo'lganligi sababli Xitoy manbalarida syunnu, xunnu deb ham atalganlar. Mazkur hoqonlik yemirilgach keyingi 300 yil davomida Xitoyliklar turklarni "tiekle" (tele) deb ataganlar.

Bir necha ming yil mobaynida turkiy qabila-elatlar ko'p marotaba birlashgan va parchalangan. Shu tufayli ularning qabilaviy tarkibi doimo o'zgarib turgan.

O'zbek olimlarining fikricha, Vatanimiz hududida turkiy etnosga xos ijtimoiy-madaniy, etno-lingvistik hamda moddiy-ashyoviy belgilar bronza davridan namoyon bo'la boshlaydi. Xuddi shu davrdan turkiy etnos bugungi o'zbek xalqining shakllanishida muhim rol o'ynay boshlagan.

Turkiy xalqlar o'tmishda Yevroosiyo mintaqasida ozlarining bir qator davlatlarini va ulkan saltanatlarini tuzganlar. Xunnu davlati, Buyuk Turk hoqonligi, Usmoniy turklar imperiyasi, buyuk vatandoshimiz Amir Temur saltanati shulardan eng mashhurlaridir.

**TURKIY XALQLAR** – turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar. Bugungi kunda olimlar turkiy xalqlarni hududiy joylashuvi va til yaqinligiga qarab quyidagi to'rtta yirik guruh (g'arbiy, sharqiy, janubiy va shimoliy) va tarmoqlarga bo'ladi:

**1) Qipchoqlar (G'arbiy turklar):** Volga-Ural turklari (*chuvashlar, tatarlar, boshqirdlar, karaimlar, qrim tatarlari*), Qirg'iz-tatarlar (*qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar*), Kavkaz turklari (*no'g'oylar, quMIKlar, bolqorlar, qorachoylar, urumlar, mexxeti turklari, ajarlar*).

**2) Turkiston turklari (Sharqiy turklar):** Chig'atoy turklari (*o'zbeklar, uyg'urlar, Ili uyg'urlari, sariq uyg'urlar*).



3) O'g'izlar (Janubiy turklar): Eron turklari (*turkmanlar, truxmanlar, Xuroson turklari, afshorlar, xojalar, xalajlar, azorbayjonlar, qoraqulpoqlar*), Saljuqiy turklar (*Turkiya turklari, Kipr turklari, Iroq turklari, Suriya turklari, Bolqon turklari*), Moldaviya turklari (*gagauzlar*), Kanzu turklari (*salarlar*).

4) Sibir turklari (Shimoliy turklar): Oltoy turklari (*Oltoy tatarlari, oltoyliklar, shorlar*), Sayan turklari (*tuvalar, duvalar, tofolarlar*), Yenisey turklari (*Yenisey tatarlari, xakaslar, Yenisey turklari*), Yoqutlar (*saxa, dolganlar*).

**TURKISTON** – tom ma'noda turkiy xalqlarning tarixan tarkib topgan va keng yoyilgan tarixiy-geografik hududi. Ba'zi olimlar Turkistonni Turonning islomiy vorisi deb hisoblaydilar. 639-yilda Turfonda tuzilgan sug'd hujjatida O'rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ilk bor ishlatilgan. "Turkiston" atamasi "O'rta Osiyo" va "Movarounnahr" nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy mazmunga ham ega. VIII asrdagi arablar istilosidan so'ng Turkiston atamasi o'zining siyosiy-huquqiy ma'nosini yo'qotmagan.

Turkistonning sarhadlari tarixiy-an'anaviy jihatdan keng ma'noda quyidagi qismlardan iborat:

1) Markaziy Turkiston (hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, qisman Tojikiston);

2) Sharqiy Turkiston (Ichki Mo'g'uliston, Xitoyning Sintszyan-Uyg'ur Muxtor viloyati, Qoraqurum);

3) Janubiy Turkiston (Tog'li Badahshon, Ko'ksuv, Shimoliy Hindistonning Jammu-Kashmir viloyatlari, Shimoliy-Sharqiy Afg'oniston);

4) G'arbiy Turkiston (Eronning shimoli, qisman Kavkaz, Xazar-Kaspiy havzasi);

5) Shimoliy Turkiston (Shimoliy Qozog'iston. Ural-Volgabo'yi, Ob, Yenisey, Lena daryolari havzasi va Sibir).


Tor ma'noda Turkiston deb asosan, Markaziy Turkiston tushuniladi.

**TURON** (forscha "turon" – turkiylar degan ma'noni anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama.

"Turon" atamasi bundan 3000-2500-yillar muqaddam qo'llanila boshlangan. Avestoda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar "turlar" deb, turlar yurti esa "Turon" deb atalgan. "Turon" atamasi yonida, u bilan birga, uning ma'nodoshlari sifatida "Turk yurt", "Turk eli", VII asrdan boshlab esa "Turkiston" atamaları yozma bitiklarda uchraydi. Turon turkiy xalqlarning jahoniy hamda ijtimoiy-etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha va nom sifatida XX asrgacha yetib kelgan.

Turonni geografik-tarixiy ta'riflaganda, uning hududlari Tinch okeanidan O'rta yer dengizidagi Egey-Adriatikagacha, Shimoliy Muz okeanidan Tibet, Ximolay tog'larigacha, Shimoliy Hindistondan Anadoli (hozirgi Turkiya) gacha bo'lgan hududlarni, mazkur hududda yashovchi turkiy xalqlar Vatanini bildiradi.

**URUG'** – bir ajdoddan tarqalgan qon-qarindoshlarning jamoa bo'lib uyushuvi natijasida shakllangan kishilar uyushmasi. Tirikchilik tashvishida tashqi dushmanlardan saqlanish istagi kishilarning qon-qarindoshlikka asoslangan birlashuvini taqozo etgan. Shu yo'l bilan kishilarning teng huquqliligi, asosiy ishlab chiqarish quollarining umumiy mulkligi, jamoa mehnati va iste'mol qilishning umumiyliigi ta'minlangan, nikoh va diniy



Kishilarning urug'-urug' bo'lib yashash tarziga o'tishlari bundan 40-35-ming yil ilgari sodir bo'la boshlagan.

**XUNNLAR** – Shimoliy Xitoy hududlaridan to Volgabo'yi dashtlariga qadar cho'zilgan mintaqada ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi turkiy qabilalardan biri.

**O'ZBEK** – “O'zbek” atamasining kelib chiqishi xususida fanda ikki xil yondoshuv mavjud: birinchi guruh tadqiqotchilar “O'zbek” atamasining kelib chiqishini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342) bilan bog'lasalar, ikkinchi guruh olimlar “o'zbek” atamasi o'rta asrlarda Dashti Qipchoqda yashovchi ko'chmanchi xalqlarning boshqalarga tobe bo'lmagan, “o'ziga bek”, “o'z-o'ziga bek”, talqinidan kelib chiqqan deb hisoblashadi.

Yuqoridagi taxminlardan ikkinchisi tarixiy haqiqatga yaqinroq. Chunki “O'zbek” atamasi qabilalar uyushmasi va shu qabilalarga qarashli yerlarning nomi sifatida O'zbekxonga qadar ham qo'llanilgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bek o'zining “Tarixi arba ulus” asarida “o'zbek ulusi O'zbekxonga berildi” deb yozadi. Bundan tashqari O'zbekxondan oldin ham shu nomda bir necha tarixiy shaxslar o'tgan. Jumladan, XIII asr boshlaridagi Ozarbayjon hukmdorining ismi ham O'zbek Otabek bo'lgan.

Movarounnahr yerlarida yashovchi aholi hali “o'zbek” nomi bilan yuritilmay tarixiy manbalarda umumiy nom bilan “turkiylar” deb yuritilar edi. “O'zbek” atamasining paydo bo'lishi tarixan olib qaraganda Movarounnahr hududlaridan chetda, shimolda Dashti Qipchoq yerlarida paydo bo'lgan edi. Dashti Qipchoq yerlarida o'rta asrlarda ko'chmanchi chorvador o'zbek qabilalari keng maydonda istiqomat qilishar edi. Tarixiy manbalarda “O'zbek” atamasi XIII asr oxiriga taalluqli asarlarda ilk bor uchraydi. XV asrda Dashti Qipchoqda (hozirgi Qozog'iston va G'arbiy Sibir cho'llariga to'g'ri keladi) Abulxayrxon (1428-1468) tomonidan Ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos solinadi. Qudratli o'zbeklar davlati shu davrdan boshlab Movarounnahrda siyosiy jarayonlarga aralasha boshlaydilar. Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) davrida o'zbeklarning inqirozga uchrayotgan temuriylar davlatiga tazyiqi yanada kuchayadi. Oqibatda Movarounnahrda temuriylarning siyosiy tarqoqligidan unumli foydalangan Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar bu yerlarni istilo etib, siyosiy hokimiyatni qo'lga oladilar. Endi tarixiy manbalarda Movarounnahrni ko'chmanchi o'zbeklar egallab olganligi uchun mazkur yerlarni o'zbeklar yurti, shu yerda azaldan yashayotgan turkiy aholini ham umumiy nom bilan o'zbeklar deb yuritish boshlandi. Bundan shunday xulosaga kelish kerakki, Movarounnahrda yashayotgan xalqqa o'zbek nomi XVI asrdan boshlab berildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, XI-XII asrlarga kelib o'zbek xalqi xalq sifatida shakllanib, o'zining antropologik-etnik xususiyatini olib bo'lgan edi. Ana shu xalq o'zining “O'zbek” nomini XVI asrga kelganda oladi. “O'zbekiston” siyosiy atamasi 1924-1925-yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishidan so'ng paydo bo'lgan.

**O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISH BOSQICHLARI** – o'zbek xalqi ikki xil til (turkiy va fors)da so'zlashuvchi qabila va elatlarning aralashuvidan tarkib topgan bo'lib, bu ikki tilda so'zlashuvchi jamoalarning etnik jihatdan dastlabki

qorishuvi soʻngi bronza davri (mil. avv. II ming yillikning oxiri)da yuz berdi. Bu davrni oʻzbek xalqi etnogenezining boshlanishi yaʼni **birinchi bosqichi** deb hisoblashimiz mumkin. Soʻnggi bronza davridan boshlangan assimilatatsiya jarayoni antik davrga kelib (mil. avv. IV-II asrlar) oʻzbek xalqiga xos iqtisodiy xoʻjalik, etnomadaniy va antropologik tip birliklarini oʻzida mujassamlashtiruvchi, oʻtroq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topdi. Natijada miloddan oldingi II milodiy I asrlar davomida turkiy tilli elat tarkib topdi. Bu davrga **oʻzbek xalqi etnogenezining ikkinchi bosqichi** sifatida qarash mumkin.

Oʻzbek xalqi etnogenezining **uchinchi bosqichi ilk oʻrta asrlar davrini oʻz ichiga oladi** (milodiy IV-VII asrlar). Oʻrta Osiyo hududlariga turkiyoʻy xioniyalar, kidariylar, eftaliylar va Turk hoqonligi kirib keldi va ular bilan birga kirib kelgan qabilalar tarkibida qarluq, chigil, tuxsi, argʻin, turk, kaltatar, musabozori kabi turkiy zamon qabilalar koʻp edi. Yu.A. Yakubovskiyning taʼkidlashicha, bu davrda Oʻrta Osiyoning biror joyi qolmadiki, u yerlarga turkiy qabilalar kirib bormagan boʻlsa.

Movaraunnahr yerlarini arablar egallagach, ular bu zaminga turkiy qabilalarini muntazam kirib kelishini toʻxtatish yoʻlini qidirdilar. Bu zaminga oldinroq kirib kelib oʻrnashib qolgan turkiylarning oʻtroqlashishi jadallashdi. Natijada, butun VIII asr davomida Movarounnahr hududlarida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga keldi. Mahalliy sugʻdiy zamon aholi orasida turkiylashish jarayoni jadallashdi. IX-X asrlarda Movarounnahrda garchi siyosiy hokimiyat somoniylar qoʻlida boʻlsada, Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega boʻldi. Bu kuchli etnik asosni oʻtroqlashgan turgʻun turklar tashkil etardi. Bu davrga oʻzbek xalqi etnogenezining **toʻrtinchi bosqichi** sifatida qarash mumkin. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qoʻliga oʻtishi munosabati bilan oʻzbek xalqi etnogenezining yakunlovi **beshinchi bosqichi** boshlandi. Oʻzbekka xos turkiy etnos mintaqada qaror topdi. Elatga xos barcha etnik omillar roʻyobga chiqdi. Demak, oʻzbek elati xalq sifatida XI-XII asrning birinchi yarmida uzil-kesil shakllandi

Oʻzbek xalqining shakllanishi bilan uning etnik tarixi boshlanadi. Oʻzbek xalqining etnik tarixi ham uzoq davom etadigan tarixiy jarayon boʻlib, bu jarayon mintaqada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining qaror topa boshlagan davrgacha, yaʼni XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha davom etdi. XX asr boshlaridan oʻzbek millatining shakllanish jarayoni boshlandi. Bu tarixiy jarayon hozirgacha davom etmoqda.

**OʻZBEK XALQINING ETNIK ASOSINI TASHKIL ETGAN QADIMGI QABILA ELATLAR** – Turon zaminida miloddan avvalgi I ming yillikning oʻrtalari va ikkinchi yarmi – milodiy I ming yillikning birinchi yarmida yashagan koʻchmanchi va oʻtroq aholi. Hududiy jihatdan ular quyidagicha joylashishgan:

**Qadimgi Xorazmliklar:** ular Amudaryoning quyi oqimida, hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududlarida yashaganlar.

**Sugʻdiyalar (Sugʻdiyonaliklar):** Zarafshon daryosi havzasi, hozirgi Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo vohalarida yashagan.

**Baqtriyaliklar:** ular hozirgi Tojikistonning janubiy-gʻarbi, Afgʻonistonning shimoli va Surxondaryo viloyati oʻrmasida yashashgan.

**Choch (Shosh)liklar:** Sirdaryoning oʻrta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati va Qozogʻistonning janubiy hududlarida istiqomat qilishgan.

**Margʻiyonaliklar va Parfiyonlar** hozirgi Turkmaniston va Eron hududlarida istiqomat qilishgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan qabila-elatlar Oʻrta Osiyodagi oʻtroq-ziroatkor aholi boʻlib, daryo vohalarida dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shugʻullanib, bir birlari bilan oʻzaro qizgʻin savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqada boʻlishgan. Mazkur oʻtroq aholining koʻchmanchi chorvador aholi bilan ham aloqalari teran boʻlib, koʻchmanchi aholidan eng koʻp sonlisi **saklar**, **massagetlar** va **parn-daxiar** edi. Ular asosan Amudaryo va Sirdaryoning oʻng va soʻl sohillaridagi sahrolarda chorvachilik bilan shugʻullanishgan.

**OʻZBEK XALQINING ETNIK ASOSINI TASHKIL ETGAN TURKIY QABILA-ELATLAR** – oʻzbek xalqining etnik shakllanishida turkiy qavmlarning oʻmi nihoyatda katta. Turk etnosining ilk Vatani Janubiy-Sharqiy Ural togʻidan to Janubiy Sibirning Sharqiy chegarasigacha boʻlgan hududlar hisoblanadi. Bu etnik qatlarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi bronza davri (miloddan avvalgi II ming yillik) dan boshlanib, to milodiy XI-XII asrlariga qadar davom etgan. Ushbu davrlar oraligʻida Movarounnahr va Xorazm hududlariga ketma-ket bir necha turkiy qabilalarning kirib kelishi kuzatiladi. Davriy jihatdan ularni quyidagi tarzda qayd qilishimiz mumkin: yuechjilar (mil.avv. II-I asrlar), xioniylar (milodiy IV asr), kidariylar (IV-V asrlar), eftaliylar (V asr), turkiylar (VI-VII asrlar), qarluq, jikil, yagʻmolar (IX-X asrlar), oʻgʻuzlar, qoraxitoylar (XI-XII asrlar).

Bir necha asrlar mobaynida Movarounnahrda turkiy til ustunligi oʻrnatilib, anʻanaviy sharqiy eroniy xorazmiy, sugʻdiy va boxtariy tillar siqib chiqarildi va mahalliy aholi tili turkiylashib ketdi.

**QABILA** – etnik birlik. Urugʻ va qabila atamalari koʻpincha bir maʼnoda ishlatilib ketilsada, tarixiy nuqtai nazardan bu unchalik toʻgʻri emas. Qabila qon-qarindosh, tildosh va dindosh bir necha urugʻning uyushmasidir, shuningdek, bir urugʻ tabiiy ravishda koʻpayib, atrofidagi urugʻlarni boʻysundirib, oʻz tarkibiga singdirib yuborishi oqibatida qabila tarzida shakllangan boʻlishi mumkin.

Qabila urugʻlarga boʻlinishidan tashqari oʻz hududiga, yagona qabilaviy (sheva) tiliga, qabila kengashiga va harbiy boshligʻiga ega boʻladi. Qabila kishilik jamiyati ishlab chiqarishning birmuncha ilgʻorroq formalariga yaʼni, ibtidoiy termachilik va ovchilikdan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka oʻtgan paytda vujudga kela boshlaydi.

Shu oʻrinda tarixiy va badiiy adabiyotlarda tez-taz takrorlanib turadigan “oʻzbek xalqi 92 urugʻ (qabila)dan tashkil topgan” degan fikrni ham holisona talqin qiladigan boʻlsak, bu fikrlarga XVIII asrda tuzilgan “Tarixiy Muqimxoniy” kitobi va shoir Turdi sheʼrlarida keltirilgan 92 raqami asos qilib olinadi. Maʼlumki, “Tarixiy Muqimxoniy”da faqat Buxoro xonligi hududida yashovchi qabilalar tilga olinadi. Turdi Farogʻiy ham shu diyordagi turkiy qabilalarni nazarda tutadi. Vaholanki Buxoro xonligining hududi Zarafshon vohasi va Turkistonning bir boʻlagini tashkil etardi, undan tashqari Xiva xonligida, Fargʻona vodiysi, Toshkent vohasi, Dashti Qipchoq, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Oltoy, Kavkazda ham turkiy qabilalar

yashardi, bular “Tarixi Muqimxoniy”ga kirmay qolgan, Turdi Farog’iy esa bularni nazarda tutmagan.

Qozoqlar o’tmishda 300 dan, qoraqalpoqlar 130 dan, turkmanlar 100 dan ortiq qabila urug’lardan tashkil topgan ekan, uzoq etnik taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan, nufuzi jahatidan ulardan bir niche marta ko’psonli bo’lgan o’zbek xalqini 92 qabila-urug’dan tarkib topgan deb xulosa chiqarish hali tadqiqotalab masalalardan biridir.

## ZARDUSHTIYLIK.

**ANAXITA (NOHID)** – zardushtiylikda yer-suv, hosildorlik, farovonlik ilohasi.

**ARDVISURA** – zardushtiylikning daryo va suv xudosi. Avestoning yasht kitobidagi 5-bob unga bag’ishlangan (“Ardivisura-yasht”).

**ATRABON** – otashparastlarning ibodatxonalarida doimo yonib turadigan muqaddas olov – “azarhurra”ga o’tin tashlab, kulini olib turadigan koxin. Ibodatxona xizmatchisi.

**AVESTO** – o’rta fors tilidan “apastak” ya’ni “asos” deb tarjima qilinadi. O’rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Unda o’zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg’on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog’liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o’z ifodasini topgan.

Fanda zardushtiylik va uning muqaddas kitobi Avesto paydo bo’lgan hududni Midiya deb hisoblovchi “G’arbiy” nazariya va bu ta’limotning beshigi Baqtriya, Sug’diyona, Farg’ona deb tasdiqlovchi “Sharqiy” nazariya mavjud. Zardushtiylikni Xorazm bilan bog’lovchi nazariyaning ilmiy adabiyotda juda ko’p tarafdorlari bor. Avestoda zardushtiylikning muqaddas olovi – “azarhurra” birinchi marta yoqilgan, hamda Axuramazda Zardushtga namoyon bo’lgan mamlakat sifatida “Aryonam vayjo” eslatiladi. Avestoda keltirilgan geografik-iqlimiy sharoitlar ko’proq Xorazmga mos keladi. Avestoda Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o’tilgan. Birinchi o’rinda “Aryonam-vayjo” (Xorazm) tilga olinib, “go’zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi” deyiladi. Keyin “odamlarga va chorvaga boy Gava (Sug’d)”, “Qudratli va muqaddas Mouru (Marg’iyona)”, “Bayroqlari baland ko’tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)” ta’riflanadi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib Avesto Vatani O’rta Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Avesto dastlab 21 kitobdan iborat bo’lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Bu qadimgi qismlar Yasna, Visparat, Yasht va Videvdat deb nomlanadi.

**AVESTO TILI** – zamonamizgacha yetib kelgan Avesto qismlari milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan. Avesto boblari “pahlaviy” – o’rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iborat bo’lgan.

Zardushtiylik dini Ahmoniyalar saltanatining (mil. avv.VI-IV asrlar) davlat diniga aylantirilgan. Avesto matnlari miloddan avvalgi IV asrda to’planib, 21 kitob qilinadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha “Podsho Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo suvi bilan bitilgan bir nusxa bor edi. Iskandar otashxonalarni

vayron etib, ularda xizmat qiluvchilarni o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun ham Avestoning 3/5 qismi yo'qolib ketdi".

Sosoniylar (224-651) davriga kelib Avesto tili "o'lik", tushunarsiz bo'lib qolgan, ammo to'plamda eski so'zlar va tushunchalarning hammasi saqlangan. Avesto tili eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lgan va, olimlar fikriga ko'ra, qadimgi fors tiliga nisbatan ancha oldingi bosqichda, miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan.

Avesto birinchi bo'lib, fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan 1771-yilda tarjima qilinadi. Uning qo'lidagi Avesto qo'lyozmalari XIII asrga oid bo'lgan.

**AXRIMAN** – zardushtiylik dinida zulmat, ochlik, o'lim, gunoh va qabihliklar ilohi.

**AXURAMAZDA** – zardushtiylik dinning bosh xudosi. Ezgulik xudosi, insonga doimo yaxshilikni ravo ko'ruvchi ilohiy kuch.

**AZARXURRA** – zardushtiylik dini ibodatxonalarida doimiy yonib turadigan muqaddas olov.

**AZATA** – Avestoga ko'ra o'sha zamon (miloddan avvalgi I ming yillik) jamoasining a'zolari asosan azatalardan tashkil topgan. Erkin shaxs, ozod kishi ma'nosida ishlatilgan.

**DAX'YU** – Avestoda qabilalar ittifoqi. Dax'yu shuningdek, viloyat, mamlakat ma'nosini ham anglatgan.

**GOHLAR (GATLAR)** – Avestoning eng qadimgi qismi bo'lib, payg'ambar Zardushtning "muqaddas madhiyalari" va diniy nasihatlaridan iborat. Gohlarda Zardushtning arxaik (qadimgi) ibora va terminlari so'zma so'z Yasna kitobiga kiritilgan.

**GOVMARD** (forscha "gov" – sigir, "mard" – odam, yigit) – zardushtiylik falsafasiga ko'ra dastlabki yagona odam. Bu obraz qadimgi yunonlar mif (asotir)larida kentavr (boshi odam, tanasi buqa) tarzida uchraydi.

**KARSHARVAR** – zardushtiylar ta'limotiga ko'ra, dunyo yettita tabiiy iqlim, karsharvar – qismlarga bo'lingan. O'rta fors tilida "kishvar" mamlakat demakdir. Bu so'z-ibora keyingi davr xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotida "etti iqlim" tarzida ko'plab ishlatiladi.

**KAVI** – Avestoda mamlakat sardori, mamlakatni idora qilgan shaxs. Ya'ni diniy va dunyoviy hokimiyat egasi.

**MITRA** – zardushtiylik dinida quyosh va yorug'lik xudosi. Dehqonlar va chorvadorlar himoyachisi, hosil va ma'murchilik, to'kin-sochinlikni ta'minovchi, Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi asosiy vositachi bo'lgan. Mitra jangchi yigit qiyofasida tasvirlangan.

**NANA, NANI, NANAY** – Zardushtiyalarda hosildorlik xudosi.

**NMANA** – Avestoda katta patriarxal oila jamoasi.

**NOUS** – zardushtiyalarda odam suyaklari solinadigan ostadonlar saqlanadigan maxsus bino.

**OSTADON** – zardushtiyalarning dafn marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish, sandiqcha.

“**PATI**” – Avestoda “ota” ma’nosida ishlatilgan soʻz. Oila boshligʻi nmanapati, urugʻ oqsoqoli vispati, qabila boshligʻi zantupati, mamlakat sardori (hukmdori) dax’yupati deb yuritilgan.

**PAYGʻAMBAR** – forscha soʻz boʻlib “ezgulik haqida xabar beruvchi” degan ma’noni anglatadi.

**SASTAR** – Avestoga koʻra mamlakat hukmdori (kavi)ning harbiy sarkardasi. Mamlakat harbiy holatda boʻlgan kezlarda uning zimmasiga harbiy qoʻmondonlik vazifasi yuklatilgan. Sastar mamlakat okruglaridan birini boshqarishi ham mumkin boʻlgan.

**SPITAMA** – Paygʻambar Zardusht urugʻining nomi.

**VARA** – Avestoda chor atrofi mudofaa devorlari bilan oʻralgan mustahkamlangan qal’a-qoʻrgʻon. Dastlabki shahar, ilk shahar. Bu shahar oʻtroq dehqon va hunarmandlarni koʻchmanchi chorvadorlar hujumidan himoya qilish uchun qurilgan.

**VARNA** – zardushtiylikda gʻanimlar, zardushtiyarning dushmanlari yashaydigan yurtlar.

**VIDEVDAT** – Avestoning toʻrt kitobidan biri. Videvat Avestoning birmuncha yosh, lekin toʻliq saqlangan kitobidir. U 22 bobdan iborat boʻlib, unda “devlarga qarshi kurash” qoidalari haqida gap boradi.

**VIS** – Avesto da urugʻ jamoasi.

**VISPARAT** – Avestoning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qismlaridan biri. 21 kitobdan iborat boʻlib, unda zardushtiyarning bayramlar va diniy marosimlarda ijro etiladigan ayrim madhiyalari toʻplangan.

**VISHTASP** – zardushtiylik diniga kirib, Zardushtga homiylik qilgan Eron viloyatlaridan biri Bahdi (Baqtriya) hukmdori.

**XANCHAMANA** – Avesto kitobiga koʻra ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlarda oqsoqollar kengashi. Hozirgi tilimizda bu soʻz “anjuman” tarzida saqlangan.

**XAOMA** – zardushtiylik dinida muqaddas ichimlik. U zardushtiylik ibodatxonalari qoshida maxsus oʻsimliklardan tayyorlangan va ibodat kunlarida ichilgan.

**XARA** – zardushtiyarning muqaddas togʻi, dunyodagi eng baland choʻqqili togʻ.

**XUMO** – baxt va boylik ilohasi. Koʻzga koʻrinmas jannat qushi. Zardushtiyar eʼtiqodiga koʻra Xumo qushi kimning boshiga soya solsa, oʻsha kishi baxtli va boy boʻladi deb hisoblashgan.

**YASNA** – Avesto kitobining bizgacha yetib kelgan qadimgi qismlaridan biri. Yasna kitobi 72 bobdan iborat boʻlib, ulardan 17 tasi “Gohlar” paygʻambar Zardushtning “muqaddas madhiyalari”dan iborat.

**YASHT** – Avesto kitobining bizga yetib kelgan eng qadimgi qismlaridan biri. Yasht kitobi 21 bobdan iborat boʻlib, unda yozuvsiz zamonlardagi eroniy qabilalarning diniy tasavvurlari, afsonaviy qahramonlar va xudolarga bagʻishlangan madhiyalar toʻplangan. U qadimgi qabilalarning ogʻzaki ijodi asosida paydo boʻlgan.

**ZAND** – Avesto oyatlarining fors tilida bitilgan sharhlari.

**ZANTU** – Avestoda qabila jamoasi.

**ZARDUSHT** – zardushtiylik dinining bosh islohotchisi. Tarixiy shaxs. Zardushtning tugʻilgan joyi aniq emas. Olimlarning taxminiy faraz qilishlaricha u Turonzamin viloyatlaridan birida, yaʼni Xorazm yoki Sugʻdiyona da koinlar oilasida tugʻilib oʻsgan. U Spitama urugʻidan boʻlib, otasining simi Porushasp, onasining ismi Dugʻdova boʻlgan. Taxminan miloddan avvalgi 630-553-yillarda yashab oʻtgan. Dariy tilida “ushtra” tuya, “zarat” keksa sariq tuya maʼnosida. Zardusht – tuyachi, tuyachilar avlodidan degan maʼnoni bildiradi.

Zardusht oʻz zamonasining isteʼdodli shoiri, ilohiyot bilimdoni, faylasuf olimi boʻlgan. U yagona xudoga ishonishga jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtara oladi, deb hisoblar edi. Zardusht 40 yoshiga toʻlganda ezgulik xudosi Axuramazda nazariga tushadi va shundan boshlab Axuramazda dinining paygʻambariga aylanadi.

**CHINVOT** – zardushtiyalar eʼtiqodiga koʻra narigi dunyodagi qil koʻprik.

### **MAVZU: OʻZBEK DAVLATCHILIGI VA UNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI.**

**ABBOSIYLAR** – Arab xalifalari sulolasi boʻlib, bu sulolaga Muhammad Paygʻambar (570-632) ning amakivachchasi Abul Abbas as-Saffoh (749-754) asos solgan. Abbosiylar sulolasi besh asr yaʼni 749-yildan 1258-yilgacha hukm surgan. Xalifa Al Mansur (754-775) xalifalik poytaxtini Damashqdan Bogʻdodga koʻchirgan. Shuning uchun ham tarixiy adabiyotlarda Bogʻdod xalifaligi deb ham yuritiladi.

Movarounnahr yerlari ham xalifalikka boʻysungan. Somoniylar davridan boshlab (874-999) Movarounnaxr mustaqillikka erishib xalifalik tarkibidan chiqqan.

Abbosiylardan 38 kishi xalifa boʻlgan. Oxirgi xalifa Mustasimni (1242-1258) Chingizxonning nevarasi Xulaguxon 1258-yilda Bogʻdodni egallab taxtdan tushirgan. Abbosiylardan boʻlgan eng mashhur haliflar: Abuiabbos Saffox (750-754), Mansur (754-775), Mahdiy (775-785), Xorun ar Rashid (785-809), Amin (809-813), Maʼmun (813-833), ... Mustasim (1242-1258)

**AFRIGʻIYLAR** – Xorazmda 305-995-yillarda hukmronlik qilgan sulola. Afrigʻiylarning poytaxti dastlab Tuproqqalʼa, keyinchalik Kat shahri boʻlgan. Abu Rayxon Beruniy oʻzining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida afrigʻiylar sulolasiga oid 21 ta xorazmshoh nomini tilgan olgan.

712-yilda Xorazmni arablar egallashga muvaffaq boʻladilar. Xorazmda yangi din va islom madaniyati yoyila boshlaydi. Siyosiy hokimiyat arablar qoʻliga oʻtgan boʻlsada hudud boshqaruvida mahalliy feodal aristokratiyaning oʻrni saqlanib qolgan. Afrigʻiylar sulolasining oxirgi vakili Abu Abdulloh Muhammad 995-yilda Shimoliy Xorazm (Urganch) amiri Maʼmun ibn Muhammad tomonidan poytaxt Kat shahri egallangach taxtdan agʻdariladi.

**AFROSIYOB** – mifologik (afsonaviy) obraz. Afrosiyob Avesto kitobida Frangrasyan deb atalib, shohlik martabasini olish uchun kurashgan qahramon sifatida keltiriladi. Firdavsiy oʻzining “Shohnoma” asarida Eron shohlari bilan kurashgan Turon hukmdorini Afrosiyob deb ataydi. Mazkur asarda Afrosiyob Faridunning Tur ismli oʻgʻlidan tarqalgan deyiladi. Otasining ismi Pashang. “Shohnoma”da yozilishicha Afrosiyob Erondan kelgan Siyovushga qizi Farangizni berib oʻziga kuyov qilib oladi va makkorlik bilan uni oʻldiradi. Siyovushning oʻgʻli Kayxusrav Afrosiyobni oʻldirib otasining qasosini oladi.



Afrosiyob turkiy yozma yodgorliklarda turkiy xalqlar bobokaloni, turkiylar podshosi, bahodir, jahongir yo'lboshchi sifatida ulug'langan. Qoraxoniylar va saljuqiylar o'z sulolalari shaharasini Afrosiyobga bog'laganlar. Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy asarlarida Afrosiyob Alp Er To'nga bilan bir shaxs qilib ko'rsatiladi. Lekin ko'pchilik tadqiqotchilar bu fikrga qo'shilmaydilar.

**AFROSIYOB** – Samarqandning eng qadimgi qismi. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda bunyod etilgan. Afrosiyob tepaligi hozirgi Samarqandning Sharqiy chekkasida joylashgan bo'lib, uning maydoni 219 gektarni tashkil etadi.

Mifologik (afsonaviy) tasavvurlardan o'sib chiqan adabiy an'ana, ya'ni Afrosiyob Turon podshohi degan tushincha tufayli Samarqandning qadimiy qo'rg'onidan tashqari Toshkentdagi Mingo'rik xarobalari, Buxorodagi Romiton qo'rg'oni va boshqa tarixiy yodgorliklar xalq orasida hozirga qadar Afrosiyob nomi bilan bog'lanadi.

**AGEMA** – makedoniyalik Iskandarning maxsus otliq qo'shini.

**AHMONIYLAR** – miloddan avvalgi 558-330-yillarda Eronda hukmronlik qilgan sulola. Sulolaga miloddan avvalgi VIII asr oxiri VII asr boshlarida Elam yaqinidagi Parsua hududida yashagan qadimgi fors qabilalarining boshlig'i, oriylarning nufuzli sardorlaridan biri Ahmon asos solgan. Kir II (556-530) va Doro I (522-486) davrida O'rta Osiyo hududlari ham Ahmoniyar sulolasiga bo'ysundirilgan. Ahmoniyar saltanatiga Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn (356-323) miloddan avvalgi 330-yilda barham beradi.

Ahmoniyar sulolasining vakillari: Kir II (558-530), Kambiz (530-522), Doro I (522-486), Kserks I (486-465), Artakserks I (465-424), Kserks II (424), Sogdian (424-423), Doro II (423-404), Artakserks II (404-358), Artakserks III (358-338), Arses (338-336), Doro III (336-330).

**AJAM** – arablar o'zlari bosib olgan hududlar, jumladan Yaqin va O'rta Sharq, asosan hozirgi Eron hududlarini shunday ataganlar.

**AKINAK** – 30-40 santimetr keladigan hanjar. Qadimda (miloddan avvalgi I-ming yillik) ko'chmanchi cak-massaget va skif qabilalarida qo'l jangida sanchuvchi qurol sifatida ishlatilgan. U belbog'ga osib qo'yilgan. Yurganda va otga minganda xalaqit bermasligi uchun pastki uchi yonboshga, tizzadan yuqoriroqqa bog'lab qo'yilgan.

**ALEKSANDRIYA** – Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari oqibatida bosib olingan hududlarda barpo etilgan shaharlar. Aleksandriya nomidagi shahar Sharqning bir qancha mamlakatlarida mavjud bo'lib ular qadimda Aleksandriya (Misrda), Aleksandriya Esxata (chekka Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Turkmanistonda), Oks Aleksandriyasi, Aleksandriya Ariya (Eronda) deb nomlangan.

**ANSI** – Parfiya davlatining (mil. avv. 250 – milodiy 224 y.) qadimgi Xitoy manbalaridagi nomi.

**ANSORLAR** – islom tarixida 622-yilda Makkadan Madinaga ko'chib kelgan musulmonlarga va ularning payg'ambari Muhammad sallallohu alayhi vasallamga yordam bergan islom dinini qabul qilgan madinalik avs va hazraj qabilalarining a'zolariga nisbatan qo'llaniladigan nom. Ansorlar Makkadan ko'chib kelgan muhojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil etishgan.

**ANTI-K DAVR** (lotincha "antiquus" – qadimgi) – Oʻrta Osiyo tarixining miloddan avvalgi IV asrdan (yunon-makedon istilosidan) boshlab milodiy V asrga qadar boʻlgan davri. Jahon tarixida esa, qadimgi Yononiston (Gretsiya) va qadimgi Rim tarixining milodiy 476-yilgacha boʻlgan davri tushuniladi.

**ARAKS** – Amudaryoning qadimgi nomi. Yunon tarixchilari (Gerodot) asarlarida Amudaryo shunday nomlangan.

**ARK** – qadimda va oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo hududida shaharlarning hokimlar joylashgan ichki qismi, yaʼni "oʻrda". Arkda asosan hukumat idoralari, amaldorlarning uylari, devonxona, tanga zarb qilinadigan zarbxonalar joylashgan. Odatda ichki shahar – ark ham qalin mudofaa devori bilan oʻrab olingan.

**ARSHAKIYLAR** – hozirgi Turkmanistonning janubi va Eron hududlarida miloddan avvalgi 250-yildan milodiy 224-yilga qadar hukmronlik qilgan Parfiya davlatidagi sulola. Sulolaga dax qabilasining boshligʻi Arshak asos solganligi uchun shunday nomlangan. Arshakiylar davlatining ilk poytaxti Ashxabod yaqinidagi Niso shahri boʻlgan. Keyinchalik u Erondagi Ktesifonga koʻchirilgan. Parfiya davlati Mitridat II (123-87) davrida juda kuchayib, Sharqning qudratli davlatiga aylanadi. Salavkiylar qoʻshini tor-mor etilib, Eron va Mesopotamiya hududlari podsholikka qoʻshib olinadi. Parfiya davlatining gʻarbga tomon kengayishi Rim imperiyasi bilan urushni keltirib chiqaradi. Miloddan avvalgi 53-yilda Karri jangida Orod II (55-36) Rimning mashhur sarkardasi Karass qoʻshinlarini qaqshtatqich magʻlubiyatga uchratadi. Parfiya davlati Falastin, Suriya, Sharqiy Kichik Osiyoni ham ishgʻol etib zamonasining eng buyuk davlatiga aylanadi. Milodimizning birinchi asridan Parfiya davlati asta sekin inqirozga yuz tuta boshlaydi. Arshakiylar sulolasi Eron Sosoniylar sulolasi tomonidan 224-yilda tugatiladi.

Parfiya davlati podsholari: Arshak (250-247), Tiridat (248-211), Artaban I (211-191), Prianat (191-176), Fraat I (176-170), Mitridat I (170-138), Fraat II (138-128), Artaban II (128-123), Mitridat II (123-87), Fraat III (87-57), Orod II (57-36), Mitridat IV (128-147), Vologez III (148-192), Vologez V (208-222), Artaban V (222-224).

**BADAVIY** – sahroyi, koʻchmanchi arablar.

**BANDAR** – port; kema toʻxtaydigan joy.

**BANTAK** – ilk oʻrta asrlarda erkak qullar toifasi.

**BAQTRIYA** – geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy Oʻzbekiston (Surxondaryo), Janubiy-Gʻarbiy Tojikiston va Shimoliy Afgʻoniston yerlari kirgan. Ilk oʻrta asrlar davriga kelib qadimgi Baquriya yerlarida koʻchmanchi turkiy qabila – toxarlar kelib joylashishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

**BAQTRIYA YOZUVI** – miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunoncha boʻlgan. Miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib baqtriya yozuvi yaratiladi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya yozuvi naʼmunalari va soʻzlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari asosan miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrlarga taalluqlidir. Baqtriya tili va yozuvi uncha yaxshi oʻrganilmagan.

**BARGUSTIVON** – qadimda jangovar otlar ustiga yopiladigan yopinchiq, himoya vositasi. Otiar sovuti.

**BEHISTUN BITIKLARI** – Shimoliy Eronda, Kirmonshoh shahri yaqinida, tog' oraliqidan o'tgan qadimgi savdo yo'li yoqasidagi qoyaga ahmoniyalar hukmdori Doro I (522-486) ning qadimgi fors. elam va akkad tillarida yozdirgan zafarnomasi. Unda qadimgi Sharq va O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari (xorazmliklar, baqtriyaliklar, marg'iyonaliklar, saklar) haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**BOLASOG'UN** – Chu vohasida, hozirgi To'qmoq shahridan 24 km. janubiy-g'arbda joylashgan o'rta asr shahri. X asrda Qoraxoniylar, so'ngira Qoraxitoylar davlatining poytaxti bo'lgan. Mo'g'ullar uni Go-baliq (yaxshi shahar) deb ataganlar. XVI asrda qalmoqlar xuruji oqibatida vayron etilgan.

**BUDDAVIYLIK** – paydo bo'lishi tarixiy davriga ko'ra, birinchi jahon dini hisoblanib, bundan 2600 yil avval shimoliy-sharqiy Hindistonda vujudga kelgan. Uning asoschisi shahzoda Siddxartxa Gautamadir. Siddxartxa vafotidan so'ng Buddha (“Nurlangan”, “Oliy haqiqatga erishgan”, “Haqiqat najotkori”) deb atalgan. Buddaviylik dinining nomi ana shundan olingan.

Buddaviylik dinining muqaddas kitobi “Tripitaka” (“Uch savat donolik”) deb ataladi. Buddaviylik ta'limotining asosini “to'rt oliy haqiqat” tashkil etadi:

- 1) Azob-uqubatlarning mavjudligi haqidagi ta'limot.
- 2) Azob-uqubatlarning sabablari mavjudligi haqidagi ta'limot.
- 3) Azob-uqubatlarning bartaraf bo'lishi haqidagi ta'limot.
- 4) Azob-uqubatlardan qutilishning najot yo'li borligi haqidagi ta'limot.

Bu din eramiz boshlarida O'rta Osiyoga ham keng yoyila boshlaydi. Kushonlar saltanati (I-IV asrlar) va Eftaliylar davrida budda dini davlat dini darajasiga ko'tarilgan. Buddha dini O'rta Osiyo orqali Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston va Xitoyga yoyilgan.

**BUDUN** – Turk xoqonligi davrida ko'chmanchi chorvador aholi.

**BUXORXUDOT** – ilk o'rta asrlarda Buxoro mahalliy hukmdorlari. 707-708-yillarda Buxoroni arablar bosib olganidan keyin buxorxudot hukmdorlarligi o'z mavqeini yo'qotdi. VII asr oxiri VIII asr boshlarida Buxoroda Bidun, Tug'shoda, Buniyot va Sikun ismli buxorxudotlar hukmronlik qilganlar.

**BUYUK IPAK YO'LI** – G'arb bilan Sharqni bir necha asr mobaynida bir biriga bog'lab kelgan yo'l. Bu yo'l fanga 1877 yilda nemis olimi K. Rixtgofer tomonidan shunday nom bilan kiritildi. Unga qadar bu yo'l “G'arbiy meridional yo'l” deb atalib kelinardi. Buyuk Ipak yo'li 12 ming km. uzunlikda bo'lib, u Sariq dengiz sohillaridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Suriya orqali O'rta yer dengizi sohillarigacha davom etgan.

Qadimgi va o'rta asr davlatlarining hukmdorlari Ipak Yo'lidagi savdoni o'z nozoratiga olishga doimo harakat qilishgan. I-III asrlarda Ipak yo'li savdosi Kushonlar nazorati ostida bo'lgan bo'lsa, III-VII asrlarda O'rta Osiyo va Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati sug'diylarning qo'lida bo'lgan. VIII asrdan boshlab Ipak yo'lidagi savdo nazorati arablar qo'lida, IX-X asrlarda Somoniylar, XI-XII asrlarda qoraxoniylar, saljuqiylar va xorazmshohlar qo'lida o'tdi. XIII asrga kelib, Chingizxon ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'ylab nazoratni qo'lga kiritdi. Lekin bu davrga kelib Buyuk Ipak yo'lidagi qizg'in savdo-iqtisodiy olaqalarga putur yetgan edi. XIV asrning 70-yillaridan Amir Temur siyosiy hokimiyatni qo'lga olib, qudratli

saltanatga asos solgach, el-yurtda barqarorlik ta'minladi. Buyuk Ipak yo'lidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yangidan rivojlanish pallasiga kirdi.

Buyuk ipak yo'lining nufuzi XVI-XVII asrlarga kelib pasaya boshladi. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli savdo-sotiq quruqlik orqali emas, suv yo'li orqali amalga oshirila boshlandi. Chunki dengiz orqali savdo ancha xavfsiz va nisbatan qulay edi. Osiyo mamlakatlaridagi o'zaro urushlar va siyosiy beqaror vaziyat ham Buyuk ipak yo'lining inqiroziga sabab bo'lgan.

Ipak yo'li birgina iqtisodiy ahamiyat kasb etmay, balki u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi.

**BUG'ROLAR** – X-XI asrlarda qoraxoniylar xoqonligining g'arbiy qismi (Yettisuv, Qoshg'ar va Janubiy Qozog'iston)ni hoqon nomidan idora qilgan sulola hukmdorlarining laqabi. “Bug'ro” ikki o'rkachli tuyadir. Bug'ro qoraxoniylar davlatining tashkil topishida muhim rol o'ynagan yag'mo qabilalarining totemi – ajdodi ibtidosi hisoblangan.

Abdulkarim Sotuq Bug'roxon va uning nabirasi Xorun ibn Muso davrida Yettisuv va Qoshg'ardagi ko'pchilik turkiy xalqlar islom dinini qabul qiladilar. Xorun ibn Muso Somoniylar davlatida kuchayib ketgan feodal kurashdan foydalanib. 992-yida Movarounnahrni egalladi.

**DABIR** – o'rta asrlarda kotib, elchi, sarkotib ma'nolarida qo'llanilgan. Mamlakat hukmdorining shaxsiy kotibi. U din, tarix, adabiyotni puxta bilishi, ajoyib uslubda yozishi va voqeani chiroyli so'zlar bilan ifodalab berishi kerak bo'lgan. Hukmdorning boshqa hukmdorlar bilan yozishmalari yuqori saviyada bitilishida dabirlarning roli va mas'uliyati katta bo'lgan. U dabiristonda ta'lim olgan.

**DABIRISTON** – 1) Podsholik huzuridagi mirzaxona. Bu yerda maxsus kotiblar, ya'ni dabirlar tomonidan davlat maktubi, hujjatlari tuzilgan va tahrir qilingan.

2) O'rta asrlar davrida Movarounnahr shaharlaridagi eski maktab. Bunday maktablarda bolalar ozmi-ko'pmi dunyoviy umumiy ma'lumot olishgan. Odatda mashhur shoirlarning devonlarini o'qib chiqishgan, yozish va hisoblashni o'rganganlar.

**DABUSIYA** – Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan qo'rg'on (qal'a) lardan biri.

**DAVAN DAVLATI** (qadimiy xitoycha “Dayuan”) – Farg'ona vodiysidagi qadimgi davlat. Miloddan avvalgi II-I asrlarga oid Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat – Davan haqida ma'lumotlar keltirilgan. Davan shahar va voha hokimlarining erkin uttifoqidan iborat davlat bo'lgan. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushanda bo'lgan. Ba'zi olimlar bu shaharni hozirgi O'zgan deb xisoblashsa, boshqa olimlar Koson yoki Qo'qon shahri deb taxmin qiladilar. Xitoy manbalarida Davanning poytaxti Ershi deb nomlangan. Podsho hokimiyati qabila zodagonlaridan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan cheklab qo'yilgan. Oliy kengash hukmdorni podsholikdan tushirishi va xatto o'lim jazosiga hukm qilishi mumkin bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda milodiy III asrgacha uchraydi.

Chjan Szyanning ma'lumotlariga ko'ra Davan aholisi 300 ming kishini tashkil etgan va unda 70 dan ortiq katta-kichik shaharlar bo'lgan. Davanda boqib ko'paytiriladigan “osmon tulporlari” – argumoqlari Sharqda juda mashhur bo'lgan.

**DAVLAT** – bu sinfiy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish vositalari egalarining umumiy manfaatlarini ta'minlovchi va uni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat jamiyati urug'-qabilachilik munosabatlari, urf-odat, rasm-rusmlari kabi axloqiy me'yorlar bilan boshqarilgan bo'lsa, sinfiy jamiyatda jamiyat a'zolari davlatning (hukmron sinfning) yozma erki bo'lgan (yozib qo'yilgan) huquq – qonunlar orqali boshqariladigan bo'ldi. Demak, davlat bu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy mexanizmdir. Davlat o'z faoliyatini organlari (amaldorlar apparati, sud, qo'shin va h.k.) orqali yuritadi.

Ilk davlat birlashmalari miloddan avvalgi IV ming yillikda qadimgi Mesopotaniya va Misrda vujudga kelgan. Vatanimiz hududida dastlabki davlat birlashmalarining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

**DEHQON** – ilk o'rta asrlarda katta yer egasi, hukmron tabaqa. "Qishloq hokimi" degan ma'noni anglatadi. O'rta asr yevropasidagi feodallar tabaqasiga to'g'ri keladi.

XI-XII asrlarga kelib (Qoraxonivlar davrida) dehqon atamasi ilgarigi nufuzli boy yer egasiga emas, balki oddiy qishloq xo'jaligining erkin ziroatkor jamoasi a'zolariga nisbatan qo'llanila boshlangan.

**DIADOXLAR** – Makedoniyalik Iskandar vafotidan so'ng uning davlatini qismlarga bo'lib, o'z qo'llariga kiritgan lashkarboshilar, "merosxo'rlar".

**DING** – Movarounnahrning dehqonchilik hududlarini ko'chmanchilar bosqini va talonchiligidan ogoh bo'lib turish maqsadida chegara hududlarda qurilgan kuzatish minoralari.

**DINOR** – bir misqol ya'ni 4,8 gramm og'irlikda so'qilgan oltin tanga.

**DIRHAM** – misqolning (4,8 gr.) o'ndan yetti qismi, 3,36 grammga teng kumush tanga.

**DODARSHISH** – miloddan avvalgi 522-yilda Doro I ga qarshi Marg'iyonada ko'tarilgan Frada qo'zg'olonini bostirgan Baqtriya satrapi. Bu haqdagi ilk ma'lumot podsho Doro I ning Behistun qoyasiga yozdirgan bitiklarida berilgan.

**EFTALIYLAR** – O'rta Osiyo va unga yaqin mamlakatlar xalqlarining etnogenezi va tarixida muhim rol o'ynagan yirik turkiy tilli qabilalar uyushmasi. Ularning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bayon etilgan. A.N. Bernshtamning fikricha, eftaliylar tarkib topgan yerlar o'rta va quyi Sirdaryo hamda Amudaryoning yuqori havzasidir. S.P. Tolstov esa ularni Orol bo'yalaridan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Garchi eftaliylarning tarkib topish joyi qat'iy aniqlanmagan bo'lsa-da, ular turkiy etnik elementlar aralashgan O'rta Osiyolik qabilalar negizida shakillanganligi ma'lum. Taxminan 457-yili Vaxshunvor (Axshunvor) Eftalon boshchiligidagi eftaliylar Chag'oniyon (Surxondaryo viloyati), Badaxshon va Toharistonda o'z hokimiyatini o'rnatadilar. 563-567-yillarda janubdan Eron sasoniylari, shimoldan Turk hoqonligi zarbasiga uchragan Eftaliylar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng tamomila barbot bo'ladi.

**ELLINLASHTIRISH** – qadimgi yunonlar o'zlarini ellinlar, yurtini esa Ellada deb atashgan. Ellinlashtirish deganda yunon-makedon istilosidan so'ng Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi va aralash madaniyatning – yunon va mahalliy Sharq madaniyatining tashkil topishi jarayoni tushuniladi.

**ELOQXONLAR** – Movarounnahr va Yettisuvda 999-1212-yillarda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar hukmdorlarining unvoni. Eloqxonlar aslida Yettisuv va Qoshg'arda yashagan yag'mo turk qabilasiga mansub bo'lgan. Qoraxoniylardan Nasr ibn Ali 999-yilda Buxoroni egallaydi va Eloqxonlar hukmronligiga asos soladi.

**ERSHI** – miloddan avvalgi III – milodiy II asrlarda mavjud bo'lgan Davan (Farg'ona) davlati poytaxtining xitoy manbalaridagi nomi.

**FALANGA** – og'ir nayzalar bilan qurollangan piyoda askarlarning harbiy tartib tuzilishi. Tarixda ilk bor bunday qo'shin spartaliklar tomonidan tuzilgan. Makedoniya falangasi safining uzunasi 26 ta qator jangchilardan iborat bo'lgan.

**FARSAH** – Sharqda, jumladan O'rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelingan masofa o'lchov birligi. Bir farsah 9-12 ming qadamga yoki 6-8 km. ga teng bo'lgan.

**FARG'ONA** – Ustrushona viloyatining shimoliy-sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan tarixiy viloyat. Hozirgi Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi. Farg'ona dastlab tarixchi Gerodotning "Tarix" asarida "parikaniylar yurti" nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi sug'd manbalarida "Fraganik" shaklida yozilib. "tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik" ma'nosini anglatadi. Xitoy manbalarida "Dayuan" ya'ni "Davan" deb yuritilgan. Dayuan ham xitoy tilida "tog'lar orasidagi vodiy" ma'nosini beradi. Farg'ona tarixiy hududida tashkil topgan ilk davlat birlashmasi Davan davlati bo'lib, u miloddan avvalgi III asrdan – milodiy II asrlar oralig'iga qadar mavjud bo'lgan.

**GIPPARX** – Iskandar Zulqarnayn davrida Ahmoniylar davlatidagi satrap o'rniga tayinlangan viloyat hokimi.

**GIRKAN** – Kaspiy dengizining qadimgi nomi. Dengizning sohilbo'yi janubiy hududlari esa Girkaniya deb yuritilgan.

**GUVAKOR** – ilk o'rta asrlarda sug'dda savdogarlar tabaqasi.

**GO'RXON** – Qoraxitoy hukmdorlarining faxriy unvoni.

**HARAM** – podsho, xonlarning xos joyi, ichkari hovli, boshqalar uchun kirish man etilgan joy.

**HARKON (JURJON)** – Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomi. Dengizning janubiy sohilbo'yi hududlari Gurgon yoki Jurjoniya deb yuritilgan.

**HAYILBOSHI** – otliq askar bo'linmasining boshlig'i. Somoniylar va Saljuqiylar davrida saroy g'ulomlaridan tuzilgan otliq gvardiya boshlig'i.

**HIJRIY YIL XISOBI** (arabcha "hijrat" – ko'chmoq so'zidan) – musulmonlar yil hisobi. Muhammad Payg'ambarning Makkadan Madinaga 622-yil 16-iyulda ko'chishi bilan bog'liq. Shu sanadan musulmon kalendarining birinchi yili boshlanadi.

Hijriy yilni milodiy yilga o'tkazish uchun uni 0.97 ga ko'paytirib yaxlitlash va 622 ni qo'shish kerak. Masalan: Abu Rayxon Beruniy hijriy 362-yilda tug'ilgan.  $362 \times 0,97 = 351,14$ ;  $351 + 622 = 973$ ) Demak, Beruniy tavalludi milodiy 973-yil.

Milodiy yilni hijriy yilga o'tkazish uchun undan 621 ni ayirish va chiqqan sonni 1,03 ga ko'paytirish va yaxlitlash lozim. Masalan: Alisher Navoiy tavallud topgan 1441-yilni hijriyga o'tkazish uchun quyidagi amal bajariladi:

$$1441 - 621 = 820. 820 \times 1,03 = 844,6.$$

Barcha natijalar taqribiy, bir yilga farq qilish mumkin.

**HOQON** – turk. xitoy. mo'g'ul hukmdorlari unvoni. Xoqon atamasi birinchi marotaba 312-yilga oid bo'lgan Xitoy yilnomalarida uchraydi. Dastlab jujan qabilalari boshliqlari hoqon deb atalgan. VI asr o'rtalaridan Turk hoqonligi hukmdorlari ham hoqon nomini olgan, keyinchalik boshqa turk qabilalari hukmdorlari ham o'zlarini xoqon deb atay boshlaganlar.

**ILOQ** – hozirgi Toshkent viloyatining janubi, Ohangaron daryosi havzasining ilk o'rta asrlardagi nomi. Tunkat va Suyurlitepa Iloqning yirik shaharlari hisoblangan.

**IQTO'** – o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlari evaziga in'om qilingan chek yer. Odatda iqto' umrbd berilmay, hukmdor uni istagan vaqtda qaytarib olib, boshqa birovga berishi mumkin bo'lgan.

**“ISKANDARI SONIY”** – Muhammad Xorazmshohni (1200-1221) saroy mulozimlari shunday nom bilan ulug'lashgan.

**ITIL** – Volga daryosining qadimgi va o'rta asrlardagi nomi.

**IXSHIDLAR** – ilk o'rta asrlarda Sug'd va Farg'ona hukmdorlari unvoni.

**JAYXUN** – Amudaryoning o'rta asrlardagi nomi. Eng qadimiy nomi O'kuz (turkiycha “katta daryo”). Qadimgi yunonlar uni buzib Oksus (Oks) deb ataganlar.

**JIHOD** – musulmonlarning g'ayri dinlarga, ya'ni kofirlarga qarshi olib borgan muqaddas urush. Jihodda halok bo'lgan kishi shahid hisoblanib, unga jannat va'da etilgan. G'alaba qilgan musulmon esa g'oziy hisoblanib, har qanday gunohlaridan xalos etilgan.

**JIZ'YA** – dastlab Arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida shariat me'yorlariga ko'ra musulmon bo'lmagan fuqarolardan olinadigan jon solig'i. Jiz'ya balog'atga yetganlardan olingan. Qariyalar va ayollar, bolalar, qul va gadoylar jiz'yadan ozod etilgan.

**JUBBA** – pishshiq qilib tikilgan, uzun va yenglik chopon. O'q o'rtnas kamzul.

**KADIVAR** – qishloq zirotkor jamoasining feodal dehqonlarga qaram bo'lib qolgan, yersiz, qullik asoratiga tushirilgan qismi.

**KAMPIRAK** – ilk o'rta asrlarda Buxoro vohasini ko'chmanchilar xujumidan himoya qilish maqsadida qurilgan, 300 km dan oshiqroq masofaga cho'zilgan mudofaa inshooti.

**KATAPULT (MANJANIQ)** – qadimda dushman mudofaasini, qal'a devorlarini buzish uchun ishlatilgan tosh otar qurol, mexanizm.

**KASHOVARZ** – ilk o'rta asrlardagi oddiy, erkin ziroatchi qo'shchilar.

**KIDARIYLAR** – milodiy V asr boshlarida Movarounnahrning ichki viloyatlariga O'rta Osiyoning shimoliy-sharqidan ko'chib kelgan turkiyzabon ko'chmanchi qabilalar.

**KIROPOLIS (KURUSHKAT)** – rivoyatlarga ko'ra, Kir II qurdirgan shahar. Xarobalari O'ratepa yaqinidagi Nurtepa o'rnida joylashgan.

**KUDUNGAR** – matolarga oxor (bo'yoq) beruvchi hunarmand.

**KUSHON DAVLATI** – milodimizning I-IV asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston, shimoliy-g'arbiy Hindiston va shimoliy-sharqiy Eron hududlarida hukmronlik qilgan sulola. O'zbek davlatchiligi tarixida Kushonlar davlati saltanat (imperiya) darajasiga ko'tarilgan dastlabki davlat birlashmasidir.

Kushon davlatiga shimoliy-sharqdan Yunon-Baqtriya davlatiga miloddan avvalgi 140-130-yillarda bostirib kirgan yuechji qabilalari asos solganlar. Sug'diyona va Baqtriya kelib o'rmashgan yuechjilar Hyumi, Shuanji, Guyshtuan, Xise va Dumi kabi yirik, bir-biriga qarindosh xonadonlardan iborat ediki, ular o'rtasida hokimiyat uchun kurashda Guyshtuan xonadoni g'olib chiqadi va Guyshtuan (Kushon) podshohligiga asos solinadi.

Kushon podsholarining shajarasi qabila sardori Geraydan boshlanadi. Uning vorisi Kudzulla Kadfiz (15-51) va Vima Kadfizlar davrida (51-78) kushon podsholari mustaqil davlat sifatida o'z nomlarida mis, oltin va kumush tangalar zarb etishni boshlaydilar. Kanishka davrida (78-123) Hindistonning janubiy viloyatlari, Xorazm, Choch, Farg'ona va hatto G'arbiy Xitoy ham Kushon davlati tarkibiga kiritiladi. Buddizm dini davlat diniga aylantiriladi. Davlatning poytaxti Dalvarzintepadan (Surxondaryo viloyati) Peshavor (Hindiston-Pokiston)ga ko'chiriladi. Kanishka podshohlik qilgan davrda Kushon saltanati Osiyodagi eng yirik davlat darajasiga ko'tarilgan. Numizmatik manbalarda Kanishkadan keyin Vasishka, Xuvishka, Vasudeva kabi podsholarning nomlari saqlangan bo'lib, ular ushbu davlat tarixida keskin ajralib turadigan iz qoldirishmagan.

Milodiy IV asrning oxiriga kelib ichki nizolar, g'arbdan sosoniylar davlati va shimoldan ko'chmanchi turkiy qabilalar bergan zarbalar natijasida Kushon podshohligi batamom yemiriladi va barham topadi.

**KO'XAK** – Zarafshon daryosining o'rta asrlardagi nomi.

**MALIKSHOH** – ilk o'rta asrlarda Tohariston hukmdorlarining unvoni.

**MARKAZLASHGAN DAVLAT** – mamlakatning barcha hududida yagona hukmdor hokimiyati o'rnatilgan davlat. Tarixda Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Amir Temur davlatini markazlashgan davlatlar qatoriga kiritishimiz mumkin.

**MAROQANDA** – Samarqandning yunon tarixchilari asarlaridagi nomi.

**MARG'IYONA** -- hozirgi Mari shahri atrofidagi tarixiy hudud. Murg'ob daryosi bo'ylari. Parfiya bilan Sug'diyona orlig'ida joylashgan.

**MAYMURG'** – ilk o'rta asrlarda Sug'dning uncha katta bo'lmagan hududi. Xitoy manbalariga uning ma'muriy markazi – Boshda shahri Samarqanddan janubiy-sharq tomonda joylashgan deyiladi. Bu hozirgi Kuldortepa yodgorligi o'rniga to'g'ri keladi. Zarafshon daryosi yuqori oqimida joylashgan Varagsar to'g'oni Samarqand vohasining bosh suv inshooti sifatida Maymurg'ning alohida mavqeini belgilab bergan.

**MAG'RIB** – G'arb. G'arbiy va Shimoliy Afrika ya'ni Tunis, Jazoir va Marokashning o'rta asrlardagi umumiy nomi. Mashriq – Sharq.

**MISQOL** – o'rta asrlarda 4,8 grammga to'g'ri keladigan og'irlik o'lchov birligi.

**MONIYLIK DINI** – Vatanimiz hududlarida zardushtiylik dini bilan bir qatorda islom dinidan oldin mavjud bo'lgan dinlardan biri. Asoschisi Moniy ibn Fatak (216-277). U Eronning Taysafun (Ktesifon) shahri yaqinida tug'ilgan. Moniy Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston bo'ylab safar qilib, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanlik dinlari va boshqa diniy ta'limotlar bilan tanishib ularning ba'zi tomonlarini o'zida singdirgan Moniylik diniy ta'limotini yaratadi. Bu ta'limot boshqa mamlakatlarda ham qiziqish uyg'ota boshlaydi. Jumladan, sosoniylar shohi Shopur I



(239-272) bu ta'limotni quvvatlab, Moniyni saroyga taklif etadi. Moniy 242-yilda o'z ta'limotini birinchi marta bayon etib va'z o'qiydi. Shopur I ushbu ta'limotni xristianlik va boshqa mahalliy dinlarga qarshi qo'ymoqchi bo'ladi. Biroq Zardusht koxinlari bu dini ta'limotga keskin qarshi chiqadilar. Moniy muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Erondan qochishga majbur bo'ladi va o'z g'oyalarini O'rta Osiyoda targ'ib qila boshlaydi.

Moniy ta'limotida borliqning asosini ikkita qarama-qarshi dunyo – yorug'lik, yaxshilik, ruh olami bilan zulmat, yovuzlik, materiya olamining o'zaro kurashi tashkil etadi. Birinchi olamda xudo, ikkinchisida shayton, iblis hukm suradi. Ikki olam kurashi falokat bilan tugaydi, natijada materiya halokatga uchraydi, ruh ozodlikka chiqadi. Moniy ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosidir. Moniylik hayotda zohirona yashashni targ'ib qilgan. Ular go'sht iste'mol qilmasliklari, foni dunyoning o'tkinchi moliga qo'l urmasliklari lozim bo'lgan. Moniy tarafdorlarining shiori "Kimki boy bo'lsa, keyin qashshoq bo'lib sadaqa so'raydi va abadiy azob chekadi".

Moniy 273-yilda Eronga qaytadi va shoh Bahrom I (273-276) ning topshirig'iga ko'ra hibsga olinib, zindonband qilinadi. 277-yilda qatl etiladi.

Moniylik ta'limoti Moniy o'limidan keyin keng tarqaladi. U O'zbekiston, Sharqiy Turkiston hududlaridan tashqari, Italiya Ispaniyadan to Xitoygacha yoyilgan. VIII asrda bu din Uyg'ur xonligida hukmron dinga aylanadi. Ammo keyinchalik moniylik islom dini ta'qibiga uchraydi va asta sekin barham topadi.

Moniy o'rta asr Sharq she'riyatida mashhur naqqosh va rassom sifatida ham ko'p tilga olingan.

**MOVAROUNNAHR** – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'ncsi "daryo orqasidagi yer" degan ma'noni anglatadi. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolga qarab cho'zilgan O'rta Osiyo yerlarini Movarounnahr deb ataganlar.

**MUQANNA** (arab. – niqobdor ) arab istilochilariga qarshi qo'zg'olon (769-783 yillar) rahbari Xoshim ibn Hakimning laqabi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Xoshim ibn Hakim hokimiyat uchun kurash jarayonida zindonga tashlanadi. Zindonda u kasallikka chalinib, yuziga chechak toshib, yuzi xunuk bo'lib qoladi. Yuzini xalqdan yashirish maqsadida oq niqob taqib olgan va shuning uchun muqanna laqabini olgan. Uni Xoshim ul a'var – bir ko'zli Hoshim deb ham atashgan.

**MUSHRIF** (arab. – yuqoridan turib ko'ruvchi) - o'rta asrlarda o'ziga xos davlat nazoratchisi, mushrifi kalon – bosh davlat nazoratchisi.

**NAF** – ilk o'rta asrlarda Sug'd shahar va qishloq aholisi.

**NAUTAKA** – Qashqadaryo vohasining sharqida joylashgan qadimgi viloyat.

**NAXSHAB** – Qashqadaryo vohasi etagining qadimgi nomlanishi (hozirgi Qarshi vohasi). Naxshab haqidagi dastlabki ma'lumotlar V asr Xitoy yilnomasida qayd etilgan.

**NISHOPUR** – Mashhaddan g'arbda, shimoliy-sharqiy Eronning yirik shaharlaridan biri. Tohiriylar davlatining (821-873) poytaxti, IX-XIII asrning birinchi choragida Xurosonning markaziy shahri. Uch marta 1153-yili ko'chmanchi o'g'uzlar, 1221-yili mo'g'ullar talofati va 1250-yilgi qattiq zilzila oqibatida tamoman vayron bo'lgan. Yangi Nishopur eski Nishopurning g'arbiy tarafida barpo qilingan.

**OKS** – Amudaryoning qadimgi nomi. Dastlab Makedoniyalik Iskandarning mil. avv. 330-327-yillarda Oʻrta Osiyoga yurishlarini yoritgan yunon-rim tarixchilari asarlarida tilga olinadi. Yozma manbalarda ilk oʻrta asrlarga kelib Oks nomi deyarli uchramaydi. Soʻzning etimologiyasiga kelganda, Maxmud Qoshgʻariy Oʻkuz – turkiycha “katta daryo” degan maʼnoni beradi deb yozadi. Qadimgi yunon-rim tarixchilari Amudaryoning ushbu turkiycha nomimi buzib Oks (Oksus) deb atagan boʻlishlari mumkinligi taxmin qilinadi.

**OROMIY YOZUVI** – oromiylar miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida Gʻarbiy Osiyoda (Suriya, Falastin, Mesopotamiyaning shimoliy-gʻarbida) yashagan xalqlar boʻlib, ular finikiy alifbosi asosida oʻz alifbolarini yaratganlar. Harfli yozuv oʻzlashtirilishi oson boʻlganligi sababli bu yozuv boshqa hududlarga ham tarqala boshlangan. Ana shu oromiy yozuvi asosida Sharq xalqlari alifbosi shakllangan. Oromiy yozuvlaridan qadimgi fors yozuvi, undan esa qadimgi baqtriya, xorazm va sugʻd yozuvlari kelib chiqqan. Oromiy yozuvi va unga asoslangan boshqa yozuvlar alfavit 22 ta undosh harf-belgi asosida qurilgan.

Sugʻd yozuvi asosida qadimgi turk yozuvi paydo boʻlgan. Undan uygʻur, moʻgʻul va manjur yozuvlari oʻsib chiqqan. Uygʻur yozuvidan boshlab esa, soʻz tuzilishida unli harflarni ifodalash ham boshlangan. Bu tajribadan moʻgʻul va manjur yozuvlari foydalanib, oʻz yozuvlariga unli tovushlarni kiritishgan.

**OZOD** -- ilk oʻrta asrlarda Sugʻd mulkdor zodagonlari tabaqasi.

**OZODKOR** – ilk oʻrta asr Sugʻd hunurmandlari tabaqasi.

**PARAK** -- Chirchiq daryosining ilk oʻrta asrlardagi nomi.

**PARFIYA** – geografik hudud. Turkmanistonning janubi va shimoliy-sharqiy Eron yerlariga toʻgʻri keladi.

**PARFIYA DAVLATI** – qarang: Arshakiylar sulolasi.

**POLITIMET** – Zarafshon daryosining qadimgi nomi. Tilshunos olimlar fikricha Zarafshon nomi Avesto tilida yorugʻ, oydin, ravshan maʼnosuni beruvchi “raoshana” soʻzidan kelib chiqqan. Zarafshon soʻzini qadimgi yunon tarixchilari oʻz tillariga oʻgirib Politimet deb ataganlar.

**QADIMGI BAQTRIYA DAVLATI** – antik davr tarixchilari (Miletlik Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Diodor) asarlarida eslatiladigan, Vatanimiz hududida vujudga kelgan eng dastlabki davlat birlashmalaridan biri. Yozma manbalardagi keltirilgan maʼlumotlar va keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qoʻlga kiritilgan ashyoviy dalillarga asoslanib, qadimgi Baqtriya podsholigi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda mavjud boʻlgan deb xulosa chiqarish mumkin. Poytaxni Baqtra (yunon tarixchilari asarlarida Zariasp). Knidlik Ktesiy (V-IV asrlar) kitobida Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari bayon etilib, u Baqtriya aholisining koʻpligi va katta shaharlarga boyligini taʼkidlab oʻtadi. Tarix otasi Gerodot Ahmoniyar podshosi Kir II ning harbiy yurishlari haqida yozib, – “Kir II Lidiyani oʻziga tobe etgach uning oldida Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar turar edi”, deb maʼlumot keltiradi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki. Gerodot Baqtriyaliklarni oʻsha paytning qudratli davlatlari Misr va Bobil bilan bir qatorda qoʻyadi. Tarixchi V. Geyder Qadimgi Baqtriya oʻzining kuch-qudrati jihatidan boshqa yon qoʻshnilaridan ancha ustun turib, ular orasida alohida mavqeni egallagan deydi.

Tarixchi olimlarning fikriga ko'ra Baqtriya podsholigi hududi qadimgi Baqtriya o'lkasiga qaraganda birmuncha kattaroq hududni egallagan. Arxeologik va yozma manbalarga qaraganda Baqtriya tarkibiga garchi har doim bo'lmasa ham bir muddat Marg'iyona va Sugdiyona hududlari ham kirgan. Baqtriyaning tabiiy boyliklari uning qo'shnilariga ham ma'lum bo'lgan. Jumladan, qadimgi muallif Diodor Baqtriya podshosi Oksiartning juda boy xazinasi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Badahshon la'li Sharqda juda qadrlanib, Misr fir'avnlari va Bobil podsholarining saroylarini bezashda keng foydalanilgan.

Qadimgi Baqtriya podsholigi Ahmoniylar davlati tomonidan tugatiladi. Olimlar buni ko'proq Kir II ning miloddan avvalgi 545-540-yillardagi O'rta Osiyo hududlariga yurishlari bilan bog'laydilar.

**QADIMGI XORAZM DAVLATI** – O'rta Osiyoda Ahmoniylar istilosiga qadar mavjud bo'lgan Vatanimiz hududidagi ilk davlat birlashmalaridan biri. Qadimgi Xorazm davlati haqida yozma ma'lumotlar juda kam bo'lib, bular asosan antik davr mualliflari tomonidan berilgan uzuq-yuluq ma'lumotlargina xolos. Qadimgi Xorazm davlati haqidagi dastlabki ma'lumotni Miletlik Gekatey va Gerodot beradi. Gerodot – “Osiyoda hamma tomoni tog'lar bilan o'ralgan o'lka bor. Bu tog'lar beshta daraga ega. Bir zamonlar bu hududlar xorasmiyaliklarga tegishli bo'lgan. Hozir esa bu hududlarda xorasmiyaliklardan tashqari girkanlar, parfiyaliklar, saranglar, tamanaylar ... yashashadi. Bu o'lkadan baland tog'lardan suv oluvchi katta Akes daryosi oqib o'tadi. Dastlab daryo beshta tarmoqqa bo'linib, bu yerda yashovchi xalqlarning yerlarini sug'oradi”, – deb yozadi. Gerodot bergan mazkur ma'lumot ko'p yillardan beri qator olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi va hozirgacha bu “Katta Xorazm” davlati haqida turlicha fikrlar bildirilib kelinmoqda.

Ba'zi olimlar Gerodot yozgan Akes bu Amudaryo desalar (S.P. Tolstov, Ya.G'ulomov), ba'zilar uni Tajan (I. Markvart) deb hisoblashadi.

Tarixiy yozma manbalar (Avesto) va antik davr tarixchilari asarlarida keltirgan geografik joy nomlarini solishtirgan holda olimlarning aksariyati Qadimgi Xorazm davlati hozirgi zamonaviy Xorazm vohasidan ancha katta hududni o'z ichiga olishini va bu davlat birlashmasining markazi birmuncha janubiy o'lkalar (Marv-Hirot)ga to'g'ri kelishini ta'kidlashadi.

Avestoda Vanhvi Daiti daryosi bo'yidagi Ar'yanam Vaychax o'lkasi va u yerda qish uzoq davom etishi haqida ma'lumot bor. I. Markvartning fikricha Avestodagi Ar'yanam-Vaychax (Ariylar o'lkasi) bu “Katta Xorazm” bilan bir narsa, Vanhvi Daiti esa bu Amudaryodir. Bu faraz hozirda ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilingan.

“Katta Xorazm” davlati haqida birmuncha batafsilroq ma'lumotni arxeologik tadqiqotlar natijalari beradi. XX asrning 40-yillaridan hozirgi Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida S.P. Tolstov rahbarligida olib borilgan keng ko'lamli ekspeditsiyalar natijasida juda ko'p moddiy ashyoviy manbalar topildi. Bu miloddan avvalgi VIII-IV asrlardagi Qadimgi Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot haqida ko'plab yechimini kutayotgan savollarga javob topib berdi. Arxeologlar tomonidan topib o'rganilgan o'ndan ortiq qadimiy shahar qoldiqlari, qal'alar, shuningdek, yirik sug'orish kanallarining ko'lami bu hududda davlatchilik mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Zero, bu darajada keng ko'lamli yirik qurilishlarni

aholini umumiy safarbarlikka jalb qila oladigan siyosiy hokimiyat mavjud bo'lganidagina barpo etish mumkin edi.

Qadimgi Xorazm davlatining Ahamoniylar davlatiga bo'ysundirilgani haqida biron bir tarixiy yozma ma'lumot topilmagan. Aftidan Xorazm Ahmoniylar saltanatiga ittifoqchi davlat maqomida qisqa vaqt bo'ysungan. Lekin Xorazm mil. avv. V asr oxiri – IV asr boshlarida o'zining mustaqilligini qo'lga kiritadi va sakkis asrdan oshiq davr mobaynida mavjud bo'ladi.

**QADIMGI XORAZM YOZUVI** – O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlaridan biri. Xorazmdagi Katta Oybuyirqal'a shahar xarobasidan topilgan xum sirtiga yozilgan yozuv hozirgi paytda ushbu hududda topilgan yozuvlarning eng qadimgisi deb hisoblanmoqda. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra bu yozuv miloddan avvalgi V-IV asrlarga tegishlidir. Miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid yana bir qadimgi Xorazm yozuvi Qo'yqirilganqal'adan topilgan sopol idishining sirtida saqlangan. Bu manba yagona “aspabarak” – “otliq”, “chavandoz” ma'nosida tarjima qilingan.

Olimlarning hisoblashlaricha miloddan avvalgi III asrda oromiy alifbosi negizida mustaqil xorazm yozuvi kashf etiladi va bu yozuv uzoq yillar mobaynida muomalada bo'ladi. Xorazm tili qadimgi forsiy tilning Sharqiy eron lahjasiga yaqin bo'lgan. Eramizning VI-VII asrlaridan boshlab bu til va yozuv asta sekin iste'moldan chiqib borib, VIII-IX asrlarga kelganda umuman tushunarsiz o'lik tilga aylangan. Qadimgi Xorazm tilidagi ba'zi bir so'zlar hozirgi Xorazm shevasida saqlanib qolgan.

Xorazm yozuvi yodgorliklari milodiy I-VIII asrlar oralig'ida zarb etilgan Xorazm shohlari tangalarida, Tuproqqal'adan topilgan Xorazmshoxlarning arxivida. To'qqal'a yodgorligidan topilgan ossuariylar sirtida, Mizdahkon yodgorliklari majmuasidagi Govurqal'adan topib o'rganilgan.

**QANG'DEZ** – miloddan avvalgi III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan Qang' davlatining poytaxti. Avestoda tur qabilalarining siyosiy va diniy markazi Qanqa deb keltiriladi. Qanqa shahar xarobasi hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan.

**QANG'UY** – Xitoyliklar tushunchasida Davan (Farg'ona)dan g'arbda joylashgan yurt. Hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlar. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida bu hududlarda Qang'uy (Qang') davlati tashkil topadi. Unga ko'chmanchi sak qabilalari asos soladilar. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Qang'uy davlati qudratli davlatga aylanadi va qo'shni yurtlarga nisbatan mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. Bu davlat birlashmasi milodiy III asrlarga kelib parchalanib ketadi.

**QORAXITOYLAR** – XII asrning 30-40-yillarida Movarounnahrning o'troq dehqonchilik vohalariga bir necha marotaba bosqinchilik yurishlari uyushtirgan ko'chmanchi qabilalar. Ular asli Kidanlar (Qitonlar) bo'lib, Orta Osiyolik tarixchilar ularni Qoraxitoylar (“Buyuk Xitoylar”) deb atashgan. Ularning asosiy qismi Talos va Chu daryolari havzasida chorvachilik bilan shugullanishgan. Qoraxitoylar buddaviylar bo'lsada, osmon, yer va ajdodlar ruxiga qurbonlik qilishgan.

Qoraxitoylarning kelib chiqishi haqida fanda yagona fikr mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalar esa mo'g'ullarga mansub deb hisoblaydilar. XII asr boshlarida ular Yettisuv viloyatini ishg'ol etib to Yenisey

daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan kattagina davlatni barpo etadilar. Bolasog'un bu davlatning poytaxtiga aylantirilgan. Podshohlari "go'rxon" deb yuritilgan. Qoraxitoylar davlatini XIII asr boshlarida mug'ul istilochilari tomonidan tugatiladi.

Yillar o'tushi bilan qoraxitoylar qo'shni turkiy xalqlar tarkibiga singib ketishgan. Bugungi kunda qirg'iz, qozoq va qoraqalpoqlar tarkibida qoraxitoylar qabila-urug' nomi ychraydi.

**QORAXONIYLAR** – O'rta Osiyoda, asosan Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda Somoniylardan keyin 999-1212-yillarda hukmronlik qilgan musulmon turkiy sulola. Uni barpo etishda qator turkiy qabilalar ishtirok etib, bulardan qarluq, chigil va yag'mo qabilalari yetakchi bo'lgan. Asoschisi yag'mo qabilasidan chiqqan Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (Qoraxon). Yag'molar X asr o'rtalarida islom dinini qabul qilganlar. 992-yilda Xorun ibn Muso Sotuq Buxoroni, 996-999-yillarda uning vorisi Nasr I Movarounnahrni butunlay bosib oladi. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qoshg'ar, keyin Bolasog'un, O'zgan shaharlari bo'lib, kayinchalik yana Qoshg'arga ko'chirilgan. XI asrning 60-70-yillarda Qoraxoniylar ichki siyosiy kurash va Saljuqiylar tazyiqi ostida zaiflashib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. 1212-yili qoraxoniylarning so'nggi vakili Qilich Arslon Muhammad Xorazmshox tomonidan o'ldirilgan.

**SADRLAR** – Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligi zaiflashgach Buxoroda XII asrning ikkinchi yarmidan diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z qo'liga olgan ruhoniylar vakillari.

**SAFFORIYLAR** – Safforiylar davlatida (873-900) hukmronlik qilgan sulola. Sulola vakillari aka-uka Yoqub ibn Lays (873-879) va Amir ibn Layslar (879-900)ning kasbi misgarlik (safforiy) bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Ular Xurosonda Tohiriylar davlatini ag'darib hokimiyatni egalaganlar. 900-yilda Somoniylar amiri Ismoil Somoniy bilan jangda Amir ibn Lays yengilgach bu sulolaga barham beriladi va butun Xuroson somoniylar qo'liga o'tadi.

**SAHOBALAR** (arab. – hamroh, do'st) – Muhammad Payg'ambarning yaqin yordamchilari, safdoshlari. Ilk islom davrida Madinadagi musulmonlar jamoasida muhojirlar va ansorlardan bir guruhi Muhammad payg'ambarga yaqin turgan, uning maslahatchilari sifatida xizmat qilgan. Ular sahoba (ko'plikda ashob) deb nom olgan va islom tarixida obro'li shaxslar sifatida tanilgan.

**SALAVKIYLAR DAVLATI** – Yaqin va O'rta Sharqdagi yirik davlat. Aleksandr Makedonskiy tuzgan imperiya tanazzulga uchragach, miloddan avvalgi 312-yilda uning lashkarboshilaridan biri Salavk I Nikator tomonidan asos solinadi. Salavk Midiya, Suziana, Fors, keyinchalik Baqtriya va Sug'diyonani bosib olgan va bu sharqiy viloyatlarga o'g'li Antioxni noib qilib tayinlaydi (Antiox Salavk va Spitamening qizi Apamadan tug'ilgan o'g'li edi). Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Salavkiylardan mustaqil Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari tashkil topadi.

**SALJUQIYLAR** – 1038-1194-yillarda Yaqin va O'rta Sharqda hukmronlik qilgan sulola. Sulola nomi ko'chmanchi turk-o'g'iz qabilasi boshlig'i Saljuq (922-yilda vafot etgan) nomidan olingan. XI asr boshlarida G'aznaviylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklardan foydalangan saljuqiylar 1038-1040-yillarda

Xurosonni egallab, Saljuqiylar davlatini barpo etadilar. Saljuqiylarni Xuroson va Eron hududlaridan Xorazmshoh Takash (1172-1200) 1194-yilda siqib chiqargach, ular g'arbga chekinib Kichik Osiyoda (hozirgi Turkiya hududlarida) yana bir asrdan ko'proq hukmronlik qiladilar (Turkiya tilining bizga tushunarli bo'lishining sababi ham shunda).

Saljuqiylar sulolasining vakillari: To'g'rulbek (1038-1063), Alp Arslon (1063-1072), Malikshoh (1072-1092), Mahmud (1092-1094), Berkyoruk (1094-1105), Muhammad (1105-1118), Sulton Sanjar (1118-1157).

**SARKOR** – ishboshi, nazoratchi, biror ishning (qurilish, ekin-tikin va h.k.) tepasida turuvchi, podsho, xon va feodallarning ho'jaligini boshqaruvchi mansabdor.

**SARROF** – o'rta asr shahar ko'chalari va rastalarida o'tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlarning bahosini aniqlash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyumlarini ma'lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug'ullanganlar.

**SATRAPLIK** – Ahmoniyar, Salavkiylar, Parfiya va Sosoniylar davlatlarida satrap boshchiligidagi harbiy-ma'muriy okrug, viloyat. Satrapliklarga satrap (hokim)lardan tashqari harbiy boshliqlar ham tayinlangan. Hozirgi O'rta Osiyo hududlarida ham o'sha davrda alohida satrapliklar tashkil etilgan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to'lashga majbur bo'lgan.

**SKUNXA** – Ahmoniyar podshosi Doro I ga qarshi qo'zg'olon ko'targan saklar sardori. Bu haqdagi ilk ma'lumot podsho Doro I ning Behistun qoyasiga yozdirgan bitiklarida berilgan.

**SOMONIYLAR** – O'rta Osiyoda 875-999-yillarda hukm surgan davlat. Somoniylar sulolasi kelib chiqishi jihatidan Sosoniylar davlatining (224-651) mashhur sarkadasi turk Bahrom Chubinning avlodlaridan bo'lgan. Bahrom Chubinga o'z davrida davlat oldidagi katta xizmatlari uchun Balx va Termiz oralig'idagi yerlar iqto' sifatida berilgan, u esa bu joylarga o'z yaqinlarini joylashtirgan. Somonxudot Balx atrofining yirik mulk egasi – aslzodalaridan biri bo'lib, uning nabiralari xalifa Xorun ar-Rashid (785-809)ning Xurosondagi noib o'g'li Ma'munga sadoqat bilan xizmat qilganlar. Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtini egallab, 819-yilda Somonxudotning nabiralari Movarounnahr viloyatlarini boshqarishni topshiradi. Somoniyarlardan Nux ibn Asaddan boshlangan mamlakatni mustaqil boshqarishga intilish Ismoil Somoniy davrida nihoyasiga yetadi. Buxoro shahri davlat poytaxtiga aylantiriladi. X asrning birinchi yarmi bu davlatning gullagan davridir. Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Janubiy Eronni o'z ichiga olgan hamda Xorazm, Seyston, Jurjon va Tabariston (Mozondaron) va davlatga itoat etgan. Somoniyar davrida Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur Urganch, Hirot, Balx eng yirik va savdo-hunarmandchilik taraqqiy etgan shaharlar bo'lgan.

992-yili Qoraxoniy turklari Buxoroni bosib oladi, 996-yili Somoniyarlarning Zarafshon havzasi shimolidagi yerlarning hammasi turklar qo'lga o'tadi, 999-yili turklar Buxoroni ishg'ol etib, Somoniyar davlatini tugatadilar va hokimiyatni to'liq qo'lga oladilar.

Somoniy hukmdorlari: Nux ibn Asad (819-842), Ahmad ibn Nux (842-865),

Nasr ibn Ahmad (865-888), Ismoil ibn Ahmad (888-907), Ahmad ibn Ismoil (907-914), Nasr II ibn Ahmad (914-943), Nux ibn Nasr (943-954), Abdumalik ibn Nux (954-961), Mansur ibn Nux (961-976), Nux II ibn Mansur (976-997), Mansur (997-998), Ismoil II (998-1005).

**SOSONIYLAR** – milodiy 224-651-yillarda Eronda hukmronlik qilgan sulola. Forslarning Soson urug'idan bo'lgan Bobak bu sulolaning asoschisidir. Uning o'g'li Ardasher I 224-yilda bo'lib o'tgan jangda Parfiya shohi Artaban V qo'shinlarini yengadi va davlat chegaralarini kengaytirish siyosatini boshlaydi. Shopur I davridan boshlab Sosoniylar taxtiga chiqqan sulola vakillari “shohanshoh” unvoniga ega bo'lganlar. III asrning ikkinchi yarmi va IV asrlarda sosoniylar Eroni Sharqdagi eng qudratli davlatga aylangan. Uning sarhadlari sharqda Hind daryosigacha, shimolda Amudaryogacha, g'arbda Vizantiya imperiyasigacha yoyilgan. V asr o'rtalaridan boshlab Sosoniylar davlati O'rta Osiyo hududidan bostirib kirgan ko'chmanchi qabilalar – kidariylar va eftaliylar zarbasi natijasida kuchsizlanib, xatto eftaliylarga o'lpon ham to'lashga majbur bo'lgan. Sosoniylar davlatiga 651-yilda arab istilohilari tomonidan barham beriladi.

Sosoniylar davlatining eng mashhur hukmdorlari: Ardasher I (224-239), Shopur I (239-272), Shopur II (309-379), Xurmuzd III (458-459), Pero'z (459-484), Balash (484-488), Qubod (488-531), Husrav I Anushervon (531-579), Yazdigird III (629-651).

**STRATEG** (yunoncha “strategos” – harbiy qo'mondon, bosh qo'mondon) – qadimgi Afina davlatida oliy organ – “Beshyuzlar kengashi” raxbari va Afina davlati harbiy boshlig'i. Makedoniya va Salavkiylar davlatida harbiy qo'shin, flot va mudofaa qo'mondoni.

**SULTON** – hukmdor, podshoh. Musulmon hukmdorlarining unvoni. VIII asr oxirida Bog'dod xalifasi Xorun ar-Rashid saroyida davlatning barcha ishlarini boshqaruvchi bo'lgan ishonchli do'sti Qozim ibn Yahyoni unga bo'lgan katta xurmat va ishonch belgisi sifatida “sulton” degan yangi unvon bilan mukofotlaydi. X asrdan boshlab islom mamlakatlarida hukmdor sulton deb atala boshlangan. XI asrda saljuqiylardan boshlab sulton unvoni mustaqil sulola hukmdorlariga berilgan. Bu unvoni birinchi bo'lib, 1051-yili saljuqiylardan To'g'rulbek xalifa Qoyimdan olgan.

**SUG'D YOZUVI** – qadimgi Sug'diyonada, oromiy alifbosi asosida miloddan avvalgi III-II asrlarda paydo bo'lgan yozuv. Milodiy I-IV asrlardan boshlab, sug'd yozuvi Sug'diyona hududlaridan tashqari, Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasida va Yettisuvda keng tarqalgan. Bu jarayon sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirishlari va Buyuk Ipak yo'lidagi savdo faoliyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun ham sug'd tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'iliston tuprog'idan topib o'rganilgan. Eramiz boshlaridan to' XI asrning birinchi choragiga qadar yozilgan ko'plab noyob yozma yodgorliklar sug'd yozuvi orqali bizga yetib kelgan.

Sug'd yozuvi qadimgi uyg'ur, mug'ul, manjur va turk yozuvlarining paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Arablar istilosi natijasida O'rta Osiyoga arab tili va yozuvi kirib keldi va sug'd tili asta-sekin muomaladan chiqib, ishlatilmaydigan tilga aylandi. Hozirda sug'd tili o'lik tilga aylangan bo'lsada, tilimizda qadimgi sug'dcha so'zlar saqlanib qolgan.

**SUG'DIYONA** – geografik hudud. Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasi. Hozirgi Tojikistonning Panjikent tumani, O'zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari o'rmiqa to'g'ri keladi.

**TALANT** – qadimgi Yunoniston, Misr, Mesopotamiya, Suriya va Eronda ishlatilgan og'irlik va yirik pul o'lchov birligi. 1 talant 6 000 dirhamga teng bo'lgan. Og'irlik o'lchov birligi sifatida talantning miqdori turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Masalan: qadimgi Yunonistonda 1 talant 26,2 kg bo'lsa, Eronda 1 talant 33,655 kg. ga to'g'ri kelgan.

**TOHARISTON** – Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi ikki sohilini ishg'ol etgan yerlarning o'rta asrlardagi nomi. Hozirgi Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Janubiy G'arbiy Tojikiston hududlariga to'g'ri keladi. Bu hududlar qadimda Baqtriya deb yuritilgan. Milodiy V asr boshlarida ushbu hududlarga ko'chmanchi to'xtar qabilalari kelib joylashgach Tohariston nomini olgan.

**TOHIRIYLAR** – Tohiriylar davlatini boshqargan sulola. Xalifalik taxti uchun kurashda Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid Tohir ibn Husayinning yordami bilan g'olib chiqadi va minnatdorchilik belgisi sifatida 819-yilda uni Xuroson va Movarounnahr yerlariga noib qilib tayinlaydi. Tohir ibn Husayin oradan ko'p vaqt o'tmay xalifaga bo'ysunmay mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. O'ziga qarashli yerlarni xalifalikdan mustaqil deb e'lon qiladi. Tohiriylar sulolasi 873-yilda ko'tarilgan "g'oziyalar" qo'zg'oloni natijasida ag'darib tashlanadi va Xurosonda hokimiyatni Sofforiylar sulolasi egallaydi.

Sulola vakillari: Tohir ibn Xusayin (821-822), Talha ibn Tohir (822-830), Abdulloh ibn Tohir (830-844), Tohir ibn Abdulloh (844-862), Muhammad ibn Tohir (863-873), Xusayin ibn Tohir (873-874).

**TUDUN** – Turk xoqonligining unga qaram o'lkalardagi noiblari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida yuborgan vakillari. Ular viloyatlarda boju-yasoqlarni jamg'arish ustidan nazorat qilish va ularni hoqon qarorgohiga jo'natish bilan shug'ullanardi.

**UMMAVIYLAR** – arab xalifaligi sulolasi (661-750). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiylar zodagoni Abu So'fiyonning o'g'li Muoviyadir. Abu So'fiyon Muhammad Payg'ambarning uzoq qarindoshi Umayya shajarasidan bo'lib, uning o'g'li Muoviya dastlab xalifalikning Suriyadagi noibi edi. Ali xalifaligi davrida (656-661) unga bo'ysunmaslik siyosatini boshlagan va u vafot etgach arab zodagonlarining yordamida xalifalik taxtini egallaydi. Xalifalik poytaxtini Damashqqa ko'chiradi. Shuning uchun ham tarixiy adabiyotlarda ummaviylar davri Damashq xalifaligi deb ham yuritiladi. 747-750 yillarda Abu Muslim rahbarligidagi qo'zg'olon natijasida oxirgi ummaviylar vakili Marvon II (744-750) taxtdan tushiriladi va hokimiyat yangi sulola – Abbosiylar qo'lga o'tadi.

Ummaviylar sulolasi vakillari: Muoviya (661-680), Yazid (680-683), Marvon I (683-685), Abdumalik (685-705), Volid (705-715), Sulaymon (715-717), Umar II (717-720), Yazid II (720-724), Hishom (724-743), Volid II (743-744), Marvon II (744-750).

**URXUN-YENISEY YOZUVLARI** – qadimgi turk runik yozuvlari. Tosh, metall, yog'och va boshqa buyumlarga o'yib bitilgan qadimgi turkiy yozuvlar. Bu yozuvlar V-VIII asrlarga (ba'zi manbalarda VIII-X asrlarga) mansub deb



hisoblaniladi. Dastlab Urxun va Yenisey daryolari havzasidan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qadimgi german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun runik yozuv deb ham ataladi.

Urxun-Yenisey yozuvlarining turkiy xalqlarga mansub ekanligini birinchi marta fransuz olimi J.P. Abel Remyuza (1820), so'ngra rus olimi N.M. Yadrinsev (1889) isbotlagan edilar.

Urxun-Yenisey yozuvlarining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o'rtasida tan olingan yagona fikr yo'q. Bu haqdagi nisbatan keng tarqalgan mulohazalarga qaraganda mazkur yozuv o'zining kelib chiqishiga ko'ra sug'd va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Urxun-Enisey yozuvlarining paydo bo'lishi joyi va vaqti ham hozircha uzil-kesil hal qilingan masala emas.

**USTRUSHONA** – Sug'diyonaning sharqiy tomonida joylashgan ilk o'rta asrlardagi tarixiy viloyat. Ushbu viloyatning g'arbiy qismini O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi esa Tojikistonning Xo'jand viloyati hududiga to'g'ri keladi. Ilk o'rta asrlarda Ustrushona viloyati 18 ta tuman (rustak)dan tashkil topgan bo'lib, ular tepasida turgan hukmdorlar afshinlar deb atalgan. Birinchi bor Ustrushona nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. Unda Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi. Arab geograflarining xabarlariga qaraganda, Ustrushonaning bosh shahri Bunjikat (hozirgi Shahriston) bo'lgan. Ustrushona dastlab eftaliylar, so'ngra VI asrning ikkinchi yarmidan Turk hoqonligi tasarrufiga kiritilgan.

**USHR** – musulmon mamlakatlarida idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajnida natura shaklida undirilgan soliq. Ushr solig'i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan.

**VARAXSHA** – Buxoroning Jondor tumanida joylashgan VI-VII asrlarga oid buxorudot hukmdorlarining yozgi qarorgohi.

**XALIFA** – o'rinbosar, noib, muovin. Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng vujudga kelgan Arab xalifaligining (632-1258) diniy va dunyoviy boshlig'i. Birinchi to'rt xalifa Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Alilar (656-661) "al-Xulafo ar-roshidun" – to'g'ri yo'ldan boruvchi halifalar nomi bilan mashhur bo'lganlar.

**XANDAQ** – qal'a tevaragiga qazilgan va suv to'latilgan zovur. Maxsus mudofaa inshooti.

**XIROJ** – Yaqin Sharq va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan O'rta Osiyoda davlat tomonidan undiriladigan yer solig'i. Xiroj O'rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva xoni Muhammad Raxim I (1806-1825) xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. Bunda xiroj olingan hosilning miqdoridan emas, balki yer egasining xo'jaligi va yer maydoniga qarab olingan. Qo'qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xiroj bu yerda ham natura o'rniga pul bilan yig'iladigan bo'lgan.

**XORAZMSHOHLAR** – Xorazmda islomdan oldin va islomdan keyin hukmronlik qilgan sulola. Tarixda to'rtta xorazmshohlar sulolasi o'tgan: Afrig'iylar (305-995), Ma'muniylar (995-1017), Oltintosh sulolasi (1017-1034) va Anushteginlar sulolasi (1077-1231).

995-yilgacha Xorazm ikki qismga – Shimoliy Xorazm (poytaxti Urganch) va Janubiy Xorazmga (poytaxti Kat) bo'lingan edi. Shimoliy Xorazmdagi Ma'muniylar sulolasi vakili Ma'mun ibn Muhammad 995-yilda har ikkala Xorazmni birlashtirib, Xorazmshoh unvonini bilan idora qila boshladi. Uning vorisi Ma'mun ibn Ma'mun davrida Xorazmning qudrati yanada oshdi. Urganchda “Ma'mun akademiyasi” faoliyat yurita boshladi.

1017-yilda Xorazmni Mahmud G'aznaviy bosib olib, o'zining bosh xojibi Oltintoshni xorazmshoh unvonini bilan Xorazm hokimi etib tayinladi.

1044-yilda Xorazm Saljuqiylar davlatiga qo'shib olindi. Saljuqiylarning Xorazmdagi noibi Anushtegin (1077-1097) saljuqiylarga itoatgo'yilik bilan xizmat qildi. Lekin uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097-1127) o'ziga “Xorazmshoh” unvonini olib saljuqiylardan mustaqil holda yurtni idora qila boshlaydi. Otsiz (1127-1156), El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200) va Muhammadlar davrida (1200-1221) Xorazmshohlar davlati Sharqning eng yirik va qudratli davlatiga aylanadi.

1221-yilda Chingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilari Xorazmshohlarning yirik shaharlari qatorida poytaxt Urganchni ham bosib oladilar. Muhammad Xorazmshoh yurtini o'z holiga tashlab qochishdan boshqa chora topa olmaydi. So'nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (1221-1231) mo'g'ul bohqinchilariga qarshi deyarli o'n yil kurashgan bo'lsada, biroq uning urinishlari muvaffaqiyatsiz tugaydi. Jaloliddinning vafoti bilan Xorazmshohlar sulolasi ham barham topadi.

**XUROSON** – tarixiy-madaniy hudud. Xozirgi Afg'onistonning shimoliy, Eronning shimoliy-sharqiy va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan yerlarning o'rta asrlardagi nomi. Dastlab Marv, keyinroq Hirot shahri Xurosonning markazi bo'lgan.

**“YABG'U HOQON”** – Turk hoqonligining g'arbga qilgan yurishlariga boshchilik qilgan Istemiga berilgan unvon.

**YAKSART (TANAIS)** – Sirdaryoning yunon-rim tarixchilari asarlaridagi qadimgi nomi.

**YUECHJILAR** – qadimgi xitoy manbalariga ko'ra yuechji qabilalari miloddan avvalgi IV-III asrlar chegarasida Mongoliya hududida yashovchi xunnlarning qo'shnilari bo'lishgan. Miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmiga kelib yuechjilar juda katta kuchga aylanganlar va xunnlarning boshlig'i ularga o'lpon to'lashga majbur bo'lgan. Ammo bir oz vaqt o'tgach xunlar sardori Maodun xunnlarni kuchli hokimiyat ostida birlashtirib, bu ko'chmanchi qabilalarni qudratli kuchga aylantirdi. Miloddan avvalgi 176-yilda xunn lashkarboshilaridan biri yuechjilarni jangda mag'lubiyatga uchratadi. Maodunning o'g'li Laoshin mil. avv. 174-yilda yuechjilarni yana tor-mor keltiradi va hukmdorini ham o'ldirib bosh chanog'idan may qadaxi yasattiradi. Mag'lubiyatga uchragan ko'chmanchi yuechjilar g'arbga-sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo hududlariga kirib kela boshlaydilar. Ammo bu hududlarida yuechjilar xitoy manbalaridan “usun” deb ataluvchi ko'chmanchi chorvador qabilalar bilan to'qnash keladilar. O'zaro urushlarda oxir oqibat usun qabilalarining qo'li baland kelib, yuechji qabilalari Tyanshan, Farg'ona va Pomir tog'lari osha shimoliy-g'arbiy Hindiston va Baqtriya yerlariga kirib keladilar.

Yuechji qabilalari haqida ma'lumotlar faqat qadimgi va o'rta asr xitoy manbalarida saqlangan. Qadimgi yunon-rim tarixchilari (Strabon, Pompey Trog)

asarlarida esa bu nom umuman uchratilmaydi. Aftidan ular yuechjilarni boshqa nomda atagan bo'lsalar kerak. Ular Yunon-Baqtriya davlatining qulashi haqida bergan ma'lumotlarida esa asianlar, pasianlar, toxarlar, sakaraullar haqida yozadilar.

Yuechjilarning kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar o'rtasida yakdil fikr yo'q. Ba'zi olimlar yuechjilarni massagetlarning avlodi deb hisoblasalar (S.P. Tolstov), ba'zilar ularni toxarlarning avlodi deb hisoblaydilar (I. Markvart, E. Pulleyblenk). Taniqli o'zbek olimi akademik A. Asqarov fikriga ko'ra yuechjilar skif-sak qabilalari ittifoqiga kiruvchi toxarlarning Xitoycha nomlanishidir. Yuechjilarning geografik joylashuvi, moddiy va madaniy hayot darajasiga qarab turkiy qabilalardan deb hisoblash mumkin. Jumladan, yapon olimi K. Enoki "miloddan avvalgi III asrlardagi yuechjilar joylashgan o'rmi va xo'jalik hayotiga ko'ra VI asrdagi turklar bilan juda o'xshash" – deb qayd qiladi.

**YUNON-BAQTRIYA PODOSHLIGI** – miloddan avvalgi 250-yildan 140-130-yillar orasida mavjud bo'lgan davlat. Salavkiylar davlatida aka-uka Salavk II va Antiox Giyerakslar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurash avjiga chiqqan bir paytda Salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Diodot o'zini mustaqil deb e'lon qiladi. Yangi tashkil topgan davlatning hududi Baqtriya yerlariga to'g'ri kelsada, uni boshqargan podsholar asli kelib chiqishi yunonardan edi. Shuning uchun ham bu davlatning nomi Yunon-Baqtriya deb yuritiladi. Yunon-Baqtriya davlati tarixan qisqa vaqt 120 yil yashagan bo'lsada, o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin qoldirdi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, shaharsozlik madaniyati gullab-yashnadi. Mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilib ketishidan o'ziga xos ellinizm madaniyati tarkib topdi.

Yunon-Baqtriya davlatiga miloddan avvalgi 140-130-yillarda shimoliy-sharqdan O'rta Osiyo hududlariga kirib kelgan ko'chmanchi yuechji qabilalari barham beradi.

Yunon-Baqtriya hukmdorlari: Diodot I (250-...), Diodot II (...-230), Yevtidem (230-199), Demetriy (199-167), Yevkratid (167-155), Gliokol (155-140).

**ZAKOT** (arabcha – tozalanish) – islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, hayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, yetim-yesirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

**ZARIASP** – Qadimgi Baqtriya davlatining poytaxti. Bu nom tarixchi Pliniy va Strabon asarlarida uchraydi. "Oltin ot" degan ma'noni anglatadi. Shimoliy Afg'onistonda joylashgan (Balx).

**ZULQARNAYN** – Aleksandr (Iskandar) Makedonskiyning (mil. avv. 356-323-y.) laqabi. Sharq tarixiy qo'lyozmalarida u Iskandar Zulqarnayn ya'ni "Shohli Iskandar" deb ham yuritiladi. Iskandarning shohi bo'lganligi haqida G'arb va Sharqda turli xil rivoyatlar yursada, uning bunday laqab olishiga tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqib xulosa chiqarish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, Iskandar Mismi bosib olganda (mil. avv. 332-y.) Misr koxinlari uni quyosh xudosi Amonning o'g'li deb e'lon qilganlar. Misrliklar an'analariga ko'ra xudo Amon siymosi ikki shohli bosh kiyimida tasvirlangan. Iskandarga Misr aslzodalari ikki shohli oltin bosh

kiyim kiydirgan bo'lishlari mumkin. Shuningdek, o'sha miloddan avvalgi IV asrlarda tarixchi va geograf olimlarga ma'lum bo'lgan joylarning katta qismini Iskandar zabt etishga muvaffaq bo'ladi. Sharq tarixchilarining taxminida u Mag'rib (G'arb)dan to Mashriq (Sharq)qacha bo'lgan yurtlarning hukmdori bo'lgan. Iskandar quyosh xudosi Amonning o'g'li va Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan xalqlarning shohanshoi sifatida davlat tantanalariga, qabul marosimlariga qadimgi podsholarning toj kiyimi sifatida ikki shohli oltin diadema(bosh kiyimi) kiyib chiqqan. Bu podsholarga xos rasmiy odat hukmdorning aslida shohi borligini emas, balki uning ulug'vorligini, qudratini namoyish etgan.

**G'AZAVOT** – din uchun kurash. Islomda g'ayri dinlarga qarshi musulmonlarning muqaddaslashtirilgan urushi.

**G'AZNAVIYLAR** – 977-1187-yillarda O'rta Sharq (Shimoliy-Sharqiy Eron, Afg'oniston va G'arbiy Hindiston)da mavjud bo'lgan davlatning va uni boshqargan sulola. G'aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi somoniylarning lashkarboshisi Alptakin. U 962-yil qo'l ostidagi g'ulomlariga tayanib G'azna viloyatida o'z hokimiyatini o'rnatadi. Uning vorislari Sabuqtegin (977-997) va Mahmud G'aznaviylar davrida (998-1030) uashbi davlat O'rta Sharqning eng qudratli davlatiga aylanadi.

G'aznaviylar davlati ravnaq topgan davrda saroyda buyuk olimlar yashab, ijod etganlar (Beruniy, Utbiy, Abulfazl Bayhakiy, Gardiziy, Firdavsiy va boshq.)

Mas'ud I davrida (1030-1041) Xorazm qo'ldan ketdi, Movarounnahrning katta qismini Qoraxoniylar tortib oldi. XII asrning 70-yillarida g'uriylar G'aznaviylarni Shimoliy Hindistonga siqib chiqardilar, Lahor ularning keyingi poytaxti bo'ldi. 1187-yilda g'uriylar Lahorni ham bosib olib bu davlatga barham berdilar.

G'aznaviylar sulolasining vakillari: Alptegin (962-977), Sobiqtegin (977-997), Ismoil (997-998), Mahmud G'aznaviy (998-1030), Mas'ud (1030-1041), Mavdid (1041-1048), Mas'ud II (1049), Ali Abuhasan (1049-1051), Abdurashid (1051-1099), Mas'ud III (1099-1115), Sherzod (1115-1116), Bahromxon (1117-1153), Husravshoh (1153-1160), Husrav Malik (1160-1187).

**G'OZIY** – islom dini uchun g'ayri dinlarga qarshi muqaddas urush – g'azovot ishtirokchisi. Shariatga ko'ra, bunday urushda oti va qurol-yarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'ailar, qullar, nogiron va keksalar bundan ozod etilgan.

**G'ULOMLAR** -- 1) O'rta asrlarda musulmon mam'lakatlaridagi qullar.

2) Abbosiylar halifasi Ma'mun hukmronligi davrida (813-833) chet ellardan sotib olingan yosh qullardan tuzilgan otliq askarlar gvardiyasi.

3) O'rta asr musulmon davlatlarida saroy gvardiyasi askarlari.

**SHAHRISTON** – o'rta asrlarda Sharqda mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan shaharning markaziy qismi. Shahristonda saroy, jome' masjidi, yopiq yoki ochiq bozor, bosh maydon – registon. muhim ma'muriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarining qo'rg'onlari, shuningdek oddiy aholi xonadonlari joylashgan.

**SHI** – Toshkentning qadimgi xitoy manbalaridagi nomi.

**SHOD (SHAD)** – Turk xoqonligi davrida o'n ming kishilik qo'shin qo'mondoni. Tumanboshi.

**SHOH YO'LI** – Eron Ahamoniylari sulolasi davri (mil. avv. VI-IV asrlar) da mavjud bo'lgan muhim savdo yo'llaridan biri. Eron poytaxti Suza shahrini Mesopotamiya, Yaqin Sharq va Kichik Osiyo mamlakatlari bilan bog'lagan. Podsho Doro I buyrug'i bilan Shoh yo'lida bekatlar, karvonsaroylar, quduqlar qurilib, savdogarlarni otlq soqchilar tomonidan qo'riqlab borish xizmati ham joriy qilingan.

**SHURAT** – Somoniylar davlatida davlat boshlig'i amir tomonidan o'zini himoya qilish uchun turk g'ulomlaridan tashkil etilgan maxsus saroy gvardiyasi. Gvardiya boshlig'i esa Sohibi shurat deyilgan. Sohibi shurat harbiy ishlar vaziri ham hisoblangan.

**CHOKAR** – O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida feodallarga qarashli bo'lgan qurolli yigitlar guruhi. Ular mulkdor dehqonzodalarning yer-mulklarini himoya qilishgan.

**CHORIYORLAR** – Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng Arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki to'rt xalifa – Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Ali (656-661) larning musulmon olamidagi umumiy nomi. Ular "Xulafo ar-roshidin", ya'ni to'g'ri yo'ldan yuruvchi xalifalar deyilgan.

**CHOCH** – tarixiy-geografik hudud. Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlariga to'g'ri keladi. Choch atamasi qadimgi yozma manbalarda miloddan avvalgi I ming yillikning 2-yarmidan boshlab uchraydi. Bu o'lkada qadimdan Avestoda nomi keltirilgan turlar va qadimgi forsiy bitiklarda eslatiladigan ko'chmanchi saklar yashaganlar. Arablar mazkur hududni Shosh deb atashgan.

#### **MAVZU: IX-XII ASRLARDA O'RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG'ONISH DAVRI.**

**ASH'ARIYA** – kalom ilmidagi oqimlardan biri. Asoschisi Abulhasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariy (873-935). Bu ta'limot Qur'on aqidalariga suyangan holda, jannat va do'zaxni azaliy mavjud, insonda iroda erkinligi yo'q. ammo o'z qilmishlari uchun Alloh oldida javobgar, deb qaraydi.

Ai-Ash'ariy ta'limoti bilan Moturidiy ta'limoti o'rtasida xuddi shofeiy va hanafiya mazhabidagi kabi keskin farqlar bo'lmagan, bularning har ikkisi ham hanafiya mazhabi uchun kurashgan allomalardir.

**"BAYT UL-HIKMA"** – Donishmandlar uyi. Arab xalifasi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog'dodda tashkil etilgan islom Sharqining o'sha davrdagi fanlar akademiyasi. Buyuk vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy (786-850) va Ahmad al-Farg'oniylar (797-865) Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritganlar.

**BAYTULLOH** – Makka islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollahning uyi – Ka'bage berilgan nom.

**FARZ** – shariatda hamma musulmonlar bajarishi shart bo'lib, qat'iy dalillar. ya'ni oyat va hadislar bilan isbotlangan diniy hukmlar. Masalan: namoz, ro'za, haj, zakot.

**FIQH** – islom huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.

**HADIS** – islom dini ta’limoti bo’yicha Qur’oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo’lib, Muhammad Payg’ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko’rsatmalarini o’z ichiga oladi. Payg’ambar biron gap aytgan yoki biror ishni qilib ko’rsatgan bo’lsa, yohud boshqalarning o’zlariga qilayotgan biron ishini ko’rib, uni ma’n etmagan bo’lsa, shu holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shu hatti-harakatlar yoki ko’rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi.

**HANAFIYA** – sunniylikdagi huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-No’mon (VIII asrda yashagan) asos solgan. Iroqda vujudga kelib, islom tarqalgan barcha mamlakatlarda jumladan Xuroson va Movarounnahrda ham keng tarqalgan. Burhoniddin Marg’iloniyning “Hidoya” to’plami bu mazhabning asosiy to’plamlaridan biri sifatida tanilgan. Abulhasan Ali ibn Ismoil al-Ash’ariy (873-915) va Abu Mansur Muhammad ibn al-Moturidiylar ham ushbu mashabning yirik vakillari bo’lishgan. Hanafiya qonunlari nisbatan yumshoqroq va qo’layroqligi, xalqlarning mahalliy an’analarini e’tiborga olganligi sababli keng yoyilgan. Sunniylik yo’nalishiga mansub bo’lgan musulmonlarning uchdan bir qismidan ko’prog’i bu mazhabga kiradi. U bir necha arab davlatlarida. Afrikaning ayrim mamlakatlarida, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Pokiston, Bangladesh, Afg’oniston, O’rta Osiyo, Tatariston musulmonlari orasida keng tarqalgan.

**HANBALIYA** – sunniylikdagi diniy huquqiy mazhablardan biri. Ahmad ibn Hanbal asos solgan. Hanbaliya huquq tizimi o’ta torligi, har qanday ko’rinishdagi “yangilik”ka, diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat normalariga rioya etishda qat’iyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. X asrda Eronda, XII asrdan XV asrgacha Suriya va Falastinda hanbaliya izdoshlari ko’p bo’lgan. Undan keyingi asrlarda tarafdorlari kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo’lgan vahobiylar hanbaliya tarafdorlari bo’lib chiqqanlar. Vahobiylar Saudiya Arabistonida hokimiyatni qo’lga olgach (XX asrning 20-yillarida), Hanbaliya qonunlarini amalga kiritganlar. U yerda bu mazhabning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda. Hanbaliya Saudiya Arabistonidan boshqa mamlakatlarda kam uchraydi.

**“IKKINCHI MUALLIM”** – bilimli, ma’rifatli, fikr-mulohazalari va mantig’ining teranligi tufayli Sharqda Abu Nasr Forobiyga (873-950) berilgan unvon. Aristotel (Arastu)dan keyingi ikkinchi muallim – “Muallim us-soniy”.

**JOME’ MASJIDI** – juma namozi o’qiladigan masjid.

**KALOM** (arabcha – so’z, nutq) – ilohiyotning ilk shakli. Arab xalifaligida VIII asrda paydo bo’lgan. IX asrga kelib O’rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyilgan. Kalom asoschisi Abdulhasan al-Ash’ariy (873-935) mu’tazililarga qarshi qattiq kurash olib borgan va o’z ta’limoti bilan sunniylik mazhabini mustahkamlagan. Mantiq va falsafadan foydalanib kalom ilmi bo’yicha o’z mazhabini yaratgan.

**KALOM ILMI** – e’tiqod to’g’risidagi bilimlar. ya’ni aqliy dalillar va mantiqiy uslubdan foydalanib, imon va e’tiqodga bog’liq bo’lgan muommolarni izohlovchi fan. Islom dinining g’oyaviy asoslari bo’lmish, yaratish, qaytadan tiriltirish, Ollahning borligi va imon chegaralari, jabru ixtiyor. xayru sha’r (yaxshilik va yomonlik), tangrining zoti va sifatleri va uning kalomi (Qur’on) kabi masalalar,

kalom ilmining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turkistonda Abulhasan al-Ash'ariy mazhabi bo'yicha samarqandlik Abumansur Motirudiy va qashqadaryolik an-Nasafiylar kalom ilmining namoyondalari bo'lganlar.

**MADRASA** (arabcha "darasa" – o'rganmoq) – dars oladigan, o'qiladigan joy demakdir. Madrasalar musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hozirgi vaqtda madrasalarda davlat muassasalari xodimlari ham tayyorlanadigan bo'lib ketdi.

Madrasalar dastlab VII-VIII asrlarda Islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo'ldi. IX-XIII asrlarda madrasalar Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, jumladan O'rta Osiyoda ham paydo bo'lib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Madrasalarni hukmdorlar, yirik yer egalari va davlatmand kishilar o'z mablag'lari hisobidan qurdirganlar.

Madrasalarga diniy maktabni bitirgan bolalar qabul qilingan. Madrasalarda ta'lim uch bosqichda; boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) bilimlarda olib borilgan.

Madrasalarda diniy bilimlardan tashqari tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, jug'rofiya va boshqa fanlar ham o'rgatilgan. Talabalar darsni o'zlashtirishlariga qarab madrasalarda 15-20 yillab o'qiganlar.

**MAQBARA** – qabr ustiga qurilgan yodgorlik binosi, mavzoley. Marqad, turbat deb ham yuritiladi. O'rta Osiyodagi majusiylar (otashparastlar), buddaviylar, nasroniylar qabrlariga qurilgan arxitektura yodgorliklari oddiy ko'rinishga ega. Lekin islom dini ta'sirida vujudga kelgan maqbaralar hashamatli, murakkab imoratlar sifatida taraqqiy etgan. Islomda qabr ustiga yodgorlik qo'yish, unga sig'inish man etilgan bo'lsa ham, IX asrdan boshlab maqbaralar qurish odat tusini olgan. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, mashhur islom dini olimlari, shayxlari qabrlari ustiga turli maqbaralar qurildi. Dastlab maqbaralar oddiy ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa, yillar o'tishi bilan maqbaralar tobora katta va ko'rkam, hashamatli qilib barpo etila boshlanganki Ismoil Somoniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Shohi Zinda, Tojmahal kabi ulug'vor maqbaralar me'morchilik san'atining yuksak namunalariidir.

**MASJID** (arabcha "sajada" – egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini yerga tegizish) – "sajda qilinadigan, ibodat qilinadigan joy" ma'nosini bildiradi. Mahallalardagi masjidlar shu yer aholisi kundalik namoz o'qish uchun, jome' masjidlari esa kundalik namoz bilan birga juma va hayit namozlari uchun mo'ljallangan va ularga shaharning markazidan eng yaxshi joylar ajratib berilgan. Ba'zi masjidlar qoshida boshlang'ich maktab bo'lib, bolalar o'qitilgan. Masjidlar diniy targ'ibot vazifasini o'tagan bo'lsa ham, ularda boshqa turli masalalar (oilaviy mo'jorolarni hal etish, urushganlarni yarashtirib qo'yish, nojo'ya ish qilganlarni to'g'ri yo'lga solish kabi) ham hal etilgan.

Masjidlar yonida baland minoralar bittadan to'rttagacha qurilgan. Bular ko'proq masjidni bezagi uchun bunyod etilgan.

**MAZHAB** – oqim, yo'l, ta'limot. Shariat mazhablari – islomda huquq tizimlari va yo'nalishlari. VIII-IX asrlarga kelib shariatning shakllanishi jarayonida, ya'ni fiqh – huquqshunoslik sohasida bir necha mazhablar vujudga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda to'rtta mazhab (hanafiya, molikiya, shofi'iy, hanbaliya), shialikda esa ja'fariya, ismoiliya, zaydiya mazhablari saqlanib qolgan. Sunniylikdagi to'rttala

mazhab teng hisoblanadi. Yirik musulmon universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. Mazhablar umuman diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir biridan farq qiladilar. Hozir islom mamlakatlarida asosan hanafiya (Turkiya, Pokiston, Hindiston. Movarounnahr, Volgabo'yi, Sibir, Shimoliy Kavkaz, Qrim), molikiya (Tunis, Jazoir, Liviya, Marokash), shofi'ya (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliya (Saudiya Arabistoni) mazhablari keng tarqalgan. Shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman)ning huquqiy hayotida esa ja'fariya mazhabi o'z mavqeini saqlab kelmoqda.

**“MA'MUN AKADEMIYASI”** – 1004-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganjda Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun tomonidan tashkil etilgan akademiya. Bu akademiya (“Ma'mun akademiyasi”) ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (X a.-1034), Abulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va boshqalar tashkil etgan. 1017-yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olgach “Ma'mun akademiyasi” o'z faoliyatini to'xtatgan. Olimlarning ko'pchiligi G'azna shahriga majburan olib ketilgan.

Xorazmning qadimgi poytaxti Gurganch hozirda Qo'hna Urganch deb nomlanib, u Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida, bugungi Xiva shahridan taxminan 100 km. masofada joylashgan. Mahalliy xalq Ko'hna Urganchni ko'proq “360” deb ataydi. Rivoyatlarga qaraganda bu shaharda o'tmishda 360 ta shayx, mutafakkir va olimu-fuzalo o'tgan ekan. Ularning orasida shu darajada yetuklari bo'lgan ekanki, xatto ular Amudaryo suvini orqasiga oqizish qobiliyatiga ega bo'lishgan. Mazkur 360 ta alloma “Ma'mun akademiyasi” dovrug'ining halq xotirasida rivoyat shaklidagi ko'rinishi bo'lsa ajab emas ...

1997-yil 11-noyabrda O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning “Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilinib, mazkur farmonga binoan, bu akademiya tarkibida arxeologiya, til va adabiyot, biologiya bo'limlari tashkil qilindi va ajdodlarimizning ismi va ruhiga loyiq ish olib borish kabi hayrli ishlarni boshladi.

YUNESKO tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi va bu yurtimizda tantanali ravishda keng nishonlandi.

**MOLIKIYA** – Molik ibn Anas (721-795) tomonidan asos solingan sunniylikdagi huquq mashablaridan biri. Bu mashab tarafdoriari huquq masalalarida ratsionalistik usulga, ya'ni Qur'on va hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. Dastlab Hijoz va Madinada, keyin boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Hozirda Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim Afrika mamlakatlarida tarafdorlari bor.

**MU'TAZILIYLAR** (arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) – ilk islomda ilohiyot o'qimlaridan birining tarafdorlari. Bu oqim VIII asr o'rtasida arab halifaligida paydo bo'lgan. Asoschisi Vosil ibn Ato (699-748). Abbosiy xalifalardan Ma'mun (813-833), Muta'sim (833-842) va Vosiq (842-847) hukmronligi davrida mu'taziliylar ta'limoti xalifalikda rasmiy e'tiqod sifatida tanilgan. Mutavakkil (847-861) davrida esa bu ta'limot ta'qiqlangan va qattiq ta'qib ostiga olingan. Mu'taziliylar antik falsafa va mantiqning usul hamda tushunchalarini ilohiyotga



tadbiq etib, tasavvufni inkor etishga uringanlar. Qur'on va sunna ta'limotini aql-idrokka mos talqin etishni ilohiyot asoslaridan biri deb e'tirof etganlar, islomga ratsionalistik elementlarni kiritishga uringanlar. Mu'taziliylarning ta'limoti va bir qancha diniy-falsafiy yo'nalishlari keyinchalik paydo bo'lgan kalom ilmi – ash'ariya va moturudiyaning yutug'i bo'lib qoldi.

Bu oqim doimiy ravishda ta'qib qilinganligi tufayli Iroq va Eronda XI-XII asrlarda, Movarounnahrda XIII-XIV asrlarga kelib yo'qolib ketgan. Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariy edi. Lekin u ham umrining oxirida mu'taziliylar safidan chiqqanligini e'lon qilgan.

**QALANDAR** – so'fiylik yo'lga kirib, mehnat qilmasdan darbadarlik, gadolik va hayr-ehson yo'li bilan kun kechiruvchi kishilar faoliyati. Qalandarlar muayyan jamoa (suluk) larga birlashib, uning g'oyalarini targ'ib etganlar. Naqshbandiya, Yassaviya, Qubraviya, Qadariya qalandarlikning mashhur suluklaridandir.

**QARMATIYLAR** – shia mazhabidagi Ismoililarning asosiy shahobchalaridan biri bo'lib, IX asr oxirida Iroqda paydo bo'lgan. Suriya va Yamanda keng tarqalgan. Ular asosan dehqonlar, ko'chmanchi badaviylar va hunarmandlardan tashkil topgan. Islom qonun-qoidalariga itoat etmaganlar, ularda masjid bo'lmagan, musulmonlar ziyoratgohi Ka'bage ziyoratni, unga sig'inishni bid'at, butparastlik deb hisoblaganlar. 899-yili Bahrayinni bosib olib, al-Ahso (Sharqiy Arabiston)da o'z davlatlarini tuzganlar. Ularning rahnamosi Hamdam ibn al-Ash'asning o'g'li Abu Tohir Sulaymon (914-943) davrida qarmatiylar 930-yili haj vaqtida Makkaga bostirib kirib, shaharni talon-taroj qilganlar, bir necha ming xojilarni va Makka aholisini qatl etib, asir olganlar. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketganlar, faqat 20 yildan keyin katta tavon evaziga u Makkaga qaytarib berilgan.

Keyingi asrlarda qarmatiylar qattiq ta'qib ostiga olinganlar.

**QORI** – Qur'oni Karimning barcha suralarini yod olgan va qiroat bilan o'qiydigan kishi. Qorilarni tayyorlaydigan maktablar – “dorul-huffoz” deb yuritiladi.

**QOZI** – shariatda sudya, huquqiy ishlarni hal etuvchi vazifasini bajaruvchi mansabdor. Qozi, shuningdek vasiylikka, vasiyatning bajarilishiga, meros taqsimotiga tegishli ishlarni amalga oshirgan. Qozilar hukmi qat'iy bo'lib, ular ustidan faqat xon va amirga shikoyat qilishgan. Qozikalon eng yuqori darajadagi qozi bo'lib, u hamma qozilar ustidan nazorat qilgan. Qozi-ul quzzot qozikalon o'rinbosari hisoblangan.

**QUR'ONI KARIM** – Qur'oni Karim Yer yuzi musulmonlarining dasturamali, diniy ahkomlar manbai. Muhammad Payg'ambarimiz 40 yoshga to'lgan vaqtlarida Haq taolo Jabroil alayhissalom orqali payg'ambarlik vahiyisini yubora boshlagan. Qur'oni Karimning birinchi oyati ham shu ondan nozil qilina boshlangan. Qur'oni Karimning sahifalarini jam qilish va to'liq kitob shakliga keltirish Muhammad Payg'ambar vafotidan keyin boshlanib, bu ish xalifa Usmon zamonida (644-656) yakunlanadi. Shu davrda yaratilgan Qur'onning to'rtta nusxasidan bittasi Turkistonga ham yetib kelgan bo'lib, u hozirda Movarounnahr diniy idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Qur'oni Karimda 114 ta sura, 6236 ta oyat bor.

**RENESSANS** (fransuzcha “renaissance” – uyg'onish) – aynan qadimiy mumtoz yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Antik (qadimgi) davrga xos hayotni

his etishga yaqin, lekin o'rtas asrlardagi kabi moddiylikni gunoh deb hisoblab undan voz kechishni ham inkor etilishi. Yangicha hissiyotlarning, hayot nashidasini sezishning paydo bo'lishi demakdir.

Sharq renessansi va G'arb renessansi mavjud. Sharq renessansi IX-XII va XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, G'arb renessansi XIII asrdan boshlanadi. G'arb renessansi ko'pincha uyg'onish davri deb ham yuritilib, uning ilk kurtaklari Italiyada paydo bo'lgan. Tomazzo Kompanelli, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokacholar uyg'onish davri madaniyatining asoschilari edilar.

**SUNNA** – Muhammad Payg'ambarning ko'rsatmalari va oyatlari haqidagi hadislar, rivoyatlar. Islomda faqat Muhammad ibrati, an'anasi deb e'tirof etilib, Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna VII asr o'rtalaridan yig'ila boshlangan.

**SUFIYLIK (TASAVVUF)** – musulmonlarni ha'ollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga umaslikka chorlovchi, har kimni o'zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot.

Sufiylik so'zining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Sufiy mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini "sof bo'lmoq" ma'nosida talqin qiladilar. G'arbiy Yevropa tadqiqotchilari XX asrga qadar uning kelib chiqishini yunoncha "sofia" – hikmat so'zidan kelib chiqqan degan fikrga moyil bo'lishgan. Endilikda o'rtas asr musulmon olimlari ta'kidlagan bu so'zning "suf" (jun) so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlari umum qabul qiladigan fikr hisoblanadi. Chunki sufiylarning asosiy belgisi dag'al jundan kiyim kiyishlari edi.

Sufiylikka asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyatlarini deyarli islom bilan bir davrda yuzaga kela boshlagan. Movarounnahrda sufiylik Eron orqali kirib kelgan. Movarounnahrda juda keng tarqalgan so'fiylik oqimi Shayx Abu Yoqub Yusuf Hamadoniy (1049-1140) maktabidan boshlangan. Yusuf Hamadoniy maktabi ikki tarmoqqa ajralgan edi.

Birinchi oqimga Yusuf Hamadoniyning mashhur shogirdi Abduholiq G'ijduvoniy (1103-1179) va keyinchalik bu oqimga Xoja Bahouddin Naqshbandlar (1318-1389) murshidlik qilishgan.

Ikkinchisiga Shayx Ahmad Yassaviy (1041-1116) va uning shogirdlari asos solishgan. Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlari keyinchalik o'zaro yaqinlashib, birlashib ketgan.

**SUNNIYLIK** – islom dinidagi ikkita asosiy yo'nalish (ikkinchisi shialik) dan biri va eng keng tarqalgani. Mutaxassislarning hisoblari bo'yicha, jahondagi barcha musulmonlarning qariyb 90 % sunniylikka (qolgan 10 % shialikka) mansub. Bu yo'nalish VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. VIII-XII asrlarda arab xalifaligidagi diniy-siyosiy kurashlar jarayonida islomdagi eng yirik yo'nalish sifatida shakllangan. Sunniylar Qur'on bilan birga sunnaga e'tiqod qiladilar. Sunniylikda 4 ta huquq mazhabi mavjud (hanafiya, molikiya, shofi'iya va hanbaliya). VIII asr oxiri va IX asr boshlarida sunniylik doirasida tasavvuf, XVIII-XIX asrlarda ilk davrdagi sof islomga qaytish tarafdorlari bo'lgan diniy-siyosiy oqim – vahobiylik vujudga kelgan. Sunniylik bilan shialik o'rtasida hokimiyat masalasida, ayrim diniy marosim va an'analarda birmuncha tafovutlar bor.

**TAFSIR** – umumiy ma'noda biron narsani sharhlash, talqin qilish. Islom an'anasida Qur'oni Karim, hadisi sharif va boshqa diniy manbalarni talqin qilish, sharhlash.

**TARIQAT** – tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l.

**XATIB** – odatda masjidida juma va diniy bayram kunlari, ya'ni hayit namozlari paytida xutba o'qiydigan dindor.

**XONAQOH** – shayh va darveshlar zikru samo qiladigan xona, masjid. Islom dini tarqalishi bilan yuzaga kelgan. Darveshlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida qurilgan. Keyinchalik mahalla, qishloq masjidlarining namoz o'qiladigan xonasi ham xonaqoh deb atalgan.

**XO'JA** – ijtimoiy tabaqa. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalar dastlabki to'r xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilardan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning nasli deb hisoblanadi. Xo'jalar islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ular ko'p holarda o'lim, tan jazosi, urushlarda qatnashish hamda soliq to'lashdan ozod etilganlar. Xo'jalar qizini oddiy fuqaroga berish man etilgan.

**XUTBA** – juma va ulug' ayyom kunlari masjidida imom-xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pandu nasihatlar. Shuningdek, o'rta asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o'qiladigan duo ham xutba deb atalgan.

“ZIJ” – astronomik jadval.

**SHARIAT** – lug'aviy ma'nosi arabchadan “yo'l” demakdir. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Keyinroq musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ildi. Islom huquqshunoslari bir necha asr mobaynida shariat qoidalarini ishlab chiqqanlar. Shariatga Qur'oni karim, Hadisi sharif, ijmo' va qiyos asos qilib olingan. Ushbu shariat manbalarda tavsiya etilgan amallar, ibodatlar majmuiga shariat deyiladi. Shariat islom dini huquq tizimi. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari, axloqiy normalarga ham qonun tusi berilgan.

Islomda sunniylik va shialikdagi shariat tizimlari o'rtasida tafovutlar bor. Sunniylikda hanafiya, molikiya, shofi'iya va hanbaliya mazhablarining shialikda esa ja'fariya, ismoiliya mazhablarining o'ziga xos huquqiy tizimi mavjud.

Shariat hozirgi zamon dunyosining eng yirik huquqiy tizimlaridan biri bo'lib qolmoqda va u oila, jamiyat, davlat MIKyoqidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o'z ichiga olgan. Shariat – musulmon kishi uchun u dunyoga kelishidan to' o'lishigacha yurish-turish qoidalarini belgilovchi to'plamd.

Shariat huquqiy tizim sifatida XI asrda o'zining hozirgi takomil darajasiga yetib borgan.

Shariat ilmlari to'qqizta fanni o'z ichiga oladi:

- 1) Ilm at-Tafsir – Qur'oni Karimni o'rganuvchi fan.
- 2) Ilm ul-Hadis – Hadisshunoslik fani.
- 3) Ilm ul-Kalom – dinning g'oyaviy-nazariy asoslarini o'rganuvchi fan.
- 4) Ilm usulul – Fiqh-fiqx manbalari va asoslarini o'rganuvchi fan.

5) Ilm ul-Fiqh – fiqh tarmoqlari, amaliy fiqh haqidagi fan.

6) Ilm ul-Faroiz – marhum mulklarining uning inerosxo'riari o'rtasidagi taqsimoti haqidagi fan.

7) Ilm ut-Tajviyd – Qur'onidagi oyatlarni to'g'ri o'qish qoidalarini o'rganuvchi fan.

8) Ilm ul-Qiroat – Qur'on oyatlari qaysi qorilar orqali qanday rivoyat qilib va qanday o'qilib kelgani haqidagi fan.

9) Arab tili va adabiyoti.

**SHAYX** (arabcha kekxa, oqsoqol) – arablarda islomdan ilgari urug', qabila boshliqlari, katta oila oqsoqollari shayx deb atalgan. Keyinchalik esa islom dini tarqalgan mamlakatlarda avval bilimdon kishilar, olimlar, so'ngra ruhoniylar, ulamolalar, keyinchalik tasavvuf tariqatidagi pirlar, eshonlar va muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan.

**“SHAYX UR-RAIS”** – Abu Ali ibn Sinoga Sharqda berilgan unvon.

**SHIALIK** – islomdagi asosiy yo'nalishlardan biri. O'zining keng yoyilishi jihatdan sunniylikdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. Shialar sunniylar kabi Qur'oni Karimni ilohiy deb e'tirof etadilar. lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydilar. Sunnada esa ular faqat Ali nomi bilan bog'liq hadislarini tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to'plam “Axbor”ni tuzganlar.

Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani “muqaddas” hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan yirik shia imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar.

Hozir jahondagi musulmonlarning 10 foizi shialikka mansub. Shialik hozirgi vaqtda Eronda hukmron e'tiqod hisoblanadi. Iroq, Livan, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Tojikiston va Ozarbayjonda ham shialar bor.

**SHOFI'IIYA** – sunniylikdagi diniy huquqiy mazhablardan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (767-820) asos solgan. Hozirda Suriya, Misr, Indoneziya, Sharqiy Afrika va Janubiy Arab mamlakatlarida bu mazhab huquq tizimiga amal qiluvchilar bor.

**ABDUXOLIQ G'IJDUVONIY** (1103-1179) – tasavvufning yirik namoyondasi, mashhur avliyo, Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O'rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosi. Buxoro yaqinidagi karvon yo'llaridan bo'lmish G'ijduvon qishlog'ida imom oilasida tug'ilgan. Otasi Abdul Jalil asli Rum (Vizantiya) diyorida bo'lib, G'ijduvonning mashhur imomlaridan bo'lgan. Abduholiq mashhur tasavvuf Yusuf Hamadoni (vafoti 1141-yil) ga shogird tushib, undan xalifalik firqasini oladi. Ustoz va shogird birgalikda Bog'dod, Baix, Isfahon, Marv, Samarqand shaharlarida bo'lib, tasavvuf ilmining sir-asrorlarini egallaganlar.

Xoja Abduholiq G'ijduvoni Sharq falsafiy tafakkuri tarixida o'z o'miga ega. Uning dunyovarashi tasavvuf silsilalaridan biri Xojagon xalqasida shakllangan. Xalq ommasi-oddiy ra'iyat bilan yaqinlashish va ularning diniy e'tiqodiga xizmat qilish bu tariqatning asosi edi. U olamshumul ravnaq topgan Naqshbandiya tariqatining ham asoschisidir. Yozma manbalarda Xoja Abduholiqning “Shayxushshuyux” (Shayxlar shayxi) darajasiga ko'tarilgani qayd etiladi. Bu ulug' unvon Jomiy va Navoiylar

temonidan Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Ahmad Yassaviy singari ulug' pirlarga nisbatangina qo'llanilgan.

Bahouddin Naqshband (1318-1389) Abduholiq G'ijduvoniyni o'ziga ustoz deb bilgan va uning ta'limotini yanada rivojlantirgan.

Xoja Abduholiq G'ijduvoniyan "Risolai tariqat", "Risolai sohibiya", "Vasiyatnoma", "Zikri Abduholiq G'ijduvoni", "Risolayi Shayxushshuyux Hazrati Abu Yusuf Hamadoniy", "Maqomati Xoja Yusuf Hamadoniy" kabi asarlar meros bo'lib qolgan.

**ABU ALI IBN SINO** (980-1037) – jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim. U Sharqda "Shayxur rais", G'arbda "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'lgan. Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan Afshona qishlog'ida tug'ilgan. 10 yoshida Qur'onni yod olgan. Falsafa ilmini ustози Abu Abdullox Notiliydan tib ilmini Hasan ibn Nuh al-Qumriydan o'rganadi. 16-17 yoshida mashhur tabib bo'lib tanaladi. 1000-yilda Xorazmga boradi va Urganchdagi "Ma'mun akademiyasi"da ijod qiladi. 1017-yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach, undan qochib Obivard, Tus, Nishopur orqali Jurjonga kelib, Qobus ibn Vushmgir saroyida tabiblik qiladi. 1019-1021-yili Hamadonda vazirlik qiladi, lekin hokim bilan kelishmay qolib 4 oy qamoqda yotadi. 1023-yil Isfahonga qochadi. O'zaro feodal urushlar natijasida Isfahon, Ray, Hamadon shaharlar orasida sarson-sargardonlikda hayot kechiradi. Hamadonda 57 yoshida qulunj kasalidan vafot etgan.

Ibn Sino asarlari 280 dan ortiq. Bulardan 43 tasi tibbiyotga oid. Asarlaridan bizga 160 ga yaqini yetib kelgan. Eng yirik asarlari: "Al qonun fittib", "Kitob ash-shifo", "Kitob lison al-arab", "Kitob an-najot". Qissalari: "Donishnoma", "Salomon Ibsol", "Qissat at-Tayr".

**ABU NASR FOROBIY** (873-950) – buyuk mutafakkir va faylasuf. Sirdaryo qirg'og'idagi Forob shahrida turkiy qabilalardan bo'lgan oilada tug'ilgan. Uning o'tkir zehni va xotirasini sezgan otasi Bog'dodga ko'chib keladi. Damashq, Halab, Harron shaharlarini kezib, u yerlik olimlar suhbatini oladi.

Aristotel, Aflotun (Platon) kabi qadimgi yunon faylasuflari asarlari bilan tanishadi. Natijada uning atrofiga shogirdlar to'planadi va u madrasalarda dars bera boshlaydi. Shunday buyuk mutafakkir bo'lishiga qaramay Forobiy faqirona hayot kechirgan, hatto yozishga qog'oz va chirog'iga yog' topa olmagan vaqtlari bo'lgan. U Aristotel asarlariga juda ko'p sharhlar yozadi va bu sharhlar Sharq olimlarini tushunish qiyin bo'lgan yunon falsafasi bilan tanishtiradi va shuning uchun ham Sharqda Forobiy "Muallim us-soniy" (Ikkinchi muallim) nomini olgan. Forobiy musiqa sohasida ham bilimdon bo'lib, juda ko'p kuylar yaratgan, xatto musiqa kuylarini harflar bilan ifodalash (nota)ni dastlab Forobiy topgan va "qonun" degan cholg'u asbobi yaratgan.

Forobiy ilm-fanning turli sohalariga doir 160 dan ortiq asar yozgan bo'lib, shulardan 119 ta asari bizgacha yetib kelgan. "Aristotelning metafizikasi maqsadlari haqida", "Musiqa kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Risola fi a'zoi inson" (Inson a'zolari haqida risola), "Siyosat al-madoniya", "Jamiyatni o'rganish haqida kitob", "Kitob maoyish va-l-hurub" (Hayot va urush haqida kitob), "Uyun al-masal"

(Masalalar chashmasi), “Risola fi fusus al-hikam” (Hikmat gavharlari haqida risola) uning mashhur asarlaridir.

**ABU RAYXON BERUNIY** (973-1048) – buyuk qomusiy olim. Oʻz zamonasining hamma fanlarini puxta egallab olgan va bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan ulkan siymo. Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tugʻilgan. Jahonning bir nechta tillarini bilgan. 22 yoshida Ray shahriga, 995-yildan keyin Jurjonga Qobus ibn Vushmgir saroyiga keladi va shu yerda oʻzining mashhur asari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini yozadi. 1000-1017-yillarda Xorazmdagi “Maʼmun akademiyasi”da faoliyat koʻrsatadi. 1017-yil Mahmud Gʻaznaviy Xorazmni egallagach Beruniy boshqa olimlar bilan Gʻaznaga olib ketiladi va oʻlimning bu yerdagi faoliyati ancha sarmahsul boʻladi. Gʻaznada vafot etadi.

Beruniyning ilmiy merosi 152 kitob va risoladan iborat. Afsuski bularning bizgacha 28 tasigina maʼlum. Eng yirik asarlari: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Qonun al-Maʼsudiy”, “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Saydana”.

**AHMAD IBN KASIR AL-FARGʻONIY** (797-865) – Fargʻonada tavallud topgan buyuk astronom, matematik va geograf. Sharqda “Hosib” (matematik) degan laqab olgan. Ilm yoʻlida Bogʻdodga ketib qoladi va shu yerda yashaydi. Xalifa Maʼmun (813-833) davrida Bogʻdodda va Damashq yaqinidagi rasadxonalar uning rahbarligida qurilgan. “Maʼmun akademiyasi”da koʻplab kashfiyotlar qilgan. 812-yilgi quyosh tutilishini oldindan aytib bergan, yerning dumaloqliгинi isbotlab bergan. Nil daryosi suvini oʻlchaydigan yangi asbob “MIKyos jadid” ni yaratdi. Uning astronomiyaga oid asarlari XII asrdan Yevropa tillariga tarjima qilinib bir necha asrlar mobaynida Sharq va Gʻarb olimlari tomonidan qoʻllanma sifatida ishlatib kelingan. Bogʻdodda vafot etgan.

“Somoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob”, “Astrolyabiya haqida mukammal kitob”, “Astrolyabiya sanʼati haqida”, “Majastiyya kirish fasilari risolasi”, “Oy Yer ustida yoki uning ostida boʻlgan paytdagi vaqtlarni oʻrganish haqida risola”, “Etti iqlim hisobi”, “Marmarning xizmati haqida kitob” asarlarining muallifidir.

1998-yil oktabrda buyuk Vatandoshimizning 1200 yillik yubileyi yurtimizda keng nishonlandi.

**AHMAD YUGNAKIY** (XII-XIII asrlar) – mashhur shoir, Yugnak qishlogʻida tugʻilgan. Bu nomdagi qishloq Samarqand atrofi, Fargʻona vodiysi va Sirdaryo boʻylarida boʻlgan. Ahmad onadan koʻzi ojiz tugʻiladi.

Adib Ahmad Yugnakiy salohiyatli shoir va odob-axloq muallimidir. Undan bizgacha faqat “Hibat ul-haqoyiq” (Haqiqatlar tuhfasti) dostoni yetib kelgan xolos. Asar 484 misradan iborat. Uning hozirgacha 3 ta toʻliq qoʻlyozmasi va 2 ta ayrim parchalari saqlanib qolgan.

Dostonda turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, maʼnaviy-axloqiy kamolot siralaridan taʼlim beriladi. Birinchi bob “Ilm manfaati va jaholatning zarari haqida” deb atalib, unda ilm haqida juda hikmatomuz soʻzlar aytilgan. Asarning qolgan boblarida insonning yuksak fazilatlarini taʼriflash, nuqsonlarini qoralashga, savovat, kamtarlik, insonparvarlik, kechirimlilik boʻlish targʻib qilinib, insonga xos hamma

salbiy hislatlar qoralanadi. Kitobda Qur'on va hadislardan juda ko'p misollar keltiriladi.

**AHMAD YASSAVIY** (Qul Xoja Ahmad Yassaviy) (1041-1166) – mashhur mutasavvif shoir, tasavvufning eng yirik namoyondalaridan biri. Turkiston (Yassi) shahrida tug'ilgan. Buxoroda Yusuf Hamadoniydan tasavvuf ta'limotini o'rgangan. Turkistonga qaytib kelib, shayx, pir sifatida shuhrat qozonib, Islom, uning qonun-qoidalari, aziz avliyolariga e'tiqodni targ'ib qiluvchi diniy oqimning kuychisi, mashhur shoiri sifatida keng shuhrat qozondi. Uning she'rlari "Devoni hikmat" nomi bilan 900 yildan buyon qo'ldan-qo'lga o'tib, oddiy xalq orasida o'qilib kelmoqda. Bu hikmatlar Islom mafkurasining sodda ifodasi bo'lib, ularda zolimlar tanqid qilingan. Ahmad Yassaviy ijodi qadimgi o'zbek adabiy tili va o'zbek sha'riyati san'atini o'rganishda muhim yodgorlik va manbalardan biri hisoblanadi.

Ahmad Yassaviyning hisobsiz muridlari bo'lgan. Uning yo'lini Sulaymon Boqirg'oniy, Mahdumi A'zam, Mashrab, So'fi Olloyor, Ahsaniy kabi bir qancha shoirlar davom ettirganlar.

**BAHOUDDIN NAQSHBAND** (1318-1389) – yirik avliyo va tariqat rahnamolaridan, naqshbandiya tariqati asoschisi va rahnamosi. Buxoro yaqinidagi Kasri Orifon degan qishloqda tug'ilgan. Buxoroda tahsil oladi. Xoja Mahammad Samosiy uni o'ziga o'g'il qilib oladi. Keyin Amir Kulolning qo'lida tarbiya olib, so'ng yetti yil Mavlono Orif va 12 yil Xalil Oto degan avliyolar suhbatida bo'lgan. Ikki marta haj qilgan. Hajdan qaytishida Nishopur va Hirotning ulug' mashoyihlari bilan uchrashib, bir muddat Marvda yashadi. So'ng Buxoroga qaytib, qolgan umrini shu yerda o'tkazdi va ashu yerda vafot etdi.

Bahouddin Naqshbandiyning "Hajnoma" nomli va'z va nasihatlardan iborat majmuasi, "Dalil ul-oshiqin" (Oshiqlar dalili) va "al-Avrod Bahoiyya" (Bahouddin viridlari) nomli tasavvufga oid asarlari bor.

**BURHONUDDIN AL-MARG'ILONIY** (1123-1197) – mashhur faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'iloniy 1123-yil 23-sentabrda Marg'ilonda tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Marg'ilonda olib, keyinchalik Samarqandga ko'chib borgan va o'sha yerda yashagan. Uning islom olamidagina emas, balki butun insoniyat oldidagi buyuk xizmati shundan iboratki, u islom dinining tengi yo'q tahlilchisi va talqinchisi, bu din qomusiy mazmunining izohchisi va targ'ibotchisi bo'lgan. Fiqhga oid bir qator yirik asarlar yaratgan. Bu asarlar qatoriga "Bidoyat al-muntahiy" ("Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim"), "Kifoyat al-muntahiy" ("Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim"), "Kitob ul-mazid" ("Ilmi ziyoda qiluvchi kitob"), "Manoslik ul-haj" ("Haj marosimlari"), "Majmua ul-navozil" ("Nozilda bo'lgan narsalar to'plami"), "Kitob ul-faroiz" ("Farzlar kitobi"), "Kitob ul-mashoix" ("Shayxlar haqida kitob"), "Maziydun fi furu'il-hanafiya" ("Hanafiya mazhabiga qo'shimchalar"), "Bidoyat ul-mubtadiy" asari uchun 8 jildlik sharh, "Al-Hidoya" ("Kifoyat ul-muntahiy" uchun yozilgan 4 jildlik sharh) va boshqalar kiradi. Bu kitoblar nomlarining o'zayoq al-Marg'iloniy islom dinining asosiy masalalarini naqadar keng qamrab olganligidan dalolat beradi.

Al-Marg'iloniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan shoh asari "Al-Hidoya" 1178-yilda Samarqandda yozildi.

**IMOM AL-BUXORIY** (810-870) – Buxoroda tug‘ilgan. 825-yili otalari va birodarlari bilan haj safariga borib, u yerda qolib ketgan. U yerda ilmlarini takomillashtirib, payg‘ambarimiz hadislarini to‘plash, tartibga solish, ulardan qaysilari to‘g‘ri, qaysilari payg‘ambarga taalluqli emasligini aniqlash maqsadida Makka, Madina, Shom, Misr, Falastin, Iroq shaharlarini kezib, ranju-mashaqqatlar bilan jami 600 ming hadis to‘plab, bulardan 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarini yod olganlar. 600 ming hadisdan 7265 tasini “Jome‘ is-sahih” (Ishonchli to‘plam) kitobiga kiritdiar.

Imom al-Buxoriyning mashhur asarlari 15 ta bo‘lib, ulardan eng yiriklari “Jome‘ is-sahih” (Ishonchli to‘plam), “Al-Adab al-mufrad” (Adab haqida yagona kitob), “At-Tarix as-sag‘ir” (Kichik tarix), “At-Tarix al-asvat” (O‘rtacha tarix), “At-Tarix al-kabir” (Katta tarix) va “At-tafsir al-kabir” (Katta tafsir) asarlaridir.

1998-yil oktabrda yurtimizda Imom al-Buxoriyning 1225 yillik yubileyi o‘tkazildi.

**IMOM AT-TERMIZIY** (824-894) – mashhur muhaddislardan biri. Uning bobosi Marvlik bo‘lgan. Keyin Termizga ko‘chib kelgan. Yoshligidan ilm va hadisga qiziqib, Hijoz, Iroq va Xurosonda o‘qigan. Umrining oxirida kasal bo‘lib ko‘r bo‘lib qolgan. 70 yoshida Termizda vafot etgan. At-Termiziydan juda ko‘plab Islom olimlari dars olganlar.

Abu Iso at-Termiziyning asarlari: “Kitob al-jome‘” (Hadislar majmuasi kitobi), “Kitob ilol” (Illatlar kitobi), “Kitobi tarix”, “Kitob ash-shamoil an-nabiyya” (Payg‘ambarlik alomatlar kitobi).

1995-yilda Imom at-Termiziyning 1200 yilligi keng nishonlandi.

**MAHMUD ZAMAXSHARIY** (1075-1144) – mashhur olim, mufasssir, tilshunos, shoir va yozuvchi. Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Urganch, Buxoro madrasalarida ta‘lim oladi. Bu yerdan Xuroson va Isfahonga boradi. Saljuqiylar saroyida xizmat qiladi. Xorazmga qaytib, qattiq kasal bo‘lib, bir oyog‘idan ajraladi. Sog‘aygach, ilm olish uchun Bog‘dodga jo‘naydi, u yerdan Makkaga o‘tadi. Ikki yildan keyin vataniga qaytib, bir qancha vaqt o‘tgach Shomga va yana Makkaga boradi. Makkada yashab u yerda tafsirga oid “al-Kashshof” (Oshkor qiluvchi) asarini tugatadi va “Jorullox” (Ollahning qo‘shnisi), “Arablar va g‘ayri arablar ustozlari”) unvoniga ega bo‘ladi. So‘ng yurtiga qaytib Xorazmda vafot etadi.

Mahmud Zamaxshariy 50 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Eng yirik asarlari “Al-Kashshof”, “Asos al-balog‘a” (Balog‘at asoslari), “Al-Foiq fi g‘arib-il-hadis” (Hadislardagi notanish so‘zlarni o‘zlashtiruvchi), “Al-Mufasssal” (Arab grammatikasiga bag‘ishlangan), “Muqaddimat ul-adab (Xorazmshoh Otsizga bag‘ishlangan), “Tog‘lar, joylar va suvlar xaqida kitob”, “Notiqlik asoslari”, “Aruzda o‘lchov”.

**MAHMUD QOSHG‘ARIY** (XI asr) – turkshunoslik ilmi asoschisi, qomusiy olim. 1029-1038-yillar orasida Qoshg‘arda tug‘ilgan. Keyin Buxoro va Nishopurda ta‘lim olgan. Ko‘p yillar turkiy qabilalar orasida kezib, ilmiy kuzatishlar olib borgan va to‘plagan boy ma‘lumotlari asosida o‘zining mashhur “Devon lug‘otit-turk” asarini yozgan. Bu asarda o‘sha davrda turkiy tildagi so‘zlar va iboralar to‘plangan va ular arabchaga tarjima qilinib, izohlab berilgan. Avval so‘zlar keltirilib, keyin o‘sha



soʻz ishlatiladigan jumla, maqol va sheʼrlar beriladi. Asarga Mahmud Qoshgʻariy tuzgan dunyo xaritasi, dunyoning doira shaklidagi tasviri ham ilova qilingan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. XI asr geografiya ilmining naʼmunasi boʻlmish bu xarita Qoshgʻariyning qomusiy olimligining dalilidir.

Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi bu olimni qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan olmoqda.

**MOTURIDIY ABU MANSUR MUHAMMAD IBN MUHAMMAD (870-944)** – islom dinining nazariy, fiqh asoslari va manbalarini oʻrganadigan sohasi boʻyicha hanafiya mazhabining yirik faqihi (huquqshunosi), kalom ilmida yangi bir yoʻnalish-maktab yaratgan yirik alloma. Samarqand yaqinidagi Moturid mahallasida tugʻilgan. Moturidiyning kalom sohasida ixtiro etgan taʼlimoti keyinchalik “moturidiya” nomi bilan shuhrat qozonib, musulmonlar orasida Movarounnhrda keng tarqaladi. Uning asarlarida qarmatiylar, rafoviziylar va muʼtaziliylar taʼlimotlari rad etiladi.

Qurʻon tafsiri, kalom, fiqh ilmi usullari sohasida bir qator kitoblar yozib qoldirgan. Ulardan “Kitob al-usul” (Fiqh asoslari kitobi), “Kitob taʼvilot al-Qurʻon” (Qurʻon tafsiri kitobi), “Sharh Fiqh al-akbar”, “Kitob at-tavhid” (Xudoning yagonaligi haqida), “Kitob al-maqolat” (Maqollar kitobi), “Maʼuz ash-sharoi” (“Qonunshunoslikdagi yetishmovchiliklar”), “Taʼvilot ahl as-sunna” eng mashhurlari hisoblanadi.

2000-yil 17-noyabrda Buyuk Vatandoshimiz tavalludining 1130 yilligi Samarqand shahrida keng nishonlandi.

**MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY (783-850)** – mashhur matematik va astronom. Xivada tugʻilib, Bogʻdodda vafot etgan. Bogʻdoddagi “Baytul hikma”da faoliyat yuritib, unga mudirlik qilgan. 20 dan ortiq asar yozgan boʻlib ulardan 10 tasi bizgacha yetib kelgan.

“Kitob al-Jabr va al-muqobala” (Tiklash va qiyoslash amallari) asari matematikaning alohida boʻlimiga aylanib algebra deb ataladigan boʻldi. Shu asar tufayli “al-Xorazmiy” nomi XII asr boshlarida lotincha tarjimada Algoritm shaklini oldi va hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy terminiga aylandi. Al-Xorazmiy shuningdek, “Quyosh soati haqida risola”, “Kitob surat ul-arz” (Yer surati), “Usturob haqida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqqa risolasi” kabi asarlarning muallifidir.

Mamlakatimiz xalqlari 1983-yilda al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi tantanali nishonlangan.

**NAJMIDDIN KUBRO (Ahmad ibn Umar Xivaqiy 1145-1221)** – tasavvufning Markaziy Osiyodagi yirik namoyondalaridan, buyuk avliyo, donishmand, tasavvufning qubroviya tariqati asoschisi. Xorazmning Xivak shahrida tugʻilgan. Bolalik paytidayoq ilm ishtiyoqida Misrga boradi. U yerda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 1188-yil) degan olimdan dars oladi. Ruzbehon uni oʻgʻlidek yaxshi koʻrib, xatto qizini nikohlab beradi. Keyin Xurosonning shaharlariga kelib, u yerlik oʻlkan mutasavviflardan tasavvufga oid ilmlarni egallaydi. Keyin Misrdagi ustoz va qaynotasi Ruzbehon maslahati bilan Vatani Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyalash bilan shugʻullanadi. “Qubroviya” yoki “zahabiya” tariqatiga asos soldi. Zikri ovoz chiqarmay ijro etishni shu tariqat joriy qilgan. U zot har

qanday muommoli masalani hal qilib berar va kim bahslashsa, g'olib chiqar edi. Shuning uchun Qubro (Buyuk) nomini olgan. Najmiddin Qubro dunyo hirsu havasidan, ikir-chikirlaridan chetda turgani uchun Abuljanob deb atalgan.

Mashhur shayx 1221-yilda Urganchni qamal qilgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi "yo Vatan, yo sharofatli o'lim!" xitobi bilan xalqni jangga, vatan mudofasiga boshladi va bosqinchilar qilichi tig'ida sharofatli o'lim topdi.

"Favotih ul-jamol va fotih ul-jalol", "Ai-Usul al-ashara" (O'n asos yoki usul), "Risolat ul-xo'if il-xa'im min laumon al-la'im", "Risolat al-odob-il-zokirin" (Zikr qiluvchilarning odobi haqida risola) asarlarining muallifidir.

**YUSUF XOS XOJIB** (XI asr) – turkiyzabon shoir, olim va mutafakkir. Yettisuv o'lkasidagi Kuzo'rda (Bolasog'un) shahrida 1016-1021-yillar orasida tug'ilgan. Asl ismi Yusuf, "Qutadg'u bilig" asari bag'ishlangan Qoraxoniylar xoni Tamg'achxon Abu Ali Hasan ibn Arslonxon (1075-1103) unga Xos Xojib (Eshik og'asi) martabasini bergan va shu nom bilan shuhrat qozongan. Yusuf Xos Hojib o'sha davr arab, fors tillari va adabiyotini mukammal egallagan. Bulardan tashqari, qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og'zaki ijodini ham yaxshi o'rgangan. Shoir haqida yagona manba uning 1069-1070-yillarda yozib tugutilgan mashhur asari "Qutadg'u bilig" (Saodatga yo'llovchi bilim) kitobidir.

Doston 6500 baytdan iborat. Masnaviy tarzida arab imlosida yozilgan. Asar "Shohnomai turkiy". "Adab al-mulk" (Podshohlar odobi) va "Oyin al-mamlakat" (Mamlakatni idora etish qoidalari) nomlari bilan shuhrat qozondi.

"Qutadg'u bilig" avom xalq uchun emas, hoqon va beklar, ya'ni yurtning hukmdorlari uchun yozilgan. Ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish asarda bosh maqsad qilib qo'yilgan. Asarda yunon va Sharq ilmi nujumi, handasa, tabobat sirlari, dunyo tuzilishi va insonning ruhiga oid ma'lumotlar ham ko'p.

#### **MAVZU: MO'G'ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASHI.**

**BAROT** – podsho yoki xon tarafidan eichilar, choparlar va boshqa xodimlar va xizmatchilarga beriladigan oqliq (imtiyoz) qog'ozi.

**BOSQOQ** – mo'g'ul xonlari tarafidan bosib olingan mamlakatlarga yuborilgan maxsus mansabdor. Ular mahalliy hokimlar faoliyati va hatti-harakatlarini kuzatib borganlar. Bosqoqlar aholini ro'yxatga olish, o'ipon va soliqlar yig'ib olish bilan ham shug'ullanganlar.

**INJU** – marvarid. Mo'g'ulistonda o'rta asrlarda badavlat kishilarning shaxsiy mol-mulki. Eron, Kavkazorti mamlakatlari va O'rta Osiyoda xon xonadoni a'zolariga va ularning navkarlariga tegishli mol-mulki.

**JETE (JETA)** – mamlakat nomi. XIV asrning o'rtalarida Chig'atoy ulusi ikki qismga bo'linib ketganidan keyin Yettisuv va Chu vohalari va Sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan uning shimoliy-sharqiy qismi tarix kitoblarida Mo'g'uliston yoki Jete nomi bilan atalgan. Movarounnahr Chig'atoylari Sharqiy Turkiston va Yettisuv mo'g'ullarini qarochi, qaloq ma'nosida ham jeta deb atashgan.

**JO'JI ULUSI** – Chingizxon imperiyasining bo'linishi natijasida 1224-yili uning katta o'g'li Jo'jixonga tekkan mulk, ulus.

Jo'ji ulusi Irtishdan Ural tog'larigacha va g'arbda mo'g'ul oti tuyoqlari yetgan yergacha bo'lgan o'lkalarni qamrab olgan. Janub tomondan Chig'atoy ulusi bilan chegaradosh bo'lgan. XIII asr o'rtalaridan Jo'ji ulusi Oltin O'rda deb atalgan.

**KESHIK** – Chingizxonning maxsus gvardiyasi. Bu gvardiya botir harbiy boshliqlardan iborat bo'lib, u jangga juda kam safarbar etilardi. Keshik favqulodda sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlash uchun doimo jangovar holatda tutib turilar edi.

**NO'YON** – bir tuman (10 ming kishi) qo'shin qo'mondoni. Qadimgi turk va mo'g'ul qo'shinlarida shahzoda va sultonlar no'yon deb atalgan. XIV-XVI asrlarda eng nufuzli amirlargina no'yon bo'lishgan.

**OLTIN O'RDA** – tarixiy manbalarda Jo'ji ulusi deb ham yuritiladi. XIII asrning 40-yillarida Jo'jining o'g'li Botuxon (1208-1255) tomonidan bosib olingan Sharqiy Yevropa Jo'ji ulusiga qo'shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O'rda deb atalgan. Oltin O'rdaning poytaxti dastlab Astraxan yaqinidagi Saroy Botu, keyinchalik esa Volga bo'yidagi Saroy Berka shaharlari bo'lgan. Oltin O'rda xonlari quy'i Dunay va Fin qo'ltig'idan Irtish havzasi va Obgacha, Qora, Kaspiy va Orol dengizlari, hamda Balxash ko'lidan Novgorod yerlarigacha bo'lgan hududlarda hukmronlik qilishgan. XV asrning 20-yillarida Oltin O'rdadan Sibir xonligi, Qozon xonligi (1438), Qrim xonligi (1443), No'g'oy xonligi (1440), Astraxan xonliklari va Rus yerlari (1480) ajralib chiqqan.

**PAYZA** – mo'g'ul hoqonlari tomonidan o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga beriladigan oltin, kumush, jez va yog'ochga ma'lum bir imtiyozlar bitilgan bitik. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega bo'lganlar.

**QOPCHUR** – ko'chmanchi xalqlardan va qabilalardan undiriladigan soliq. Qopchur solig'ining miqdori yuz bosh hayvondan birini, ba'zan qirqdan birini tashkil etgan.

**QORAQURUM** – Urxun daryosi (Mo'g'uliston) bo'yidagi shahar. 1230-1260-yillarda mo'g'ullar imperiyasining poytaxti. XV asrdan o'z mavqei yo'qotgan.

**QORAUNAS** – XIII-XIV asrlarda Yettisuv va Sharqiy Turkiston mo'g'ullari Movarounnahr aholisini shunday atashgan. Qoraunas aralashgan, chatishgan, duragay, metis degan so'zlarga ma'nodosh.

**QULZUM DENGIZI** – Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomi.

**SARBADORLAR** – XIV asrda Xuroson va Movarounnahrda mo'g'ullar va mahalliy feodallarga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. So'zma so'z ma'nosi "o'z boshini dorga tikkanlar". Sarbadorlar harakati dastavval Xurosonda boshlandi. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'g'ullar hukmronligini tugatib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo'lib, 1337-yildan 1381-yilga qadar qariyb 45 yil hukm suradi.

**TUMAN** – mo'g'ulcha o'n ming degan ma'noni anglatadi. O'n ming aholisi bo'lgan yoki o'n ming kishilik qo'shin yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan muzofot, ya'ni okrug. Shuningdek, o'n ming otlidan tashkil topgan qo'shin ham tuman deb atalgan.

**ULUS** – tor ma'noda ma'lum bir urug', qabila yashab turgan sarhadni ifodalagan. Kengroq ma'noda esa xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar va

ularga bo'ysunuvchi hamda shu yerda istiqomat qiladigan aholini qamrab olgan ma'lum bir sarhad tushutilgan. Tarixiy manbalarda Jo'ji ulusi, No'g'oy ulusi. Shaybon ulusi, O'zbek ulusi, Chig'atoy ulusi kabi uluslar mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud.

**ULUFA** – O'rta Osiyoda harbiy qo'shin va lashkar ixtiyorida ot-ulov uchun aholidan to'planadigan natural soliq. Jangchilarga beriladigan maosh ham ulufa deb atalgan. Ulufa atamasi tarixiy manbalarda XII asrdan ma'lum.

**XON** – turkiy xalqlar va mo'g'ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida viloyat va shahar hokimi, mo'g'ul feodal imperiyasida ulus boshlig'i xon deb atalgan. Mo'g'ullar imperiyasi inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlarda oliy hukmdor nasab jihatidan Chingizxonga qarindosh bo'lsa, xon, podshohlik qilmagan Chingiziylar esa sulton deb yuritilgan. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonlari ham o'zlarining kelib chiqishini Chingizxonga bog'laganlar va shuning uchun ham ismlariga xon rutbasini qo'shib yuritganlar.

**XONBALIQ** – mo'g'ulcha "xon shahri" degan ma'noni anglatadi. Xitoyning mo'g'ullar hukmronligi, ya'ni Yuan sulolasi (1260-1368) davridagi poytaxti Pekin.

**YASO (YOSOQ)** – 1) Chingizxon (1151-1227) tomonidan joriy qilingan qonun-qoidalar to'plami. Fuqarolar yasoga, ya'ni qonun-qoidalarga qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor yasovul deb atalgan.

2) Mo'g'ul imperiyasi, xususan Oltin O'rda davlati tomonidan itoat ettirilgan xalqlardan natura bilan undiriladigan soliq turi ham yasoq deb yuritilgan.

3) Buxoro xonligida (Shayboniylar davrida) aholining mehnat majburiyati. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak yig'ishga jalb etishni nazarda tutardi. Majburiyatni o'tashga jalb etilganlar o'z mehnat qurollari bilan kelardilar, o'zlari hisobidan ovqatlanar edilar.

**YETTISUV** – tarixiy-geografik hudud. Hozirgi Qozog'iston Respublikasining sharqi, Balxash va Issiqko'l oralig'idagi hudud. Tyanshan va Oloy tog' tizmalaridan boshlanib Balxash ko'liga quyiladigan yettita daryoning havzasi bo'lganligi uchun shunday nom olgan. Yettisuv o'lkasi ko'chmanchi turkiy qabilalarning azaliy yurti hisoblanib, tarixda Chig'atoy ulusining markazi ham Yettisuv bo'lgan.

**YOM** – o'rta asrlarda taxminan bir kunlik yo'lga elchilar va choparlar to'xtab o'tishi uchun qurilgan bekat. Bu yerda qo'noqlarga oziq-ovqat, tunash uchun joy, ot-ulovga yem xashak berilgan. Jo'nab ketish oldidan otlari almashtirib ham berilgan.

**SHULEN** – mo'g'ullar hukmronligi davrida davlat xazinasi uchun undiriladigan oziq-ovqat solig'i. Shulen har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan.

**CHERIK** – qo'shin, askar. O'rta asrlarda Mo'g'uliston. Dashti Qipchoq va O'rta Osiyoda harbiy yurish vaqtida viloyat, o'lka va uluslardan yordam uchun to'planadigan nomuntazam qo'shin. Cherikni to'plab kelish tavochilarning zimmasida bo'lgan.

**CHIG'ATOY ULUSI** – Chingizxon tomonidan 1224-yilda ikkinchi o'g'li Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlar. Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi mo'g'ullar o'troq aholini boshqarish uchun tajribaga ega

emas edilär. Shuning uchun ham Chig'atoy ulusini boshqarish xorazmlik Mahmud Yalavoç (1225-1238) va uning o'g'li Mas'udbekka (1238-1289) topshirilgan. O'zlari esa ulusdan keladigan daromadlarning asosiy qismini olish bilan qanoatlanganlar. Chig'atoy ulusining hukmronligiga Amir Temur hokimiyatga kelgach barham berilgan.

Chig'atoy ulusi xonlari: Chig'atoy (1224-1242), Xara Xulagu (1242-1247), Yesu Munke (1247-1252), Xara Xulagu (1252 ikkinchi marta), Orqina Xotun (1252-1261), Olg'uyxon (1261-1266), Muborak (1266), Baroq (1266-1271), Nikpay (1271-1272), Tug'a Temur (1272-1291), Duvaxon (1291-1306), Kunçek (1306-1308), Taliku (1308-1309), Kebekxon (1309), Esonbuço (1309-1318), Kebekxon (1318-1326 ikkinchi marta), Duva Temur (1326), Tarnashirin (1326-1334), Changshi (1334), Buzan (1334-1338), Yesun Temur (1338-1346), Donishmandcha (1346-1348), Boyonquli (1348-1359), Shoh Temur (1359), Tug'luq Temur (1359-1370).

**BADRIDDIN CHOCHIY** (1285-1345) – Mo'g'ullar bosqini tufayli o'zga yurtlarga bosh olib tarki vatan etgan shoir, adib, olim va mutafakkirlarimizdan biridir. U Choch (Toshkent)da tavallud topgan, Samarqand va Buxoroda yig'itlik yillarini o'tkazdi. Chochiy 1333-yillarda Makkadan qaytishda Dehlida to'xtaydi va mo'g'ullar zulmi hukm surayotgan o'z ona Vatani qaytib kelishga jur'at qila olmasdan o'sha yerda qolib ketadi. U Hind sultoni Tug'luq Muhammad (1325-1351) saroyida xizmat qilgan. Chochiy Movarounnahrda yashagan kezlarida turkiy tilda she'rlar bitgan. Hindistondagi faoliyati davomida o'sha davrning asosiy adabiy tillaridan bo'lgan fors-tojik tilida ijod qilgan. U 6 ming baytli lirik devon tuzgan, 35 ming baytli "Shohnoma" asarini yaratgan. Undan bizgacha o'limidan bir yil muqaddam tuzilgan "Sharhi qasoidi Badri Chochiy" yetib kelgan. Unda 70 dan ziyod qasida, ko'pgina ruboiylar, qit'a va g'azallar jamlangan.

Badridin Chochiy buyuk so'z san'atkorlaridan biridir. Uning she'rlari juda murakkab va chuqur mazmunda bitilgan bo'lib, atoqli hind olimi G'iyosuddin ibn Jaloliddin Mustafò Chochiy asarlarini kitobxonlarga yetkazish maqsadida, ularga sharh sifatida "Kashful asror" (Sirlarning ochilishi) (1840-41) asarini yozgan.

**JALOLIDDIN RUMIY** (1207-1273) – ulug' alloma va mutafakkir. Asli Balxda tug'ilgan bo'lib, otasi Bahouddin o'z davrining mashhur kishilaridan bo'lib, u Najmiddin Qubroning shogirdi edi. Mo'g'ullar istilosi tufayli Jaloliddin Rumi otasi bilan vatanidan chiqib ketishga majbur bo'ladi va Kichik Osiyo (Qo'niya) ga borib o'qiydi hamda mudarrislik qiladi. U fors-tojik, arab va turkiy tillarda ijod qilib, o'zining mashhur asarlarini yaratadi.

Jaloliddin Rumi o'zining 27 ming baytdan iborat "Masnaviy Rumi" asarini qariyb o'n yil davomida yozib tugallagan.

Jaloliddin Rumi ayni zamonda buyuk faylasuf ham bo'lgan. U "Mavlaviy" nomi bilan ataluvchi tasavvuf maktabining asoschisidir. Faylasufning "Masnaviyi ma'naviy" va "Fihi mo'fih" (unda qanday bo'lsa, bunda ham shunday) asarlarida hurfikrlik va nazariy tafakkur, taraqqiyot muommolari ilgari suriladi. Uning falsafiy dunyoqarashidagi asosiy g'oya zo'rlik va zulmi qoralash, haqiqat va adolatni tarannum etishdan iboratdir.

**PAHLAVON MAHMUD** (1248-1326) – Xorazmlik mashhur shoir, mutafakkir va faylasuf. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam saqlangan. U Xiva

yaqinida hunarmand oilasida dunyoga keladi. O'zi ham po'stindo'zlik, telpako'd'zlik kasbi bilan shug'ullangan. U xalq orasida Pahlavon Mahmud nomi bilan tanilgan, Chunki jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda u dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezgan, manman degan polvonlar bilan kurash tushgan. Lekin biror marta bo'lsa ham uning kuragi yerga tegmagan. Hikoya qilishlaricha, Pahlavon Mahmud bir jangda Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qoladi. Buning evaziga hind shohi qachonlardir Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod qiladi. Otashin vatanparvar Xiva yaqinida mo'g'ullarga qarshi jangda kurashib halok bo'lgan Xorazm askarlarining qabri ustiga maqbara qurdiradi.

Ayni zamonda Pahlavon Mahmud ilm-ma'rifat bilan qiziqadi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Ma'lumotlarga qaraganda Pahlavon Mahmud "Kanz ul-haqoiq" nomli masnaviy yozgan. Asar bizgacha yetib kelmagan. U g'azal, ruboiy, masnaviy janrida samarali ijod qilgan shoir sifatida ham tilga olinadi. Shoirming ijtimoiy-falsafiy qarashlari uning ruboiylari mazmunida aks etgan.

Pahlavon Mahmud qabri hozirda Xiva shahrining Ichan qal'a kompleksida joylashgan bo'lib, uning nonidagi maqbara xalqimizning muqaddas ziyoratgohiga aylantirilgan.

**RABG'UZIY** (XIII asr oxiri-XIV asr boshlari) – Burxoniddin o'g'li Nosiruddin Rabg'uziy vatanimiz tarixida o'z munosib o'rniga ega. U Xorazmning Raboti O'g'iz degan joyida tavallud topgan. Rabg'uziy to'g'risida ma'lumot beruvchi uning "Qissai Rabg'uziy" asaridan boshqa hech qanday ma'lumot bizgacha yetib kelmagan.

Rabg'uziy bu asarini 1311-yilda yozib tugallagan. Asarda hikoya qilingan Odam, Shis, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ishoq va boshqa payg'ambarlar, Horut va Morut kabi farishtalar to'g'risidagi rivoyatlar shoir iqtidori va iste'dodining yuksakligidan dalolat berib qolmasdan, ayni paytda u ilk o'zbek badiiy prozasining dastlabki na'munasi sifatida ham qimmatlidir.

## **MAVZU: AMIR TEMUR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOT.**

**"AFLOTUNI ZAMON"** – Ulug'bek rasadxonasida faoliyat yuritgan mashhur astronom va matematik Qozizoda Rumiya (1360-1437) zamondoshlari began unvon.

**AMIR** – 1) Islomiyatga qadar arablarda qabila boshlig'i, harbiy boshliq. Keyinchalik Arab xalifaligiga bo'sundirilgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokim, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilar.

2) Mo'g'ullar istilosidan so'ng Oltin O'rdada, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni.

3) Sohirqiron Amir Temurning unvoni.

4) Hozirda arab podsholarining o'g'illariga beriladigan unvon (masalan: Saudiya Arabistonida).

5) Makkaga ziyorat uchun boruvchi katta guruh xo'jilarning yo'lbo'shchisi.

**ASTROBOD** – Jurjon (Gurgon)ning kattaligi jihatidan ikkinchi yirik shahri. Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy tarafida, Mozandaron chegarasida joylashgan.

**AVANGARD** (fransuzcha "avant garde" – oldindagi qo'riqchi) – harbiy safar vaqtida asosiy kuchlarni qo'riqlash uchun oldinda boruvchi askariy qism.

Avangardning vazifasi asosiy kuchlarga dushman tomonidan bexosdan qilinadigan hujumlarga yoʻl qoʻymaslik va asosiy kuchlarning jang qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat boʻlgan. Avangard baʼzi oʻzbek harbiy qismlarida hirovul, avangʻor, moʻgʻul lashkarlarida esa manqlay, mangʻlay deb ham yuritilgan.

**AYL** – Amir Temur qoʻshinida oʻn kishilik harbiy boʻlinma.

**BALX** – Afgʻonistonning shimolidagi oʻrta asr shahri (Qadimgi Baqtra).

**BANNO** – oʻrta asrlarda imorat quruvchi usta.

**BARID** – 1) Chopar, xat eltuvchi, pochtaion. Somoniylar davlat boshqaruvi tizimida barid devoni mavjud boʻlib, u maktubot va axborot, yaʼni pochta vazirligi hisoblangan.

2) XIV-XVI asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlarida keng qoʻllanilgan masofa oʻlchov birligi. Ikkı farsah, yaʼni taxminan 12 km. ga teng yoʻl boʻlgan.

**BARLOS** – oʻrta asrlarda Dashti Qipchoqda koʻchmanchi chorvachilik bilan shugʻullangan turkiy qabila. Barloslar XIII asrda Movarounnahr hududiga (asosan Qashqadaryo vohasiga) kelib joylashib asta-sekin oʻtroq hayotga oʻtadilar va mahalliy aholi bilan aralashib bugungi oʻzbek xalqining tarkibiga singib ketadilar.

Amir Husrav Dehlaviy, Sohibqiron Amir Temur, buyuk olim va davlat arboblari Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bedillar aynan barlos urugʻidan chiqqanlar. Sevet mafkurasi barloslarni moʻgul deb ajdodlarimizni bizdan ajratib qoʻyishmoqchi boʻlishgan. Amir Temur bejiz “Bizkim mulki Turon, amiri Turkistonmiz, turkning bosh boʻgʻinimiz” deb xitob qilmagan.

**BAROT** – 1) Podshoh, xon tomonidan biror soliq yoki jarimadan ozod etish.

2) Maʼlum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash, xalqdan soliq toʻlash yoki pul. gʻalla, yem-xashak olish uchun berilgan maxsus yorliq yoki guvohnoma. Bunday guvohnoma olgan kishi barotdor deb atalgan.

**BEGOR** – Oʻrta Osiyoda oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan majburiy ishlab berish majburiyati. Mehnatkash xalqning xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarning turli qurilishlarida tekinga 12 kunlik ishlab berish majburiyati (hashar).

**BORU** – qalʼa devori. Qalʼa devorining dushmanga oʻq otish uchun moʻljallangan maxsus mustahkam qismi.

**BURONGʻOR** – Amir Temur qoʻshinida asosiy jangovar qismning oʻng qanoti.

**DORUGʻA** – harbiy maʼmur. Biron bir viloyat yoki shaharning hokimi.

**DUYUL, TUYUL** – hadya. inʼom. Temuriylar davrida hukmdor tomonidan harbiy mansabdorlar, oliy martabali kishilarga berilgan yer-suv, qishloq-shaharlar.

**FULUS** – mayda mis chaqa.

**IZOFA** – Amir Temur qoʻshinining zahira (rezerv) qismi.

**JARIB** – oʻrta asrlarda amalda boʻlgan yer oʻlchov birligi (968 kv. metr). Odatda 1 jarib taxminan bir tanob yerga teng boʻlgan.

**JUVONGʻOR** – Amir Temur qoʻshinida asosiy jangovar qismning soʻl (chap) qanoti.

**KADXUDO** – qishloq va shahar oqsoqoli.

**KANBUL** – Amir Temur qoʻshinida qoʻriqchi askariy qoʻshilma.

**KORAGON** – moʻgʻulcha “kuyov” demakdir. Chingizxon xonadoniga mansub malikalarga uylangan shaxslarga beriladigan unvon. Amir Temur va temuriylar

davrida bu unvon kishi ismiga qoʻshib aytilgan. Koʻragon unvoniga ega amirlarning boshqa amirlarga qaraganda imtiyozlari katta boʻlgan.

**LAVVOH** – kitob lavhalarini tayyorlovchi usta.

**LANGARXONA** – musofirxona, gʻaribxona. Oʻrta asrlarda yoʻlovchi musofirlar, sayyohlar va ziyoratchilar tunab, dam olib oʻtadigan joy.

**MONIYI SONIY (IKKINCHI MONIY)** – mashhur musavvir Kamoliddin Behzod (1455-1535)ga zamondoshlari tomonidan berilgan unvon.

**MOCHIN (CHIN-MOCHIN)** – oʻrta asrlarda Xitoyning nomi.

**MUZAFFARIYLAR** – 1313-1393-yillarda janubiy Eron (Fors, Kirmon va Isfahon)ni idora qilgan mahalliy sulola. Poytaxti Sheroz shahri. 1387-1393-yillarda Amir Temur tomonidan tugatilgan.

**MUHASSIL** – soliq undiruvchi amaldor.

**MUTRIB** – musiqashunos, sozanda.

**MUZORIY** – ekin maydonlarga ishlov beruvchi yollanma ziroatchi.

**NASTAʼLIQ XATI** – arab mumtoz xati usublaridan biri boʻlib, unda harflarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa toʻgʻri chiziqalar asosida yozilgan.

**QAZNOQ** – qadimiy turkiy tilida “xazina” demakdir. Oʻrta asrlarda omborxonona.

**QORA-QUYUNLILAR SULOLASI** – 1380-1468-yillarda Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan turkmanlar sulolasi. Qora Yusuf turkman (1388-1420) 1388-1389-yillarda Armaniston, Iroq va Janubiy Ozarbayjon sarhadlarida Amir Temur lashkarlariga qarshi janglar olib borgan. U Amir Temurdan yengilib Turk sultoni Boyazid saroyiga borib panohtopgan. Shu sababli Amir Temur va Boyazid oʻrtasida kelishmovchilik kelib chiqqan. Qora Yusuf oʻz yurtiga faqat 1406-yilda Amir Temur vafotidan keyin qaytgan.

**QOZOQLIK** – toju-taxiga daʼvogarlik qilib yurgan biron shahzodaning oʻz maqsadiga erishish niyatida boshqa biron sohibi saltanatning xizmatini oʻtab yurgan kezlaridagi turmush tarzi. Amir Temur bir paytlar shu niyat bilan Moʻgʻuliston va Seyiston podshohlari xizmatida boʻlgan.

**QUTVOL** (hindcha “qut” – qalʼa, arabcha “voliy” – hokim) – qalʼa hokimi.

**RAIYAT** – soliq toʻlovchi xalq, qora xalq.

**RASADXONA** – osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino. Samarqandda Mirzo Ulugʻbek tomonidan 1424-1428-yillarda barpo etilgan rasadxona aholi orasida “Naqshi jahon” nomi bilan mashhur boʻlgan.

**RUM** – Rim imperiyasining oʻtmishda Sharq va Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan nomi. Milodiy IV asrda Rim imperiyasi parchalangach, “Rum” atamasi Vizantiya imperiyasiga (395-1453) nisbatan ishlatilgan.

**SADRI AʼZAM** – Temuriylar davrida vaqf mulklarini boshqaruvchi.

**SAHHOF** – kitob muqovalarini tayyorlovchi usta.

**SANAD** – Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasida kamida 15-16 yil tahsil olib, uning dasturi boʻyicha fanlarni toʻla oʻzlashtirgan va imtihonli saboqlarda oʻz bilimini namoyish eta olgan tolibi ilmlarga beriladigan shahodatnoma.

**SEKSTANT** – osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun moʻljallangan koʻzgu-qaytargichli asbob.



**SEYISTON** – Eronning Afgʻoniston bilan chegaradosh sharqiy viloyati. Miloddan avvalgi II asrda koʻchmanchi sak qabilalari shimoldan Xerirud va Gilmand daryolari oraligʻidagi viloyatlarga kelib joylashishgan va shundan boshlab bu hududlar Sakiston (Seyiston) deb yuritila boshlangan.

**SOHIBQIRON** – quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini toʻsishi (qiron) paytida tugʻilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz – Zahro va Mushtariy sayyoralarini bir-birlariga yaqinlashgan paytda tugʻilgan ekan. Munajjmlarning fikriga koʻra, bunday odam baxtli, ulugʻ martabali boʻlishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan.

**SULTON UL-HATTOTIN** – hattotlar sultoni. Mashhur hattot Sultonali Mashhadiy (1432-1520) zamonadoshlari tomonidan shunday nom bilan ulugʻlangan.

**SUYURGʻOL** – biror hukmdor tomonidan alohida xizmat koʻrsatgan shaxslarga berilgan inʼom. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib, olgan daromadlaridan oʻz ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega boʻlgan.

Ilgari (XIV asr oxiri – XV asr boshlarida) va ayniqsa XVI asrning boshlari va ikkinchi yarmida yerni suyurgʻol tarzida inʼom etish vaqtincha tusda boʻlib, yer meros boʻlib oʻtmas edi. XVII-XVIII asrlarda esa vaqtincha berilgan yerlar doimiy mulkka oʻta boshladi va bu mulkka egalik huquqi vorislarga ham oʻtkaziladigan boʻldi.

**TAMGʻA** – savdo boji. Savdogarlardan olinadigan soliq.

**TARXON** – 1) Moʻgʻullar va Temuriylar davrida toju taxt oldida koʻrsatgan alohida xizmatlari uchun alohida imtiyozga ega boʻlgan amir. Tarxon yorligʻi egasi xon huzuriga bemalol kira olgan, soliqlardan ozod etilgan va toʻqqiz martagacha jinoyati kechirilgan, oʻzi va avlodi ham soliqlardan ozod etilgan.

2) Oʻrta asrlarda turkiy xalqlardagi yer egasi – feodal.

3) Oʻrta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yersuv, mol-mulklari.

**TAVOCHI** – XII-XVII asrlarda Oʻrta Osiyo va Eronda xon va podshohlar saroyida xizmat qilgan oliy harbiy mansabdor. Tavochi zimmasiga harbiy yurish koʻzda tutilganda tobe viloyatlardan oziq-ovqat, ot-ulov, belgilangan miqdorda lashkar toʻplab kelish va yurish bilan bogʻliq boshqa vazifalar yuklatilgan.

**TEMURIYLAR** – 1370-1507-yillarda Movarounnahr, Afgʻoniston, Eron, Ozarbayjonda hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi mashhur sarkarda va yirik davlat arbobi Amir Temur. U XIV asrning 40-yillarida Chigʻatoy ulusida kuchayib ketgan feodal tarqoqlik oqibatida hokimiyat tepasiga kelgan. Samarqand va Hirot shaharlari Temuriylar davlatining poytaxti boʻlgan. 1405-yilda Amir Temur vafotidan soʻng uning saltanatini oʻgʻillari va nabiralari ikki qismga boʻlib idora qila boshladilar. Shohrux Mirzo (1409-1447), Ulugʻbek (1447-1449) va Abu Saidlar (1451-1469) bir vaqtning oʻzida ham Xuroson, ham Movarounnahrning oliy hukmdorlari boʻlishgan.

Movarounnahrda hukmronlik qilgan temuriylar:

Xalil Sulton (1405-1409), Mirzo Ulugʻbek (1409-1447), Abdulatif (1449-1450), Abdulloh Mirzo (1450-1451), Abu Said (1451-1469), Sulton Ahmad (1469-1494), Sulton Mahmud (1494-1496), Boysunqur (1496-1497), Sulton Ali (1497-1500).

Xurosonda hukmronlik qilgan temuriylar:

Shohrux (1409-1447), Mirzo Ulug'bek (1447-1449), Abulqosim Bobur (1449-1457), Sulton Mahmud (1457-1459), Husayin Boyqaro (1469-1506), Baduizzamon (1506-1507).

**TIM (TOQ)** – o'rtta asrlarda usti yopiq bozor.

**TUZUK** – qonun. Turk-mo'g'ul xalqlari orasida amalda bo'lgan qonun-qoidalar.

**USTURLOB** – yulduz va sayyoralarining o'rni va balandligini o'lchaydigan astronomik asbob.

**XAZORA** – Amir Temur qo'shinida ming kishilik harbiy birlashma.

**YASOVUL** – 1) Chingizxon tomonidan joriy qilingan qonun-qoidalar to'plami – yasoga fuqarolar qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor.

2) Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi shaxs.

**YASSI** – hozirgi Qozog'iston Respublikasidagi Turkiston shahrining o'rtta asrlardagi nomi.

**YILDIRIM** – Usmoniy Turk sultoni Boyazid (1389-1402)ga berilgan laqab.

**YOSOL** – qo'shin safi. Yosol tuzish – qo'shinni yurish, ko'rik yoki jang oldidan safga tizish.

**“O'Z DAVRINING PTOLOMEYI”** – Ulug'bek rasadxonasida faoliyat yuritgan mashhur astronom va matematik Ali Qushchiga (1402-1474) zamondoshlari bergan unvon.**SHIKOR** – ov.

**G'UL** - Amir Temur qo'shinining markaziy qismi.

**SHOM** – Suriya mamlakatining o'rtta asrlardagi nomi.

**CHAQIRIM** – o'rtta asrlardagi masofa o'lchov birligi. 1,06 kilometrga teng

**ABDURAHMON JOMIY** (1414-1492) – mashhur fors-tojik shoiri, mutasavvuf, naqshbandiya tariqatining yirik namoyondalaridan biri. Nishopur yaqinidagi Jom shahrida tug'ilib. Hirotga yashagan va “Nizomiya” madrasasida o'qib, o'z davrining taniqli til, adabiyot olimlaridan tahsil oladi. Keyinchalik Samarqandga kelib, Ulug'bek madrasasida Qozizoda Rumiy, mashhur islomshunos Fazlulloh Abullays Samarqandiyardan faqat til va adabiyotnigina emas, riyoziyot, falakiyot, falsafa, fiqh, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini chuqur o'rgangan. Hirotga kelib tasavvuf yo'liga kirdi va shayx Sa'duddin Qoshg'ariyni (vafoti 1456 y.) o'ziga pir deb bildi. Sa'duddin ta'limoti Naqshbandiya ta'limotiga yaqin bo'lib, u o'z muridlarini islom dinining asosiy aqidalariga amal qilish bilan birga halol mehnat bilan yashashga chaqirdi. Jomiy o'z piring qiziga uylanadi. Va asta-sekin naqshbandiya tariqatining yirik vakili va targ'ibotchisi sifatida taniladi. 1469-yilda Husayin Boyqaro Hirot taxtiga chiqqanidan keyin Jomiyning mavqei juda ortib ketadi. Sulton Husayin va uning ko'p avlodlari Jomiyga o'zlarini murid deb e'lon qiladilar. Jomiy 1472-yilda hajga borgan va safar davomida Nishopur, Sabzavor, Bistom, Damg'on, Qazvin, Hamadon, Qarbalo, Bog'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarda bo'ladi. Uning juda ko'p yeri bo'lgan, podsholik ishlarida o'z maslahatlari bilan qatnashib turgan, hukmdorlar u bilan hisoblashganlar. 1476-1477 yillarda 25 yoshli Navoiy Jomiy o'ziga pir deb taniydi. Jomiy vafot etganda butun Hirot xalqi motam tutgan. Dafn marosimini Navoiy boshqargan.

Jomiy o'z asarlarini fors tilida yozdi. U arab tilini ham juda yaxshi bilgan. Navoiy ma'lumotlariga qaraganda Jomiy o'zbek tilini ham yaxshi bilgan. Ba'zi olimlar Jomiy asarlarini 100 ga yaqin desalar, Navoiy uning 38 ta asarini sanab o'tgan. Uning asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga, nazm va nasming har xil janrlariga oiddir. O'zining "Haft avrang", "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror", "Suhbat ul-abror", "Hiradnomai Iskandariy", "Nafohat ul-uns" asarlarida Jomiy yuksak xulq-atvor g'oyalarini targ'ib qiladi.

**ALISHER NAVOIY** (1441-1501) – buyuk o'zbek shoiri, adibi va tilshunosi, mutafakkir va davlat arbobi. Hirotida tug'ilgan. Otasi G'iyosuddin Muhammad o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. Alisherning she'riyatdagi ilk ustozlari Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar bo'lgan. 1452-yilda otasi vafot etadi va shu yili Hirot taxtiga chiqqan Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Xusayinni saroyga, o'z tarbiyasiga oladi. 1466-1468-yillarda Samarqandda ta'lim oldi. Yoshligida yurtiga iste'dodli shoir sifatida tanilgan Alisher Navoiyni 1469-yilda Xusayin Boyqaro Hirot taxtiga o'tirgach Samarqanddan chaqirib olib, muhrdorlik vazifasiga, 1476-yilda vazirlik lavozimiga ko'tarib, unga "Miri Kabir" (Ulug' amir) unvonini beradi. Bu lavozimdan Navoiy xalq manfaati, mamlakat obodonligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun foydalanadi.

Hirotida "Ixlosiya" madrasasi, darveshlar uchun "Xalosiya" xonaqohi, bemorlar uchun "Shifohiya" kasalxonasi, "Dor ul-huffaz" (Qorixona) "Safoiya" xammomini qurdirgan. Xondamir yozishicha Navoiy o'z mablag'iga 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 9 ta hammom, Astrobodda "Mir saroyi" va "Jome' masjid", Marvda "Xusraviya" madrasasini qurdirgan. Uning kutubxonasida 70 dan ortiq hattot va musavvirlar qo'lyozmalarni ko'chirish va ularni bezash bilan shug'ullangan. Navoiy o'zi qurdirgan muassasalardagi mudarris va talabalarni maosh bilan ta'minlashni o'z zimmasiga olgan. O'z huzuriga ilm ahlini chorlab, yosh iste'dodlarni tarbiya qilib, ularga sharoit yaratib bergan. 1487-yili Navoiy Astrabod hokimi etildi. Bu yerda ikki yil hokimligi davrida Hirotidagi savobli ishlarini davom ettirdi.

Alisher Navoiy forsiyda Foniylar, turkiyda Navoiy tahallusi bilan 30 dan ortiq yirik badiiy asarlar yozgan.

Dastlab Navoiy o'zining ilk devoni "Badayi ul-bidoya" (Badiiylilik ibtidosi)ni tuzdi. 1483-1486-yillarda o'zining shoh asari "Hamsa"ni yozdi. Asar 50 ming misradan iborat beshta dostonni o'z ichiga oladi: "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor" (Etti sayyora) va "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori). Keyin ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" (Behad nodirliklar) yaratildi. 1492-yilda shoir o'zining lirik she'rlarini jamlab "Chor devon" majmuasini tuzdi. Uning tarkibiga quyidagi to'rtta to'plam kiritilgan: "G'aroyib us-sig'ar" (bolalik ajoyibotlari), "Navodir ush-shabob" (Yigitlik davri nodirliklari), "Badoye' ul-vasiyat" (O'rtta yosh badialari), "Favoid ul-kibor" (Keksalik foydalari).

Navoiy qalamiga oid nasriy asarlar quyidagilardir: "Zubdat ut-tavrix" (Tarixlar qaymog'i), "Holati Sayyid Ardasher", "Holati Pahlavon Mahmud", "Hamsat ul-matahayyirin" (Besh hayratga qolganlar), "Nasoim ul-muhabbat" (Muhabbat shabadalari), "Mezon ul-avzon" (Vaznlr o'lchovi), "Mufradot" (Fardlar), "Sittai zaruriya" (Olti zarur narsa), "Fusuli arbaa" (To'rt fasl), "Lison ut-tayr" (Qush tili),

“Muhokamat ul-lugʻatayin” (Ikki til muhokamasi), “Mahbub ul-quib” (Qalblar mahbubi), “Tarixi muluki ajam” (Ajam (Eron) podsholari tarixi).

**KAMOLIDDIN BEHZOD** (1455-1537) – buyuk musavvir va minatyurasoz, Alisher Navoiyning shogirdi. Nafis sanʼat tasvir (miniatyurasozlik) sohasida “Behzod maktabi”ni yaratgan ulugʻ siymo. Uning miniatyuralari tirikligidayoq va undan soʻng musulmon Sharqida va Gʻarbda qimmatli sanʼat asarlari deya baholanib, oʻzi “Moniyi soniy” (Ikkinchi Moniy), “Sharq Rafaeli” deb nom olgan.

Hirotda tugʻilgan. Ota-onadan juda erta yetim qolib, bolalikdan mashhur hirotlik musavvir Amir Ruhulloh (Mirak Naqqosh) qoʻlida tarbiya topadi. 1487-yili Behzod Xusayin Boyqaro farmoni bilan Hirotdagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlanadi. 1507-yili Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallaydi. Behzod uning saroyida ijodiy ishini davom ettiradi. Shayboniyxon ham unga shart-sharoitlar yaratib beradi. 1510-yil Hirotda Safaviylar tomonidan bosib olindi. 1512-yilda Ismoil Safaviy Behzodni bir necha shogirdlari bilan saltanat poytaxti Tabrizga olib ketadi va unga ijod qilish uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1514-yili Tabriz yaqinida Usmoniy turklar bilan boʻlgan jangda safaviylar magʻlubiyatga uchraganidan keyin, Behzodni turklar oʻlja qilib olib ketmasin deb, atoqli hattot Shoh Mahmud Nishopuriy bilan birga bir gʻorda yashirib ham qoʻyadilar.

1522-yili Ismoil Safaviy Behzodni Tabrizdagi kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi. 1537-yili Behzod Hirotdagi jiyani va shogirdi Rustam Alining ogʻir bemorligini eshitib, uni koʻrish uchun bu yerga keladi, jiyani vafot etgan boʻladi. Koʻp oʻtmay shu yili oʻzi ham olamdan oʻtadi.

Kamoliddin Behzodning 30 ga yaqin rasm va rasmlar turkumidan iborat asarlari mavjud.

**LUTFIY** (1366-1465) – atoqli oʻzbek shoiri, mutafakkiri, oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi. Hirotning Dehikanor mavzeida tugʻilib, shu yerda yashab, ijod etgan. Qurʼoni karim va hadislarni, arab va fors tillarni, adabiyotini chuqur oʻrgangan. Alisher Navoiy va Jomiylar bilan yaqin muloqotda boʻlgan. Oʻz asarlari bilan Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitida chuqur iz qoldirgan Lutfiy Navoiy “Malikulkalom” (Soʻz podshosi) deb atagan edi.

Lutfiy ham oʻzbek, ham fors tilida ijod etgan. U bir qancha dostonlar bitgan boʻlsa ham bizga faqat “Gul va Navroʻz” dostoni yetib kelgan. Navoiy Lutfiyning masnaviy bilan yozilgan oʻn ming baytdan ortiq “Zafarnoma” nomli dostoni borligini, lekin u oqqa koʻchirilmay, shuhrat qozonmaganini yozadi. Manbalarda Lutfiy axloq-odobga oid “Mashkun ul-haqoiq” nomli asar yozgani ham qayd etiladi.

**MUHAMMAD SOLIH** (1455-1535) – oʻzbek shoiri, tarixchi va davlat arbobi. 1455-yilda Xorazm hokimi Nur Saidbek oilasida tugʻilgan. Shu yerda boshlangʻich maʼlumot olgach, Hirotda kelib, Abdurahmon Jomiydan tahsil koʻrgan. 1490-yilgacha Xurosonda Husayin Boyqaro xizmatida boʻlib, keyinchalik Buxoro va Samarqandda temuriylar, 1499-yildan boshlab, Shayboniyxon xizmatida boʻlgan va “amirulumaro”, “malikushshuaro” unvonlariga sazovor boʻlgan. Shayboniyxonning harbiy yurishlarida qatnashgan. 1500-yil Shayboniyxon Buxoroni egallab, unga Muhammad Solihni hokim qiladi. U Chorjuy, Niso viloyatlarida ham hokimlik qilgan. 1507-1510-yillarda Hirotda yashab, olim va shoirlar bilan hamkorlik qiladi. Shoir 1535-yil Buxoroda vafot etadi.

Muhammad Solihning devoni bizgacha yetib kelmagan. Uning bizgacha yetib kelgan “Shayboniynoma” nomli nazm bilan yozilgan dostoni tarixiy, etnografik va geografik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Doston 880 misra va 76 bobdan iborat bo‘lib, 5-6 yillik temuriylar va shayboniylar tarixini o‘z ichiga oladi.

**QOZIZODA RUMIY** (1360-1437) – yirik matematik va astronom. Kichik Osiyoning Bursa shahrida (hozirgi Turkiyadagi shahar) tug‘ilgan. Xuroson va Movarounnahrda bilim olgan. Taxminan 1400-yillarda ilm istab va ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun Samarqandga keladi. (Amir Temurning Usmonli Turkclariga qarshi harbiy yurishlari paytida olib kelingan degan ma’lumotlar ham bor).

Amir Temur saroyida bosh astronom Mavlono Ahmaddan ta’lim olgan. Mirzo Ulug‘bekning aniq fanlarga qiziqishiga ta’sir ko‘rsatgan va unga ustozlik qilgan. Ulug‘bek astronomik maktabining yaratilishida Qozizoda Rumiyning xizmati juda katta bo‘lgan. Uning tashabbusi bilan G‘iyosuddin Jamshid Koshiy va boshqa olimlar Samarqandga taklif qilinganlar. Ulug‘bek madrasasida matematika va astronomiyadan ma’ruzalar qilgan va “Aflotuni zamon” nomini olgan. Mirzo Ulug‘bek uning darslarida ishtirok etgan. Qozizoda Rumiylug‘bek rasadxonasi qurilishining rahbarlaridan biri bo‘lgan. Koshiy vafotidan so‘ng madrasaning boshqaruvchisi bo‘lgan. Ulug‘bekning barcha ilmiy tadbirlarida, jumladan “Ziji Ko‘ragoniy”ni tuzishda ishtirok etgan.

Qozizoda Rumiylug‘bekning “Risola fil-hisob” (Hisob haqida risola), “Sharhi Mulaxxis fil-hay’a” (Astronomiyaga oid “Qisqacha risola”ning sharhi), “Sharhi ashkol at-ta’sis” (“Asoslangan jummlar”ga sharh), “Risolat ul-jayb” (Sinus haqida risola), “Misoha” (O‘lchash), “Sharh at-tazkira”, “Risola fi ilm il-hay’a” (Astronomiya ilmi haqida risola) kabi o‘nlab asarlarning muallifidir.

**RUI GONSALES DE KLAVIXO** (vafoti 1412-yil) – Kastiliya va Lion (Ispaniya) qiroli Genrix III (1390-1406) ning Amir Temur saroyiga yuborgan elchisi. U badavlat va nufuzli oqsuyak oiladan chiqqan. Otasi ham, o‘zi ham qiroli saroyida yirik mansabda turishgan. U qiroli Genrix III ning vafotidan (1406 y.) keyin ona shahri Madridga ketib qoladi va umrining oxirigacha shu yerda istiqomat qiladi.

Klavixoning Amir Temur yurtiga qilgan elchilik sayohati 1403-yilning 22-mayida boshlanib, o‘n besh oy deganda Samarqandga yetib keladi. Uning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq va mashaqqatlar bilan to‘la safar bo‘ldi. Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi-sharqidagi Kadis shahridan yelkanli kemada O‘rta yer dengizi bo‘ylab suzdilar, so‘ngra Stambul, Trabzon, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balh orqali Termizga, undan Kesh orqali 1404-yilning 31-avgustida Samarqandga yetib keladilar.

Rui Gonzales de Klavixoning Amir Temur saltanatiga qilgan sayohati tafsilotlari haqida yozib qoldirgan “Kundaliklar”ni vatanimiz tarixiga oid qimmatli va nodir tarixiy manba hisoblanadi. “Kundaliklar”da o‘sha vaqtlarda Amir Temur qo‘l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, xalqning kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do‘konlar, ustaxonalar; Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O‘rda, Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar va nihoyat,

sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan oʻmi haqida eʼtiborga molik maʼlumotlar keltirilgan.

**ULUGʻBEK MUHAMMAD TARAGʻAY** (1394-1449) – mashhur davlat arbobi va buyuk olim. Otasi Amir Temurning oʻgʻli Shohruh Mirzo. 1409-yilda Shohruh Mirzo Hirot taxtini qoʻlga kiritgach Mirzo Ulugʻbekni Movarounnahrda hukmdor qilib qoʻyadi. Ulugʻbek tabiatan ilm kishisi boʻlganligi sababli davlat va harbiy ishlarga kamroq, ilm-fanga esa asosiy eʼtiborini qaratadi. 1417-1420-yillarda Samarqandda madrasa, 1424-1428-yillarda Koʻxak tepaligida rasadxona qurdiradi. Ulugʻbek astronomiya maktabi vujudga keladi. Bu rasadxonada 1438-yilda oʻz davrida moʻjiza hisoblangan “Zij-i jadidi Koʻragoniy” deb atalgan yulduzlar jadvali yaratiladi. Ulugʻbek geometriya, trigonometriya va matematika bilan ham shugʻullangan. U Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid “Tarixi arbaʼ ulus” (Toʻrt ulus tarixi) asarining muallifidir. Ulugʻbek shuningdek, musiqa ilmiga oid “Risola dar ilmi musiqa” va Balujiy, Shodiyona, Axloqiy, Tabriziy, Usuli ravon, Usuli otligʻ kuylarini ham ijod qilgan.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** (1483-1530) – oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi olim. Hindistonda 332 yil hukm surgan Boburiylar saltanatining asoschisi, temuriy hukmdorlarining soʻnggi namoyondalaridan biri. Otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning chevarasi. Bobur Andijonda saroy muhitida oʻqib, tarbiyalandi. Otasi vafotidan soʻng 1494-yil oʻn ikki yoshida Fargʻona taxtiga oʻtirdi. Amir Temur davlatini qayta tiklash uchun 1495-1496-yillarda Samarqandga muvaffaqiyatsiz yurish qildi. 1497-1498-yillarda Samarqandni egalladi. Keyin Andijonda unga qarshi isyon koʻtarilgach orqaga qaytishga majbur boʻldi. 1500-yilda Samarqandni ikkinchi mara egalladi. Alisher Navoiy bilan xat yozishdi. Shayboniyxon bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchrab Samarqandni tashlab ketishga majbur boʻldi. Shayboniyxon 1504-yilda Andijonni ham egallagach. Bobur janubga yoʻl olib, Qobulda oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. 1505-1512-yillarda Movarounnahrda qaytishga urinib koʻrdi, ammo muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1519-1535-yillarda Hindistonni qoʻlga olish maqsadida janglar olib bordi. 1526-yili Panipat jangida Hindiston sultoni Ibrohim Lodiy bilan va 1527-yilda Chitora hokimi Rana Sanga bilan boʻlgan janglarda gʻalaba qozonib, Hindistonda oʻz hukmronligini oʻrnatdi.

Bobur 1530-yil dekabrda Agra shahrida vafot etdi, keyinchalik uning hoki vasiyatiga binoan 1533-yilda Qobulga olib kelib dafn etildi.

Boburning ilmiy-adabiy merosi “Boburnoma”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin” (Bayonot beruvchi), “Harb ishi” va “Muxtasar” kabi asarlardan iborat.

#### **MAVZU: OʻZBEK XONLIKLARI DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY PAROKANDALIK VA UNING OQIBATLARI.**

**ADRA** – Xiva xonligida sugʻorilmaydigan yerlar.

**AFANAK PULI** – Xiva xonligida begar majburiyatini oʻtash haqida xabar bergan jarchi uchun toʻlanadigan haq.

**ALAF PULI** – Oʻrta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bogʻ va uzumzorlardan olinadigan soliq.

**AMIN** (arabcha – ishonchli, halol) – 1) Muhammad alayhissalomga paygʻambarlik vahiy keimasidan avval nihoyatda halol, rostgoʻy boʻlganliklari uchun u zotga xalq tomonidan berilgan laqab. 2) Amir Temur va Temuriylar davrida davlat devoni tomonidan tayinlanadigan asosan moliya va qishloq xoʻjaligi ishlarini boshqarish bilan shugʻullanuvchi amaldor. 3) Buxoro amirligida amlokdorlarga, Turkiston general-gubernatorligida esa, boʻlis (volost) boshligʻiga boʻysunuvchi amaldor. Qishloq oqsoqoli. Aminning asosiy vazifasi aholidan oʻlpon va soliq yigʻish, aholi ustidan nazorat qilish, suv taqsimlash boʻlgan. 2) Xonliklar davrida bozorda sotuvchilardan soliq undiruvchi mansabdor.

**AMIRI SHIKOR** – xon ovini tashkil etuvchi amaldor.

**AMLOK** - 1) Xonliklar davrida davlat yerlari.

2) Yer egaligi turi; mulklar, yer-suv, kishi tasarrufidagi narsa va buyumlar. Xonliklarda feodal yer egaligining bir turi boʻlib, davlat oldidagi xizmatlari uchun shahzodalar, lashkarboshilar va amaldorlarga inʻom qilingan yer-suv amlok deyilgan.

**AMLOKDOR** – Buxoro amirligiga qarashli eng kichik maʼmuriy boʻlinma – amlokni boshqaruvchi kishi. Amlokdorlar boy tabaqa vakillaridan boʻlib, bek tomonidan tayinlangan. Amlokdorga bir necha qishloq qaram boʻlgan. Amlokdor qoʻlida kotib, mirob, amin, oqsoqollar xizmat qilgan. Amlokdorlar oʻz yerlarini dehqonlarga ijaraga berganlar. Amlokdorlar xiroj yigʻish, dehqonlar yetishtiradigan hosilni hisobga olish, soliq toʻlamaganlarni jazolash, jarima solish kabi ishlar bilan shugʻullanganlar.

**ARBOB** (arabcha “xoʻjayin”, “ega” soʻzining koʻpligi) – xonliklar davrida butun bir tumandagi sugʻorish ishlarini nazorat qilib turgan mansabdor shaxs. Miroblar va suv ishlari bilan mashgʻul boʻlgan boshqa amaldorlar arbobga boʻysungan. Togʻli tumanlarda saylab qoʻyilgan qishloq oqsoqollari ham arbob deyilgan. Sudlov, yasovulchilik ishlarini amalga oshirish, aholiga maʼmuriy yoʻl bilan taʼsir koʻrsatish arbobning qoʻlida boʻlgan. Arboblarda yer sotish, meros taqsimlash paytlarida “inʻomlar” olib turgan.

**ATTOR** – dastlab atir-upa va boshqa hushboʻy pardoziy mollari sotuvchi kishiga nisbatan ishlatilgan. Xonliklar davrida kundalik hayotda kerak boʻladigan barcha mayda-chuyda moilar bilan savdo qiladiganlar ham attorlar deb yuritilgan.

**AVARIZOT** – urush paytida dehqonlardan va shaharliklardan yigʻib olinadigan favqulodda soliq. Avarizot koʻp hollarda pul tarzida undirilgan.

**AVLIYO** (arabcha “valiy” soʻzining koʻpligi, xudoga yaqin odam) – islom dinida Ollohga yaqin kishi, homiy, “bandalarning homiyisi” maʼnolarini bildiradi. Avliyo xudoning alohida iltifotidan bahra olib, ilohiy qudratga ega boʻlgan, odamlarning hayotiga, turmushiga taʼsir koʻrsata oladigan kishi hisoblangan. Avliyolarning mozorlarini ziyorat qilib, ruhiy ozuqa olish islom dinida savobli ishlardan hisoblanadi.

**AVRANGBARDOR** – xon va amirlarning xizmatkorlaridan biri boʻlib, harbiy yurish paytida xon yoki amir yonida yuradigan kishi. Avrangbardorning vazifasi taxt ravn, yaʼni koʻchma taxtni olib yurishdan iborat boʻlgan.

**AXTABEGI** – oʻrta asrlarda hukmdor otlariga qarovchi otboqar.

**AXTACHI** – oʻrta asrlarda ot tabii.

**AXYA** – Xiva xonligida sugʻoriladigan yerlar.

**ASHTARXONIYLAR (JONIYLAR) SULOLASI** – Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasining oʻrniga kelgan ikkinchi sulola. 1556-yilda Astraxan (Hojitarxon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Joʻjixon nasliga mansub Astraxan xoni Yormuhammad oʻz oila aʼzolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandarxon (1561-1583) Yormuhammad va uning hamrohlariga oʻz mamlakatidan boshpana beradi. Yormuhammadxonning oʻgʻli Jonibek Sultonga oʻz qizi Zuhraxonimni xotinlikka beradi. Shu nikohdan uch oʻgʻil (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) dunyoga keladi. Buxoro xoni Abdulmoʻmin oʻldirilgandan soʻng Shayboniylar naslidan valiahd yoʻqligi uchun Jonibekning oʻgʻli 1601-yilda Boqimuhammad xon taxtiga oʻtiradi. Shundan soʻng Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar (joniylar) sulolasining hukmronligi boshlanadi.

Oʻzbek davlatchiligi tarixida Ashtarxoniyalar davri davlatchilik asoslarining yemirilishi, feodal tarqoqlik va parokandalikning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Sulola vakillari: Boqimuhammadxon (1601-1605), Valimuhammadxon (1605-1610), Imomqulixon (1611-1642), Nodirmuhammadxon (1642-1645), Abdulazizxon (1645-1680), Subxonqulixon (1680-1702), Ubaydullaxon (1702-1711), Abulfayzxon (1711-1747), Abdulmoʻmin (1747-1748), Ubaydullaxon II (1748-1753).

**AʼLAM** – shariat ilmida yetuk boʻlgan olimlarga berilgan diniy unvon. Aʼlam madrasalarda dars berishi shart boʻlgan.

**BADAXSHON** – Amudaryoning yuqori oqimida, uning har ikki sohilida joylashgan togʻlik mamlakat. Fayzobod uning poytaxti boʻlgan.

**BAKOVUL** – Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqaradigan amaldor.

**BIY (BEK)** – 1) koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi turkiy xalqlarning, jumladan oʻzbeklarning urugʻ oqsoqollariga berilgan unvon. Biylar XVIII-XIX asrlarda yirik oʻzbek qabilalariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etgan. Xonlar ular bilan murosada boʻlishga harakat qilib ularga turli unvonlar berib, mansablarga tayinlashgan. Biy unvoni avloddan-avlodga meros boʻlib oʻtgan.

2) Oʻrta Osiyo xonliklarida muayyan tuman yoki shahar hokimi.

**BOBURIYLAR** – Hindistonda 1526-yildan 1858-yilga qadar hukmronlik qilgan sulola. Temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qilishdi. Oxirgi Boburiy Bahodirshoh II (1837-1858) ni ingliz mustamlakachilari taxtdan agʻdarib Hindistonni oʻz mustamlakasiga aylantiradilar.

Boburiylar sulolasining vakillari: Bobur (1526-1530), Xumoyun (1530-1556), Akbarshoh (1556-1605), Jahongir (1605-1628), Shohjahon (1628-1658), Avrangzeb (1659-1707), Bahodirshoh (1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farrux Siyar (1713-1719), Muhammadshoh (1719-1748), Ahmadshoh (1748-1754), Olamgir (1754-1760), Shoh Olam (1760-1788), Bidar Baxt (1788), Shoh Olam (1788-1806), Akbar II (1806-1837), Bahodirshoh II (1838-1858).

**BOTMON** – Sharq mamlakatlarida jumladan, Oʻrta Osiyoda qadimda va oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan ogʻirlik oʻlchov birligi. Turli davrlarda turli joylarda botmonning miqdori oʻzgarib turgan. Masalan: XIV-XV asrlarda u taxminan 20 kg ga teng boʻlgan. XIX asrda botmon Xivada 20,16 kg dan 40,95 kg gacha, Fargʻonada 131,44 kg dan 163,800 kg gacha. Toshkentda 171,99 kg ga teng boʻlgan.



O'rta Osiyoda botmon shuningdek yer o'lchov birligi sifatida ham qo'llanilgan. Bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Bu taxminan bir gektarga teng bo'lgan.

**BUXORO XONLIGI** – Temuriylar davlatining inqirozidan boshlab Vatanimiz tarixining Xonliklar davri boshlandi. Buxoro xonligi rasman 1510-yildan 1920-yilgacha mavjud bo'ldi. Buxoro xonligida uchta sulola hukmronlik qildi. Bular: Shayboniylar sulolasi (1510-1601), Ashtarxoniylar sulolasi (1601-1753) va Mang'itlar sulolasi (1753-1920). Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar nasl-nasabi jihatidan Chingizxon (1151-1227) ning uzoq avlodlari hisoblanardilar. Shuning uchun ham ular “xon” unvoni bilan yuritilganlar. Ubaydullaxon davrida (1533-1539) Buxoro poytaxt qilib belgilanishi tufayli davlatning rasmiy nomi tarixiy adabiyotlarda Buxoro xonligi nomini oldi. Mang'itlar sulolasi mahalliy qabilalardan chiqqan bo'lib, Chingizxonga qarindosh xisoblanmas edi. Shuning uchun ham sulola vakillari o'zlarini “xon” emas, balki “amir” deb atadilar. Davlatning rasmiy nomi ham Buxoro Amirligi deb yuritildi. Oxirgi Buxoro amiri 1920-yilda taxtdan ag'dariladi.

**GAZ** – Sharq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan 91 sm ga teng bo'lgan uzunlik o'lchov birligi.

**DARBON** – Buxoro amiri qarorgohi eshigida turuvchi soqchi.

**DAFTARDOR** – Qo'qon xonligida xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor. Daftardor xazinachiga axborot berib turgan.

**DASHTI QIPCHOQ** – Sirdaryoning quyi oqimi hamda Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun shunday nom olgan.

**DAHYAK** (forscha “o'ndan bir”) – 1) Buxoro amirligida vaqf yerlaridan olingan daromadning madrasa, mullavachchalariga beriladigan qismi. Davlat yerlariga qo'shib olingan yerlardan ham dahyak ajratilgan. Dahyak olishlari uchun madrasa talabalari arab tili va shariat qoidalaridan imtihon topshirishlari lozim bo'lgan. 2) Xiva xonligida soliq turi, ushr. Dahyak chig'ir bilan sug'oriladigan yerlarda hosilning 1/10, ariq bilan sug'oriladigan yerlarda 1/5 qismini tashkil qilgan.

**DAHYAKOTA** – Xon (amir) xazinasidan dahyak (nafaqa) olib turgan shayx yoki diniy ulamo.

**DEVONBEGI** – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.

Buxoro xonligida devonbegi bosh vazir bo'lib, xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegilar olib borgan.

**DEVORZAN** – paxsakash, loy va g'ishtdan devor uruvchi.

**DEGREZ** – cho'yandan qozon quyuvchi.

**DODHOH** – O'rta Osiyo xonliklarida yuqori martabalardan biri. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo'lib, u Buxorodagi yuqori xizmat doirasidagi 10 toifa (daraja) dagi mansab hisoblangan. Uning vazifasiga amir nomiga yozilgan ariza-shikoyatlarni qabul qilib olish va ularning egalariга yozma yoki og'zaki javob qaytarish bo'lgan. Shuningdek u elchilarni qabul qilish, elchilik

yumushlarini tashkil etish va xatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish kabi tadbirlarni ham amalga oshirgani ma'lum.

**DORUG'A** – 1) Hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va Shayboniylar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, mudofaa qilish, aholini ro'yxatga olish, ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan.

2) So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i.

**DORGOH** – Shayboniylar hukmronligi davrida oliy davlat idorasi. Dorgoh tepasida xon turgan.

**ESHKOG'ABOSHI** – xon dorgohidagi xavfsizlik, tartib-intizom, keldi-ketdi nazorati mutasaddisi hisoblangan. Chap eshikog'asi, o'ng eshikog'asi kabi ichki taqsimoti ham bo'lgan. Bu lavozim vakillari urush paytlarida hukmdorning eng muhim topshiriqlarini ham bajarib borganlar.

**FARROSH** – asl ma'nosi "gilam to'shovchi". Hukmdorlar va feodal aslzodalar huzuridagi kichik saroy xizmatchisi hisoblangan. Uning zimmasiga mehmon kutish uchun zarur bo'lgan barcha anjomlarni hozirlash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, vaqt o'tishi bilan uning ma'nosi ham kengayib borgan. Jumladan, so'nggi o'rta asrlarda Buxoro amirligida amir oshxonasining boshlig'i, bosh pazanda ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, Xiva xoniigida saroy hovlilarini supuruvchi ma'nosida, hamda O'rta Osiyodagi madrasa va masjidlarda supurib-sidirib turuvchi, gilamlar va to'shaklarni to'shovchi xizmatkor ma'nosida ham qo'llanilgan.

**HASHAM** – hukmdorga yaqin kishilar.

**HOJIB** – Xiva va Qo'qon xonliklarida darvozabon hojib deb atalgan. Buxoro amirligida esa darvozabon darbon deb yuritilgan.

**INOQ** – turkiy so'z bo'lib, do'stona, yaqin odam, ishonchli vakil, ishonchli mansab egasi ma'nolarini anglatgan. Odatda inoqlar xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lishgan. Xiva xonligida inoqlar yirik amaldor, ya'ni qabila boshlig'i hisoblangan. Inoqlar huzurida qushbegi, mehtar va otaliqdan iborat kengash bo'lgan hamda ular amaliy tadbirlar ishlab chiqishda xonga yordam berganlar.

Buxoro amirligida inoq yuqori 11 toifadagi martabalardan hisoblangan. Inoqning vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan.

**IXROJOT** – Buxoro xonligi (Shayboniylar) davrida davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq.

**ICHAN QAL'A** – Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrining ichki qal'asi. Shahriston. Ichan qal'ada xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Uning umumiy maydoni 26 gektar. Devorining uzunligi 2200 metr.

**JIROV** – qoraqalpoqlarda o'lan, doston aytuvchi baxshi.

**JONIYLAR SULOLASI** – qarang: *Ashtarxoniyalar sulolasi*.

**JUFTIGOV** – qo'sh ho'kiz yordamida bir kunda haydaladigan yer maydoni (8-9 gektarga yaqin).

**JUL** – Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq turi.

**JO'YBOR SHAYXLARI** – Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan shayxlar xonadoni. Ular o'zlarining kelib chiqishini ota tomonidan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomonidan esa Chingizxon va Jo'jiga ular edilar.

Aslzodalik va tasavvuf tariqatidagi mavqeiga ko'ra Jo'ybor shayxlari somoniylar davridan boshlab davlat ishlarida muhim mansablarni egallab kelganlar. XVI asrning ikkinchi yarmidan jo'ybor shayxlari Buxoro xonligida katta ta'sir kuchiga ega bo'lganlar. Shayx Muhammad Islom (1493-1563), keyinchalik uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimini egallaganlar.

**KAFSAN** – xon otlarining yem-xashagi uchun aholidan olinadigan soliq.

**KITOBODOR** – Buxoro amirligida amir kutubxonasi va barcha viloyatlar kitobdori boshlig'i.

**KORANDALAR** – Qo'qon xonligida hosilning yarmini olish uchun yollanib ishlovchi dehqonlar.

**KO'KALDOSH** – xonliklar davrida muhim davlat mansablaridan biri. Oliy hukmdorga va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilardan tayinlangan. Odatda ko'kaldoshning ijtimoiy mohiyati rasmiy sulolaning biron vakili bilan bir onani emganlik bilan tushuntiriladi. Demak ko'kaldosh dorgohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, unga topshiriladigan vazifalar ham shu qadar nozik va mas'uliyatli bo'lgan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning dahlsizligi ta'minlagan.

**KO'CHMANCHI O'ZBEKLAR DAVLATI** – Janubiy-G'arbiy Sibirda Abulxayrxon asos solgan (1428) davlat. Poytaxti Tura shahri bo'lgan. Abulxayrxon juda qisqa vaqt ichida mayda qismlarga bo'linib ketgan Shaybon ulusining katta qismida o'z hukmronligini o'rnatishga erishgan. 1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach bu davlat parchalanib ketadi. Faqat uning nabirasi Muhammad Shayboniyxon XV asrning 80-yillarida bu davlatni qayta birlashtirishga muvaffaq bo'ladi va temuriylar davlatiga istilochilik yurishlarini boshlab, temuriylardan hokimiyatni tortib olishga muvaffaq bo'ladi.

**MANG'ITLAR SULOLASI** – Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasidan keyingi uchinchi sulola. Ashtarxoniyalar sulolasi davridayoq o'zbek qabilalaridan mang'itlar va qo'ng'irotlarning saroydagi nufuzi baland edi. Abulfayzxon davrida (1711-1747) mang'itlardan bo'lgan Muhammad Hakimbiy barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olinadi. 1740-yilda Nodirshoh boshliq Eron qo'shinlari Buxoroga bostirib kirganida Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketadi. Eronga taslim bo'lish haqidagi shartnoma imzolangach, Muhammad Hakimbiy Buxorodagi eng nufuzli shaxsga aylanib qo'shbegi (bosh vazir) lavozimini egallaydi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'plandi. 1743-yilda Muhammad Hakimbiy vafot etgach, "qo'g'irchoq xon"ga aylangan Abulfayzxon uning o'g'li Muhammad Raximbiyga bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'ladi. Muhammad Raximbiy Buxoro aslzodalari va ruhoiylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1753-yilda o'zini Buxoro xoni deb e'lon qiladi. Biroq, mang'itlar xon nasliga mansub bo'lmaganligi uchun undan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Oxirgi Buxoro amiri Olimxon 1920-yilda bolsheviklar tomonidan uyushtirilgan sun'iy "inqilob" natijasida taxtdan ag'darilgan.

Mang'itlar sulolasi vakillari: Muhammad Raximbiy (1753-1758), Doniyolbiy (1758-1785), Amir Shohmurod (1785-1800), Amir Haydar (1800-1826), Amir

Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920).

**MEHTAR** – 1) forscha “ulug’”, “katta” degan ma’noni anglatib, xon va podshohga tegishli biron kichik muassasa, korxonona boshlig’i. Masalan: mehtari kutubxonona, mehtari to’shaxxonona.

2) O’rta asrlarda saroy sozandalarining boshlig’i, yetakchi sozanda. Temuriylar zamonida mehtarlar nog’orachilardan keyinchalik surnaychilardan tayinlangan.

3) Buxoro amirligida zakotchilar boshlig’i. Qo’qon va Xiva xonliklarida davlat xizmatchisi.

**MINGBOSHI** – harbiy va ma’muriy unvon. Qo’qon xonligida xondan keyingi o’rinda turuvchi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan shug’ullangan va u Qo’qon armiyasiga qo’mondonlik qilgan. Xiva xonligida mingboshilik eng kichik amal hisoblangan. O’rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar Toshkent, Oqmasjid kabi shaharlarning hokimlari mingboshi deb atalgan. Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida Toshkent dahalarining boshliqlari ham mingboshi deb yuritilgan.

**MIROB** – O’rta Osiyo hududidagi davlatlarda, xususan xonliklarda suv taqsimoti va sug’orish tizimi ustidan nazorat qiluvchi shaxs. Miroblik mansabi avloddan avlodga o’tgan. Kuzda miroblar uchun dehqonlardan mirobona solig’i undirilgan.

**MIROXUR** – Buxoro amirligida yuqori bosqichdagi 6-darajali mansab bo’lib, oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov va ularning ta’minoti bilan shug’ullangan. Miroxur dasturxonchi va parvonachidan keyingi mansabdor shaxs hisoblangan.

**MIRZABOSHI** – saroyning yirik mansabdorlaridan biri. Buxoro amirligi va Qo’qon xonligida saroyda devonxonona hokimi bo’lib, mirzalar boshlig’i hisoblangan.

**MIRSHAB** – O’rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo’lib, odatda shaharning kechki xo’jayini miri-shab deb ham yuritilgan. Mirshab o’z ishiga asosan kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, Chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so’ng shahar darvozalari berkitilgan. Tungi tartib-qoidani buzgan fuqarolar mirshabxonaga keltirilib jazolananglar.

**MOL** – Temuriylar davrida va keyinchalik o’zbek xonliklari davrida dehqonlardan olinadigan yer solig’i – xiroj. XVI-XVIII asr yozma manbalarida bu soliq turi “molijihot” yoki “mol va jihot” deb ham yuritilib, asosan mahsulot tarzida hosilning 1/3 qismini hajmida to’langan. Ammo ba’zi bir paytlar vaziyatga qarab hosilning 1/4, 1/5, 1/2 miqdorida ham undirilgan.

**MOLI OMON (OMON PULI)** – o’rta asrlarda mag’lub shahar talon-taroj qilingan yoki aholidan uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

**MUFTIY** – musulmon dunyosida oliy martabali ruhoniy. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariatni tadbiq etish masalalarida hal qiliuvchi huquqqa ega bo’lgan. Muftiy qozikaon murakkab deb hisoblovchi turli diniy va huquqiy masalalar bo’yicha shariatga asoslanib fatvo (qaror) chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqargan.

Sharqning musulmon mamlakatlarida multiylik hukumat tayinlaydigan rasmiy lavozim hisoblanadi.

**MULKI HURRI HOLIS** – Buxoro xonligida mavjud boʻlgan mulk yer egaligining ikkinchi bir turi. U davlat xizmati bilan bogʻliq boʻlib, bunday yerlar urushlarda jasorat koʻrsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna koʻrsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Yerlarga ega boʻlgan kishilarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

**MUNSHI** – Oʻrta Osiyo xonliklari davrida xonlar va ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi. Munshi lavozimiga odatda, maʼlumotli va chiroyli yozadigan kishilargina olingan.

**MUTAVALLI** – vaqf muassasalarining boshliqlari. Mutavallilar sadrlarga boʻysunganlar.

**MUXTASIB** – musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Koʻpincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf-odatlariga amal qilishi hamda bozorlardagi narx-navo va oʻlchov asboblarning toʻgʻriligi ustidan nazorat olib borgan. Ayni paytda muxtasib amaldorlar va hatto din peshvolari orasida axloqiy qoidalarga qanchalik munosabatda boʻlinayotganligi masalasi bilan ham shugʻullangan. Buxoro amirligida muxtasib rais deb ham yuritilgan.

**MUSHRIF** – Buxoro amirligida xonga inʼom etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni roʻyxatga olgan. soliq tushumlarini yozib borgan amaldor.

**MUSHRIFONA** – Oʻrta Osiyo xonliklarida hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga toʻlanadigan haq.

**“NAJMI SONIY”** – ikkinchi yulduz. Eron shohi Ismoil Safaviyning koʻchmanchi oʻzbeklarga qarshi kurashda Boburga yordam berish uchun 1513-yilda yuborgan sarkardasi amir Ahmadning laqabi.

**NAQIB** – oʻzlarini Muhammad Paygʻambarning avlodlari deb hisoblaydigan sayidlar jamoalarining yetakchilari, rahbarlarining lavozimi. Naqib lavozim sifatida arab xalifaligi davrida vujudga kelgan boʻlib, hukmdor doiralari naqib orqali sayidlar jamoalari bilan muomala qilganlar.

Shayboniylar davrida naqib mansabining ahamiyati yanada kuchaygan va devonbegidan keyingi ikkinchi muhim davlat mansabiga aylangan. Naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy hukmdor chap tomonidan birinchi boʻlib joy olishi naqibning saroyda tutgan yuksak maqomidan dalolat beradi. Xonning farmon-yorliqlarida ham naqib nomi birinchi boʻlib zikr etilgan. Davlatning ichki va tashqi siyosati va harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan naqiblarga masʼuliyatli elchilik vazifalari ham yuklatilgan.

**OFTOBACHI** – Oʻrta Osiyo xonliklari davrida saroyda hukmdorning qoʻliga suv quyuvchi shaxs boʻlib, yuqori mavqega ega boʻlgan lavozimlardan biri hisoblangan. Oftobachi davlat ish'lari bilan shugʻullanuvchi mansabdor ham boʻlgan. Masalan: Qoʻqon xonligida Xudoyorxon davrida Abdurahmon oftobachi masʼuliyatli davlat topshiriqlarini ado etgan.

**Osiyo Puli** – tegirmon puli ham deyilgan. Buxoro amirligida har bir suv tegirmonidan yiliga 20 tangadan 100 tangagacha boʻlgan miqdorda olinadigan soliq.

**Otaliq** – otasining oʻrmini bosmoq mazmunini beruvchi mansab. Dastlab Saljuqiylar sulolasi davrida (1038-1194) hukmdor eʼtiborini qozongan kishilarga berilgan. Otaliqning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular

ixtiyorida gi ulusni balog'atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan. Tarixda ba'zi otaliqlar hokimiyatni o'z qo'llariga olgan hollari ham bo'lgan. Chunonchi Ashtarxoniyalar sulolasi davrida (1601-1753) Balxda Mahmudbiy otaliq (XVIII asr boshlarida), Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida (1753-1920) Buxoroda Muhammad Raxim otaliq (1753-1758) mana shunday yo'l bilan hokimiyatni egallagan edilar.

**OTLANUV** – Xiva xonligida aholining xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish majburiyati.

**OSHLIG' SOLIG'I** – *urush paytida aholidan yig'iladigan soliq.*

**PARVONACHI** – XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan mansab, vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlari, yorliqlari va boshqa rasmiy hujjatlarini yozib, tegishli kishilarga yetkazib turgan. Yuqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi tomonidan bitilgan farmonni uch kun mobaynida o'z sallasiga qistirib yurishi lozim bo'lgan.

**PONSAD** – O'rta Osiyo xonliklarida qo'llanilgan harbiy unvon. Ponsad 500 kishidan iborat otryadga qo'mondonlik qilgan. Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan mansablar ichida 16-o'rinda, harbiy unvonlar orasida esa mingboshidan keyingi o'rinda turgan.

**QIZILBOSHLAR** – Eron Safaviylar davlati lashkarlarining nomi. Ismoil Safaviy askarlari o'n ikkita qizil yo'lli salla o'rab yurishar edi. 12 ta qizil yo'l shia imomlarining sharafiga chizilgan edi. Shu sababi bu lashkar shunday nom olgan.

**QOZIKALON** – xonliklarda sud ishlariga yetakchilik qiluvchi amaldor.

Buxoro amirligida poytaxt qozisi, hamda davlatning oliy qozisi. Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon "shariatpanoh" deb ham atalgan. Qozikalon huzurida a'lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rishdan iborat bo'lgan.

**"QUBBATUL ISLOM"** – "islom dinining gumbazi". Buxoro shahriga IX asrdan butun jahonda va Sharqda musulmon dunyosining mo'tabar markazi sifatida tan olinib berilgan nom.

**QUSHBEGI** – qushchi. O'rta asrlarda podsho yoki xonning ovchi qushlari va ov hayvonlarining mutasaddisi. U hukmdorning ovini tashkil etishga mas'ul bo'lgan.

**QO'NALG'A** – xonliklarda elchilar va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish majburiyati.

**QO'SHBEGI** – 1) qo'sh, ya'ni harbiy qarorgoh va lagerning boshlig'i.

2) XIX asrdan boshlab Xiva xonligi. Qo'qon xonligida xonning birinchi vaziri. Buxoro amirligida oliy mansab bo'lib vaziri buzruk deb ham yuritilgan. U bosh vazir hisoblangan. Qo'shbegiga barcha viloyatlarning hokimlari, beklari bo'ysunganlar hamda amir poytaxtda bo'lmagan vaqtda u xonlikning barcha ishlarini boshqargan. Poytaxt Buxoro shahri va viloyatini ham qo'shbegi boshqargan. Qo'shbegi mansabidan keyin otaliq mansabi turgan.

**QO'QON XONLIGI** – Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlar XVIII asr boshlariga qadar Buxoro xonligi tarkibida edi. 1711-yilda Ming qabilasi boshliqlari Buxorodan o'z mustaqilliklarini e'lon qiladilar. Ming qabilasi yo'lbo'shchilaridan biri Shohruxbiy (1711-1721) hukmdor deb e'lon qilinadi. Tepaqo'rg'on uning

qarorgohiga aylantiriladi. Abdulkarimbiy davrida (1733-1750) xonlik poytaxti Qo'qon shahriga ko'chiriladi. Qo'qon xonligi 1711-1876-yillarda hukmronlik qilib, Olimxon (1798-1810) va Umarxonlar davrida (1810-1822) Farg'ona vodiysidan tashqari Sharqiy Turkiston, Oloy, Toshkent va shimolda Oqmachit qal'asigacha bo'lgan hududlar xonlikka bo'ysundiriladi. Oxirgi qo'qon xoni Xudoyorxon (1865-1875)ga qarshi ko'tarilgan Po'latxon qo'zg'olonini (1873-1876) bostirish bahonasida kelgan Rossiya imperiyasi qo'shinlari qo'zg'olonni bostirib, Qo'qon xonligini ham tugatadilar va Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Farg'ona viloyatini tashkil etadilar.

Qo'qon xonlari: Shoxruhbiy (1709-1721), Abduraximbiy (1721-1733), Abdulkarimbiy (1733-1750), Abduraximxon (1750), Erdona (1751-1762), Bobobek (1752-1753), Sulaymon (1762-1763), Norbo'tabek (1763-1798), Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822), Muhammad Alixon (1822-1842), Sheralixon (1842-1844), Murod (1844), Xudoyorxon (1845-1858, 1862-1863, 1865-1875), Xudoyqulbek (1865 (14 kun), Mallaxon (1858-1862), Sulton Saidxon (1863-1865).

**“QO'RA BOSHI”** – Qo'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq – zakot turi. U chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinar edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarida turganida yig'ib olinar edi.

**QO'RCHI** – turkiy so'z bo'lib, “qurolдор. qurelbardor” demakdir (qo'r - qurol). XVII asrda Buxoro xonlarining boshqa mamlakatlardan keltirilgan qullardan iborat shaxsiy gvardiyasi qo'rchi deyilgan. Keyingi asrlarda Buxoro amirligida qo'rchi – o'q-dori omborlarini qo'riqlab turgan qorovul bo'lgan.

**QO'RCHIBOSHI** – qurol-aslaha xizmati boshlig'i.

**QO'XNA URGANCH** – X-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlatining poytaxt shahri. 1221-yilda shaharni Chingizxon qo'shinlari vayron etadilar. XVI asr oxirida Amudaryo o'zanini o'zgartirgach, Abulg'ozixon (1643-1663) Yangi Urganch shahriga asos soladi. Shundan keyin qadimgi shaharning nomi Qo'xna Urganch bo'lib qolgan. U hozir Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida joylashgan. XII-XIV asrning yodgorliklari Faxriddin Roziy, Sulton Takash, Najmiddin Qubro maqbaralari, jome' masjidi, 62 metrlik Qutlug Temur minorasi hamda karvonsaroy qoldiqlari hozirgacha saqlangan.

**QO'SH** – harbiy yurishlar paytida hukmdor qarorgohi, o'rdu, lager.

**QO'SH PULI** – Buxoro amirligida XX asr boshlarida har bir juft ish hayvoni hisobidan olinadigan soliq turi.

**SADRLAR** – in'om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchilar. Vaqf muassasalarining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayd etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olganlar.

**SAFAVIYLAR** – Temuriylar saltanatining inqirozi natijasida Eronda vujudga kelib, 1502-1736 yillarda hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi Ismoil Safaviy (1502-1524). Tabriz (Ozarbayjon) bu davlatning poytaxti deb e'lon qilingan. Abbas I (1587-1629) va Safi I (1629-1642)lar davrida Safaviylar davlati o'z qudratining cho'qqisiga ko'tarilgan. Bu davlatning tarkibiga Erondan tashqari Ozarbayjon. Armanistonning bir qismi, Afg'oniston, Iroq Arabistoni va boshqa hududlar kirgan. Abbas I davrida poytaxt Isfahonga ko'chirilgan.

Safaviylar sulolasini 1736-yilda Nodirshoh Afshor (1736-1747) bosib oladi.

Safaviylar sulolasining vakillari: Ismoil I (1502-1524), Taxmosp (1524-1576), Ismoil II (1576-1577), Muhammad (1578-1587), Abbos I (1587-1629), Safi I (1629-1642), Abbos II (1642-1666), Sulaymon (1666-1694), Sulton Xusayin (1694-1722), Taxmosp II (1722-1732), Abbos III (1732-1736).

**SALG'UT** – Xiva xonligidagi asosiy soliq turi - yer solig'i.

**SARDOBA** – quduq yoki hovuz ustiga pishgan g'ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot. Unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa muzdek bo'lgan. Sardobalar asosan karvon yo'llarida qurilgan.

**SARKOR** – Qo'qon xonligida inoq bilan birga xazinaga tushadigan mahsulotni saqlab turish vazifasini bajargan amaldor.

**SAROY QUTVOLI** – Buxoro xonligida (Ashtarxoniyalar davrida) davlat tomonidan tayinlangan maxsus amaldor bo'lib, davlat qurilishlariga javobgar bo'lgan. U ark qurilishlari, qal'a devorlari va imoratlarini ta'mirlash ishlari bilan shug'ullangan va unga javob bergan.

**SAYID** – Muhammad Payg'ambarning nevaralari, Alining o'g'illari Xasan va Xusanning butun avlodlari ismiga qo'yiladigan faxriy unvon. Sayidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayid hisoblangan. Mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Sayid Olimxon ham ona tomondan Alining avlodi hisoblangan.

**SO'G'ISH SOLIG'I** – har bir ko'chmanchining o'z xo'jayiniga so'yib berishi kerak bo'lgan soliq.

**TANHO** – XVI asrdan boshlab xonliklarda davlat yerlarini asosan harbiy xizmatda bo'lgan kishilarga in'om etish usuli. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerning o'ziga emas, shu yerdan olinadigan daromadning egasi bo'lgan. XIX asrning birinchi choragiga kelganda Buxoro amirligida tanhodorlarning soni 36 ming nafarga yetgan. Eng kichik tanho yeri 3-5 gektarni tashkil etgan.

**TANOB** – O'rta asrlarda ekin maydonlarini o'lchash uchun ishlatilgan yuza birligi. Tanob turli yerda turlicha bo'lgan. 1 tanob yer maydoni 8,33 sotix. Xonliklar davrida 1 gektar yer 12 tanobni tashkil etgan.

**TANOBONA** – Buxoro amirligida tokzor, yo'ng'ichqa (beda) va mevali daraxtzorlardan yilda bir marta to'lanadigan soliq turi. XIX asr boshlarida har tanob yerdan bir tillodan, yoki 40 tanga tanobona undirilgan.

**TANOBCHI** – O'rta Osiyo xonliklarida hosildan olinadigan soliqlar hajmini belgilovchi amaldor.

**TASHTXONA** – O'rta asrlarda podshohlar saroyida idish-tavoq va boshqa mehmondorchilik anjomlari saqlanadigan xona.

**TOG'OR SOLIG'I** – qo'shinning ta'minoti uchun to'lanadigan oziq-ovqat solig'i.

**TOSH** – o'rta asrlardagi masofa o'lchov birligi. 8,5 kilometr atrofidagi masofa.

**"TUTUN HAQI"** – Qo'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq – zakot turi. Bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq.

**TO'LG'AMA** – dushman qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish jang uslubi. Shay'boniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar temuriylar bilan



bo'lgan janglarda shu harbiy taktikani qo'llab, qator janglarda temuriylarni sarosimaga tushirganlar.

**TO'PCHIBOSHI** – harbiy lavozim. O'rta Osiyo xonliklarida harbiy ishlarni boshqargan shaxs. Buxoro amirligida ikkita to'pchiboshi unvoni bo'lgan; biri "to'pchiboshiyi lashkar" nomi bilan atalib, Buxoro garnizonining boshlig'i bo'lgan. Uni "vaziri harb" – harbiy vazir ham deyishgan. Ikkinchi to'pchiboshi poytaxt qal'asining komendanti bo'lgan. Uni to'pchiboshiyi arki-oli, ya'ni qal'a artileriyasining boshlig'i deb atashgan.

**TO'QSOBO** – harbiy unvon. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida xon bayrog'ini qo'riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i. XIX asrda 500 kishilik harbiy qism boshlig'i.

**UDAYCHI** – asli "hidoyatchi" bo'lib, Xiva va Qo'qon xonliklari, hamda Buxoro amirligida saroyda tantanali marosimlarni tashkil etuvchi va uni o'tkazishga javobgar shaxsning lavozimi bo'lib, u Buxoro amirligida doimo amir huzurida bo'lib, davlat ishlari haqida amirga doimiy axborot berib turgan. Shuningdek, uning xizmatiga boshqa davlatlardan kelgan elchilar va davlat vakillarini xon oldiga birga hamrohlik qilib olib kerish yuklatilgan. Boshqa amaldorlardan farq qilish uchun hassa tutgan.

**VAQF YERLARI** (arabcha to'xtash, pauza) – o'rta asrlarda masjid, mozor, xanaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltiriladi edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar hammasi vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanadi edi. Vaqf mulklarini mutavallilar boshqarganlar.

Hozirda O'zbekistonda vaqflar tugatilgan. Ammo xorijiy Sharqdagi barcha musulmon mamlakatlarida hozirgacha vaqf mavjud.

**XACHI** – Xiva xonligida himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

**XIVA XONLIGI** – Xorazm hududlarini Shayboniyxon 1505-yilda egallashga muvaffaq bo'lgan edi. Shayboniyxon vafot etgach (1510) Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Chingizxonning nabirasi Shaybon avlodlaridan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qiladilar. Berka Sulton Muhammad Shayboniyxon xonadoniga qarindosh hisoblanadi edi. Ko'chmanchi o'zbeklar sulolasining birinchi vakili Elbarsxon davrida (1511-1516) poytaxt Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chiriladi. Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib shimolga – Orol dengiziga qarab oqa boshlagach, Arab Muhammadxon (1602-1621) poytaxtni Ko'xna Urganchdan Xiva shahriga ko'chiradi. Poytaxt Xiva shahri qilib belgilanishi munosabati bilan davlatning rasmiy nomi tarixiy adabiyotlarda Xiva xonligi deb yuritilgan boshlandi.

Xiva xonligi 1511-yildan 1920-yilgacha mavjud bo'lib, unda ikkita sulola almashdi. Bular Ko'chmanchi O'zbeklar sulolasi (1511-1770) va Qo'ng'irotlar sulolasi (1770-1920).

Qo'ng'irotlar sulolasining vakillari: Muhammad Amin (1770-1790), Avaz (1790-1804), Eltuzar (1804-1806), Muhammad Raximxon (1806-1825), Olloqulixon

(1825-1843), Raximkulixon (1843-1846). Muhammad Aminxon (1846-1855), Abdullaxon (1855-1856), Kutlug'murodxon (1856), Said Muhammadxon (1856-1864), Muhammad Raximxon II (1864-1910), Asfandiyorxon (1910-1918), Said Abdullaxon (1918-1920).

**XON YASOVULI** – Buxoro xonligida sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlar, chunonchi oliy hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi aloqalarni tegishli tartib asosida yo'lga qo'yish ishini boshqargan. Shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, ularning iltimos va arzlarini xonga yetkazish ham xon yasovulining vazifasi doirasiga kirgan.

**YAKSARA** – xonliklar davrida ishchi hayvonlardan olinadigan yig'im. U har bir juft ot yoki ho'kizlardan bir botmon g'alla miqdorida undirilgan. Kimning ish hayvoni bitta bo'lsa, shu miqdorning yarmisini (nimsara) to'lardi.

**YARIMCHI** – Xiva xonligida xon va boshqa xususiy mulk yerlarida hosilning yarmini olish sharti bilan yerlarga ishlov beruvchi dehqonlar.

**"YIG'IM SOLIQ"** – Qo'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq – zakot turi. U zakot to'lamaydigan boylar va ular qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlaridan iborat bo'lgan.

**SHAYBONIYLAR** – Buxoro xonligini idora qilgan uchta sulolaning birinchisi. Asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510). Shayboniyxon Temuriylar davlatidagi inqirozdan foydalanib qisqa muddat ichida hokimiyatni o'z qo'lga olishga erishadi. Nasabi jihatdan Shayboniylar Chingizxonga borib taqaladilar. Shuning uchun ham sulola vakillari o'zlarini xon deb ataganlar va davlat ham tarixiy adabiyotlarda poytaxt Buxorodan nisbat olinib XVI asrning 60-yillaridan Buxoro xonligi deb yuritila boshlangan. Shayboniylar Movarounnahrda deyarli bir asr (1500-1599) hukmronlik qiladilar. Keyin hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tadi.

Shayboniylar sulolasining vakillari: Shayboniyxon (1500-1510), Ko'chkunchixon (1510-1530), Abu Said (1530-1533), Ubaydullaxon (1533-1539), Abdullo (1539-1540), Abdulatif (1540-1550), Navro'z Ahmdxon (1551-1556), Pirmuhammad (1556-1561), Iskandarxon (1561-1583), Abdullaxon II (1583-1598), Abdulmo'min (1598-1599), Pirmuhammad (1599-1601).

**SHAYXULISLOM** – musulmon mamlakatlaridagi islom tashkilotlari boshlig'i – oliy din vakili unvoni. Musulmon jamoasi boshlig'i.

Buxoro xonligida shayxulislom eng oliy diniy lavozim hisoblangan. Shayxulislom davlat lavozimi bo'lib, uni egallagan shaxs musulmon qonunlari bilan shug'ullanadi, qozilik ishlari, turmush va davlatni boshqarish me'yorlarini ishlab chiqadi, davlat qarorlarining to'g'riligini Qur'on va Sunna bilan qiyoslaydi zarur bo'lsa, ularni to'ldiradi va tuzatadi. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan.

Shayxulislom xo'jalar avlodidan bo'lishi tozim bo'lgan (Qo'qon xonligida).

**SHUTURVOR** – bir tuya ko'taradigan yuk. Bir tuya yuki. Shuturvor ikki botmon – 16 pud yoki 256 kg bo'lgan.

**SHIG'OVUL** – chet el elchilarini qabul qilish bo'yicha maxsus xizmat boshlig'i.

**CHIBIK PULI** – Xiva xonligida ommoviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq.

**CHOPAR PULI** – xonliklarda soliq yig'ish xabarini yetkazganlik uchun to'lanadigan soliq.

**CHORIKOR** – hosilning to'rtidan bir ulushiga ishlovchi shaxs. XX asrning boshlariga qadar feodallar va boylarning yerlarini ijaraga olib ekin ekuvchi va yerda ishlovchi yersiz dehqon. Agar dehqon yerga o'z ot ulovi bilan ishlov bersa, hosilning ikkidan bir qismini olgan.

**CHUXRA, CHEHRA** – xon xuzurida xizmat qiluvchi mahram. Sharqda xonlarning gvardiyasi (saroy soqchilari) hisoblangan maxsus harbiy qism. Ushbu qismda xizmat qilish uchun zodagon, aslzoda va yuqori tabaqa vakillari farzandlari olingan. Ular xon hokimiyatini saqlash va unga sodiq bo'lish ruhida tarbiyalangan. Chuxra asosan xon qarorgohini qo'riqlagan.

**CHUXRABOSHI (CHUXRA OG'ASI)** – xonning shaxsiy saroy soqchilari (chuxra) boshlig'i. Chuxra og'asi xon saroyida xizmat qilgan. Bu lavozim xon e'tiborini qozongan shaxsgagina berilgan.

## **MAVZU: TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGI VA UNGA QARSHI KURASH. JADIDCHILIK.**

**AMUDARYO BO'LIMI** – Rossiya imperiyasi tomonidan 1873-yilda Xiva xonligi bo'ysundirilib Gandimiyon shartnomasi imzolanganach, 1874-yilda Xiva xoni faoliyatini nazorat qilib turish uchun tuzilgan bo'lim. Amudaryo bo'limining qarorgohi Petroaleksandrovska (hozirgi To'rtkul) joylashgan. Rossiya va Turkiston general-gubernatorligi bilan Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar shu yerdan turib boshqarilgan. Amudaryo bo'limi 1917-yilga qadar faoliyat ko'rsatgan.

**ANDIJON QO'ZG'OLONI** – 1898-yilda Muhammad Ali eshon (Dukchi eshon) boshchiligidagi Farg'ona vodiysida Rossiya mustamlakachilariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon. Qo'zg'olon markazi asosan Andijon uyezdi bo'lganligi sababli tarixda shunday nom olgan.

**ANTANTA** (fransuzcha “entente” – samimiy) – 1904-yil Angliya va Fransiya o'rtasida mustamlakalar uchun kurashdagi raqobatchi davlatlar (Germaniya, Avstro-Vengriya)ga qarshi kurashish uchun tuzilgan harbiy ittifoq. 1907-yilda bu ittifoqqa Rossiya ham qo'shiladi. Birinchi jahon urushi (1914-1918) asosan Antanta va Uchlar ittifoqi davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan edi.

**AVLIYOOTA** – hozirgi Qozog'istondagi Taroz (Jambul) shahrining 1938-yilgacha bo'lgan nomi. Shaharning nomi valiylardan biri Qoraxon nomiga shunday atalgan deb taxmin qilinadi.

**BIRINCHI JAHON URUSHI** – dunyoning kapitalistik mamlakatlari o'rtasida mustamlaka yerlarni qayta taqsimlash va yangi yerlarni bosib olish masalasida kelib chiqqan insoniyat tarixidagi birinchi qirg'inbarot urush. Bu urush to'rt yildan ortiq davom etib (1914-yil avgustdan 1918-yil noyabrgacha), unda o'zaro dushman ikkita ittifoqchi kuchlar – Antanta va Uchlar Ittifoqiga kiruvchi davlatlar ishtirok etadi. Rossiya imperiyasi ham Antanta ittifoqining a'zosi sifatida Sharqiy Yevropa va Bolqon yarim orolida o'z pozitsiyalarini mustahkamlab olish maqsadida urushga kirgan edi. Lekin urushning dastlabki kunlaridanoq Rossiyaning urushga tayyor

emasligi ayon bo'lib qoldi va rus qo'shinlari Sharqiy frontda nemis qo'shinlari tomonidan qator mag'lubiyatlarga uchratildi.

Turkiston o'lkasining moddiy va odam resurslari ham Rossiya imperiyasining tarkibiy qismi sifatida jahon urushiga faol tortildilar. Garchi Turkiston aholisi harbiy xizmatga safarbar etilmagan bo'lsalarda, ular front orti ishlari uchun mardikorlikka olinib, urush qiyinchiliklarini o'z boshidan o'tkazdilar.

**BURJUAZIYA** (fransuzcha "bourgeoisie" – shaharlik) – o'rta asrlarda shahar aholisi dastlab shunday atalgan. Odatda o'rta asr yevropasida shaharlar ilm-fan va madaniyat, savdo-sotiq va ishlab chiqarish markazi sifatida jamiyatning ziyoli, tadbirkor, savdogar va boy badavlat qatlamlarining shakllanishi uchun markaz vazifasini bajargan. Shu ma'noda shahar boy-badavlat, ishbilarmon korchalonlar makoniga aylanib, ilgari barcha shahar aholisiga ishlatiladigan bu so'z vaqt o'tishi bilan faqat aholining boy-badavlat qismiga nisbatan ishlatiladigan bo'lgan.

Burjuaziya atamasi asosan sovet davri adabiyotlarida ko'proq ishlatilib, ular ta'riflagan kapitalistik jamiyatda hukmron sinf – yirik savdo-sanoat, moliya va bank egalari, hamda mehnatkash xalq mehnati samaralaridan foydalanuvchi hukmron tabaqa sifatida qaralgan.

Sho'rolar davrida qatag'on qilingan vatandoshlarimiz (ziyolilar, yozuvchi-shoirlar, davlat va hukumat rahbarlari)ning aksariyati o'sha paytda dushman sinf – burjua vakillari deb ayblanib jismonan yo'q qilinganlar.

**DUKCHI ESHON QO'ZG'OLONI** – Muhammad Ali (1846-1898) boshchiligida Farg'ona vodiysida Rossiya mustamlakachilariga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati. Muhammad Ali yoshligida Buxoro va Samarqandda yirik eshonlar xizmatida bo'lib, diniy bilimlarni o'zlashtirdi. 1882-yilda Sultonxon To'ra eshon o'limidan so'ng, marhumning vasiyati bilan uning o'rniga Muhammad Ali eshon etib tayinlanadi. 1887-1893-yillarda Makkai madinaga borib haj qiladi. Qaytishida Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiyaning qator shaharlarida bo'lib, zamonaviy bilimlar va Yevropa fan-texnikasi yutuqlaridan habardor bo'ladi.

Muhammad Ali ota kasbi yikchilik, ya'ni dukchilik bilan mashg'ul bo'lgan, shuning uchun ham uni dukchi eshon deb atashgan (duk – eski davrlarda paxta yoki jundan ip yigiradigan moslamaning, ya'ni charxning ip o'ralib boradigan qismi).

Eshonning yaxshi fe'l atvori, kamtarona turmush tarzi, boy hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi uning muhlislari sonini tobora oshirib boradi. U yashab turgan Mingtepa qishlog'i tezda ko'plarning qutlug' ziyoratgohiga aylandi.

Rossiya mustamlakachilarining zulmi ortib borar ekan Dukchi Eshon uyida Farg'ona vodiysining turli burchaklaridan kelgan vakillar ishtirokida maxsus kengash o'tkazilib, unda qo'zg'olon masalasi muhokama qilanadi va Muhammad Alining unga rahbar bo'lishi kelishiladi. U qo'zg'olonga hali fursat yetmaganligini tushuntirsa-da, mustamlakachilik zulmidan norozi xalq g'azab-ehtirosiga berilib, stixiyali tarzda 1898-yil 17-mayda ochiq kurashni boshlaydi. Qo'zg'olonchilar Andijondagi rus gornizoniga hujum qilib, 22 nafar soldatni o'ldiradilar, ko'plarini yarador qiladilar. Lekin kuch mustamlakachilar tomonidan bo'lganligi uchun qo'zg'olonchilar hal qiluvchi janglarda mag'lubiyatga uchraydilar. 546 kishi qamoqqa olinadi. Shulardan 18 kishi, shu jumladan Dukchi Eshon osib o'ldiriladi. 15

kishi surgunga, 147 kishi 20 yil, qolganlari 4 yildan 15 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinadilar.

**EKSPANSIYA** (lotincha “expancio” – kengayish, tarqalish) – mustamlakachi davlatlarning oʻzga xalqlar hududi, ularning boyligi va bozorlarini egallash uchun bosqinchilik harakatlari. Masalan: tarixda Buyuk Britaniya Hindistoni, Rossiya imperiyasi esa Oʻrta Osiyo va Kavkaz hududlarini oʻz taʼsir doirasiga tushirish uchun xuddi shunday (ekspansiv) harakatni amalga oshirganlar.

**ESHON** – ulugʻ avlodlarning va soʻfiylik oqimidagi diniy rahnamolarning faxriy unvoni. Eshonlar musulmonlar jamoasining boshligʻi, murabbiysi shuningdek, darveshlarning ham diniy murabbiysi hisoblangan. Oʻrta asrlarda soʻfiylik oqimi rahnamolariga murojaat qilishda ularning ismlari oʻrniga “eshon”, baʼzan “pir” soʻzlari ishlatilgan.

**GANDIMIYON SHARTNOMASI** – Xiva xonligi bilan Rossiya imperiyasi oʻrtasida 1873-yil 23-avgustda imzolangan shartnoma. Ushbu shartnomada “Onhazrat Xiva xoni Rossiya bilan sulh va doʻstlik shartnomasini imzolaydi hamda imperator oliy hazratlarining oliy homiyligida boʻladi” – deya taʼkidlangan edi.

Sulh boʻyicha Xiva xonligiga 2,2 mln. rubl miqdorda tovon solinadi. Bu paytda xonning xazinasi deyarli boʻshab qolgan boʻlib, bu pul Xiva xalqidan yigʻib olinadigan boʻldi.

Gandimiyon (Xiva yaqinidagi qishloq) shartnomasiga koʻra Xiva xonligi rus maʼmurlariga tamomila tobeʼ boʻlgan kichik viloyatga aylantiriladi. Chunki xonlikka qarashli Turkmaniston yerlari, Chorjuy, Amudaryoning oʻng sohilidagi yerlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilib bu yerda Kaspiyorti viloyati tashkil etiladi.

**GENERAL-GUBERNATOR** – Rossiya imperiyasida (1721-1917) mahalliy maʼmuriyatning oliy mansabi. Fuqarolik va harbiy hokimiyatga ega boʻlgan. Rossiyada 1775-yilda oʻtkazilgan guberniya islohotiga koʻra Rossiya guberniya (oʻlka va viloyat)lariga rahbarlik qilgan mansabdor shaxs. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston xonliklaridan bosib olingan hududlarda 1867-yil Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. K.P. Kaufman (1867-1881) uning birinchi general-gubernatori etib tayinlanadi.

**GUMANIZM** – insonni birinchi oʻringa qoʻyuvchi, uning qadr-qimmatini hurmat qilishni, inson kamoloti uchun zarur sharoitlar yaratib berishni talab qiluvchi, inson hayotini qadrlovchi gʻoyalar tizimi.

**IMPERIALIZM** – kapitalistik mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining bir bosqichi. Yevropaning sanoati rivojlangan ilgʻor industrial mamlakatlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shu bosqichga qadam qoʻygan edilar. Kapitalizmning imperializm bosqichi mustamlakachi davlatlar oʻrtasida rivojlangan sanoatni xom ashyo bilan taʼminlovchi mustamlaka yerlarini bosib olish uchun kurash avjiga chiqishi bilan xarakterlanadi. 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi ham mustamlakachi davlatlar oʻrtasida boʻlingan dunyoni qaytadan boʻlib olish va yangi yerlarni mustamlakaga aylantirish maqsadidan kelib chiqqan edi.

**IMPERIYA** – qadimda va oʻrta asrlarda, shuningdek, XX asr boshlarigacha monarxiya davlatlarining nomi. Imperiyaning boshligʻi imperator hisoblanadi. Tarixda Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) davlati (mil. avv. 334-323),

Rim davlati (mil. avv. 14-milodiy – 476-yillar), Vizantiya (395-1453), Franklar davlati (800-843), German davlatlarining “Muqaddas Rim imperiyasi” (962-1806), Usmoniylar davlati (1299-1923) va Yevropaning qator katta-kichik davlatlari iperiya deb yuritilgan. Rossiyada imperiya Pyotr I davridan (1721-yildan) to monarxiya qulagunigacha (1917-yil oktabr) mavjud boʻlgan. Imperiya davlati koʻpincha mustamlaka qilingan hududlardan tashkil topadi va yangi yerlarni bosib olish hisobiga kengayib boradi.

**JADID MAKTABLARI** – jadidchilik namoyondalarining xalq maorifi va maʼrifatini yuksaltirishni koʻzlab, eskicha taʼlim uslublaridan voz kechib, zamonaviy andozada tashkil etgan maktablari. Birinchi jadid maktabiga Ismoil Gaspirali (1851-1914) 1884-yil Qrimdagi Bogʻchasaroy shahrida asos solgan edi. Oʻzi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu darslik yordamida 40 kun ichida 12 oʻquvchining savodini chiqardi va bu maktab musulmon oʻlkalarida tez shuhrat qozondi.

1893-yilda Ismoil Gaspirali Buxoro amiri huzurida boʻlib, unga ilm-fanning amirlik taraqqiyotida tutadigan ahamiyatini zoʻr berib tushuntirdi. Amir zoʻrgʻa bitta jadid maktabi ochilishiga rozilik berdi. 1898-yilda Qoʻqonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Shu yili Toʻqmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903-yilda Turkiston oʻlkasida 102 ta boshlangʻich va 2 ta oʻrta jadid maktablari bor edi.

**JADIDCHILIK** (arabcha “jadid” – yangi) – yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yoʻllari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon oʻlkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgaboʻyi-Bulgʻor va Janubiy Ural havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muxitida vujudga kelgan. U oʻsha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi – Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi.

Jadidchilikning asosiy gʻoya-maqсадlari: Turkistonni oʻrta asrchilik, feodal tarqoqlik, diniy xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan xolda oʻlkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yoʻliga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qoʻshin tuzish. Bu gʻoya va maqsadlar 1917-1924-yillarda “Turkiston muxtoriyati” (1917-yil noyabr -1918-yil fevral), Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari davrida (1920-1924-yillar) qisqa muddatda va qisman boʻlsada amalga oshirilgan edi.

Qrim, Kavkaz, Volgaboʻyi-Bulgʻor va Janubiy Uraldagi jadidchilikka Ismoilbek Gaspirali, Jovid Xusayinzoda, Muso Jorullox Qozoniy, Rizouddin ibn Faxriddinlar raxnamolik qilishgan. Turkistonda bu harakatga Maxmudxoʻja Behbudiy va Munavvar Qorilar, Buxoroda jadidchilik harakatiga Abdurauf Fitrat va Usmonxoʻjalar, Xiva jadidlariga esa Polvonniyoz xoji Yusupov va Bobooxun Salimovlar yetakchilik qilganlar.

Jadidchilikning Turkistondagi taraqqiyotini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

**I. 1885-1895-yillar:** G.Ismoilbeyning “Tarjimon” gazetasi taʼsirida Qoʻqonda yangi – jadid usulidagi maktablar ochish harakatlari boshlanib, ular asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshlagan.

**II. 1895-1905-yillar:** Qrimdagi Gaspira shahridan G. Ismoilbeyning Buxoro va Samarqandga tashrifi, Buxoro amiri bilan uchrashishi natijasida 1895-yilda jadid maktablarini tashkil etish davri. Buxoroda Jo'raboy, Samarqandda A. Shakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar Qori, A. Avloniy, Qo'qonda Xamza, Namanganda I. Ibrat, So'fizodalar ochgan jadid maktablari o'z faoliyatlarini olib bordilar.

**III. 1905-1914-yillar** jadidchilikning maktab-maorifdan kengroq gazetchilik, ya'ni ro'znomalar va jaridalar chop etish, matbaa ishlarini yo'lga qo'yish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat-maorifni milliyashtirish bosqichi.

**IV. 1914-1917-yillar** jadidchilikning o'ta ijtimoiy-siyosiy yo'nalish kasb etishi, jadidchilik siyosiy partiyalarining tuzilishi va ularning uch xil turli talablar qo'yishi:

1) Rossiyadan to'la ajralib chiqish; 2) Rossiya Federatsiyasi tarkibida "milliy-hududiy muxtoriyat" tuzish; 3) Rossiya unitarizmi tarkibida faqat ma'naviy-diniy muxtoriyat huquqlari kafolatiga ega bo'lish.

**V. 1917-yil noyabr – 1918-yil fevral** oralig'ida Qo'qonda "Turkiston muxtoriyati"ning tuzilishi va uning rus bolsheviklari tomonidan qonga botirilib, tugatilishi.

**VI. 1918-1924-yillar** sho'ro tizimi tarkibida, maorif-matbaa ishlarida "Chig'atoy gurungi" ni tuzish bilan ajralib turadi.

**VII.** Turkiston parchalanib (1924), jadidchilikning keyingi taraqqiyoti "milliy respublikalar" doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida "Chig'atoy gurungi" g'oyalari zimdanda amalga oshirishga, milliy ozodlik harakatini jonlantirishga urindi.

**VIII. 1931-yildan to 1937-38-yillar orqali 50-yillarning birinchi yarmigacha** qatag'onga uchrash davri.

Turkiston jadidlari sho'rolar tuzumi, partiya g'oyasi va mafkurasini to'ralig'icha inkor etib, yagona va bir butun Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar. A. Avloniy, S. Ayniy, Xamza, Botu, Eibek, A. Ikromov, F. Xo'jayev va boshqa jadidlar milliy va umuminsoniy demokratik qadriyatlariga muqobilan sho'ro (sovet) g'oya va qadriyatlariga urg'u berishgan. Lekin shunday bo'lsada oxirda nomlari keltirilgan jadidlar xam o'zlari xizmat qilgan sho'ro (sovet) davlati tomonidan qatag'on qilindilar.

Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy xalqlarning jahon MIK'osida tanilishini deyarli bir asirga orqaga surdi, ularni hukmron kommunistik mafkura va sovet tuzumi istibdodiga qaram etilishiga olib keldi. Jadidchilik harakati bir asr davomida dastlab Rossiya mustamlakachiligi, keyinchalik kommunistik partiya tazyiqi va iskanjasida bo'lib, to'la ravishda nomoyon bo'la olmadi. Ziyolilar tomonidan uning zaminlarini va shakllanish tarzini o'rganish ta'qiq ostida bo'ldi. Sho'rolar davridagi misli ko'rilmagan mafkuraviy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tazyiqqa qaramay o'zbek xalqi milliy o'ziga xosligini saqlab qola bildi. Jadidlar o'rtaga tashlagan g'oyalarni amalga oshirish vaqti-soati kelishini umid bilan kutdi. Bu vaqt mustaqillik bilan barga hayotimizga kirib kela boshlandi. Chunki jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalari edi.

**KAPITALIZM** (lotincha “capital” – boylik, neʼmatlar) – jamiyat taraqqiyotidagi muhim bosqichlardan biri, feodalizmdan keyin tarix sahnasiga chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum.

Kapitalizm shuning uchun ham feodalizمنى yengib, uning oʻrnini egalladiki, u oʻzidan oldingi ijtimoiy bosqichga nisbatan inson faoliyatiga juda keng yoʻl ochdi, moddiy va maʼnaviy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Shu sababli kapitalizm insoniyat tarixida misli koʻrilmagan kashfiyotlar va ixtirolar davri boʻldi. XVI-XX asrlar mobaynida insoniyat oʻzining kapitalizmga boʻlgan tarixi davomida yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklaridan koʻproq neʼmatlar yaratdi. Fan, texnika va texnologiyani insoniyat hayotining negizi va kelajak taraqqiyotining poydevoriga aylantirdi. Toʻgʻri kapitalizm davrida ilgari davrlarga qaraganda misli koʻrilmagan darajadagi mustamlakachilik bosqinlari, turli qoʻzgʻolonlar va qonli urushlar sodir boʻldi (birinchi va ikkinchi jahon urushlari). Lekin, umuman olganda, kapitalizmning bunyodkorlik mohiyati uning buzgʻunchilik taraflaridan koʻproq, zoʻrroq va kuchliroq ekanligi tarix tajribasi asosida tasdiqlandi. Bu, ayniqsa, kapitalizmning sotsializm bilan 1917-1991-yillar davomidagi musobaqasida yaqqol koʻzga tashlandi, kapitalizmning sotsializmdan shak-shubhasiz ustun ekanligi maʼlum boʻldi va sotsializm XX asrning 80-yillaridan butun jahon boʻylab barbod boʻla boshladi.

**KATORGA** – jinoyatlar va siyosiy jinoyatlar uchun jazoning alohida turi. Ozodlikdan mahrum qilishning alohida qattiq tartibi va mahkumlarni ogʻir jismoniy mehnatga jalb etish bilan qoʻshilib ketadi. Oʻrta asrlarda, Rossiyada XVIII asrning boshida yuzaga kelgan. Katorga (surgun) qilinganlarning mehnatidan qalʼalar, flotlar qurishda, konlarda foydalanilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida markaziy katorga turalarni tizim sifatida mavjud boʻlgan. 1917-yil fevral toʻntarishidan keyin tugatilgan.

**KOʻKTEPA QIRGʻINI** – Rossiya imperiyasining erksevar turkmanlar yerini bosib olish jarayonida roʻy bergan eng yirik janglardan biri. 1879-yilda general Lazarev qoʻmondonligidagi qismlar Koʻktepaga hujum qilib qaqshatqich magʻlubiyatga uchraydi. Bosqinchilarning yangi kuchlariga 1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushida “Milliy qahramon”, “Bolgariya xaloskori” deb ulugʻlangan general-leytenant M.D. Skobelev boshliq qilib tayinlanadi.

Skobelev qoʻshini bilan turkmanlar oʻrtasida 1881-yil yanvar oyida hal qiluvchi jang boshlandi. Ruslar hech qachon Koʻktepa ostonasidek keskin qarshilikka duch kelishmagan edilar. Buni voqealarning guvohlari hamda muarrixlar tan olishadi. Turkman vatanparvarlariga jasur Toʻkma sardor boshchilik qilgan.

Akademik V.V. Bartoldning yozishicha “Yigirma kunlik qamaldan soʻng 1881-yilning 24-yanvarida Koʻktepa qalʼasi shturm bilan ishgʻol qilindi, soʻng talon-taroj qilish uchun askarlar ixtiyoriga toʻrt kun muxlat berildi. Qalʼani zabt etish chogʻida ruslar oʻlgan va yaradorlarni birga hisoblaganda 10 mingdan ortiq odamini yoʻqotdi. Bu ruslarning Oʻrta Osiyodagi janglaridagi eng katta talofati edi. Koʻktepa jangida Turkistonda birinchi marta ruslarning bayrogʻi va zambaragi oʻlja olindi”.

**KONKA** – toʻrt yoki oltita ot bilan harakatlantiriladigan bir vagonli, tor izli shahar transporti. Toshkentda dastlabki konka XIX asrning oxirida qurilib, Xadra bilan Temir yoʻl vokzali orasida qatnagan. Undan 1915-yilgacha foydalanilgan.



**MARDIKORLIKKA OLISH** – Rossiya imperiyasi Antanta ittifoqida Germaniya va Turkiyaga qarshi 1914-yildan birinchi jahon urushiga kirdi. Rus qo'mondonligi urushda no'noqligi, uquqsizligi tufayli o'rinsiz qurbonlar berib, Rossiyaning urushga taraddudi puxta bo'lmaganligini ko'rsatdi. Do'ppisi tor kelib qolgan rus qo'mondonligi urush og'irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ezish siyosatiga o'tdi. Imperator Nikolay II imzo chekkan va 1916-yil 25-iyun kuni e'lon qilingan "Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida muhofaza inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida" farmon chiqardi. Mardikorlikka olish to'g'risidagi bu farmonga ko'ra Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbar qilish ko'zda tutilgan edi.

Safarbarlik to'g'risidagi farmonning e'lon qilinishi va mardikorlikka olinuvchilar ro'yxatini tuzish jarayonidagi adolatsizliklar va qonunbuzarliklar aholi o'rtasida keskin noroziliklarga va tarixda mashhur 1916-yilgi xalq qo'zg'olonlariga sabab bo'ldi.

**MA'RIFAT** – kishilarning bilimini, dunyoqarashini va madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya.

**MUSTAMLAKA TARTIBI** – urushib bosib olingan hudud aholisining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy qaramga aylantirishga xizmat qiluvchi boshqarish usuli.

**OQMACHIT** – Qo'qon xonligining eng shimolidagi chegara qal'asi. Hozirgi Qozog'istonning Qizil-O'rda shahriga to'g'ri keladi. Rossiya qo'shinlari 1853-yilda Oqmachitni egallashlaridan O'rta Osiyo xonliklarini istilo qilish jarayoni boshlangan.

**OTIN** – eski diniy maktablarda qizlar o'qituvchisi. Otinlar ayollar o'rtasidagi diniy marosimlarni o'tkazishda boshchilik qilib, ularga diniy ta'limot berib, ulardan tushadigan daromad hisobiga yashaganlar.

**PANISLORIZM** – XIX asrning oxirida O'rta Sharqdagi musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqim. Asoschisi Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897). Panislomizm tarafdorlari musulmonlar birligi va ularni halifa rahbarligidagi yagona musulmon davlatiga birlashtirish zarurligi g'oyasini ilgari surganlar. Panislomizm tarafdorlari mustamlakachilarga qarshi faol targ'ibot olib borganlar, maxfiy tashkilotlar tuzganlar, ro'znomalar nashr qilganlar. Ayni vaqtda panislomchilar diniy islohcilik mavqeida turib, islom dinini davr talablariga muvofiq isloh qilishga ham intilganlar.

**PANTURKIZM** – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiyaning burjuapomeshchik doiralari orasida tashkil topgan oqim. Panturkizm Bolqon yarim oroli, O'rta Osiyo va Qozog'iston, Kavkazorti va Volga bo'yilarida yashab, turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarni Turkiya himoyasi ostida birlashtirish va "Ulug' Turon" davlatini tuzish g'oyasini olg'a surgan. O'rta Osiyo, Kavkazorti va Tatariston jadidlari panturkizm g'oyasidan turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarni mustamlakachilikka qarshi kurash yo'lida faydalanishga harakat qilganlar, ammo bu harakat natijasiz tugagan. Keyinchalik ko'pgina mahalliy ziyolilar sho'rolar hukumati tomonidan panturkizm tamg'asi bilan qatag'on qilinganlar.

**PROTEKTORAT** (lotincha “protektor” – homiy) – mustamlaka mamlakatlari qaramligining bir shakli. Bunday qaramlikka tushgan mamlakat garchi ichki siyosatda birmuncha mustaqilligini saqlab qolsada, lekin tashqi siyosati va mudofaa masalalari uning ustidan protektorat oʻrnatgan davlat ixtiyoriga oʻtadi. Masalan: Rossiya imperiyasi Xiva xonligi va Buxoro xonligini oʻziga qaram qilib olgach, ular ustidan oʻz protektoratini ham oʻrnatgan edi. Xonlar ichki siyosatda mustaqil boʻlsalarda, tashqi siyosiy masalalarni rus imperatori rozi-rizoligi bilan, ular bilan maslahatlashib yuritishga majbur boʻlganlar.

**PUD** – ogʻirlik oʻlchov birligi. 1 pud 16 kilogrammga teng.

**TOSHKENT QOʻZGʻOLONI** – qarang: Vabo isyoni.

**TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI** – Rossiya imperiyasining Turkiston xonliklaridan bosib olgan hududlarida 1867-yilda tashkil etgan gubernatorligi. Turkiston general-gubernatorligi dastlab ikkita viloyat (Yettisuv va Sirdaryo) dan iborat edi. Turkiston xonliklaridan bosib olingan yangi yerlar hisobiga keyinchalik Fargʻona (1876), Samarqand (1868) va Kaspiyorti viloyatlari (1881) ham tashkil etiladi. Gubernatorlikning markazi Toshkent shahri qilib belgilanadi. Turkiston general-gubernatori podsho tomonidan tayinlanib unga oʻlka boshqaruvida mutlaq hokimiyat vakolatlari berilgan. Mahalliy aholi uni “yarim podsho” deb atardi.

1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tasdiqlagan Turkiston oʻlkasini idora qilish toʻgʻrisidagi yangi Nizomga koʻra oʻlka boshqaruvi toʻrtta asosiy boʻlimdan tarkib topgan edi (maʼmuriy tuzilish, sud tuzilishi, yer tuzilishi, soliqlar va yigʻimlar). Turkiston general-gubernatorligi Rossiyada podsho hokimiyati agʻdarilguniga qadar amalda boʻldi. 1917-yil oktabr davlat toʻntarishidan soʻng uning oʻrnida 1918-yil aprel oyida RSFSR tarkibiga kiruvchi Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (TASR) tashkil etiladi.

Turkiston general-gubernatorlari: K.P. Kaufman (1867-1881), M.G. Chernyayev (1882-1884), N.O. Rozenbax (1884-1888), A.B. Vrevskiy (1889-1898), S. Duxovskiy (1898-1901), N.A. Ivanov (1901-1904), P.N. Tevyashov (1904-1905), D.I. Subbotich (1905-1906), N.I. Grodekov (1906-1908), P.I. Mishchenko (1909), A.V. Samsonov (1909-1913), Flug (1913), Martson (1913-1916), Yerofeyev (1916), A.N. Kuropatkin (1916-1917).

**“VABO ISYONI”** – 1892-yil 24-iyunda Toshkentda boshlangan qoʻzgʻolon. 7-iyunda Toshkentda vabo bilan kasallanish qayd etilgach, epidemiyaning oldini olish maqsadida mustamlakachi maʼmurlar shaharga kirishni cheklab qoʻyadilar. Vafot etganlarni tibbiyot xodimi koʻzdan kechirgandan soʻng maxsus mozorga koʻmish toʻgʻrisida buyruq chiqariladi. Biroq shifokorlar yetishmasligi tufayli keltirilgan oʻliklar uch-toʻrt kunlab tekshirilmay qolib ketadi, xalq esa oʻz ajali bilan oʻlganlarni yashirincha oʻzlarining qabristoniga koʻma boshlaydi. Bundan xabar topgan shahar maʼmurlari oʻliklarni goʻrlaridan oldirishni buyuradilar. Bu esa mahalliy xalqning keskin naroziligiga sabab boʻladi. Narozilik harakati dastlab aholining boy-badavlat zodagonlariga qarshi hokimiyatni suiisteʼmol qilish bilan tanilgan shahar bosh oqsoqoliga qarshi namoyish tarzida tinch holatda boʻlgan. Namoyish ruslarga qarshi qaratilmagan boʻlib, birorta rus idorasi, rus doʻkoniga bostirib kiritilmagan, birorta ham rus kishisi aziyat chekmagan. Namoyishchilarga qarshi shahar boshligʻi polkovnik Putintseving kuch ishlatish toʻgʻrisidagi

buyrug'idan keyin qo'zg'olon tusini olib, uning devonini tor-mor etishadi va o'zini kaltaklashadi. Qo'zg'olonni bostirish uchun kazaklar polki va bir to'da askar chaqirildi. Ular qurolsiz olomonga o'q uzib, qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar.

**VASSAL** – 1) Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xo'jayin (senor, feodal)ga qaram bo'lgan xizmatkor (dehqon).

2) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida bir davlat tomonidan ikkinchi davlatni siyosiy jihatdan o'ziga to'la qaram qilib olib, u yerda o'z siyosatini yurgizishi vassallik deb atalgan. Masalan: 1868-yilda Rossiya imperiyasi Buxoro Amirligini, 1873-yilda Xiva xonligini bosib olgach, imzolangan shartnomaga ko'ra bu ikkita xonlik Rossiyaning vassaliga aylantirilgan.

**VERNIY** – hozirgi Olmaota shahri. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Yettisuv viloyatining markazi bo'lgan.

**YOSH BUXOROLIKLAR** – Buxoro jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiya. Taraqqiyparvar va mahalliy burjuaziya vakillarini birlashtirgan. Yosh Buxoroliklar dastlab mavjud feodal tuzumga qarshi demokratik islohotlar o'tkazish tarafdorlari bo'lganlar. Amir hokimiyatiga qarshi kurashda muayyan tajriba orttirib, o'zbek va tojik tillarida jumallar tashkil etganlar.

**YOSH XIVALIKLAR** – Xiva jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan partiya. O'z safida savdogarlar, mayda dindorlar va xon xizmatida bo'lgan ayrim taraqqiyparvar amaldorlarni birlashtirgan. Uning ilg'or qismi feodal aristokratiya hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, ommani ma'rifatli qilish tarafdori bo'lgan. Umuman, yosh xivaliklarning maqsadi xon hokimiyatini cheklab, konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish, amaldorlarga oylik tayinlash tartibini joriy etish, "shariat bo'yicha tenglik", ya'ni burjuaziyaning huquqlarini hukmron sinf bo'lgan feodallar bilan tenglashtirish edi.

**ABDULLA AVLONIY** (1878-1934) – atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va murabbiy. Toshkentda kosib oilasida tavallud topgan. O'z tarjimai holida yozishicha 12 yoshidan O'qchi mahallasidagi madrasada o'qiy boshlagan. 13 yoshidan yoz kunlari mardikorchilik qilib, oilasiga yordam bergan. Qish kunlari esa dars o'qigan. 14 yoshidan boshlab har xil she'rilar yoza boshlagan. Qrimning Bog'chasaroy shahrida chiqadigan "Tarjimon" gazetasi o'qib borib, zamona voqealaridan xabardor bo'lgan.

Madrasani bitirib, o'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etdi. Yoshlarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rganish bilan shug'ullandi. 1913-yilda "Turon" teatr guruhini tashkil etdi.

Maktab o'quvchilari uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912), "Tarix", "Turkiy Guliston yohud axloq" kabi zamonaviy darsliklar yozdi.

Abdulla Avloniy she'rleri eski urf-odatlariga qarshi, muhabbat mavzuida, tarbiya, maktab-maorif, axloq-odobga bag'ishlangan. "Maktab" nomli she'rida maktabni inson uchun zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi najot yo'li deb ataydi.

Abdulla Avloniy 20-yillarda nafaqat o'zbek xalqi madaniyati va ma'rifat faoliyatida faol ishtirok etdi, balki qo'shni afg'on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muayyan xizmatlar qildi. U ma'lum muddat Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng sho'ro hukumatining Afg'onistondagi konsul-elchisi lavozimida xizmat qildi.

Umrining oxirgi yillarida O'rta Osiyo kommunistik universitetida dars berish bilan birga, o'zbek adabiyotidan qator darsliklar yozdi. U 1934-yil 56 yoshida vafot etdi.

**ABDULLA QODIRIY** (taxallusi Julqunboy, 1894-1938) – o'zbek romanchiligining asoschisi. Turkiston jadidlari vakili. A. Qodiriy Toshkentdagi Eshonguzar mahallasida tug'ildi. eski usul maktabida o'qidi. "rus-tuzem maktabi"ni imtiyozli guvoohnoma bilan tugalladi, madrasada arab va fors tillarini o'rgandi. Sharq klassiklarining asarlarini o'qidi. U o'zining she'riy tarzda yozgan dastlabki "Bizning holimiz", "Mening millatim" asarlaridayoq Turkiston jadidchiligi g'oyalariiga sodiq ekanini bildirdi. Abdulla Qodiriy o'zining butun ijodi davomida ana shu g'oyaga sodiq bo'lib qoldi. O'zining ko'pgina hikoyalariida. hajviy asarlarida, adabiy-tanqidiy ishlarida, "O'tgan kunlar" (1919-1925), "Mehrobdan chayon" romanlarida o'z xalqining yaqin o'tmishini gavdalantirdi. mamlakatni idora qilishning o'z umrini yashab bo'lgan tartibini, millat va jamiyat manfaatlariga zararli ish ko'rgan xon va uning atrofidagi eng yaqin shaxslar istibdodini keskin qoraladi, xalqning siyosiy qoloqligidan nihoyatda tashvishlanar edi. Qodiriy o'z asarlari bilan xalq orasida vatanparvarlik, vatanga muhabbat urug'ini sochdi, milliy birlikni mustahkamlashga da'vat etdi. U ommaviy milliy ongni uyg'otishda muhim rol o'ynadi. Qodiriy "Mushtum" jurnalining ta'sischilaridan biri edi. Abdulla Qodiriy 1937-yilda qamoqqa olinib, "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. 1938-yilda qatl etildi. 1956-yilda oqlandi.

**ABDURAUUF FITRAT** (1886-1938) – olim, yozuvchi, Turkiston jadidchiligining eng taniqli namoyondasi, Buxoro jadidlarining mafkurachisi va rahbari. U Buxoroda tug'ildi, shu yerdagi madrasada ta'lim oldi, Istanbulda ham o'qidi va u yerda "Buxoro ta'limi maorif jamiyati"ni tuzadi. Buxorodagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy ahvolning eng yaxshi bilimdoni edi. Fitratning taqdiri jadidchilik bilan chambarchas bog'liqdir. U oktabrgacha bo'lgan davrda Turkiston xalqlari adabiyoti, ijtimoiy va falsafiy tafakkurining juda muhim yodgorligi bo'lmish "Rahbari najot" asarini yaratdi. Bu asarda o'lka xalqlarini nodonlik va qoloqlikdan taraqqiyot va yanada rivojlanish yo'liga olib chiqish ko'rsatib berilgan edi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin u Buxoro amirligida tuzilgan Yosh buxoroliklar tashkiloti markaziy qo'mitasining muassislaridan biri bo'ldi. U Buxoroda huquqiy davlatchilikni joriy etishni, o'rta asr istibdodini tub madaniy va iqtisodiy yangilash. Yevropa namunasidagi ma'rifatli mustaqil hokimiyat bilan almashtirishni ko'zda tutuvchi islohotlar loyhasining muallifi edi. 1920-yilda, amir hokimiyati ag'darib tashlanganidan keyin, Fitrat Buxoro hukumatida vaqf boshqaruvining mudiri, tashqi ishlar va maorif noziri lavozimini egalladi. 1923-yilda uni hokimiyatni suiiste'mol qilishda nohaq ayblaganlaridan keyin siyosatdan uzoqlashib, o'zini ilmiy, muallimlik ishiga bag'ishladi. O'sha yillarda u bir qancha badiiy asarlar ("Bedil", "Chin sevish"(1920), "Qiyomat", "Abulfayzxon" "Hind itilolchilari", "Shaytonning tangriga isyoni", "Munozara". "Sayyohi hindiy". "Sharq siyosati", "Sayha". "Arslon") yaratdi, ularda totalitarizm (zulmkor tartib) kurtaklarini shafqatsiz ravishda qoralaydi.

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIY** (1875-1919) – XX asrning boshlarida o'zbek ziyolilarining eng ko'zga ko'ringan namoyondasi, jadidchilik harakati rahbarlaridan biri. U Samarqandda tug'ildi. Samarqand va Buxoro madrasalarida ta'lim oldi, o'sha

yerda arab va fors tillarini o'rgandi. Ko'p sayohat qildi. Uzoq vaqt Turkiyada va Mirda yashab, xalq ta'limining ahvoli – yangi usul maktablari, oliy o'quv yurtlari bilan batafsil tanishdi. Peterburg, Moskva, Qozon va Orenburgda bo'lib, yangi usul maktablari ish tajribasini, ularning ta'lim-tarbiya tizimini, adabiyoti va matbuot namunalari o'rganish bilan qo'shib olib bordi. Samarqandga qaytib kelganidan keyin u faol ish olib boradi: yangi usul maktablarini ochdi, yangi o'quv qo'llanmalari yozdi. “Samarqand” ro'znomasi va “Oyna” jaridasini chiqara boshlaydi. O'sha yillarda uning adabiy iste'dodi namoyon bo'ladi. U “Padarkush” pesasini yozadi. Behbudiy ko'pgina jadid nashrlari – “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg'ona”, “Xurshid” va boshqa shu kabi ro'znoma va oynomalarda faol hamkorlik qiladi. O'zining “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Turkistonda maktab jaridasi”, “Turkiston idorasi”, “Sayohat xotiralari” sarlavhali maqolalarida va boshqa chiqishlarida u qadimiy urf-odatlariga, madrasadagi quruq safsatadan iborat eski ta'limga, xurofot va nodonlikka, mahalliy hokimlarning savodsizligiga islohotchi-ma'rifatchi nuqta nazaridan tanqidiy baho beradi. U ilg'or millatlarning tajribasi va bilimlari bilan boyigan hamda bularni o'z xalqi orasida joriy etishga qodir bo'lgan yangi milliy ziyolilarni tayyorlash qaloqlik, jaholat va nodonlikdan keyin Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etdi. U 1917-yilning aprelidan boshlab musulmon deputatlari o'lka soveti rayosati a'zosi, “Hurriyat” ro'znomasi tahririyati hay'ati a'zosi bo'ldi. Samarqandda dastlabki milliy siyosiy tashkilotlar barpo etilishi Behbudiyning nomi bilan bog'langandir. U o'lka musulmonlarining I-IV s'ezdlarida qatnashdi. Turkiston Muhtoriyati tor-mor qilinganidan keyin u siyosiy faoliyatdan chetlashdi. Behbudiy 1919-yilda fojiali halok bo'lishiga qadar Samarqand soveti xalq maorifi bo'limining noziri vazifasida ishladi.

**MUNAVVAR QORI** (to'liq nomi Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, 1878-1931) – yozuvchi, ma'rifatparvar pedagog, Turkiston jadidlarining rahbarlaridan biri. U Toshkentda mudarris Abdurashidxon oilasida tug'ildi. Dastavval domla Usmon maktabida o'qidi, so'ngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida tahsil ko'rdi, 1898-yildan Buxoro madrasasida ta'lim oldi. Toshkentga qaytib kelganidan keyin bir oz vaqt Darxon masjidida imom bo'lib ishladi. U o'z mustaqil faoliyatining dastlabki qadamlaridanoq vujudga kelayotgan taraqqiyparvar-vatanparvarlar (jadidlar) harakati safiga kirdi va qisqa vaqt ichida uning rahbarlaridan biri bo'lib qoldi. Maktab ta'limini isloh etish, xalqni ma'rifatli qilish va taraqqiyot yo'liga olib chiqish to'g'risida Ismoil Gasprinskiyning g'oyasini so'zsiz ma'qullab qabul qildi. U o'zining butun hayotini ana shu g'oyani Turkistonda amalga oshirishga bag'ishladi. Yangi usul maktablarini ochish, shu maktablar uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish, “Jamiyati hayriya” tashkil qilish uning nomi bilan bog'liqdir. Bu jamiyat o'quvchilarga moddiy yordam berdi, ulardan eng yaxshilarini o'qish uchun Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga yuborishni tashkil qildi. U “Xurshid” ro'znomasining (1906-yil) noshiri va muharriri, keyinchalik esa “Najot” (1917-yil), “Kengash” (1917-yil) nashrlarining bosh muharriri bo'ldi. “Sadoi Turkiston” ro'znomasi (1914-1915-yillar) bo'lim muharriri bo'lib ishladi. Ana shu nashrlarda bosilgan redaksion maqolalar, ocherklarning muallifidir. U milliy teatr va dramaturgiyaning vujudga kelish sarchashmalarida turdi, artistlar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shdi. ko'pgina milliy adabiyot va

dramaturgiya namoyondalarining ma'naviy murabbiysi bo'ldi. Munavvar Qorining siyosiy faoliyati 1916-yildagi voqealar jarayonida, ayniqsa, fevral inqilobidan keyin faollashdi. "Sho'roi Islom" jamiyatining asoschilari va rahbarlaridan biri bo'ldi. U musulmonlarning I-IV o'lka s'ezdlarida qatnashdi. Oktabr to'ntarishidan keyin faol siyosiy faoliyatdan chetlashdi, maorif sohasida shug'ullandi. U 1929-yilda 51 yoshida sobiq jadidlar guruhi (78 kishi) bilan birga qamoqqa olindi va uzoq vaqt davomida tergov qilindi. DXQ arxivlarida tergov materiallari "Munavvar Qori va boshqalar"ning ishi alohida ajratib qo'yilgan.

**UBAYDULLA XO'JAYEV** (to'liq nomi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'li 1882-1938) – birinchi o'zbek advokat, jurnalist, jadidlar harakatining yetakchisi. U Toshkentdagi Qoryog'di mahallasida bog'bon oilasida tug'ildi. Rus-tuzem maktabida o'qidi, advokatlar idorasida tarjimon bo'lib ishladi. Saratov dorilfununida oliy yuridik ma'lumot oldi. Toshkentda advokatlik sohasida olib borgan faoliyati uni taniqli huquq himoyachisi sifatida jamoatchilik orasida keng mashhur qildi. O'z vatani, o'z xalqi taqdiriga beparvo qaramaydigan, bu kishi o'lkada jadidlar harakatining faol qatnashchisi bo'ldi. "Sadoi Turkiston" ro'znomasining muharriri. "Turkestanskiy golos" ro'znomasining muxbiri lavozimida ishlab, "Taraqqiyparvarlar" deb atalgan jadidlar tashkilotining tarkib topishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi, bu tashkilot faoliyatida muhim rol o'ynadi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin u Toshkentdagi "Sho'roi Islom" tashkilotining raisi, Turkiston o'lkasi musulmonlari Markaziy sho'rosining kotibi va a'zosi, Butunrossiya musulmonlari I va II s'ezdlarining delegati, Butunrossiya musulmonlar Kengashi ("Milliy Sho'ro")ning a'zosi etib saylandi. U musulmonlar barcha to'rtta o'lka s'ezdlari rayosatining raisi qilib saylangan. Turkiston Muhtoriyati Muvaqqat hukumati tarkibida harbiy vazir lavozimini egalladi. Turkiston Muhtoriyati hukumatining dasturiy hujjatlari mualliflaridan biri bo'ldi. Istiqlofchilik harakatiga xayrixohlik bilan qaragan. Sovetlar davrida bir necha marta qamoqqa olindi va surgun qilindi. So'nggi marta u 1937-yil bahorida surgundan qaytib keldi. Biroq 1938-yilda u yana qamoqqa olindi va surgun qilindi, ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etdi.

**USMON XO'JA, USMONXO'JA PO'LATXO'JAYEV** (1878-1968) – Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, taniqli davlat va jamoat arbobi.

Usmon Xo'ja 1878-yil Buxoro shahrida tug'ilgan. Otasi Qori Po'latxo'ja savdogar bo'lgan. U dastlabki tahsilni Buxorodagi madrasada oldi va ilk jadid maktablaridan birini ochdi. 1908-yil do'sti Hamidxo'ja Mehriy bilan Istanbulda tahsil oladi. 1913-yil Usmon Xo'ja Buxoroga qaytadi va yana jadid maktabi ochadi. 1910-yil tuzilgan "Tarbiyai atfol" maxfiy tashkilotining faol a'zolaridan biri bo'ladi.

Usmon Xo'ja va uning ukasi Otaxo'ja (Otaulla Xo'jayev. 1894-1938) Yosh buxoroliklar partiyasining yirik namoyondalaridan edi. Kolesovning Buxoroga bosqinidan so'ng (1918-yil mart) Usmon Xo'ja sovet Turkistoniga muhojirlikka ketishga majbur bo'ladi. 1918-yil aprelda u Toshkentda yosh buxoroliklarning so'l eserlar guruhini tuzdi. 1920-yil fevralda Usmon Xo'ja inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston Markaziy byurosining a'zosi bo'lib saylanadi.

Usmon Xo'ja BXSР tuzilgach, moliya noziri (1920), davlat nazorati noziri (1921), BXSР MIKning biriachi raisi (1921-yil avgust-dekabr) kabi lavozimlarda ishladi. U Buxoro Xalq Respublikasidan bosqinchi qizil askar qo'shinlarini olib

ketilishi. Buxoroning xaqiqiy mustaqilligi uchun kurashadi. 1921-yil dekabrda Usmon Xo'ja Sharqiy Buxoroda (Dushanba atrofidagi) istiqlolchilar safiga o'tadi va 1922-yil Afg'onistonga o'tib, Buxoro Respublikasining mustaqil milliy armiyasi uchun zamonaviy qurollar sotib olishga harakat qiladi.

Usmon Xo'ja muhojirlikda Afg'oniston, Polsha, Eron va Turkiyada bo'ladi. Usmon Xo'ja endi Turkiston mustaqilligi uchun kurashni mafkura maydoniga ko'chiradi. 1927-1932-yillarda u Istanbulda "Yangi Turkiston" jurnalini nashr qildirdi. U Turkiston tarixiga oid ko'plab asarlar muallifidir.

Usmon Xo'ja 1968-yil Turkiyada vafot etadi.

**CHO'LPON** (1897, Andijon – 1938, Toshkent) – jadid adabiyotining yirik namoyondasi, istiqlol kuchisi, yangi o'zbek she'riyatining asoschisi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li (taxallusi Cho'lpon) 1897-yil Andijon shahridagi Qatorterak mahallasida savdogar oilasida tug'ildi. Uning otasi zamonaning peshqadam ziyolilaridan bo'lib, "Rasvo" tahallusi bilan g'azallar yozgan. Cho'lpon eski maktab va madrasada saboq olgan, rus-tuzem maktabida o'qigan. Cho'lpon 16 yoshidan boshlab ijod qila boshladi. Uning dastlabki asarlari "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" kabi jadid gazetalarida hamda Orenburgda chiqayotgan "Sho'ro" jurnalida bosila boshladi. Cho'lponning nomi tez orada Turkiston mintaqasidan tashqarida ham mashhur bo'lib, u jadid adabiyotining yirik vakillaridan biriga aylandi.

"O'zbek yosh shoirlari" (Toshkent, 1922-yil) to'plamida Cho'lponning 14 ta she'ri bosilgan. Uning "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926), "Soz" (1935) kabi 4 ta she'riy to'plamlari nashr qilingan. Cho'lponning "Yorqinoy" (1926) va "Gunoh" (1923) dramatik asarlari, "Kecha va kunduz" (1936) romani mashhurdir.

Cho'lpon o'z ijodida istibdod va jaholat millatning taraqqiyot va hurligini bo'g'uvchi illatlar ekanini badiiy aks ettirdi. Cho'lpon Turkiston Muxtoriyati hukumatini olqishlab, otashin satrlar yozdi. U o'z ijodida chorizm va sovet istibdodining butun dahshatlarini, bosqinchi qizil armiyaning talonchiliklarini ko'rsatib berishdan cho'chimadi. Cho'lponning "Ozod turk bayrami" (1917), "Buzilgan o'lkaga" (1920), "Go'zal Turkiston" (1922), "Qurbon" (1923) she'rlari va "Vayronalar orasidan", "Chimkent xatlari", "Yo'l esdaligi" (1921-1922) kabi publisistik maqolalarida Turkiston istiqloli kurashchilarining yorqin obrazi chiziladi, mustabid sovet rejimining kirdikorlari fosh qilinadi. Xususan, uning Anvar posho o'limiga bag'ishlab yozgan "Baljuvon" (1922) marsiyasi tillarda doston bo'ldi. Cho'lpon ijodining asosiy mezonini Turkiston istiqloli uchun kurash va milliy g'oya tashkil qilgan edi.

Cho'lpon sovet rejimi tomonidan 1937-yil qamoqqa olinadi va 1938-yil 4-oktabrda Toshkentdagi Bo'zsv bo'yida Fitrat va Qodiriy bilan birgalikda otib tashlanadi.

#### **MAVZU: TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI. ISTIQLOLCHILIK HARAKATI (1917-1924- yillar)**

**BOLSHEVIKLAR** – Rossiyada 1903-yil RSDRPning II s'ezdida partiyaning rahbar organlariga o'tkazilgan saylovlarda V.I. Lenin tarafdorlari ko'pchilik ovozni

olishga muvaffaq bo'ladilar. Shu vaqtdan boshlab RSDRP tarkibidagi V.I. Lenin tarafdorlari bolsheviklar (ko'pchilik ma'nosida), unga muxolif bo'lgan kuchlar mensheviklar (ozchilik) deb yuritila boshlangan. Partiyaning nomi ham 1917-yil RSDRP dan RSDRP(b)ga o'zgartiriladi. Bolsheviklar 1917-yil 25-oktabrda Rossiyada davlat to'ntarishini amalga oshirib podsho hokimiyatini ag'dardilar. XX asrning 20-30-yillarida o'tkazilgan qator ijobiy va salbiy ijtimoiy-siyosiy islohotlar, qurilish va buzg'unchiliklar, qatag'on va repressiyalarni ham aynan ana shu bolsheviklar amalga oshirgan edilar.

**“BOSMACHI”** – Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar kuchlarning sho'ro davri tarixshunosligidagi nomi. Aslini olganda Turkiston hududida podsho va sovetlar Rossiyasi – bolsheviklarga qarshi qurolli kurash olib borgan turkistonliklar o'zlarini “bosmachilar” deb tushunishmagan. “Bosmachi” deb xalq o'rtasida harbiy sohaga aloqasi bo'lmagan jinoyatchi unsurlar, “o'g'ri” va “bezorilar to'dasi” tushunilgan. Shu bilan birga birovlarning yurtini bosib olgan bosqinchilarni ham “bosmachilar” deb atash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Bu harakat haqida so'z yuritilgan 1918-1919-yilning o'rtalarigacha bo'lgan davrga tegishli arxiv hujjatlarida ham “bosmachi” so'zi uchramaydi. Bu hujjatlarda “qaroqchi” (razboynik), “shayka”, juda bo'lmasa “bosqinchi” (bandit) iboralari qo'llanilgan. 1919-yilning o'rtalaridan boshlab sovet matbuotida, keyinchalik esa ayrim rasmiy hujjatlarda milliy ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish, ajdodlarimizning Rossiya zulmi va bolsheviklar hukmronligiga qarshi olib borgan qonli kurashini xaspo'shlash uchun buyuk davlatchi-shovinistlar tomonidan “bosmachi” iborasi o'ylab topilgan. Bugun bu vatanparvarlik harakati rahnomolari “istiqlolchilar” deb yuritilmoqda.

**BXSR (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi)** – Buxoro Amirligida amir hokimiyati ag'darilgach 1920-yil 2-sentabrda bolsheviklar andozasida tashkil etilgan Respublika. 1921-yil sentabr oyida BXSR Konstitutsiyasi qabul qilinadi. BXSRda keng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar amalga oshirila boshlanadi. Lekin bu islohotlar mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib emas, balki Moskva bolsheviklari andozasi va ko'rsatmasi asosida ko'r-ko'rona amalga oshirilgani bois aksariyat hollarda teskari natijalarni berdi. BXSR 1924-1925-yillarda Turkistonda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy davlat chegaralanishi munosabati bilan tugatilib yangi tashkil etilgan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kiritildi.

**FUQAROLAR URUSHI** – siyosiy hokimiyat uchun kurash jarayonida mamlakat fuqarolarining ikki qarama-qarshi muxolif tomonga bo'linib ketishi natijasida kelib chiqadigan urush. Qadimgi Rimda respublika tarafdorlari bilan imperiya tarafdorlari o'rtasidagi o'zaro urushlar (mil. avv. 44-30-yillar), Angliyada parlament tarafdorlari bilan Qirol tarafdorlari o'rtasidagi urush (1640-1645-yillar), Fransiyadagi respublika va monarxiya tarafdorlari o'rtasidagi urush (1789-1795-yillar), AQSHda qulchilikni bekor qilish va uni saqlab qolish tarafdorlari o'rtasidagi Shimoliy shtatlar bilan Janubiy shtatlar o'rtasidagi urushlarni (1861-1865-yillar) bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. 1918-1920-yillarda Rossiyada bolsheviklar hokimiyatiga qarshi bo'lib o'tgan urush ham fuqarolar urushi nomini olgan.

**HARBIY KOMMUNIZM** – sovet davlatining fuqarolar urushi sharoitida 1918-1920-yillarda yurgizgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati. Aholining boy qismi mol-mulkini



olishni, yalpi mehnat majburiyati joriy etishni, yirik, o'rtta va qisman kichik sanoatni tez sur'atlar bilan davlat ixtiyoriga o'tkazishni nazarda tutardi. Tijorat ta'qiqlandi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ortiqchasini davlatga topshirish majburiy qilib qo'yilgan.

**ISTIQLOLCHILIK** – Turkiston mintaqasida sovet rejimi va bolsheviklar hokimiyatiga qarshi mahalliy aholining milliy-ozodlik harakati. Turkiston Muxtoriyati hukumating bolsheviklar tomonidan tugatilishiga javoban 1918-yilning fevral oyi oxiridan boshlangan. Istiqlolchilik harakati o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra ikki davrni bosib o'tdi: 1-davr – 1918-1924-yillar; 2-davr – 1924-1935-yillar. Bu harakat o'z geografik doirasiga ko'ra uchta hududni qamrab olgan: Turkiston ASSR, XXSR va BXSr hududlari. U keyinchalik O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston SSR hududlarida ham davom etdi.

*Istiqlolchilik harakati Bosh qo'mondonlari:*

*Farg'ona vodiysida:* Kichik Ergash (1918-yil fevral), Katta Ergash (1918-yil mart – noyabr), Madaminbek (1918-1920), Shermuhammadbek (1920-1922), Islom Polvon (1923-yil yanvar – iyul), Yormat Maxsum (1923-1929) va boshqalar.

*Samarqand viloyatida:* Bahrombek (1918-1921), Ochilbek (1921-1923) va boshqalar.

*Buxoro Xalq Sovet Respublikasida – G'arbiy Buxoro hududi:* Mulla Abduqahhor (1920-1924).

*Sharqiy va O'rtta Buxoro hududi:* Ibrohimbek (1921-1922, 1923-1926, 1931), Anvar Posho (1922-yil aprel – avgust), Salim Posho (1922-1923) va boshqalar.

*Xorazm Xalq Sovet Respublikasida:* Junayidxon (1920-1925, 1927-1928) va boshqalar.

**KOMISSAR** (lotincha commissarius – vakil qilingan) – 1) ijtimoiy-siyosiy, ma'muriy va boshqa sohalarda rahbarlik qiluvchi shaxs. (Masalan: Xalq komissari, Harbiy komissar). 3) Biror bir xalqaro tashkilotning maxsus vakili. (Masalan: BMTning inson huquqlari bo'yicha komissari).

**MANIFEST** – 1) Hukumat yoki davlat rahbarining juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati. 2) Biror partiyaning dastur (programma) tarzidagi yozma murojaati.

**MUVAQQAT HUKUMAT** – Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan voz kechganidan so'ng barpo etilgan Rossiyadagi birinchi demokratik hukumat. 1917-yil 2-martdan 25-oktabrgacha faoliyat ko'rsatgan. Muvaqqat hukumatning 4 ta tarkibi almashgan: 2-martdan 24-iyulgacha faoliyat ko'rsatgan 1, 2-tarkiblarga kadet G.E Lvov, 24-iyuldan 25-oktabrgacha faoliyat yuritgan 3, 4-tarkibga esa kadet A.F. Kerenskiy raislik qilgan.

Muvaqqat hukumat podsho Rossiyasi davridagi politsiya tartibotini bekor qilgan, sobiq ministriar soveti a'zolari qamoqqa olinganligini qonuniylashtirgan, ilgari amal qilgan katorga va surgunlarni bekor qilib, siyosiy mahbuslarga amnistiya e'lon qilgan. Siyosiy erkinliklar joriy qilishga, Ta'sis majlisini chaqirishga va'da bergan. Majlis va ittifoq erkinligini e'lon qilgan, imperator xonadoniga qarashli yerlarni davlat ixtiyoriga olish bo'yicha farmonlar chiqargan. 1-sentabrda Rossiyani Respublika deb e'lon qilgan. Tashqi siyosatda Rossiyaning Antanta mamlakatlari oldidagi majburiyatlarini bajarish ma'nosida Germaniya bilan urushni "to'g'alabaga

qadar” davom ettirishni e’lon qiladi. Urush iqtisodiy inqirozga yuz tutgan Rossiya uchun qimmatga tushadi va frontlarda rus qo’shinlari qator mag’lubiyatlarga uchraydi. Bu esa Muvaqqat hukumatning inqirozini yanada tezlashtiradi. Bolsheviklar Muvaqqat hukumat yuritayotgan siyosatga qarshi agitatsiyani kuchaytiradilar. Muvaqqat hukumat 1917-yil 25-oktabrdagi bolsheviklar amalda oshirgan davlat to’ntarishi natijasida ag’darib tashlanadi.

**NOZIR** – 1) O’rta Osiyo xonliklarida saroy ta’minoti va uning xarj qilinishini nazorat qilib turuvchi mansabdor. 2) Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida (1920-1924-yillar) savdo, sanoat, harbiy va boshqa sohalar bo’yicha xalq nozirlari tayinlangan bo’lib, ular o’sha soha bo’yicha ishning borishiga javobgar hisoblanganlar.

**OСИPOV ISYONI** – 1919-yil 19-21-yanvar kunlari TASHR Harbiy ishlar xalq komissari K.P. Oshpov boshchiligida bolsheviklar diktaturasiga qarshi ko’tarilgan isyon. Isyon natijasida Turkistondagi 14 nafar ko’zga ko’ringan bolshevik rahbarlari otib tashlanadi. E’tiborli tomoni shundaki, mazkur kishilar orasida mahalliy aholiga mansub bitta ham bolshevik yo’q edi. Biroq sovet davrida bu kishilar O’zbekistonda “turkistonlik o’n to’rt komissar” sifatida ulug’lanib, ularga Toshkent shahri markazida haykal o’rnatildi. Osipov isyoni tez orada bolsheviklar va qizil armiya tomonidan bostirildi. Osipov avval Farg’ona vodiysi va Buxoro amirligiga yo’l oldi, so’ngra Afg’oniston orqali Hindistonga chiqib ketadi.

**QO’RBOSHI** – 1) O’rta asrlarda O’rta Osiyo va ayrim Sharq davlatlarida dastlab shaharni tunda qo’riqlovchi shaxs, keyinchalik zindon boshlig’i, qurol-yarog’ ombori mutasaddisi. 2) XX asr 20-yillarida O’rta Osiyoda sho’rolar hokimiyati o’rnatilganidan so’ng ularga qarshi milliy daviatchilikni tiklash yo’lida kurash olib borgan milliy-ozodlik harakati (istiqlolchilik) rahbarlari.

**RSFSR** (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi). 1917-yil oktabrda V.I. Lenin boshchiligida bolsheviklar tomonidan davlat to’ntarishi o’tkazilgach Rossiya imperiyasi (1721-1917) o’rnida tashkil etilgan Respublika. Rossiya davlatining bu rasmiy nomi 1917-yildan 1991-yilgacha amalda bo’ldi. 1991-yildan Rossiya Federatsiyasi (RF) deb yuritilmoqda.

**SSSR** (Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi) – 1922-yil 30-dekabrda RSFSR, UkSSR (Ukraina), BSSR (Belorussiya) va ZSFSR (Zakavkaze Sotsialistik Federativ Sovet Respublikasi)larning ittifoqi sifatida tashkil etilgan davlat. Keyingi yillarda uning tarkibiga birin-ketin qator “ittifoqchi” sovet respublikalari kiritiladi. O’zSSR 1925-yil mayda ittifoq tarkibiga qabul qilinadi. 1940-yilga kelganda uning tarkibidagi respublikalar soni 15 taga yetadi. Zo’ravonlikka asoslangan bu sun’iy davlat juda qisqa umr ko’rib 1991-yilga kelib parchalanib ketdi.

**SredazEKOSO (O’rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi)** – 1921-yil mart oyida RSFSR XKS qarori bilan tashkil qilingan Turkiston Iqtisodiy Kengashi (TES)ning vorisi. 1923-yil 5-6-martda O’rta Osiyo respublikalari (TASSR, BXSr, XXSR)ni iqtisodiy jihatdan birlashtirishga bag’ishlangan I Iqtisodiy konferensiyada tashkil qilingan. V.I. Leninning iborasi bilan aytganda, iqtisodiy Kengashlar markazning joylardagi “ko’z-qulog’i” bo’lishi kerak edi. Konferensiyada qabul qilingan Nizomda ham SredazEKOSOning asosiy vazifasi qilib “O’rta Osiyo respublikalarining iqtisodiy imkoniyatlarini birlashtirib, Markaz ehtiyojlarini hisobga olgan xolda

sotsializm qurilishiga yo'naltirish". deb belgilangan edi. SredazEKOSO qarorlarini barcha O'rta Osiyo respublikalari hukumatlari bajarishga majbur edi. SredazEKOSO o'z faoliyati davomida O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiyotini Markaz manfaatlariga moslashtirishga harakat qildi. O'rta Osiyo respublikalarining Ittifoq iqtisodiy majmuasidagi o'rni va vazifalarini belgilab berdi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligining yuzaga kelishida, sanoatni bir tomonlama, chala, xom ashyo shaklida mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirishda SredazEKOSONing "xizmati" katta bo'ldi. Respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish istiqbollari asosan SredazEKOSoda ishlab chiqildi. Markazning mustamlakachi tuzilmasi – SredazEKOSO respublikalarni iqtisodiy jihatdan boshqaruv tizimini markazlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

SredazEKOSO 1934-yil 2-oktabrda SSSR XKS va VKP(b) MKning qarori bilan tugatildi.

**TASR (Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi)** – 1917-yil oktabrda Rossiyada podsho hukumati ag'darilgach, Rossiya imperiyasiga qarashli Turkiston general-gubernatorligi hududlarda 1918-yil aprel oyida Sovet Rossiyasi (RSFSR) tarkibida tashkil etilgan Respublika. TASR Konstitutsiyasida Turkistonning muxtor o'lka sifatida avtonom huquqlari ko'rsatilgan bo'lsada o'lka hukumatining ichki va tashqi siyosati bevosita Moskva bolsheviklari tomonidan nazorat ostiga olingan edi. 1924-1925-yillarda markaz tomonidan o'tkazilgan ma'muriy-hududiy chegaralanish natijasida TASR tugatilib uning o'rnida milliy sovet respublikalari (O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR) va avtonom sovet o'lkalari tashkil etiladi.

**TASR Xalq Komissarlari Soveti (XKS)raisarlari:** F.I. Kolesov (1917-yil noyabr – 1918-yil oktabr), V.D. Figelskiy (1918-yil oktabr – 1919-yil yanvar), K. Sorokin (1919-yil mart – sentabr), Ya.E. Rudztak (1920-yil fevral – sentabr), Q.S. Otoboyev (1920-yil sentabr – 1922-yil sentabr), T. Risqulov (1922-yil sentabr – 1924-yil yanvar), R. Islomov (1924-yil yanvar – noyabr).

**TASR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIK)raisarlari:** P.A. Kobozev, A.F. Solkin, I.O. Tobolin (hamraisarlari); 1918-yil aprel – oktabr), V.D. Votinsev (1918-yil oktabr – 1919-yil yanvar), A.A. Kazakov (1919-yil mart – sentabr), I.A. Apin (1919-yil sentabr – 1920-yil yanvar), T. Risqulov (1920-yil yanvar – iyul), M. Biserov (1920-yil iyul – sentabr), N. To'raqulov (1920-yil sentabr – 1921-yil avgust), A. Raximboyev (1921-yil noyabr – 1922-yil sentabr), I. Xidiraliyev (1922-yil sentabr – 1924-yil yanvar), N. Aytqov (1924-yil yanvar – noyabr).

**TURKISTON BYUROSII** (Turkbyuro) – 1920-yil iyulda RKP(b) MK tomonidan tashkil qilinib Turkistonga yuborilgan byuro. U Markazning Turkistondagi ishonchli "mafkuraviy idorasi" bo'lib, Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida bolsheviklar tashkil qilgan kompartiyaga "g'oyaviy-tashkiliy jihatdan yordam berishi" kerak edi. Aslida, Turkbyuroning tashkil qilinishiga O'rta Osiyo respublikalaridagi istiqlochilik harakatining kuchayib borishi, TASSR, BXSRR, XXSRdagi bir qator rahbar kadrlarning milliy manfaatlarini qat'iylik bilan himoya qilishi, respublikalarda "sovetlashtirish" jarayonining jadallik bilan amalga oshmayotganligi va eng asosiysi, Markazning O'rta Osiyo respublikalaridagi mahalliy rahbar kadrlarga ishonmasligi sabab bo'lgan edi.

Turkbyuro Markazning g'oyaviy-siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida partiya sa'llarini muntazam ravishda "yot-unsurlardan tozalab" turdi. Milliy rahbar kadrlarning "g'oyaviy sofligi"ni nazorat qildi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Markaz Turkistonga muntazam ravishda "tajribali bolsheviklarni" yuborib turdi. Birgina 1921-yil RKP(b) MK Turkbyuro ixtiyoriga 354 kommunist-emissarlarini yuborgan edi. Ular Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida mas'ul lavozimlarda ishladilar. O'rta Osiyoning shart-sharoitlarini, urf-odatlari va xususiyatlarini bilmagan bu emissarlar zo'rvonlik bilan hokimiyat organlarida hukmronlik qildilar.

Turkbyuro raislari: G.Ya. Sokolnikov (1920-1921), Ya.E. Rudztak (1921-yil mart – oktabr), A.A. Ioffe (1921-yil oktabr – dekabr), S.I. Gusev (1921-1922).

1922-yil mayda RKP(b) MKning Turkbyurosi – RKP(b) MKning **O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro)**ga aylantirildi. Unga turkbyuroning zimmasidagi barcha vazifalar yuklandi, shu bilan birga uning g'oyaviy-siyosiy ta'sir doirasi yanada kengaydi. O'rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralanish, zo'rvonlik bilan o'tkazilgan jamoalashtirish, sun'iy sanoatlashtirish, O'zbekistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish Sredazbyuroning faol ishtirokida. uning g'oyaviy rahnamoligida amalga oshirildi. O'rta Osiyo respublikalaridagi barcha g'oyaviy-siyosiy tadbirlar, o'zgarishlar Sredazbyuroning ruxsati va uning rahbarligida qilindi. Turkbyuro va Sredazbyuro markazning O'rta Osiyo respublikalari ustidan nazorat qiluvchi maxsus boshqaruv organi edi. O'rta Osiyo respublikalari bu tashkilotga so'zsiz bo'ysunishga majbur edilar.

Turkbyuro va sredazbyuro Turkiston ASSR, O'zbekiston SSRdagi faoliyati davomida mahalliy xalq ongiga unga yot bo'lgan kommunistik g'oyani singdirish bilan bir qatorda milliy rahbar kadrlarga, milliy ziyolilarga nisbatan ko'plab quvg'inlar va qatag'onlar uyushtirdi. Ularning milliy madaniyati, islom dini va qadriyatlarini oyoqosti qilinishida "bosh-qosh" bo'ldi.

1934-yil 2-oktabrda SSSR XKS va VKP(b) MKning qarori bilan Sredazbyuro faoliyati tugatildi.

**TURKISTON KOMISSIYASI, TURKKOMISSIYA** – RKP(b) MK, Butunrossiya MIK va RSFSR XKSnig Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi. 1919-yil 8-oktabrda tashkil qilinadi. RKP(b) MK Siyosiy byurosida komissiya a'zolari qilib Sh.Z. Eliava (rais), G.I. Bokiy, F.I. Goloschekin, V.V. Kuybishev, Ya.E. Rudzutak, M.V. Frunze tasdiqlandilar. Ular qatoriga keyinchalik mahalliy rahbarlardan A. Rahimboyev, A. To'raqulov, Q. Otaboyev, T. Risqulov, S. Xo'janov kiritildi. Turkkomissiyaga cheksiz huquq berilgan edi. Ularning asosiy vazifasi qanday qilib bo'lsa ham, Turkistonda sovet hokimiyatini saqlab qolish va mustahkamlash edi. Turkkomissiya bu vazifani amalga oshirishda zo'rvonlik usulidan asosiy vosita sifatida foydalandi. Faoliyatining dastlabki kunidanoq komissiya o'zining hukmini o'tkazishga harakat qildi. Markazdan kelgan komissiya a'zolari milliy rahbar kadrlarning Turkiston o'lkasi va xalqi manfaatlarini himoya qilishlariga, markaz siyosatiga qarshi chiqishlarning barcha ko'rinishlariga qarshi ayovsiz kurashdi. Turkistondagi istiqlochilik harakatlarini tugatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. "Turk Respublikasi" va "TurkKompartiyasini" tashkil qilish, Turkkomissiya faoliyatini to'xtatishni talab qilib chiqqan T. Risqulov, A. To'raqulov, Q. Otaboyev kabi bir qator milliy rahbar kadrlarga nisbatan quvg'inlar va

qatag'onlar o'tkazdi. Sovet hokimiyatiga xayrixoh bo'lmagan mahalliy aholi vakillarini "bosmachilar"ga sherik sifatida ayblab, ularni qamoqlarga tashladilar, sudsiz-so'roqsiz o'tib tashlashgacha borib yetdilar. Aslida, Turkistonda TurkMIK va XKK emas, balki Turkkomissiya hukmron edi. Respublikada amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalar faqat Turkkomissiya ruxsati va ko'rsatmasi bilan qilindi.

O'rta Osiyodagi oxirgi milliy davlatlar – Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishida Turkkomissiya "bosh-qosh" bo'ldi. Bu mustaqil davlatlarga nisbatan bosqinchilik rejaları Turkkomissiya a'zolari M. Frunze, V. Kuybishev, Ya. Rudzutak, F. Goloshchekinlar tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Buxoro va Xorazmda sovetlar andozasidagi davlatlarni (BXSR, XXSR) tashkil qilish ham Turkkomissiya "senariysi" asosida qilindi. Turkkomissiya O'rta Osiyo hududida tom ma'nodagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi boyliklarining Markazga muntazam ravishda tashib ketilishiga rahbarlik qildi.

Turkkomissiya raislari: Sh.Z. Eliava (1919-1920), G.Ya. Sokolnikov (1920-1921), M.P. Tomskiy (1921-1922).

1922-yil iyulda RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi tashkil qilinishi munosabati bilan 1922-yil 16-avgustdan boshlab Turkkomissiya o'zining partiyaviy vakolatini to'xtatadi.

**TURKISTON KOMITETI** – Rossiya Muvaqqat hukumati tomonidan Turkiston o'lkasini boshqarish uchun tuzilgan qo'mita. 1917-yil 7-apreldan 1917-yil 1-noyabrgacha faoliyat ko'rsatgan. Uning tarkibiga yevropaliklardan tashqari mahalliy turkiy xalqlarning vakillari Muhammadjon Tinishboyev, Alixon Bukeyxonov, Sadri Maqsudiy, Abdul Aziz Davletshinlar ham kirgan.

Turkiston Komiteti rahbarlari: N.N. Shepkin (1917-yil 7-aprel – 25-may), V.P. Nalivkin (1917-yil 6-iyun – 14-sentabr).

**TURKISTON KOMMUNISTIK PARTIYASI, TKP** – Rossiya Kommunistik partiyasi – RKP(b)ning tarkibiy qismi. 1918-yil 17-25-iyunda Toshkentda Turkiston bolshevistik tashkilotlarining o'lka s'yezdida tashkil etilgan. 1918-1924-yillarda TKPning ikkita s'yezdi bo'lib o'tgan.

TKP Markaziy Komiteti raislari: I.O. Tobolin (1918-yil iyun-sentabr), A.F. Solkin (1918-yil sentabr – 1919-yil sentabr), I.A. Apin (1919-yil sentabr – 1920-yil iyul), N. To'raqulov (1920-yil iyul – 1922-yil sentabr), M.S. Epshteyn (1922-yil sentabr – 1924-yil may), I.M. Vareykis (1924-yil may-noyabr)

**TURKISTON MUXTORIYATI** – Turkiston xalqlarining 1917-yil oktabr davlat to'ntarishidan keyin bolsheviklar tomonidan e'lon qilingan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi dekretiga muvofiq tashkil qilgan mustaqil davlati. 1917-yil 26-28-noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi (syezdi) bo'lib o'tdi. Qurultoyda 27-noyabr kuni qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatlarga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibidagi hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'xis majlisiga havola etadi". 28-noyabrda tarkib topayotgan yangi davlatning 8 kishidan iborat tarkibda Hukumati tuziladi:

1) M.Tinishboyev – Bosh vazir, ichki ishlar vaziri, II chaqiriq Davlat Dumasining aʼzosi. Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining aʼzosi, muhandis.

2) Islom Sulton Shoahmedov (Shagiahmedov) – bosh vazir oʻrinbosari. Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qoʻmitasining aʼzosi, huquqshunos.

3) Mustafo Choʻqayev – tashqi ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Shoʻrosi Markaziy qoʻmitasining raisi. huquqshunos.

4) Ubaydulla Xoʻjayev – harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi MK aʼzosi, huquqshunos.

5) Hidoyatbek Yurali Agayev – yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6) Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri. Qoʻqon shahar dumasining rais oʻrinbosari, togʻ-kon sanoati muhandisi.

7) Abdurahmon Oʻrazayev – ichki ishlar vazirining oʻrinbosari, huquqshunos.

8) Solomon Abramovich Gertsfeld – moliya vaziri, huquqshunos.

Tayinlangan vazirlardan 3 kishi oliy maʼlumotli huquqshunos, 2 kishi oʻrta malakali huquqshunos ekanligi Muxtoriyat hukumati aʼzolarining bilim darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Muxtoriyatning markazi Qoʻqon shahri qilib belgilanadi. Sovet davri adabiyotlarida uchraydigan “Qoʻqon Muxtoriyati” iborasi ham shundan oʻlingan boʻlib, bu aslida Turkiston Muxtoriyatining koʻlamini kichraytirib koʻrsatish maʼnosida shunday nomlangan.

Oʻtkazilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar samarasi oʻlaroq Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq oʻrtasida katta eʼtibor qozondi. Yangi hukumat faoliyati faqat Qoʻqon yoki Fargʻonada emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan xalqlar tomonidan qizgʻin qoʻllab-quvvatlandi. Fitrat, Choʻlpon, Hamza Muxtoriyat hukumatini maqtab, oʻtli sheʼrlar bitishadi. Fitrat Muxtoriyat eʼlon qilingan kunni “Milliy Laylatulqadrimiz” deb atadi.

Muxtor hukumatning xalq oʻrtasida obroʻ-eʼtibori va nufuzining ortib borishi bolsheviklarni tashvishga sola boshladi. 1918-yil 19-26-yanvarda Turkiston oʻlkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari IV qurilt oyida Toshkent sovetining raisi. bolshevik I. Tobolin: “Muxtoriyatni hayotga tadbiiq etish uchun hali vaqt erta, chunki biz bu ishni amalga oshirsak, muxtoriyatning birinchi sharti sifatida rus qoʻshinlari oʻlkadan chiqib ketishi kerak boʻladi”, – degan edi. Quriltoy Muxtoriyat hukumati va uning aʼzolarini boylar, yaʼni burjuaziya vakillari deb hisoblab, qonundari tashqari deb eʼlon qiladi va hukumat aʼzolarini qamoqqa olish toʻgʻrisida qaror chiqaradi.

1918-yil 30-yanvar kechqurun Skobelev (Fargʻona) shahridan Qoʻqonga dastlabki qizil armiya oʻtrayadlari toʻp va pulimiyotlar bilan yetib keladi. 31-yanvar tushdan keyin jang harakatlari boshlanib ketadi. Kuchlarning teng emasligi va qizil armiyaning yaxshi harbiy tayyorgarligi muxtoriyat himoyachilarining magʻlubiyatiga sabab boʻldi. Qoʻqon shahri qizil askarlar tomonidan qonga botirildi. 1918-yil 9-fevralda Qoʻqon shahrida muxtoriyat vakillari bilan bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “tinchlik shartnomasi” imzolandi.

Turkiston Muxtoriyati 72 kun umir koʻrgan boʻlsa ham u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga daʼvat etdi.

**VKP(b)** (Vsesoyuzniy Kommunisticheskiy Partiya (bolshevikov) – 1898-yilda tashkil etilgan RSDRP (1917-yildan RSDRP(b). 1918-yildan RKP(b) ning 1925-

yildan 1952-yilgacha bo'lgan nomi. 1952-yildan 1991-yilgacha esa partiya nomi KPSS (Kommunisticheskaya Partiya Sovetskogo Soyuza) deb yuritilgan.

**XXSR (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi)** – Turkiston general-gubernatorligi tugatilib, uning o'rnida Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi tashkil etilgach, bolsheviklar Rossiya andozasidagi “xalq inqilobi”ni Turkistonda amalda bo'lib kelayotgan xonliklarga ham joriy qilishni (aniqrog'i uni eksport qilishni) ko'zlay boshladi. Shu maqsadda 1920-yil 2-fevralda Xiva xonligida ham sun'iy inqilob amalga oshirilib, oxirgi Xiva xoni Said Abdullaxon hokimiyati ag'darib tashlandi va 1920-yil 26-aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) e'lon qilinadi. XXSRda yangi Konstitutsiya qabul qilinib, keng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar amalga oshirila boshlanadi. Lekin bu islohotlar mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib emas, balki bolsheviklar andozasi va ko'rsatmasi asosida ko'r-ko'rona amalga oshirilgani bois aksariyat hollarda teskari natijalarni berdi. XXSR 1924-1925-yillarda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy davlat chegaralanishi natijasida tugatilib, yangi tuzilgan O'zSSR tarkibiga qo'shib yuborildi.

**YAIS (Yangi iqtisodiy siyosat, NEP)** – 1918-1920-yillarda yuritilgan harbiy kommunizm siyosati vositasida mamlakat iqtisodiy hayotini tiklash mumkin emasligiga ko'zi yetgan bolshevik rahbariyatining 1921-yil mart oyidan boshlab yuritgan iqtisodiy siyosati. U tarixda yangi iqtisodiy siyosat (NEP) nomini oldi.

YAIS iqtisodiyotning ko'p tarzli bo'lishini e'tirof etdi, erkin tijorat va xususiy mulkchilikni e'lon qildi. YAIS natijasida mayda tijoratchilarning katta armiyasi paydo bo'ldi. Millionlab kosib, mayda hunarmandlar mamlakat iste'mol mollarinig to'rtidan uch qismini ishlab chiqara boshladi. Natijada ishchi va dehqonlarning turmushi yaxshilandi, dastlabki jiddiy ijtimoiy tadbirlar hayotga joriy etila boshlandi.

Yangi iqtisodiy siyosat iqtisodiyotning tabiiy rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti qonunlari har qanday balandparvoz shiorlar (sotsializm, kommunizm) dan ustun turishini hayot amaliyotida ko'rsatib bergan edi. Biroq YAIS ning iqtisodiy erkinlik va tadbirkorlikka yo'l ochib berishi aholi o'rtasida mulkiy tengsizlikni, aholining tabaqalanishini keltirib chiqarardi. Bu esa sotsializmning prinsiplarini tamoyillariga zid bo'lganligi sababli 20-yillar o'rtalaridan YAISga asta-sekin barham berilib, davlat monopoli iqtisodiyoti, mulkni sotsiallashtirish siyosati joriy etila boshlandi.

**ABDULLA RAXIMBOYEV** (1896-1938) – davlat va jamoat arbobi. Xo'jand shahrining Razzoqi mahallasida savdogar oilasida dunyoga keldi. 1910-1912-yilda u Samarqanddagi erkaklar gimnaziyasida, so'ngra Toshkentdagi o'qituvchilar seminariyasida bilim oldi (1917). U 14 ta tilni bilgan.

A. Raximboyev 1919-yildan boshlab sovet idoralarida xizmat qila boshladi. TASSR MIK raisi (1920-1922), Turkiston ASSR Maorif xalq komissari lavozimida ishladi. Uning ongiga “kommunistik g'oya”ni singdirish uchun 1922-yilda Moskvaga chaqiriladi. Markaziy hukumat qoshidagi “tayyorlov”dan so'ng A. Raximboyev Buxero Kompartiyasi va Turkiston Kompartiyasining Markaziy Qo'mitasi kotibi lavozimlarida ishladi (1923-1924). O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazishda faol qatnashadi va bu tadbirni qo'llab-quvvatlaydi.

A. Raximboyev 1925-yildan Moskvada yashay boshlaydi. SSSR xalqlari Markaziy nashryoti boshqarmasi raisi lavozimida ishladi (1928). So'ngra u

Dushanbega yuborildi. Tojikiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi (1934-1937) sifatida faoliyat ko'rsatadi.

A. Raximboyev 1937-yilda qamoqqa olinadi va 1938-yil 7-mayda otib tashlanadi.

**ABDUQODIR MUHITDINOV** (1892-1934) – Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi, davlat arbobi. A. Muhitdinov Buxoro shahrida yirik savdogar Muhitdin Mansurov oilasida tug'ildi. Istanbul madrasasida o'qigan. Otasi Buxorodagi ilk jadid gazetasi "Buxoroi sharif"ni moddiy jihatdan ta'minlab turgan va jadid maktablariga homiylik qilgan. Ma'rifatli otasining farzandi bo'lgan A. Muhitdinov jadidlar harakatida faol ishtirok etdi. 1910-yilda Orenburgdagi "Vaqt" gazetasida uning dastlabki maqolasi e'lon qilindi.

1918-1919-yillarda A. Muhitdinov Buxoro jadidlarining faol a'zosi sifatida Samarqand, Toshkent va Moskvada muhojirlikda yashashga majbur bo'ldi. U Turkiston Musulmonlari byurosining a'zosi (1919-1920) edi. Buxoroda amirlik qizil askarlar kuchi bilan ag'darilgach, A. Muhitdinov Umumbuxoro Inqilobiy qo'mitasi raisi (1920-yil sentabr – 1921-yil sentabr), BXSР dehqonchilik noziri (1920-yil sentabrdan) kabi mas'ul lavozimlarda ishladi. A. Muhitdinov BXSРning xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqa o'rnatishni, Buxoro Respublikasi hududidan bosqinchi qizil askarlar qismlarini olib chiqib ketishni va Buxoroda xalq millitsiyasi kabi milliy armiya tuzishni qat'iy talab qilgan edi. 1921-1924-yillarda BXSР savdo va sanoat noziri, Mehnat Kengashi raisi, BXSР Nozirlar Kengashi raisining ikkinchi muovini lavozimlarida ishladi va Buxoro Respublikasining mustaqilligi, e'tiqod erkinligi, demokratik islohotlarni yoqlab chiqdi.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR tashkil qilingach, A. Muhitdinov Tojikiston ASSR XKSning birinchi raisi qilib tayinlandi (1925-1929). So'ngra u O'zbekiston SSR ta'minot komissarligida ishladi.

A. Muhitdinov 1933-yil 21-avgustda qamoqqa olindi va 1934-yil 1-iyunda otib tashlandi.

**AHMAD ZAKI VALIDIY TO'G'ON** (1890-yil, Boshqirdiston – 1970-yil, Istanbul) – turkiy xalqlarning milliy mustaqillik kurashi yo'lboshchisi, taniqli sharqshunos va turkolog olim.

Validiy Boshqirdistonda, Ufmsk guberniyasi, Sterlitomoq uyezdi, Kuzanova ovulida boshqird mullasi oilasida tug'iladi. U 1908-1912-yillarda Qozondagi Qosimiya madrasasida o'qiydi va 1910-1913-yillar davomida shu madrasada turkiy xalqlar tarixi va adabiyotidan dars beradi. "Turk va tatar tarixi" (Qozon, 1912) nomli ilk kitobi unga shuhrat keltiradi. 1913-yil kuzida Qozon universitetining tarix, arxeologiya va etnografiya jamiyati uni sharq qo'lyozmasini o'rganish uchun Farg'ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Validiy safar chog'ida 72 ta qo'lyozma topadi va ilmiy tadqiq qiladi. 1914-yil Rossiya FA Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo'llanmasi bilan u Buxoro amirligida bo'ladi. Validiy Qur'oni Karimning X asrda turkiy tilga o'girilgan eng qadimgi noyob nusxasini topishga muvaffaq bo'ladi.

Validiyning siyosiy faoliyati 1915-yil Sankt-Peterburg Davlat Dumasi musulmon fraksiyasida ishtiroki bilan boshlanadi. U 1917-yil Rossiyadagi turkiy



xalqlar milliy ozodlik harakatining yo'lboshchilaridan biriga aylanadi. 1917-yil aprelda Toshkentga keladi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarning markazida turadi. Turkiston o'lkasi musulmonlari Markaziy Sho'rosining bosh kotibi va "Kengash" gazetasining muharriri bo'ladi. Validiy Turkistondagi tub xalqlarning muxtoriyatchilik harakatida faol qatnashib, tarixiy o'tmishi mushtarak bo'lgan turkiy xalqlarning birligi va mustaqilligi g'oyasini ilgari surdi. U 1917-yil yozida Toshkent shahar Dumasiga saylanadi. 1917-yil oktabrda Boshqirdiston Markaziy Sho'rosi uni Orenburgga chaqiradi. 1917-yil oxiridan 1920-yil boshigacha u Boshqirdiston muxtoriyati va boshqird milliy harakatining yetakchilaridan biri bo'ldi, Boshqirdiston hukumati boshlig'i va harbiy nozir vazifasida ishladi. U 1920-yil yozida sovetlar bilan hamkorlik qilishni to'xtatdi.

1920-1923-yillarda Validiy siyosiy faoliyatining so'nggisi – Turkiston davri hisoblanadi. U Boku, Turkmaniston, Xorazm orqali 1920-yil dekabrda Buxoro shahriga keladi va Buxoro, Xorazm va Turkistondagi istiqloqlilik harakatiga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz tuzish uchun harakat boshlaydi. Buxoroda 1921-yil avgustda O'rta Osiyo Milliy Musulmon Jamiyatlari Federatsiyasi – keyinchalik "Turkiston Milliy Birligi" (TMB) nomi bilan mashhur bo'lgan tashkilot Validiy raisligida tuziladi.

1923-yil fevralda Validiy Turkmaniston orqali Mashhadga (Eron) o'tib ketishga majbur bo'ladi. Uning hayotida muhojirlik davri boshlangan edi. U xorijiy mamlakatlarda ilmiy faoliyat bilan shug'ullandi, siyosatni tark etdi. Istanbul universitetida turk xalqlari tarixidan saboq berdi. U turk, nemis, fransuz, ingliz, arab, venger, rus, boshqird tillarida 400 dan ortiq ilmiy ish e'lon qildi. "Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi" (Istanbul, 1942-1947) va "Xotiralar" (Istanbul, 1969) kabi mashhur asarlari shular jumlasidandir. Turkiston tarixining teran tadqiqotchisi To'g'onning xotiralari "Bo'linganni bo'ri yer" nomi bilan o'zbek tilida nashr qilingan. Validiy 1970-yil 26-iyulda Istanbulda vafot etadi.

**AMIR SAID OLIMXON** (1881-1944) – so'nggi Buxoro amiri. U 1883-1896-yillarda Peterburgdagi Nikolayev nomidagi suvoriylar maktabida ta'lim oladi. 1898-yili Nasaf (Qarshi), so'ngra valiahd sifatida Karmana viloyatida hokim bo'ladi. 1910-yil dekabrda otasi Abdulahadxon vafotidan keyin Buxoro taxtiga o'tiradi. 1920-yil avgust oyining oxirida M. Frunze qo'mondonligida qizil armiya qismlarining Buxoro amirligiga bosqinchilik yurishlari natijasida Amir Olimxon toj-taxtni tashlab Sharqiy Buxoroga ketadi. U yerda xalqni qizil askarlarga qarshi ommaviy qo'zg'olonga boshlashga urinadi. Biroq, bu ozodlik kurashini o'z yurtida qoldirib, unga bevosita rahbarlik qilish o'rniga Afg'onistonga butunlay o'tib ketishni afzal ko'radi (1921-yil 4-mart). Said Olimxon Qobuldan turib, Buxorodagi muxolifat kuchlariga rahbarlik qiladi, qimmatbaho sovg'alar yuborib, ularni kurashga chorlaydi. U muhojirlikda o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" nomli esdaliklarini yozadi. Said Olimxon 1944-yil 28-aprelda Qobulda vafot etadi.

**ANVAR POSHO** (1881-1922) – Istanbulda tug'ilgan. Turkiyada usmonlilar sultoni Abdulhamid II ning hukmronligiga chek qo'ygan 1908-yilgi yosh turklar inqilobini amalga oshirgan "Ittihad va taraqqiy" partiyasi rahbarlaridan biri. Turkiyaga qarashli Makedoniyada 1908-yil 23-iyunda yosh turklar qo'mitasi hokimiyatni qo'lga olgach, bu voqealar markazida turgan Anvar Posho xalq

qahramoniga aylanib ketadi. Hali 27 yoshga to'lmagan Anvarga generallik ("posho") unvoni beriladi. 1913-yil yanvardagi harbiy to'ntarish natijasida Turkiya to'liq yosh turklar qo'liga o'tdi. Anvar Posho, Tal'at Posho va Jamol Poshodan iborat uchlik Turkiyani boshqara boshlaydi. Anvar Posho 1911-1913-yillarda Turkiyaning Italiya va Bolgariyaga qarshi urushida qahramonlik ko'rsatadi. U Turkiyaning harbiy vaziri. Birinchi jahon urushi boshlangach esa, turk armiyasining qo'mondoni qilib tayinlanadi. Birinchi jahon urushida Turkiya va uning ittifoqchisi Germaniya mag'lubiyatga uchragach, Anvar Posho safdoshlari Tal'at va Jamol Posholar bilan birgalikda 1918-yil 3-noyabrda Turkiya hududidan chiqib ketadi. 1919-yil boshlarida Anvar Posho Berlinga keladi. Shu yilning iyul oyida Istanbul harbiy sudi uch poshoni va ularning do'stlari Nozimni sirdan o'lim jazosiga hukm qiladi. Anvar Posho nemis kommunisti K. Radekning maslahatiga binoan 1920-yil yozida Rossiyaga (Moskvaga) keladi. U 1920-yil 1-8-sentabrda Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. 1921-yil oktabrda Anvar Posho Boku va Ashxobod orqali Buxoro shahriga keldi. U Buxoroda F. Xo'jayev, Ahmad Zaki Validiy To'g'on va boshqalar bilan uchrashib, bosqinchi qizil askarlarga qarshi kurashayotgan muxolifatchilar safiga qo'shiladi. 1921-yil dekabrda boshlab, Anvar Posho Sharqiy Buxorodagi qo'rboshi dastalariga rahbarlik qila boshlaydi. U Ko'ktoshda, Sharqiy Buxoro va G'arm viloyatida harakat qilayotgan, shuningdek, Farg'onadagi barcha qo'rboshilarning qurultoyini chaqiradi. 1922-yil mart oyida Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan tortib to Xorazm va Sharqiy Buxorogacha bo'lgan hududda Anvar Posho boshchiligida istiqolochi kuchlarning umumiy fronti tuziladi. 1922-yil 15-aprelda Boysun atrofidagi Kofirun qishlog'ida bo'lgan Turkiston qo'rboshilarining qurultoyida Anvar Posho oliy bosh qo'mondon va siyosiy rahbar qilib saylanadi.

1922-yil 19-mayda Anvar Posho Ozarbayjon Respublikasi XKK raisi N. Narimonov orqali Moskvadagi sovet hukumatiga talabnoma (ultimatum) topshirib, Buxoro, Xorazm va Turkistondan talonchi qizil askarlarni olib chiqib ketishni talab qiladi. Biroq iyun oyining o'rtalarida qizil askar qismlari shiddatli hujumga o'tadilar. 1922-yil 4-avgustda Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofidagi Obidara qishlog'ida bo'lgan jangda Anvar Posho halok bo'ladi.

**BOBOOXUN SALIMOV** (1874-1929) — yosh xivaliklar partiyasining rahbarlaridan biri, davlat va jamoat arbobi.

Bobooxun Salimov (asl ismi Muhammad) 1874-yil Gurlan bekligida qozikalon Salim Oxun oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Xiva xoni Muhammad Raximxon II (Feruz)ning piri bo'lib, o'z mablag'idan Qozikalon madrasasini qurdirgan edi. Bobooxun Xivadagi Olloqulixon madrasasida tahsil oldi. U arab, fors va rus tillarini puxta o'rganadi, she'rlar yozdi. 1910-1917-yilda Xiva xoni Asfandiyorxon saroyida otasi o'rniga shayxulislom (qozikalon) lavozimini egallaydi. 1916-yil u yosh xivaliklarning rahbarlaridan biri sifatida Asfandiyorxon zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning faoliyatini maxfiy boshqargan edi. Bobooxun Salimov xon huzurida mamlakatni boshqarish uchun yosh xivaliklardan tuzilgan parlament majlisining raisi (1917-yil 8-aprel – 23-may). 1918-1919-yillarda u To'rtko'lda yashab, xonlikka muxolifatda bo'ldi va bolsheviklarga yaqinlashdi.

Bobooxun Salimov XXSR tuzilgach, adliya noziri (1920-1921, 1924) lavozimida ishladi. Shuningdek, Oliy Inqilob sudi va harbiy tribunal raisi bo'ldi.

RSFSR bilan shartnoma tuzish uchun Moskvaga yuborilgan delegatsiyaga rahbarlik qildi (1920-yil iyul-sentabr). Xorazm Respublikasining Afg'onistondagi bosh konsuli (1921-yil noyabr – 1922-yil fevral). U Xorazm xalq maorifi maktablari uchun yozilgan “Alifbe” va “O'qish kitobi”ning muallifidir. 1924-yil apreldagi Xorazm ulamolari I qurultoyining chaqirilishi va o'tkazilishiga rahbarlik qildi. U XXSRning birinchi hukumat raisi P. Yusupov bilan ayrim masalalarda kelishmagan bo'lsa ham, Xorazm Respublikasining mustaqilligi uchun kurashdi. Sovet rejimiga qarshi dadil fikrlar ayta oldi. Shuning uchun ham 1925-yildan boshlab, u davlat ishlaridan chetlatildi.

Bobooxun Salimov 1929-yil 10-may kechqurun o'z uyida sovet ma'murlari tomonidan otib o'ldirildi.

**FAYZULLA XO'JAYEV** (1896-1938) – atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi, yosh buxoroliklar partiyasining asoschilaridan biri. U Buxoro shahrida yirik savdogar Ubaydullaxo'ja Qosimxo'ja oilasida tug'ildi. Buxoro madrasalarida ikki yil ta'lim olgach, 1907-1912-yillarda Moskvada xususiy muallimlar qo'lida o'qidi. Buxoroga qaytgach, 1912-yil yosh buxoroliklar partiyasining. 1913-yilda partiya MKning a'zosi bo'ldi. U otasidan qolgan boyliklarni jadid maktablari ochishga, yosh buxoroliklar faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turishga sarfladi.

1917-yildan boshlab F. Xo'jayev va A. Fitrat yosh buxoroliklardan ajralib chiqqan so'l qanotga rahbarlik qilishdi. Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. 1918-yil martida Buxoro amiri tomonidan yosh buxoroliklar qirg'in ostiga olinganidan so'ng F. Xo'jayev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo'ladilar. Rossiya bolsheviklari yosh buxoroliklar va uning rahbari F. Xo'jayevdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, kelgusida yosh buxoroliklar negizida Buxoro kompartiyasini tuzish, amirga qarshi bo'lgan, bolsheviklar ta'siridagi hukumatni Turkiston Respublikasida tashkil etishni maqsad qilib qo'yadilar. Uning zaminida Buxoro davlatini yo'qotib, asta-sekin uni sovet davlatiga qo'shib olishdek makkorona reja yotardi. 1918-yilning yozida Toshkentda turgan F. Xo'jayev amirlikni ag'darish uchun birdan-bir to'g'ri yo'l M. Frunze qo'mondonligidagi qizil qo'shinlardan “yordam so'rash”, deb bildi. U 1920-yil yanvarda Toshkentda tashkil topgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosi raisi, “Uchqun” gazetasining muharriri (1920-yil aprel-sentabr) bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan amir hokimiyati ag'darilgach, 1920-yil 14-sentabrda F. Xo'jayev boshchiligida Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi tuzildi. F. Xo'jayev BXSRRning tashqi ishlar noziri (1920-1924), harbiy ishlar noziri (1921-1924) lavozimlarida ham ishladi. BXSRR hukumati boshlig'i bo'lgan F. Xo'jayev birinchi kundanoq mustaqil siyosat yurgizishga, sovet Rossiyasi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qildi. 1922-yil u Germaniyaga chet el savdo kompaniyalari va banklari bilan mustaqil shartnoma tuzishga bordi. F. Xo'jayev Turkistondagi istiqlochilik harakatiga hayrixohlik bilan qaradi.

U 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashiga raislik qildi. Markazning Turkbyuro, Turkkomissiya, RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlardan cho'chimadi. F. Xo'jayev “o'n sakkizlar guruhi”ning g'oyaviy ilhomchisi edi. U Buxorodagi jadidlik tarixiga bag'ishlangan “Buxoro inqilobining

tarixiga materiallar” (1926) asari uchun kompartiya tomonidan tanqidga uchradi. U O‘zbekistonda yoppasiga paxta ekilishi – paxta yakkahokimligini yuzaga keltirishi mumkinligini ochiq aytgan edi. F. Xo‘jayev 1937-yil yozida O‘zSSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida turgan chog‘ida Moskvada qamoqqa olinib, 1938-yil 13-martda otib tashlanadi.

**IBROHIMBEK** (1889-1932) – Sharqiy Buxorodagi qizil armiya qismlariga qarshi kurashgan istiqdolchilar qo‘shinining bosh qo‘mondoni. Mulla Muhammad Ibrohimbek 1889-yilda Dushanba yaqinidagi Ko‘ktosh qishlog‘ida o‘zbek laqablari urug‘ining esonxo‘ja shaxobchasiga mansub amir amaldori Chaqaboy to‘qsabo xonadonida tug‘iladi. U mahalliy madrasada saboq oladi. Ibrohimbek 1919-yilda Hisor beki huzurida qilgan xizmatlari evaziga qorovulbegi darajasiga, keyinchalik Buxoro amiri tomonidan mir devonbegi, to‘pchiboshi, lashkarboshi lavozimiga ko‘tarilgan. Ibrohimbek 1920-yil sentabrda amirlik tuzumi ag‘darilgach, Sharqiy Buxorodagi qo‘rboshi dastalariga rahbarlik qiladi, bosqinchi qizil askarlar va sovet tuzumiga qarshi kurash olib boradi. U Buxoroda amir rejimini qayta tiklashga bel bog‘lagan edi. 1921-yil sentabrda bo‘lgan Buxoro qo‘rboshilarining qurultoyida “Islom lashkarboshisi” degan unvonga sazovor bo‘ladi. “Ibrohimbek butun Sharqiy Buxorodagi markaziy siymo”, deb tan olinadi. 1925-1926-yillarda u hozirgi Tojikiston va O‘zbekistonning tog‘li viloyatlarida kurash olib boradi. 1926-yil 21-iyunda keskin janglardan so‘ng Afg‘oniston hududiga o‘tib ketishga majbur bo‘ladi. 1926-1929-yillarda Qobul yaqinidagi Qal‘ai Fotuda sobiq amir Said Olimxonning qarorgohida yashaydi. Biroq Ibrohimbek boshchiligidagi buxorolik muhojirlar Afg‘onistondagi siyosiy kurashga tortilishadi, harbiy mojarolarda qatnashishga majbur bo‘lishadi (1928-1929). Ibrohimbek uzoq tayyorgarlikdan so‘ng, 1931-yil 30-martda SSSR chegarasidan o‘tib, Tojikiston SSR hududiga kiradi. Bu yerda u qizil askarlarga qarshi jang qiladi. Ibrohimbek 1931-yil 23-iyunda sovet chekistlari tomonidan Bobotog‘da qo‘lga olinadi va Toshkentga olib kelinadi. U 1932-yil 31-avgustda qatl qilinadi.

**JUNAYIDXON** (1857-1938) – asl ismi Qurbon Mamed (Muhammad) sardor bo‘lib, Xiva shahri yaqinidagi Badirkent qishlog‘ida (hozirgi Toshhovuz viloyatida) turkman yovmutlari urug‘ining junayid tarmog‘iga mansub mulkdor Xojiboy oilasida tug‘iladi. Junayidxon 1873-yilda Xiva xonligiga xujum boshlagan Rossiya imperiyasi generali Golovachev qo‘shiniga qarshi kurashgan yovmut yigitlari safida bo‘ldi. U uzoq yillar davomida o‘z urug‘ining mirobi, qozisi va oqsoqoli bo‘lgan. 1912-yildan Xiva xonligiga qarshi qaratilgan turkmanlarning turli chiqishlariga rahbarlik qildi. Xiva xoni Asfandiyorxon (1910-1918) uni o‘z tomoniga og‘dirib olish maqsadida 1915-yilda butun turkman qabilalarining sardori – harbiy qo‘mondon unvonini beradi. Turkman urug‘larining oqsoqollari uni junayid urug‘ining xoni – Junayidxon deb e‘lon qilishadi. Turkmanlarning mustaqil harbiy feodal davlatini tuzishga uringan Junayidxon 1916-yil fevral oyida poytaxt Xiva shahri ustiga yurish qiladi. Toshkentdan yordamga yetib kelgan Galkinning jazo otryadlari Junayidxonni Qoraqumga chekinishga majbur etadi. Qisqa muddat Eron va Afg‘onistonda bo‘ladi. U 1918-1920-yillarda Xivani o‘ziga bo‘ysundirib, Xiva xonligining mutlaq hukmdoriga aylanadi. 1920-yil mart oyida qizil askarlar tomonidan Xiva xonligi tugatilib, uning o‘rniga XXSR tashkil etilganidan so‘ng, Junayidxon sovet

hukumatiga jiddiy xavf sola boshlaydi. Bu davrda Junayidxon qo'lida 30 ming kishilik qo'shin ber edi.

1924-yil noyabrda sovet hokimiyati ma'murlari bilan Junayidxon vakillari o'rtasida muzokaralar bo'ladi. Turkmaniston SSR sovetlarining I s'ezdida (1925-yil fevral) Junayidxon va uning safdoshlari afv etiladi. Biroq u 1927-yil 19-sentabrda Toshhovuz okrugidagi Oqtepada sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Lekin uning qo'shinlari qizil askarlar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. U 1931-yilda Eron orqali Afg'onistonga o'tib ketadi va 1938-yilda Hirot atrofida vafot etadi. Junayidxonning avlodlari hozir Eronning Hamadon shahrida yashashadi.

**KATTA ERGASH** – Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining dastlabki taniqli namoyondasi. U Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qonning eng mashhur mullalaridan biri bo'lgan, shuning uchun uni Mulla Ergash ham deyishgan. Katta Ergash Rossiya imperiyasining Turkistonga qilgan bosqinchiligini kechira olmadi, ularga qarshi kurashdi. U Turkiston Muxtoriyatining tarafdori, uning himoyachilaridan biri edi. U 1921-yil 19-dekabrda o'z qarorgohi Xonobodda qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'ladi.

**MADAMINBEK** (1892-1920) – Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining eng mashhur namoyondasi. Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek bo'lib, 1892-yilda Marg'ilon yaqinidagi So'kchilik qishlog'ida (hozirgi Toshloq tumani) o'rtahol Ahmadbek oilasida tug'ildi. Madaminbek Rossiya imperiyasiga qarshi harakatlar qilganligi uchun qamoqqa olinib, 1914-1917-yillar davomida Sibirning Nerchinsk degan joyida surgunda bo'ladi. 1917-yildagi fevral inqilobidan keyin u siyosiy mahbus sifatida ozod qilinadi va Marg'ilonga qaytib keladi. "Sho'roi Ulamo" jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar mirshablari boshlig'i lavozimiga tavsiya etishadi. Madaminbek bu lavozimda 1917-yil martdan 1918-yil yanvar oyining oxirigacha xizmat qiladi. Sovet hokimiyatiga nisbatan ishonchini yo'qotgan Madaminbek 1918-yilning erta bahoridan istiqloqlilar safiga o'tadi. U Turkistonda milliy demokratik davlat barpo qilish tarafdori edi. 1919-yil 22-oktabrda Madaminbek "Farg'ona Muvaqqat Muxtor hukumati" boshlig'i deb e'lon qilinadi. Biroq ko'p o'tmay Xolxo'ja Eshon tomonidan Qoravul qishlog'ida 1920-yil 14-mayda o'ldiriladi.

**MULLA ABDULQAHHOR** (1884-1924) – G'arbiy Buxoroda qizil armiya qismlariga qarshi kurashgan istiqloqlchi kuchlarining bosh qo'mondoni. U 1884-yilda Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida tug'iladi. Mulla Abdulqahhor Buxorodagi mashhur Mir Arab madrasasida tahsil oladi. Uning rahbarligida 1920-yilning oxiriga kelib Buxoro, Karmana va Nurotada o'nlab qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatishadi va qizil askar bosqinchilariga qarshi kurash olib boradi. Mulla Abdulqahhor 4 yillik kurashlardan so'ng, 1924-yilning oxirlarida Qizilqumda bo'lgan to'qnashuvlarning birida halok bo'ladi.

**MUSTAFO CHO'QAYEV** (Mustafo Cho'qay o'g'li, 1890-1941) – Turkiston mustaqilligi uchun taniqli kurashchi. Qizil O'rda shahrida aslzoda qozoq urug'iga mansub bo'lgan volost boshlig'i oilasida tug'iladi. Maktabda, so'ngra Toshkentdagi rus gimnaziyasida ta'lim oladi. Peterburg dorilfununining yuridik fakultetini imtiyozli tugallaydi. Dorilfununni bitirib chiqqanidan keyin Davlat Dumasining musulmonlar fraksiyasida Turkiston ishlari kotibi bo'lib ishlaydi, bu vazifani 1917-yilning

fevraligacha ado etadi. Peterburgdan Turkistonga qaytib kelganidan so'ng siyosiy faoiyatga kirishdi va musulmon deputatlarining o'ika Sovetiga rais etib saylanadi. "Ulug' Turkiston" ro'znomasi tahrir hay'atining xodimi, qozoq tilida chiqadigan "Birlik tug'i" ro'znomasining bosh muharriri bo'lib ishlaydi. M. Cho'qayev Qo'qonda tashkil qilingan Turkiston Muxtoriyati hukumatining asoschilari va rahbarlaridan biri edi. U dastavval Muvaqqat hukumat tashqi ishlar vaziri qilib saylanadi. Tanishboyev iste'foga chiqqanidan keyin Turkiston Muxtoriyati hukumati raisi bo'ladi. Turkiston Muxtoriyati tor-mor qilingandan so'ng u Qo'qondan qochib, istiqlochlilarga qo'shiladi. 1919-yilda Turkistonnı tark etib, 1921-yilgacha Gruziyada yashaydi, keyin chet elga ketadi. Turkiyada. Birlinda, Parij yaqinida yashaydi. Quvg'ında Mustafa Cho'qayev musulmon muhojirlarining shubhasiz milliy rahbari sifatida taniladi. Parijda 1929-yildan to 1939-yilgacha "Yosh Turkiston" majmuasini chiqaradi. Boshqa nashrlarda, shu jumladan, "Jurnal Korolevskogo obshestva Sredney Azii", "Aziatskoe obozrenie" (London) kabi nashrlar bilan muntazam ravishda hamkorlik qiladi. U XX asrdagi Turkiston tarixiga oid ko'plab maqolalar va monografiyalar e'lon qiladi. shu jumladan, "Turkiston pod vlastyu Sovetov" asarini rus tilida Parijda 1935-yilda chiqaradi. "Istiqol jallodlari (1917 yil xotiralari)" kitobi o'zbek tilida nashr qilingan. M. Cho'qayev Berlinda vafot etadi.

**NAZIR TO'RAQULOV** (1892-1939) – davlat, siyosat arbobi, tilshunos olim va diplomat. Qo'qonning Boybo'ta ko'prik mahallasida o'ziga to'q qozoq oilasida tug'ilgan. 1913-yilda Moskvadagi savdo institutiga o'qishga kiradi. Talabalik yillarida o'nga yaqin tillarni o'rganadi. Birinchi jahon urushi yillarida u G'arbiy frontga safarbar qilinadi va Belorussiyaga yuboriladi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng Turkistonga qaytadi. Qo'qondagi sovet idoralarida ishlaydi (1918-1919). Tez orada Toshkentga chaqirilib TASSR MIKning hamraisi (1919), TASSR Maorif xalq komissari (1920), Turkiston Kompartiyasi MK mas'ul kotibi (1920-1922) bo'lib ishlaydi.

N. To'raqulov 1922-yilda Moskvaga chaqiriladi va sovet xalqlari Markaziy nashriyoti raisi lavozimiga (1922-1928) tayinlanadi.

1928-yilda N. To'raqulov elchilik ishiga jalb qilindi va SSSRning Xijoz davlatidagi (hozirgi Saudiya Arabistoni) Bosh konsuli va Muxtor elchisi vazifalarida ishladi (1928-1936).

1936-yilda SSSRga qaytgach Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Moskva shaharlarida yashab, Moskvadagi Sharq xalqlari tili va adabiyoti institutida ishladi (1936-1939).

N. To'raqulov qanchalik sovet hukumatiga, bolsheviklar partiyasiga sodiq bo'lmasin, mustabid tuzumning qonli qatag'onidan qutilib qola olmadi. U 1939-yilda otib tashlanadi.

**POLVONNIYOZ HOJI YUSUPOV** (1861-1936) – Xorazmda jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, yosh xivaliklar partiyasining asoschisi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov 1861-yil Xiva shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. Eski maktabda tahsil olgach, savdo ishlari bilan shug'ullangan. P. Yusupov 1877-yili amakisi bilan Moskvada bo'ladi. U arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan. 1904-yili Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlari va Makka shahrida bo'ladi. 1914-yili u jadidlarning so'l oqimidan ajralib chiqqan yosh xivaliklar partiyasini boshqaradi. P.

Yusupov 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfandiyorxonga taqdim etilgan davlat boshqaruvida islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestning mualliflaridan biri edi. Manifestga binoan 1917-yil 8-aprelda Xiva xoni huzurida mamlakatni yangicha boshqarish uchun Majlis tuziladi. P. Yusupovga Rossiya hukumati va rus qo'shinlari bilan munosabatlarni barqarorlashtirish vazifasi yuklatiladi. Biroq Asfandiyorxonning jadidlarga qarshi siyosati natijasida u 1917-yil oxiridan boshlab ikki yil Toshkentda muhojirlikda yashaydi. Turkkomissiya muhojirlikdagi yosh xivaliklar partiyasidan Xiva xonligini ag'darib Xorazmda sovetlar andozasidagi yangi hukumat tashkil qilishni rejalashtiradi. 1918-yil boshida Toshkentda muhojir yosh xivaliklardan tashkil qilingan Komitet bolsheviklar ta'sirida edi. P. Yusupov yosh xivaliklar Komitetining raisi qilib saylanadi. Shu tariqa, bolsheviklarga yaqinlashgan yosh xivaliklar partiyasi va uning raisi P. Yusupov Xiva xonligini ag'darishda ulardan "yordam" so'rashga majbur bo'ladi. Qizil qo'shinlar bosqini natijasida 1920-yil fevralda Xiva xonligi tugatiladi. P. Yusupov 1920-yil 30-aprelda yangi tashkil qilingan Xorazm Xalq Nozirlar Kengashining dastlabki raisi bo'lib saylanadi.

P. Yusupov Xorazm hukumatining raisi sifatida birinchi kundanoq o'zining mustaqil siyosatini olib boradi. Biroq P. Yusupovga "o'zboshimchalik" bilan ish yuritishga Turkkomissiya imkon bermaydi. 1921-yil 6-martda bolsheviklar tomonidan harbiy davlat to'ntarishi qilinib P. Yusupov hukumati ag'dariladi. P. Yusupov yashirinishga ulguradi. U faol siyosiy kurash olib borishdan voz kechganligi uchun bolsheviklar tomonidan afv qilinadi. Xivadagi Ichanqal'a muzeyida va sovet idoralari oddiy xodim bo'lib ishlaydi. Uning yozgan xotiralari bor. P. Yusupov 1936-yil vafot etadi.

**QAYG'USIZ OTABOYEV (1887-1937)** – davlat va jamoat arbobi. Zakaspiy viloyati Tajan uyezdining Mean ovulida tuman sardori Toj Goek oilasida tug'ilgan. 1917-yilgacha Mari shahrida o'qituvchi va bank xodimi bo'lib ishladi. 1917-1918-yillarda Marv uyezdi Sovetining turkman seksiyasi rahbari, uyezd oziq-ovqat qo'mitasi raisi lavozimlarida ishladi. 1919-1920-yillarda turkman ovullari sovet tashkilotlarida ishladi. 1920-yilda u Toshkentga chaqirildi va Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi (1920-1922) lavozimiga qo'yiladi. U 1922-yilda Turkiston MIK IV plenumida qilgan ma'ruzasida istiqloqlilik harakatini "bosmachilik" emas, balki "Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakati", "xalq qo'zg'oloni" ekanligini ochiq aytib, istiqloqlilik harakatini kuch bilan bostirishga qarshi chiqqan edi. 1922-yil sentabrda Samarqand viloyatida bolsheviklar rejimiga qarshi kurashayotgan Bahrombek qo'rboshi bilan muzokaralar yuritgani uchun lavozimidan bo'shatiladi.

Q. Otaboyev "qayta tarbiyalash" uchun 1922-yil kuzida Moskvaga Stalin boshliq Millatlar xalq komissarligiga ishga chaqiriladi. Keyin BXSr Nozirlar Kengashi raisi birinchi muovini (1923-1924) qilib Buxoroga yuboriladi.

Q. Otaboyev Turkmaniston SSRni tashkil qilishda juda faol ishtirok etadi va Turkmaniston SSR XKKning birinchi raisi bo'ladi (1925-yil fevral – 1937-yil iyun). Q. Otaboyev iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan Turkmanistonni xo'jaligi va sanoati rivojlangan respublikaga aylantirish borasida katta mehnat qiladi. Q. Otaboyevning qat'iy talablaridan so'ng Junaidxon avf etilgan edi.

Mustabid tuzumga Q. Otoboyevdek xalqparvar, katta obro'ga ega bo'lgan rahbar kerak emas edi. U 1937-yil iyun oyida Moskvada qamoqqa olindi va o'sha yili otib tashlandi.

**SULTONBEK XO'JANOV** (1894-1938) – davlat va siyosat arbobi. Sirdaryo viloyatining Turkiston tumanida (hozirgi Chimkent viloyati) ko'chmanchi qozoq chorvador oilasida tug'iladi. U Turkiston shahrida rus-tuzem maktabi va uch yillik shahar bilim yurtini tugatadi, so'ngra Turkiston o'qituvchilar seminariyasida o'qiydi. U mahalliy millat yoshlari ishtirokida tuzilgan "Kengash" yashirin tashkilotining asoschilaridan biri edi (1915-1917). Bu tashkilot Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash olib boradi. U 1917-yil avgustdan boshlab Toshkentda chop etilgan "Birlik tug'i" gazetasi muharriri bo'ladi.

O'lkada sovet hokimiyati zo'rlik yo'li bilan o'rnatilgach, S. Xo'janov dastlab maorif sohasida ishlaydi. 1920-yilda u Sirdaryo viloyati inqilobiy komitetining raisi qilib tayinlanadi. S. Xo'janov faoliyatida 1920-1924-yillar alohida ajralib turadi. Aynan shu davrda S. Xo'janov Turkiston ASSR ichki ishlar (1920-1921), Maorif (1921-1922), yer ishlari komissari, Turkiston MIK raisi o'rinbosari lavozimlarida ishlaydi.

S. Xo'janovning qat'iy murosasiz faoliyati, sovet hokimiyatining Turkistonda o'tkazayotgan siyosatini ochiq tanqid qilishi Markaz siyosiy rahbarlariga yoqmas edi. 1923-yil iyunda Moskvada bo'lgan milliy respublikalar rahbarlarining kengashida I. Stalin Turkiston rahbarlari qatorida S. Xo'janovni ham keskin qoraladi.

S. Xo'janov Turkistondagi eng murakkab masalalardan biri bo'lgan milliy masala va milliy-hududiy chegaralanish bilan iiddiy shug'ullanadi. S. Xo'janov O'rta Osiyo Federatsiyasi g'oyasini ilgari suradi. Shu bilan birga u hududiy masalada faqat qozoq xalqi manfaatlarini himoya qildi. Shu sababdan uni F. Xo'jayev qattiq tanqid qilgan edi.

S. Xo'janov RKP(b) Qozog'iston komiteti kotibi lavozimida bir yil ishlagach (1925), Moskvaga chaqirib olinadi. Xuddi shu vaqtda Qozog'istonda "xo'janovchilik" ka qarshi kompaniya avj olib ketadi. 1928-1934-yillarda Moskva va Toshkentda mas'ul lavozimlarda ishladi. 1928-yil uning "Turkiston sovet avtonomiyasining o'n yilligi" kitobi nashr qilinadi.

1937-yil 16-iyulda S. Xo'janov qamoqqa olinib, mustabid tuzum tomonidan 1938-yil 8-fevralda otib tashlanadi.

**TURAR RISQULOV** (1894-1938) – Turkiston xalqining taniqli davlat va jamoat arbobi. 1894-yil Yettisuv viloyati Verniy uyezdining Sharqiy To'rg'ay volostida, kambag'al qozoq chorvadori oilasida tug'iladi. Uning otasi Risqul Jilhaydarov volost boshqaruvchisi Uchkempirovni o'ldirgani uchun avval Verniy (hozirgi Olmaota) shahridagi qamoqxonaga tashlanadi, so'ngra Sibirga surgun qilinadi (1904-1905). Yosh Turar otasining xohishi bilan qamoqxonaga ketadi. U ilk saboqni turmadagi savod chiqarish maktabida oladi. So'ngra u Avliyoota uyezdi Merki shahridagi rus-tuzem maktabi va Pishpek (hozirgi Bishkek)dagi qishloq xo'jalik o'quv yurtini tugatadi (1907-1914). T. Risqulov 1914-yili Toshkentga keladi va turli yumushlarni bajaradi. U 1916-yilda Rossiya imperiyasiga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik kurashida faol qatnashdi. 1916-1917-yilda Toshkent o'qituvchilar institutida o'qiydi.



1918-1924-yillar T. Risqulov hayotida asosiy davr hisoblanadi. Shu yillarda u Turkiston Avtonom Respublikasida muhim vazifalarni bajaradi: Turkiston Sog'liqni saqlash xalq komissari (1918-1919), ocharchilikka qarshi kurash Markaziy Komissiyasi raisi (1918-1919), RKP(b) TKP Musulmonlar byurosi raisi (1919-1920), Turkiston ASSR MIK raisi (1920-yil yanvar-iyul), Turkiston ASSR XKK raisi (1922-yil sentabr – 1924-yil yanvar) lavozimlarida ishlaydi. T. Risqulov Turkistondagi ocharchilik va uning dahshatli oqibatlarini tugatish uchun kurashdi, bolsheviklarning mahalliy xalqlarning ochlikdan qirilishiga befarq, mensimaslik munosabatini ochiq tanqid qildi. T. Risqulov boshchiligidagi ayrim milliy kommunistlar Markazning shovinistik siyosatini, Turkbyuro va Turkkomissiyaning zo'rvonlik kirdikorlarini, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchiliklarini ochib tashladilar. O'lka Musulmonlari byurosi raisi sifatida u "Turk Respublikasi" va "Turk Kompartiyasi" tuzish haqidagi masalani Markaz siyosiy rahbariyati oldiga qo'yadi. Biroq markazning topshirig'i bilan Turkkomissiya Turkiston xalqlari birlashishiga yo'l qo'ymaydi. Aksincha, ularni ajratish chora-tadbirlarini ko'rad.

Turkiston xalqlarini birlashtirish tarafdori bo'lgan T. Risqulov lavozimidan bo'shatilib Markazga chaqirib olinadi. U markazning nazoratida: RSFSR Millatlar ishi xalq komissarining ikkinchi o'rinbosari, ushbu komissarlikning Ozarbayjondagi Muxtor vakili lavozimlarida ishlaydi (1920-1922). Biroq, Turkistonda istiqlochilik harakati kuchayib, siyosiy vaziyat keskinlashgach, u Turkistonga yana qaytariladi.

T. Risqulov istiqlochilik harakatiga qarshi kurashga rahbarlik qilgan sovet davlat arboblardan biri bo'lishiga qaramasdan, u istiqlochilar kurashining mohiyatini to'g'ri tushungan va ularga xayrixohlik bilan qaragan edi.

Markaz 1924-yil boshidan Turkiston xalqlarini bo'lib tashlash maqsadida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboradi. Turkiston xalqlarining birligi, Turk Respublikasi tashkil qilish tarafdori bo'lgan T. Risqulov Turkistonda turishidan Markaz manfaatdor emas edi. Shuning uchun u 1924-yil fevralda markazga yana chaqirib olinadi. T. Risqulov Komintern Ijroiya Qo'mitasining O'rta Sharq bo'limida ishlaydi, Mo'g'uliston Respublikasida o'z tajribasini o'rtoqlashadi (1924-1926), RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi raisining muovini (1926-1937) lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U qaysi lavozimda ishlamasin, har doim O'rta Osiyo respublikalari, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston manfaatlarini himoya qiladi.

T. Risqulov Turkistondagi 1916-yil qo'zg'oloni va istiqlochilik harakati to'g'risida va boshqa mavzularda bir qator maqolalar, asarlar yozdi. Jumladan, uning "Inqilob va Turkistonning tub aholisi" (1-qism, Toshkent, 1925) asari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

T. Risqulov 1937-yilda Moskvada qamoqqa olinadi va mustabid sovet tuzumi tomonidan 1938-yilda otib tashlanadi.

**UBAYDULLA BOHAUATDINOV** (1887-1956) – xalq orasida Xon Maxsum nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning bobokaloni Imom eshon XVIII oxiri – XIX asr boshlarida qoraqalpoq xalqining birlashish jarayonida ishtirok etgan. Xon Maxsumning bobosi Otaulla Xorazm vohasida katta nufuzga ega bo'lgan eshon edi. Uning o'g'illari xalq maorifi ishiga boshchilik qilishgan. Xon Maxsum Qo'ngirotning

sobiq begi Qutlimurotbiy bilan birga 1919-1920-yillarda qoraqalpoq xalqining sovet hokimiyatiga qarshi Chimboyda ko'targan qo'zg'oloniga rahbarlik qilishgan.

**SHERMUHAMMADBEK** (1893-1970) – Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining taniqli arbobi. U 1893-yilda Farg'onadagi Toshloq tumanining Garbobo (Karbobo azizlar) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Qo'shoqvoy hoji xonadonida tug'ilgan. Zakiy Valdiy To'g'onning yozishicha. Shermuhammadbek 1916-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan mardikorlikka olingan va Polsha fronti ixtiyorida ishlagan. 1918-yildan istiqlolchilar safida turgan. Uning asosiy maqsadi Turkistonda islom jumhuriyatini tashkil qilish bo'lgan.

U xorijda 1942-yilda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning "Vatanni ozod qilish" (ba'zi manbalarda "Faol") nomli yashirin tashkilotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Din peshvosi Muboshirxon Taroziy bu tashkilotining boshlig'i, Shermuhammadbek esa harbiy qo'shinlar bosh qo'mondoni edi. 1943-yil mart oyida Afg'oniston hukumati tashkilot rahbarlarini, shu jumladan, Shermuhammadbekni ham qamoqqa oladi. U ikki yil davomida Qobul qamoqxonasida tutqunlikda turadi. Qamoqdan chiqqanidan so'ng u ma'lum muddat Hindistonga ketadi. 1951-1959-yillarda Pokistonda yashaydi. 1959-yildan to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechiradi. Shermuhammadbek 1970-yil 10-martda, ukasi Nurmuhammadbek 1983-yil 10-yanvarda Adana shahrida vafot etishadi. Ularning farzandlari hozirgi kunda AQSH va Turkiyada yashaydilar. Shermuhammadbek muhojirlikda Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati va o'zi boshchilik qilgan mujohidlar faoliyati haqida o'zining xotiralarini yozib qoldirgan.

#### **MAVZU: O'ZBEKISTON SSR SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA (1925-1991-YILLAR).**

**AGITATSIYA** (lotincha "agitatio" – harakatga keltirish) – og'zaki, yozma, matbuot yoki boshqa faoliyat orqali ommaning siyosiy faolligini uyg'otish. O'zaro muloqotlar, namoyishlar, gazeta va jurnallarda ommaviy nashrlar, radio va televideniya chiqishlar agitatsiya (propaganda) vositasi bo'lishi mumkin.

**AGRESSIYA** (lotincha "agressio" – hujum) – bir davlatning ikkinchi davlat suvereniteti va chegara dahlsizligini noqonuniy ravishda buzib, uning hududiga bostirib kirishi. Agressiya aksariyat hollarda qurolli harakat tarzida uyushtiriladi. Bir davlatning ikkinchi davlatga qurolli hujumi tinchlik va xavfsizlikka qarshi eng og'ir xalqaro jinoyatchilik hisoblanadi.

**ATEIZM** (fransuzcha "atheos" – xudo, yunoncha "a" – inkor yuklamasi) – xudosizlik, xudoni inkor etish. Marksizm-leninizm g'oyalari ko'ra xudoning mavjudligini inkor etish. Sobiq sho'rolar davrida kommunistik partiya tomonidan ommaviy ravishda targ'ib qilingan ta'limot.

Ma'lumki, din dunyo, inson, mavjudodlarning kelib chiqishini, hayotning mazmuni va ma'nosini, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga javob beruvchi dunyoqarash shakli hisoblanadi.

Sho'rolar davrida dinga qarshi olib borilgan xuruj va xujum, tashviqot va targ'ibot oxir-oqibatda, istibdodchilar kutgan natijani bermadi va din faqatgina qoloqlikning, savodsizlikning, fan yutuqlarini bilmaslikning natijasi deyish nihoyatda

yuzaki fikr ekanligini, din inson tafakkuri, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, kundalik hayoti bilan juda murakkab bog'langanligini ko'rsatdi. Din har bir jamiyat, davlat va mamlakatning madaniy, ma'naviy, ruhiy hayotida hamma vaqt ma'lum o'rinni tutgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

**AVTORITAR SIYOSIY REJIM** (lotincha "autoritas" – hokimiyat, nufuz, e'tibor, obro') – ommani shaxsiy va davlat hokimiyatiga so'zsiz itoat qildirish. Davlat boshqaruvidagi avtoritarizm bir kishi (monarx, diktator, dohiy)ning mustabid hokimiyatiga asoslanadi. Odatda avtoritar boshqaruv usuli demokratiya prinsiplariga zid hisoblanadi. Unda davlat rahbarining shaxsiy nufuzi, obro'-e'tiboriga tayanib hokimiyat yuritiladi.

**BYUROKRATIYA** (fransuzcha "bureau" – kanselyariya, devonxona, yunoncha "kratos" – hukmronlik) – davlat va jamiyatni xalqdan ajralgan holda u bilan hisoblashmasdan ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan boshqarish usuli. Byurokratik boshqaruvda xalqqa berilgan va'dalar faqat qog'ozda qolib ketib, u hech qachon amalda bajarilmay qoladi. Ana shu qog'ozbozlik va to'rachilik ma'muriy boshqaruv tuzilmalaridan tortib ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga kirib boradi. Hukumat va yuqori tashkilotlarning buyruq-ko'rsatmalari amalda bajarilmagan bo'lsa ham qog'ozda bajarilgan qilib ko'rsatiladi. Qog'ozda aks ettirilgan ko'rsatkichlar va yutuqlar hayotga tadbiiq etilmaydi.

Sobiq Sho'rolar davlatida byurokratizm bu kapitalistik jamiyatga xos xususiyat, sotsialistik tuzumda byurokratizmga yo'l qo'yilmaydi deb balandparvoz shiorlar ilgari surilgan bo'lsada buyurokriyaning asl ko'rinishlari aynan sho'rolar jamiyatida gullab yashnadi.

**DIKTATURA** (lotincha "diktatura" – cheksiz hokimiyat) – hokimiyatni nodemokratik usullar bilan amalga oshirish. Avtoritar siyosiy rejim. Sho'rolar davrida I.V. Stalin (1924-1953) diktatorlik boshqaruv tartibini o'rnatgan edi.

**FASHIZM** (italyancha "fascismo", lotincha "fascis" – bo'g'lam, tutam, birlashma) – burjuaziyaning eng reaksion va agressiv kuchlari manfaatlarini ifodalovchi g'oya. O'tgan asrning 20-30-yillarida Italiya va Germaniyada xalqqa yolg'on va'dalar berib hokimiyat tepasiga kelgach fashistlar zo'raonlikning ashaddiy shakllarini qo'llovchi va jamiyat ustidan yalpi nazorat o'rnatuvchi terroristik diktatura barpo etdilar. Tashqi siyosatda hujumkor, agressiv – bosqinchilik siyosatini yurgizdilar.

**IKKINCHI JAHON URUSHI** (1939-yil sentabr – 1945-yil sentyabr) – nemis fashistlari tomonidan birinchi jahon urushidagi mag'lubiyat o'chini olish maqsadida dunyoni qaytadan bo'lib olish maqsadida boshlangan urush. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng qirg'inbarot urush bo'lib, u olti yil (2194 kun) davom etdi. Unda 61 ta davlat ishtirok etdi. Harbiy harakatlar Yevropa, Osiyo va Afrikaning 40 ta mamlakati hududida bo'lib o'tdi. Urushga jami 110 mln. odam safarbar etilib, urush yillarida 50 mln. odam vafot etdi.

**"INO'G'OMOVCHILIK"** – mustabid sovet davlati jazo organlari tomondan ataylab to'qib chiqarilgan va 1926-1931-yillarda bir qator milliy rahbar kadrlar va ziyolilarni aybsiz qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan bolsheviklar rejimining bo'htoni. "Inog'omovchilik"ning sababchisi O'z KP(b) MK Ijroiya byurosi a'zozligiga

nomzod, O'z KP(b) MK Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif xalq komissari Rahim Inog'omov edi.

R. Inog'omov 1926-yil oxirida "O'zbekiston ziyolilari" risolasini matbuotda e'lon qiladi. Unda "Oktabrdagi o'zgarish o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyor emas edi". Oktabrgacha bo'lgan davrda "... rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o'ynagan", degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, R. Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston Kompartiyasini Rossiyaning mustamiakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda, Markazning Sredazbyuro. SredazEKOSO kabi "nazoratchi" organlarini zo'raonlikda ayblaydi.

1926-yil 12-dekabrda bo'lgan O'z KP(b) MK Ijroiya byurosi "R. Inog'omov faoliyati" haqidagi masalani ko'rib chiqib, "Inog'omovchilik"ni O'zbekiston kompartiyasidagi "maydaburjuachilik, millatchilikka tomon og'ish" deb baholadi va respublika partiya tashkilotlarida keng muhokama qilib "inog'omovchilik"ka "baho berish"ni topshiradi. Shunga binoan barcha partiya tashkilotlari (okrug, rayon, shahar partiya qo'mitalari va hatto partiya yacheykalari) majlislarida "inog'omovchilik" qoralanadi.

Sredazbyuro raisi I. Zelenskiy "inog'omovchilik" haqida VKP(b) MKga yuborilgan axborotnomasidan (1927-yil 13-yanvar) "Inog'omov boshchilik qilgan elementlar" hech qanday kuchga ega emas, lekin ular partiyada va omma orasida jiddiy tayanchga ega, deb yozgan edi. 1927-yil yanvar oyida "inog'omovchilik" masalasi VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosida maxsus ko'riladi. Unda "inog'omovchilik"ning "trotskiy-zinovev oppozitsiyasi bilan g'oyaviy yaqinligi" "ochib beriladi".

O'zKP(b) Markaziy nazorat komissiyasi Prezidiumi 1927-yil 16-oktabrda R. Inog'omov haqidagi masalani ko'rib chiqib, uni partiyaga qarshi guruhbozlikda ayblaydi va "qattiq hayfsan" e'lon qilib jiddiy ogohlantiradi. 1927-yil qishida bo'lgan O'z KP(b) ning III s'ezdi R. Inog'omovni "g'oyaviy jihatdan" tor-mor qilindi deb hisoblaydi va uni Qashqadaryo okrugining eng chekka qishlog'ida ishlash uchun yuboradi. Oradan ma'lum muddat o'tganidan so'ng 1930-yil 30-mayda "Pravda Vostoka" gazetasida R. Inog'omovni "ochiq xati" e'lon qilinadi. Unda "Partiyaning respublikada milliy kadrlar borasidagi yo'lini tanqid qilganim noto'g'ri bo'lgan. Chunki men partiyaning milliy siyosatini, milliy kadrlarni davlat va partiya ishlariga jalb qilish borasidagi faoliyatini yaxshi bilmaganman", deb tavba qildiradi.

R. Inog'omov qarashlariga qo'shilgan, uni davom ettirmoqchi bo'lgan Mavlonbekov, Eshonxo'jayev va Isomuhamedovlar ham partiyaviy tazyiq ostiga olinadi. Chunki, ular R. Inog'omov ishini davom ettirib, paxta yetishtirish masalasida Markaz ko'rsatmasini ochiqdan-ochiq qoralab, O'zbekistonni SSSRning "qizil mustamlakasi" deb ataydilar. 1931-yil 9-aprelda bo'lgan O'zKP MK va Markaziy nazorat komissiyasi Prezidiumi yig'ilishida "Mavlonbekov, Eshonxo'jayev va Isomuhamedovlarni "inog'omovchilik"da va og'machi guruhbozlikda ayblab, ularga "qarshi shafqatsiz kurash olib borishni" topshiradi. Respublikadagi barcha partiya tashkilotlarida ularga qarshi kompaniya boshlab yuboriladi. Yig'ilishlarda ularning hatti-harakatlarini fraksion, guruhbozlik deb tan olishga va oxir-oqibatda tavba-tazarru qilishga majbur qiladilar.

“Inog’omovchilikni” Zaki Validiy To’g’on va Mustafu Cho’qayevlar o’zbek kommunistlarining “O’rta Osiyo byurosiga (Sredazbyuro) qarshi dadil chiqishi” deb baholagan edilar. M. Cho’qayev R. Inog’omovga Parijda chiqayotgan “Yosh Turkiston” majmuasida ishtirok etishni taklif qiladi.

**KOLLEKTIVLASHTIRISH (JAMOALASHTIRISH)** – qishloq xo’jaligida mulkdorlar tabaqasini tugatish maqsadida sovet hukumatining 1929-1933-yillarda o’tkazgan siyosati. Unga ko’ra xususiy tadbirkor va o’ziga to’q dehqon xo’jaliklariga qarashli yerlar davlat foydasiga tortib olinib, ularning o’rnida davlat xo’jaliklari (sovxoz) va jamoa xo’jaliklari (kolxozlar) tashkil etildi. Yeri tortib olingan zamindorlar, boy dehqon xo’jaliklari, o’ziga to’q xonadon sohiblari kolxozlashtirishga qarshi chiqishi mumkin deb, ichki ishlar xodimlari tomonidan xalq dushmani deb e’lon qilindilar. “Quloq” qilinganlar Ukraina, Sibir va Qozog’istonning odam yashamaydigan cho’llariga, o’rmonlarga surgun qilindi. “Mehnatkashlar uchun” amalga oshirilgan jamoalashtirishning mamlakat xo’jaligi uchun yutug’idan ko’ra zarari ko’proq bo’lib chiqdi. Chunki bu tadbir o’zbek xalqining yer mulkchiligi bilan bog’liq bir necha ming yillik tarixiy ana’anasiga tamomila zid amaliyot edi. Shuning uchun ham jamoalashtirishga qarshi noroziliklar aksariyat hollarda siyosiy tus ham olgan edi.

**KOMMUNA** (fransuzcha “commune” – jamoa, lotincha “communis” – umumiy, ommaviy) 1) Mulk va mehnatni umimlashtirish, o’z-o’zini boshqarish huquqlariga ega bo’lish asosida birlashgan kishilar jamoasi. O’rta asrlarda Yevropada shahar aholisining senorga (yirik feodal yoki qirolga) qarshi kurashish uchun tuzgan ittifoqi. Ana shu kurashda g’olib chiqqan shaharliklar o’zini o’zi boshqarish huquqi (kommuna)ni qo’lga kiritganlar. 2) Bir qator davlatlarda quyi ma’muriy-hududiy birlik. Kommunani boshqarish saylab qo’yiladigan munitsipial kengashlar (menitsipalitet) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kengash kommunal xizmatlar faoliyatini tashkil etish (sog’liqni saqlash, ta’lim, suv, gaz, elektr bilan ta’minlash, obodonchilik va boshq), mahalliy ahamiyat kasb etuvchi boshqa jamoat ishlarini o’tkazish kabi vazifalar bilan shug’ullanadi. Munitsipial kengashning ijrochi organi kengash tomonidan saylanadigan yoki hukumat tomonidan tayinlanadigan mer (yoki burgomistr) hisoblanadi.

**KOMMUNIZM** (lotincha “communis” – umumiy, ommaviy) – bolsheviklar ta’biri bilan aytganda kapitalistik tuzum o’rniga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum. Kommunizmning birinchi bosqichi sotsializm bo’lib, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka asoslangan ana shu sotsialistik jamiyat taraqqiyotda davom etib kommunizmga qadam qo’yadi. Kommunizm – insoniyat jamiyatini tashkil etishning eng oliy formasi bo’lib, unda shaxsning barcha ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy va huquqiy ehtiyojlari to’la qondirilgan bo’ladi deb ta’riflangan.

Kommunizmga yetish uchun kommunistlar tomonidan zo’r berib targ’ibot va tashviqot qilingan bo’lsada, biroq bu jamiyatni qurishning imkoni bo’lmadi. Chunki insonning hayotiy ehtiyojlari turli-tuman va cheksizdir. Ehtiyojlar to’liq qondiriladigan jamiyatni qurish shu ma’noda hayoliy farazdan boshqa narsa emas. Sevet jamiyati XX asrning 70-yillari oxiridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayotni bir qadar qisqa muddat yaxshilashga erishgan bo’lsada, kommunistik partiya daholari va ularga ergashgan sovet fuqarolari kommunistik jamiyat hali oldinda deb hisoblashdi.

80-yillarning o'rtalaridan esa sotsialistik jamiyat chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz ko'chasiga kirib qola boshladiki endi kommunizm g'oyasi oxiri yo'q, istiqbolsiz g'oya ekanligini har bir sog'lom fikrli odam anglab yeta boshladi.

**KOMPARTIYA (KOMFIRQA)** – sobiq sho'rolar davlatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy, g'oyaviy va mavkuraviy hayotning barcha sohalari o'z iskanjasiga olgan partiya. Bu partiya 1898-1917-yillarda RSDRP, 1917-1918-yillarda RSDRP(b), 1918-1925-yillarda RKP(b), 1925-1952-yillarda VKP(b), 1952-1991-yillarda KPSS deb qisqartma nomlar bilan yuritilgan.

**KONSENTRATSION LAGERLAR** – aholini yoki harbiy asirlarni sudsiz-so'roqsiz ommaviy ravishda qamash joylari. Oddiy qamoq joylaridan farqli o'laroq, konsentratsion lagerlar urush davrida, mustabid terror yoki kolonial tizim hollarida tuziladi. Konsentratsion lagerlarga qamash jinoiy jazo mazmuniga ega emas va aybdorni qayta tarbiyalash maqsadini ko'zlamaydi. Dastlabki konsentratsion lagerlar 1895-yilda ispanlar tomonidan Kubada mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon boshlangan paytda vujudga keltirilgan edi. Rossiyada konsentratsion lagerlar 1918-yil sentabrda RSFSR XKShning "qizil terror to'g'risida"gi qarori bilan vujudga keltirilgan edi. Keyinchalik ular maxsus lagerlar, 30, 40, 50-yillardagi qatag'on davrida esa GULAG deb nom olib juda keng tarqaldi. Konsentratsion lagerlarda saqlashning asosiy maqsadi siyosiy g'animlarni ommaviy ravishda yo'q qilish hisoblangan.

**"MILLIY ITTIHOD", "MILLIY ISTIQLOL"** – Turkiston jadidlari tomonidan tashkil etilgan yashirin tashkilot (1920-25). Munavvar qori va Sadriddinxon Sharifxo'jayev tashabbusi bilan Toshkentda tuzilgan. "Turk adam markaziyat (federalistlar) firqasi" (1917-yil iyul) "ittihod va taraqqiy" ("ittihodi taraqqiy", 1917-20) yashirin tashkilotlari asosida tashkil topgan. Bolsheviklar rejimiga qarshi kurashda sovet muassasalarida xizmat qilayotgan milliy rahbar xodimlarga tayangan va o'z oldiga Turkistonda milliy mustaqil davlatni barpo etishni bosh maqsad qilib qo'ygan. "Milliy ittihad"ning o'zagini o'z Vatani bilan mustaqil bo'lishi yo'lida kurashga tayyor bo'lgan taraqqiyparvar ziyoililar tashkil etdilar.

"Milliy ittihad" tashkiloti faoliyatida Munavvar qoridan tashqari. T. Jonuzoqov, Ashurali Zohiriy, U. Asadulloho'jayev, Sayd Ahroriy, S. Sharifxo'jayev, Salimxon Tillaxonov va boshqalar muhim rol o'ynashdi. 1920-yildan boshlab tashkilotning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Xorazm sho'balari tashkil qilindi. 1920-yil noyabrda Munavvar qorining Buxoroga borishi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif nozirligida vaqf bo'limi mudiri vazifasida ishlashi bilan tashkilot markazi Toshkentdan Buxoroga ko'chdi. Buxoroda 5 kishidan iborat Markaziy Qo'mita tashkil qilinib, unga Sa'dutlaxo'ja Tursunxo'jayev, Abduqodir Qushbegiyev va boshqalar kiritiladi. Tashkilot qayta tuzilib, uning yangi dasturi va nizomi ishlab chiqiladi, muxri tasdiqlanadi.

Munavvar qori Toshkentda GPU tomonidan qamoqqa olingach (1921-yil 30-mart – 1-dekabr), ma'lum muddat tashkilot faoliyatida qatnashmadi. Yosh buxoroliklar firqasining sobiq a'zolari (Fitrat, Otaulla Xo'jayev, Mukammil Burxonov, A. Muhiddinov, Usmon Xo'ja, Muinjon Aminov, Porso Xo'jayev va boshqalar) "Milliy ittihad" tashkiloti faoliyatida ishtirok qildilar. Validiyning Buxoroga kelishi va Turkiston milliy birligi tashkiloti tuzilishi bilan (1921-yil avgust)

“Milliy ittihad” faoliyati yanada kuchaydi. Keyinchalik Cho’lpon, S. Mirjalilov, O. Maxmudov, Toshpo’latbek Norbo’tabekov, Bekjon Rahmonov ham tashkilot faoliyatiga yaqindan yordam berdilar.

“Milliy ittihad” tashkilotining shu vaqtdagi asosiy maqsadi Buxoro respublikasi, umuman, Turkiston mintaqasini sovetlashtirish va ruslashtirish ta’siridan saqlab qolish, yurt mustaqilligiga erishish edi. “Milliy ittihad” tashkiloti a’zolari mavjud tuzumga qarshi qurolli harakat rahbarlari bilan aloqa o’rnatib, Rahmonqul qo’rboshi huzuriga S. Sharifxo’jayev, Usmonxo’ja To’xtaxo’jayev va Tangriqulxoji Maqsudiyilarni g’oyaviy mafkurachilar sifatida yubordi (1921-yil mart). Keyinchalik S. Sharifxo’jayev qisqa muddat qamoqda bo’lgach, Salim Posho bilan birgalikda avval Afg’oniston, so’nra Eronga o’tib ketdi (1923-yil iyul). O’rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o’tkazilishi arafasida 1924-yil oxirlarida tashkilot markazi qayta Toshkentga ko’chadi. Viloyat sho’balari yangi xodimlar bilan kengaytiriladi. O’zbekiston SSR tashkil topgach, GPU tomonidan har tomonlama siquv ostiga olingan “Milliy ittihad” 1925-yil boshlarida o’zini tarqatilgan, deb e’lon qiladi va keyinchalik uning asosida “Milliy istiqlol” tashkiloti tuziladi. Bu yashirin tashkilot 1926-29-yillarda mavjud bo’lib, uning faoliyatida S. Tillaxonov muhim rol o’ynaydi. Keyinchalik buxorolik va farg’onalik milliy ittihadchilar ham bu tashkilotga kelib qo’shilganlar. “Milliy istiqlol” tashkiloti nafaqat O’zbekistonda, balki butun O’rta Osiyoda demokratik respublika tamoyillariga asoslangan tuzum o’rnatishni o’z faoliyatining asosiy yo’nalishi, deb hisobladi. Biroq sovet davlati mustahkamlana boshlanishi bilan tashkilot o’z faoliyatini to’xtatishga majbur bo’ldi. 1929-yil noyabrda Toshkentda Munavvar qori boshchiligidagi 38 kishi (keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetdi) bu tashkilotning a’zosi sifatida qamoqqa olindi. Tergov jarayoni keyinchalik Toshkentdan Moskvaga ko’chirildi va ular qatag’on qilindi.

**MONOKULTURA** (yunoncha “monos” – bir, “cultura” – ishov bermoq, haydamoq) – yerga faqat bir turdagi ekinni ekish va xo’jalikni faqat shu ekinni yetishtirishga ixtisoslashtirilishi. Sho’rolar davrida O’zbekistonda paxta monokulturasi joriy qilingan edi. Ekin maydonlariga faqat g’o’zaning ekilishi tuproq strukturasi buzilib, tuproq eroziyasiga, yerlarning sho’rlanishiga, kimyoviy o’g’itlarni haddan oshiq ishlaltilishi unumdorlikning keskin pasayib, xatto aholi orasida zaharlanishiga olib kelgan edi.

**OGPU** (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) – SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida 1923-1934-yillarda faoliyat ko’rsatgan davlat havfsizligini qo’riqlash idorasi. Keyin NKVD tarkibiga kiritilib, Davlat havfsizligi Bosh boshqarmasi deb o’zgartirilgan.

**“PAXTA ISHI” (“O’ZBEK ISHI”)** – Mustabid sovet hokimiyati tomonidan 1984-1989-yillarda o’zbek xalqiga qarshi uyushtirilgan navbatdagi qatag’on siyosati. 1984-yil 23-iyunda O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining “tarixiy” XVI plenumi bo’lib o’tdi. Unda markazdagi Ye. Ligachev va uning maslakdoshlari ko’rsatmasi bilan tayyorlangan dokladda respublika rahbar xodimlari va huquqni himoya qilish organlari ishida zudlik bilan shafqatsiz ravishda bartaraf qilish lozim bo’lgan jinoiy ishlar mavjudligi ta’kidlandi. Markaz tomonidan T.Gidlyan va Ivanov rahbarligida yuborilgan tergov guruhi hech kim bilan hisoblashib o’tirmay odamlarni qamash bilan shug’ullandi. Oddiy dehqondan tortib O’zbekiston Kompartiyasi MQ

kotiblari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodiralarni qamash uchun birovlardan zo'rlab yozdirib olingan bir parcha qog'ozning o'zi kifoya edi. O'zbekistonda qonunchilik buzildi, o'zboshimchalik va qatag'onchilikning yangi davri avj oldi. Ming-minglab iqtidorli, rahbarlik mahoratini puxta egallagan rahbar kadrlar, mirishkor paxtakorlar, ter to'kib mehnat qilgan halol kishilar qamoqqa olindi. Hibsga olingan respublika partiya va davlat organlarining rahbarlari esa Moskva qamoqxonalariga tashlandi. Tergov xodimlari 30-yillarda ishlatilgan yaramas usullardan foydalanib, hibsga olinganlarni qiynab, boshqalar ustidan to'qilgan aybnomalarni ularning qo'li bilan qaytadan yozdirib olardi va bu «aybno» tobora ko'p begunoh odamlarni qamashga asos bo'lib xizmat qilardi.

Umuman "Paxta ishi" ("O'zbek ishi") "jinoyat" ishi bo'yicha jami 25 mingga yaqin kishi qiynoq ostiga olinib, so'roq qilindi. 4,5 mingdan ko'proq kishi sud qilinib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi.

Butun SSSRda bo'lganidek. O'zbekistonda ham kamechiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

**PREZIDIUM** (lotincha "praesidium" – raislik etuvchi) – davlat partiya organlarini doimiy boshqarish, majlislar, yig'ilishlarni olib borish uchun tuziladigan kishilar guruhi, kollegiyasi.

**"QIZIL IMPERIYA"** – 1917-1991-yillarda mavjud bo'lgan sobiq Sovet Ittifoqiga nisbatan tarixchilar, badiiy ijod ahli va ilmiy ziyolilar tomonidan ishlatiladigan atama. Sho'rolar davlatining bayrog'i qizil rangda bo'lganligi uchun shunday nomni olgan. G'arb ommaviy axborot vositalarida bu davlat "xalqlar turmasi" deb ta'riflangan bo'lsa, AQSH prezidenti R. Reygan (1980-1992) Sovet Ittifoqini "Yovuzlik imperiyasi" deb atagan edi. "Imperiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, mutlaq hokimiyatga ega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa ega, jabr-zulm va ezishga asoslangan idora etish va boshqarish usulini. mustamlakalarga egalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz ekspluatatsiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi.

**"QOSIMOVCHILIK"** – 1929-1930-yillarda sovetlar rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish maqsadida ataylab uyushtirilgan navbatdagi uydirma.

1929-yilning ikkinchi yarmida O'zSSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov qamaladi. Bolsheviklar hukumatining jazo organlari tomonidan "to'qib chiqarilgan" ayblov asosida bu ishga ataylab siyosiy tus beriladi. S. Qosimov bilan birga tarix o'qituvchisi Olimov, sud idorasi xodimlari Musaboyev va Spiridonov ham qamaladi. Ularga "respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa qilganlikda", go'yo S. Qosimov "o'tirishlarda" "aksilinqilobchilar" bilan qo'shilib "millatchilar partiyasini tuzish haqida fikr bildirgan", degan soxta va asossiz ayblar qo'yiladi. Shuningdek, respublika Bosh prokurori Sharipov "panislomchilikda", tarix o'qituvchisi Olimov "millatchi, aksilinqilobchi g'oyalarni targ'ib qiluvchi bosmachi" sifatida, Musabekov esa, go'yo "biror-bir dinni haqoratlash jinoyatdir" deganlikda ayblanadilar. Bularga qo'yilgan soxta ayblar gazetalarda ataylab e'lon qilinib, xalq ko'z o'ngida ularni "dushmanga" aylantiradilar. Hatto, yolg'on guvohlargacha o'ylab topadilar.



Samarqanddagi 2-vino zavodi ishchilari vakillari sudga kelishib “ishchilar nomidan” sudlanuvchilarni otish kerak degan talab bilan chiqishlari uyushtirildi.

Natijada bolsheviklar rejimining “odil sudi” soxta ayblov va soxta guvohlar bergan ko’rsatmaga asoslanib S. Qosimov, Sharipov, Olimov, Musabekov va Spridonovlarni otishga, qolganlarini esa 10 yildan qamoq jazosiga hukm qiladi.

**QULOQ** (ruscha “kulak” – musht, mushtum) – qarollar, kambag’allar, umuman dehqonlarning yollanma mehnatidan foydalanuvchi katta yer egasi. Qishloq boyi yoki o’rtahol dehqon. 1929-1933-yillardagi jamoalashtirish siyosatiga qarshi qishloqlarda o’z haq-huquqlari uchun kurashgan dehqonlar va yer egalari sho’rolar tomonidan “quloq” – “mushtumzo’r” nomi ostida sinf sifatida tugatish siyosati yurgizilgan.

**QULOQ XO’JALIKLARI** – inqilobga qadar qishloq xo’jaligida yollanma mehnatdan foydalanib xo’jalik yurituvchi yirik dehqon xo’jaliklari. Bunday yirik xo’jaliklar 1861-yil Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi tufayli ayniqsa tez rivojlana boshlagan edi. Ular qishloqda o’z xo’jaliklarini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yurituvchi ishbilarmon-sohibkorlar bo’lishgan. Bunday xo’jaliklarda yollanib ishlovchi dehqonlar aksariyat hollarida o’z mehnati samarasidan manfaatdor bo’lganlar.

Inqilobdan keyin bunday xo’jaliklar podsho hukumating qishloqlardagi tayanchi va mehnatkash dehqonlarni ezuvchi sinf sifatida ta’qib ostiga olinib, qatag’on qilinganlar. 1929-yildan boshlangan jamoalashtirish siyosati natijasida 30-yillarning boshiga kelib quloq xo’jaliklari butunlay tugatiladi.

**REPRESSIYA** (lotincha “repressio” – ezish) – davlat organlari tomonidan qo’llaniladigan qiynoqqa solish tartibi. Jazolash, quvg’in, qatag’on, zulm.

**SIYOSIY QATAG’ONLAR** – davlat boshqaruvida reksion tozalash ishlarini amalga oshirish. Bu kabi repressiyalar jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklari paymol etilib, g’ayriqonuniy ravishda ozodlikdan, hayotdan mahrum etishlarga yo’l qo’yiladi. Sobiq Ittifoqda 1937-1938, 1947 va 1950-yillardagi qatag’onlar ham aynan shu reksion yo’nalish bo’yicha olib borilgan.

**SOTSIALIZM** (lotincha “socialis” – ijtimoiy) – xususiy mulkni ijtimoiy (umumiy) mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglikka, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta’limot. Sotsializm tarafdorlari ana shu yo’l bilan qurilgan ijtimoiy tuzumni ideal (barchaga manzur, oqilona) jamiyat deb hisoblaganlar. Sotsializm inson xususiy mulkdan tamomila ajratiladi. Oqibatda inson o’z individual xususiyatlaridan ham mahrum etiladi. U “omma”ga aylanib, o’z “meni”ni ham yo’qotadi. Jamiyatda zo’ravonlik, tobelik kuchayadi.

XX asrning 20-30-yillarida SSSRda, ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropaning barcha mamlakatlarida, shuningdek, Osiyoning ba’zi mamlakatlarida sotsializm tuzumi o’rnatildi. Sotsializm to’g’risidagi tasavvurlar dunyoning muayyan qismiga yoyildi. Sotsializm qurilishi e’lon qilingan mamlakatlarning barchasida davlat mulkining monopoliyasi, direktivali markazlashtirilgan rejalashtirish, shuningdek, qonunsizlik, ma’naviy-diniy qadriyatlarining inkor etilib oyog’osti qilinishi, o’zgacha fikrlovchilarga toqat qila olmaydigan bir guruh shaxslarning yakka hukmronligi va diktaturasi o’rnatildi.

Totalitar rejimlarning hukmronligi iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy bo’hronga (krizis, inqirozga), dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan orqada qolishiga olib

keldi. O'zbekiston ham shu jarayondan chetda qolmadi. Bu yerda ham hunarmandlar, savdogarlar, tadbirkorlar va erkin kasb egalari tugatildi. Zo'rlik asosida qurilgan quloq qilish, o'zbek ayollarini ozodlikka chiqarish, jamoalashtirish siyosati va boshqa ko'rinishdagi qatag'onlarni sotsializm qurish yo'lidagi qonuniy jarayon sifatida asoslashga urinildi.

XX asrning 80-90-yillari chegarasiga kelganda sotsializm jamiyatning obyektiv taraqqiyoti qonuniyatlariga zid, oxiri yo'q va sarob g'oya ekanligini yuqorida keltirilgan mamlakatlar xalqlari o'z hayotlarida sinab ko'rib, bu g'oyadan ixtiyoriy va ommaviy ravishda voz kechdilar.

**STAXANOVCHILIK** – sho'rolar davridagi industirlashtirish jarayonida mehnatkashlarni sanoatlashtirishga kengroq jalb etish maqsadida tashkil etilgan ommaviy sotsialistik musobaqa. 1935-yil avgustda Donbassdagi "Sentralnaya-Irmino" shaxtasining ko'mir qazuvchisi A.G. Staxanov o'z mehnatini yangicha tashkil etib, bir smenada 102 tonna ko'mir qazidi va o'sha vaqtdagi normani 14 hissa ortig'i bilan bajardi. Bu ko'mir qazishda jahonda misli ko'riilmagan rekord bo'ldi. Uning ketidan boshqa shahtyorlar va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlovchi mehnatkashlar ana shunday zarbdor mehnat samaralarini qayd qila boshladilar. Lekin staxanovchilik harakati bora-bora rasmiyatchilikka aylana bordi. Oshirib ko'rsatishlar, qo'shib yozishlar avj oldi. Aksariyat hollarda moddiy boylik yaratuvchilar zo'r berib qilgan mehnatlari samarasidan manfaatdor bo'lmadilar.

**TOTALITARIZM** (lotincha "totalis" – butun, hammasi, to'la) – davlatni boshqarish shakllaridan biri. Bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan: harbiylar guruhi) yakkahokimligiga so'zsiz bo'ysunishga asoslangan, vaqtincha va o'tkinchi siyosiy tartib. Totalitar davlat boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarini ustidan davlat hokimiyat organlari to'liq nazorati o'rnatiladi. Siyosiy erkinliklar bo'g'ilib, ommaviy axborot vositalariga senzura (davlat nazorati) o'rnatiladi. Erkin fikr ta'vqilqanadi va qatag'on qilinadi.

Nazariy asarlarda, targ'ibot va tashviqot vositalarida sotsializm tarixda eng demokratik, huquqiy va xalqparvar jamiyat deyilgan bo'lsa ham, hayot u totalitarizmning shakllaridan biri ekanligini ko'rsatdi. XX asrda Germaniyada fashistlar, Italiyada Mussolini, Ispaniyada Franko, Xitoyda Mao Szedun, Chilida Pinochet diktaturasi davridagi totalitar tuzum ijtimoiy-siyosiy hayotga qanchalik zarar yetkazgan bo'lsa, sobiq SSSRda sotsializm qurish jarayonidagi proletariyat diktaturasi ham shunchalik zararli oqibatlarini keltirib chiqargan edi.

**TURKISTONDA MILLIY-HUDUDIY DAVLAT CHEGARALANISHI** – Turkiston xalqlarining azaliy birligi va yaxlitligini barbod qilish maqsadida Moskva bolsheviklari tomonidan 1924-1925-yillarda o'tkazilgan tadbir. Bu tadbir "bo'lib tashla va hukmronlik qill!" shioriga amal qilib Turkiston o'lkasidagi tarixi, dini, madaniyati va taqdiri mushtarak bo'lgan xalqlarni bir biridan ajratib har biriga mustaqil Respublika maqomini berib ular ustidan nazoratni mustahkamlash uchun amalga oshirilgan tadbir edi. Mahalliy davlat arboblari (T. Risqulov, S. Xo'janov, S. Asfandiyorov)ning Turkiston yagona, bir butun va uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas deb Moskvaga bir necha bor murojaat qilishlariga qaramay ularning tashabbuslari inobatga olinmadi. Milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkistonda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'zSSR), Turkmaniston

Sovet Sotsialistik Respublikasi (TSSR), keyinroq esa Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikalari tashkil etiladi.

**“XUJUM” HARAKATI** – o'tgan asrning 20-yillari oxirida, aniqrog'i 1927-yilning bahoridan boshlangan o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish (paranji tashlash, erkin kasb tanlash, huquqiy tenglikka erishish) kompaniyasi. “Hujum” harakatini boshlash, eski turmushga hujum qilish, ya'ni o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish uchun zarurat bor edi, biroq bu harakat bolsheviklar tanlagan tezkorlik yo'li bilan emas, asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak edi. Bolsheviklar zo'ravonlik, ma'muriy yo'l bilan bir yo'la 100 ming ayolning paranjisini tashlattirdilar. Lekin partiyaning bu siyosati mahalliy xalqlar o'rtasida (hatto ayollar o'rtasida ham) norozilikni keltirib chiqardi. Endi hujumga qarshi bo'lgan ayollarga nisbatan zulm o'tkazila boshlandi. 1927-28-yillarda bu borada O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar hayotdan ko'z yumishgan.

**YER-SUV ISLOHOTLARI** – O'zbekistonda mustabid sovet (sho'ro)lar hokimiyati o'rnatilgach qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayonida 1925-1929-yillarda o'tkazilgan islohotlar. Yirik dehqon xo'jaliklarining tugatilib, o'rnida mayda dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish va o'ziga to'q xo'jaliklarni g'ayriqonuniy ravishda “quloqlashtirish” bilan xarakterlanadi. Yer-suv islohotlari qishloq xo'jaligini zo'ravonlik yo'li bilan yalpi jamoalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar hozirladi.

**O'ZBEKISTON SSR** – 1924-1925-yillarda Moskva ko'rsatmasi bilan o'tkazilgan ma'muriy-hududiy davlat chegaralanishi oqibatida 1925-yil 13-fevralda Buxoroda Umumo'zbek sovetlarining I quriltoyida tashkil etilgan Respublika. 1927, 1937 va 1978-yillarda qabul qilingan O'zSSR Konstitutsiyalarida O'zbekistonning davlat mustaqilligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlari yozib qo'yilgan bo'lsada, O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti to'liq “Markaz” va Kompartiya nazoratiga olindi. Shuning uchun ham O'zSSR mavjud bo'lgan 1925-1991-yillar tarixshunoslikda qaramlik yillari deb yuritiladi.

**SHOVINIZM** (fransuzcha “shauvinisme” – fransuz dramaturglari T va I. Konyarlar qalamiga mansub “Uch rangli kokarda” asari (1830) personajlaridan biri, Napoleon Bonapart bosqinchilik urushlarining yorqin tarafdori bo'lgan N. Shovin nomidan) – ashaddiy millatchilik. XIX asr boshlarida Fransiyada paydo bo'lgan. Hozirda milliy ekstremizmning namoyon bo'lishi ma'nosida ham ishlatilmoqda. Ayniqsa buyuk davlatchilik shovinizmi havfidir. Chunki, u muayyan siyosiy kuchlarning, ko'p millatli davlatlardagi yetakchi millatlarning boshqa millatlarga nisbatan afzalligi, ustunligi g'oyasi asosida mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy hukmronligini targ'ib qiladi.

**AKMAL IKROMOV** (1898-1938) – o'zbek xalqining davlat va siyosat arbobi. Toshkent shahridagi O'qchi mahallasida Ikrom domla oilasida tug'ilgan. 1918-yilda Toshkent va Namangan shaharlarida o'qituvchilik qildi. U “Chig'atoy gurungi”ning a'zosi sifatida Elxon tahallusi bilan dastlab sovet tuzumiga qarshi she'rlar yozdi. 1919-1920-yillarda Farg'ona, Sirdaryo viloyatlaridagi partiya tashkilotlarida ishladi. 1921-yilda Turkiston KP MK kotibi lavozimiga saylangan A. Ikromov 1922-1924-yillarda Moskvada o'qidi va kommunistik tarbiya oldi. 1925-yil fevralda A. Ikromov O'zKP MKning mas'ul kotibi, 1929-yilda O'z KP MKning birinchi kotibi lavozimiga

tayinlandi. O'zbekiston kommunistlarining yetakchisi bo'lgan A. Ikromov o'zining faoliyati davomida sovet hokimiyati siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. Ayni shu yillarda matbuot sahifalarida hurfiylikka yo'l berilib, turkiylik, istibdod xususida muayyan fikrlar ko'rinsa boshlaganda kompartiyaning mas'ul kotibi sifatida A. Ikromov "Siyosiy ko'rlarmiz" degan maqola bilan chiqib, shunday "og'machiliklar"ni keskin qoraladi. A. Ikromov "inog'omovchilik"ka qarshi bir necha bor chiqishlar qilib, ularni "milliy og'machilikda" aybladi. 1929-yilda "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolari uning tashabbusi bilan qatag'on qilindi. 20-yillarning oxiri – 30-yillarning o'rtalarida bo'lgan bir qator qatag'onlar uchun A. Ikromov javobgardir.

Biroq bolsheviklar rejimiga sidqidildan xizmat qilgan A. Ikromovni ham mustabid tuzum ayab o'tirmadi. U 1937-yil sentabrda Toshkentda hibsga olinadi va 1938-yil mart oyida otib tashlanadi.

**INO'G'OMJON XIDIRALIYEV (1891-1928)** – davlat va jamoat arbobi. Farg'ona viloyati Namangan uyezdi Pop volosti Iskovat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. 1903-1905-yillarda Popdagi, 1906-1907-yillarda Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qidi. 1909-1917-yillarda O'sh va Jalolobod shaharlaridagi pristavlarda kotiblik va tilmochlik qildi. 1917-yil noyabrda uni O'sh shahar dumasiga a'zo qilib saylashadi. 1919-yildan turli sovet idoralarida ishlaydi. 1920-yil Qo'rg'ontepa tuman inqilobiy qo'mita raisi, Farg'ona viloyati partiya qo'mitasi raisi bo'lib ishlaydi. 1922-yil fevralda Turkiston ASSR yer-suv ishlari komissari etib tayinlanadi. TASSR MIK raisi (1922-1924), TASSR MIK va XKKning RSFSRdagi Muxtor vakili (1924-yil yanvar-noyabr) bo'lib ishladi. I. Xidiraliyev 1924-yil aprel-avgust oylarida Londonda bo'lgan Sovet-Angliya muzokaralarida ishtirok etadi. F. Xo'jayev, T. Risqulov, Q. Otabyevlar bilan hamkorlikda bolsheviklarning shovinistik siyosatini izchillik bilan fosh qildi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga hayrixohlik bilan qaradi. U "o'n sakkizlar guruhi"ning tashkilotchilaridan biri edi (1925-yil). 1926-yilda O'zbekiston qishloq xo'jalik banki pravleniyasi raisi lavozimida ishladi.

I. Xidiraliyev O'zbekistonda yer-suv istohotlari jarayonidagi "quloqlarni sinf sifatida tugatish" siyosatiga qarshi chiqan edi. Biroq mustabid tuzumning unga o'tkazgan ruhiy tazyiqlari va doimiy ta'qib ostiga olishlari ta'sir qilmasdan qolmadi. I. Xidiraliyev 1928-yil 31-dekabrda Moskvadagi "Natsional" mehmonxonasida o'z joniga qasd qiladi.

**NURIDDIN MUHIDDINOV (1917-2008)** – taniqli davlat va siyosat arbobi, o'zbek diplomati. 1917-yilda Toshkent yaqinidagi Allon mahallasida tug'ildi. 1938-yilda Moskva savdo-koperativ institutini tamomlab, Buxoroga yo'llanma oldi va u yerda viloyat matbuot uyushmasining kadrlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari va o'quv kombinati rahbari qilib tayinlandi. Urush davrida 1941-1945-yillar davomida harakatdagi armiya safida bo'lib, fashizmga qarshi kurashda faol qatnashdi. Urushdan so'ng uning siyosiy faoliyati boshlandi. Namangan viloyati Partiya qo'mitasi kotibi, birinchi kotibi (1947-1950), O'zbekiston KP MK kotibi (1950-1951), O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashi raisi (1951-1953, 1954-1955), O'zbekiston SSR tashqi ishlar ministri (1953-1954), O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi (1955-1957), KPSS MK kotibi (1957-1961) va boshqa mas'ul lavozimlarda mehnat qildi.

N. Muhitdinov respublikaning ijtimoiy-siyosiy muommolarini yaxshi bilishi bilan alohida ajralib turardi. U O'zbekistonda qatag'on qilingan milliy rahbar kadrlar va ziyolilarning tabarruk nomlarini oqlashda tashabbuskorlik qildi.

U "Sentrosoyuz" raisi o'rinbosari (1962-1966), SSSR ning Suriyadagi elchisi (1968-1977), SSSR savdo-sanoat palatasi raisining o'rinbosari (1977-1986). 1986-yildan O'zbekiston SSR hukumat maslahatchisi, so'ngra uzoq yillar O'zbekiston yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyati raisi bo'lib ishladi. Mustaqillik yillarida ham jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etdi. N. Muhitdinov "Kremlida o'tgan kunlarim" kitobining muallifidir.

**OLLOYOR KURAZOVICH DO'STNAZAROV** (1896-1937) – davlat va jamoat arbobi. O. Do'stnazarov 1896-yilda Amudaryo viloyati (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi) Ko'ko'zak volostining Chimboy uyezdida kambag'al dehqon oilasida dunyoga keldi. 1913-1918-yillarda u boylar qo'lida cho'ponlik qildi, Xivadagi "Yaroslav" paxta tozalash zavodida ishchi, To'rtko'lda dorixona qorovuli bo'lib ishladi. 1918-1921-yillarda armiya safida Sharq mehnatkashlari Kommunistik universitetiga o'qishga kirdi. 1921-1924-yillarda Qo'ng'iro't tuman partiya qo'mitasining birinchi kotibi, Chimboy uyezdida shahar partiya qo'mitasining bo'lim mudiri, Amudaryo viloyat partiya qo'mitasida nazorat komissiyasining raisi bo'lib ishladi.

O. Do'stnazarov Qoraqalpog'iston avtonom viloyatini tashkil qilishda faol qatnashdi. U 1924-1925-yillarda Qoraqalpog'iston avtonom viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi lavozimida ishladi.

1926-1930-yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universitetining talabasi bo'ldi. U o'qishni tamomlagandan so'ng Boshqirdiston ASSRda ishchi-dehqon inspeksiyasining raisi vazifasini bajardi. O. Do'stnazarov 1931-1935-yillarda Moskvadagi "Metallstroy" restri boshqaruvchisining muovini, so'ngra "Metallist" zavodining direktori lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

O. Do'stnazarov 1935-yil 25-yanvarda Moskvada "kontrevolyutsion tashkilotlar bilan aloqa bog'lagan"likda ayblanib NKVD tomonidan hibsga olinadi va 10 yilga qamoq jazosiga hukm qilinadi. Lekin, 1937-yil 10-noyabrda NKVDning Leningrad viloyat boshqarmasidagi "uchlik" guruhi O. Do'stnazarov "ishini qayta ko'rib", uni "xalq dushmani" sifatida ayblab, otishga hukm qiladi. Hukm 1937-yil 8-dekabrda ijro etiladi.

**USMON YUSUPOV** (1900-1966) – davlat arbobi. Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi Kaptarxona qishlog'ida batrak oilasida dunyoga keldi. 1916-yil u Qovunchi (hozirgi Yangiyo'l shahri)dagi paxta tozalash zavodida ishladi va turli jamoatchilik ishlarida faol qatnashdi. U. Yusupov 1929-1931-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi MK kotibi, 1931-1937-yillarda VTSSPS O'rta Osiyo byurosining raisi, O'zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati xalq komissari lavozimida ishladi. 1937-1950-yillarda O'zbekiston KP MKning birinchi kotibi, 1950-1953-yillarda SSSR Paxtachilik ministri, 1953-1954-yillarda O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining raisi kabi mas'ul lavozimlarda ishladi. 1954-yilning oxirida N.S. Xrushchevning buyrug'i bilan U. Yusupov respublika hukumati boshlig'i lavozimidan olib tashlandi. U 1955-1966-yillarda "4-Boyovut" va "2-Boyovut" paxtachilik sovxozlari hamda

Yangiyo'l tumanidagi "Xalqobod" agrar sanoat birlashmasi direktori lavozimlarida ishladi.

U. Yusupov respublika rahbari bo'lib ishlagan yillarida uning tashabbusi asosida O'zbekistonda xalq hashari yo'li bilan yirik suv inshootlari qurildi (Katta Farg'ona kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori va boshq.). Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSRning g'arbiy rayonlaridan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan yirik korxonalarni tezlik bilan joylashtirish va ishga tushirish, yangi korxonalar qurish, frontni oziq-ovqat, paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan muntazam ta'minlashda, o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar etishda, urush tufayli boshpanasiz qolgan aholiga, ota-onasiz qolgan yuz minglab balalarga mehribonlik va o'zbeklarga xos bo'lgan yuksak insonparvarlik sifatlarini ko'rsatishda U. Yusupov bosh-qosh bo'ldi.

U. Yusupov 1966-yil 7-mayda Toshkent shahrida vafot etdi.

**YO'LDOSH OXUNBOBOYEV** (1885-1943) – davlat arbobi. Marg'ilon uyezdining Jo'ybozor qishlog'ida aravaso'z usta Oxunbobo oilasida tug'ildi. 16 yoshidan boshlab Marg'ilon boylaridan birining paxta tozalash zavodida yuk tashuvchi bo'lib ishladi, so'ngra aka-uka Kraflar zavodida mehnat qildi. O'zgardagi Xolmatboy qo'lida batrak bo'ldi. U 1916-yildagi xalq qo'zg'olonida faol ishtirok etdi.

1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin Y. Oxunboboyev okruga birinchi tuzilgan qishloq sho'rosi raisining o'rinbosari bo'ldi. So'ngra u M. Frunze shtabida xizmat qildi. 1919-yil Farg'ona vodiysida dastlabki tashkil qilingan "Qo'shchi" uyushmasini boshqardi. 1925-yil fevralda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining (MIK) raisi lavozimiga saylandi. Bu mas'ul lavozimda umrining oxirigacha mehnat qildi.

**SHAROF RASHIDOV** (1917-1983) – taniqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi. Jizzax shahrida tug'ilgan. 1933-yilda Jizzax pedagogka texnikumiga o'qishga kiradi, uni tugatgach, o'zi o'qigan maktabda o'qituvchilik qiladi. 1937-1941-yillarda A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiydi. 1941-yil noyabrda frontga chaqiriladi. 1942-yil og'ir yaralanib, Vatanga qaytib keladi va Jizzaxdagi o'rta maktabda direktorlik qiladi. 1943-yil "Lenin yo'li" gazetasida mas'ul muharrir. 1944-yil Samarqand viloyati partiya qo'mitasida kotib lavozimlarida ishladi. 1947-1949-yillarda "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi") gazetasi muharriri. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining boshqaruv raisi (1949-1950). 1950-yil O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi, SSSR Oliy Soveti Prizidiumi raisi o'rinbosari, 1959-yildan umrining oxirigacha O'zbekiston SSR KP MK birinchi kotibi lavozimlarida ishladi.

Sh. Rashidov Respublikamizga deyarli chorak asr rahbarlik qildi. U ittifoq rahbariyatining imperiyacha hatti-harakatlari tufayli yetkazilayotgan zararni eng kam miqdorga tushirishga intildi, respublika uchun zarur mablag'lar va moddiy resurslarni undirishga harakat qildi. Ko'pgina muhim obyektlar (qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, suv inshootlari qurish. Toshkent zilzilasi (1966-yil) oqibatlarini tugatish va shaharni qayta qurish, Toshkent metropoliteni qurilishini yo'lga qo'yish va h.k.) qurilishi, O'zbekistonning ko'p qirrali salohiyati va rivojlanishi uning nomi bilan bog'liqdir.

Sh. Rashidov “G’oliblar” (1951), “Kashmir qo’shig’i” (1956), “Qalb amri bilan” (1982) qissalari, “Bo’rondan kuchli” (1958), “Qudratli to’lqin” (1964) romanlari, bir qancha publitsistik kitoblari va boshqa asarlar muallifidir.

## **MAVZU: O‘ZBEKISTON DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI.**

**ADLIYA** (arabcha “adolat” so‘zidan) – sud muassasalarining butun majmui. Ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyati. Sud idorasi ma’nosida ham ishlatiladi.

**ADVOKATURA** (lotincha “advokatus” – yordamga chaqirmoq) – huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan.

**ALTERNATIV SAYLOV** (lotincha “alternare” – ikkitasidan bittasi) – muqobil saylov. Bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikkita nomzoddan birini tanlash.

Alternativlik hamma sohalarida: siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda va boshqa tarmoqlarda uchraydi.

Bir-birini inkor qiluvchi ikki imkoniyatdan birining tanlanishi, ayniqsa, siyosatda yaqqol ko‘rinadi. O‘zbekiston izchil demokratik qoidalarga sodiq davlat sifatida o‘z siyosiy hayotida barcha saylovlar alternativ (muqobillik) asosida o‘tishi tarafdori ekanini namoyish qilmoqda. Bu demokratik qoida, birinchi marotaba, keng MIKyosda 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash jarayonida amalga oshirildi.

**AMNISTIYA** (yunoncha “amnestia” – unitish, kechirish) – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish. Shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya’ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

**ANARXIYA** (yunoncha “anarchia” – boshliqsiz, hokimiyatsiz) – bir yoki bir necha shaxslar guruhining hokimiyatga bo‘ysunmasligi natijasida kelib chiqadigan tartibsizlik. Sobiq Sho‘rolar davlatida 80-yillarning oxirida ijtimoiy-siyosiy inqiroz natijasida xuddi shunga o‘xshash hokimiyatsizlik va boshboshdoqlik vujudga kelgan edi. 1989-yil iyul oyidan I.A. Karimov O‘zbekiston rahbari etib tayinlangach jamiyatimizdagi ana shu illatlarga asta-sekin barham berila boshlandi.

**APELLYATSIYA** (lotincha “appellatio” – murojaat, shikoyat) – sud yoki boshqa organlar qaroriga qarshi ulardan yuqori pag‘onada turuvchi organlarga paymol etilgan huquqlarini tiklash uchun murojaat qilish.

**AXBOROT ERKINLIGI** – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, so‘z, matbuot va boshqa axborotni olish va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning

to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo'l qo'yilmaydi (67-moddada).

**BILIM OLISH HUQUQI** – fuqarolarning ijtimoiy huquqi. Davlat tomonidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb qayd etilgan. Shunga asosan 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va qonunni hayotga tadbiiq etish uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham ishlab chiqilgan.

**BIR PALATALI PARLAMENT** – palatalarga bo'linishni istisno etuvchi umumxalq vakillik tashkiloti – parlament tuzilishi. Bunday parlamentlar "bir palatali" deb ham ataladi. Dunyodagi mamlakatlardan ko'pchiligi (60 % ga yaqini) bir palatali parlament tizimiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (1990-1994-yillarda) va Oliy Majlisi 1995-2004-yillar mobaynida bir palatali parlament shaklida faoliyat ko'rsatgan edi.

**DAVLAT GERBI** – davlatning rasmiy emblemasi bo'lgan farqlovchi belgisi. Bayroq, pul belgilari, muhrlar va ba'zi bir rasmiy hujjatlarda aks ettiriladi. Davlat gerbining mazmuni konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, Davlat gerbi Oliy Kengashning 1992-yil 2-iyul kuni bo'lgan X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish bilan tasdiqlangan.

**DAVLAT GIMNI** (yunoncha "hymnos" – madhiya, maqtov ashullasi, tantanali qo'shiq) – Vatanni, davlatni, tarixiy voqealarni, ularning qahramonlarini ulug'lovchi she'riy-musiqiy asar. Davlatning ramzlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi uning tasvirlanishi va rasmiy qo'llanilish tartibi qonun bilan belgilanadi. "O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida" gi qonuni 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

**DAVLAT MUSTAQILLIGI RAMZLARI** – davlatning timsollari, uning suverenitetini, milliy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, siyosiy-ijtimoiy tuzumini, asosiy mafkura va hayot qoidalarini ko'rsatuvchi belgilar, eng muhim xujjatlar, g'oyalar va tushunchalar.

Davlat ramzi – bu mustaqil davlat belgisidir. U davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat gimni, mamlakat milliy valyutasi va mamlakat konstitutsiyasida o'z ifodasini topadi.

**DAVLAT TILI** – davlat aholisi ko'pchiligi yoki asosiy qismining ushbu davlatda Konstitutsiya asosida davlat tili sifatida belgilangan tili. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 4-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'zbek tili davlat tilidir. Davlat tili O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlarida, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida, davlat muassasalarida asosiy til sifatida ishlatiladi. Davlat tilidan foydalanish va uni qo'llash tartibi 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan va 1995-yil 21-dekabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.



**DAVLAT CHEGARASI** – davlat mustaqilligining zaruriy belgilaridan biri. Har qanday davlat o'z hududiy chegarasiga egadir. Davlat hududining boshqa davlat hududi bilan tutash chizig'i davlat chegarasi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi beshta mustaqil davlat Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari bilan chegaradoshdir.

Davlatimiz hududi chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi. Jumladan, Afg'oniston bilan chegara 137 km, Qozog'iston bilan 2203 km, Qirg'iziston bilan 1099 km, Tojikiston bilan 1161 km, Turkmaniston bilan 1621 km dan iborat.

Konstitutsiyamizning 3-moddasida O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir deb qayd etilgan.

O'zbekiston davlat chegarasini qo'riqlash vazifasini Respublika chegara qo'shinlari amalga oshiradi.

**DE-FAKTO** (lotincha “de facto” – amalda mavjud bo'lish) – xalqaro huquqda yangi vujudga kelgan davlat yoki hukumatning jahon hamjamiyati va davlatlar tomonidan tan olinishi. Bu davlat va hukumat e'tirofining rasmiy lekin tugallanmagan, to'liq bo'lmagan tan olinishi. Bunday e'tirof odatda vaqtincha xususiyatga ega bo'lib, de-yure – e'tirof etishga o'tish bosqichidir.

**DEKLARATSIYA** (fransuzcha “deklaration” – bayonot) – alohida siyosiy-yuridik hujjatlarning ularga tantanali xususiyat berish, ularning tegishli davlat taqdiri uchun katta ahamiyatini ta'kidlash maqsadiga ega bo'lgan nomi. Normativ-huquqiy hujjat bo'lmish deklaratsiyaning o'ziga xos jihati shundaki, ulardagi qoidalar umumiy va nomuayyan xususiyatga ega bo'lib, qo'shimcha ravishda qonun bilan tartibga solishni talab etadi.

Xalqaro huquqda esa deklaratsiya – tomonlar bilan kelishilgan qoidalar va maqsadlarni ifodalovchi tantanali hujjat. Majburiy xususiyatga ega emas. Odatga aylanganligi sababli davlatlar uchun majburiy bo'lib qolgan 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bundan mustasno.

**DEMOKRATIYA** (yunoncha “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati. Jamiyat taraqqiyotida davlatchilikning turli shakllari, binobarin, demokratiyaning ham turli tiplari yaratilgan. Insoniyat tarixida demokratiyaning boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham yo'q. Kishilik jamiyati paydo bo'lganidanoq, demokratiyaning kurtaklari paydo bo'lgan va xatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham u o'zining so'nggi cho'qqisiga erishganicha yo'q. Demokratiyani bo'g'ish, unga rahna solish mumkin, lekin butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Har qanday davrning, har qanday jamiyatning va har qanday xalqning o'ziga xos demokratiyasi bo'ladi.

Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki, unda xalq hokimiyati, ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'syunish qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar asosiy qonun – Konstitutsiyada aks ettiriladi.

**DENONSATSIYA** – biror bir xalqaro shartnoma yoki davlatlararo kelishuvdan bir tomonlama voz kechish yoki uni mamlakat hududida bekor qilish.

**DEPUTAT** – davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakili. U saylov yo'li bilan saylanib, xalqdan tegishli organlarda ish olib borish uchun

vakolat oladi. Deputat ma'lum muddatga saylanadi. Respublikamizda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga deputatlar besh yil muddatga saylanadilar. Oliy Majlis deputatligiga 25 yoshga, mahalliy kengash deputatligiga 23 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanadilar. Deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalar, vakillik hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan ko'rsatiladilar.

**DE-YURE** (lotincha "de jure" – yuridik, qonunga muvofiq) – yangi vujudga kelgan davlat yoki hukumatni tan olish bilan birga, bu davlat yoki hukumat bilan rasmiy jihatdan va huquqiy asoslarda munosabatlarni yo'lga qo'yish.

**FUQAROLIK** – shaxsning biron bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishiligidini bildiruvchi atama. Muayyan davlatning fuqarosi ushbu davlat hududidagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan o'z huquqiy mavqeiga ko'ra farq qiladi. Chunonchi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan siyosiy huquq va erkinliklar faqat fuqarolarga tegishlidir. Demak, shaxs fuqarolikni olishi bilan ushbu davlatdagi siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatini ham oladi.

**HOKIM** – mustaqillik yillarida tashkil etilgan yangi lavozim. O'zbekistondagi mahalliy ma'muriyat boshlig'i. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hokimlar o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar chiqaradi.

Hokimlarning vakolat muddati 5 yil.

**HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT** – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng muhim mukammal shakli va mazmuni.

Huquqiy davlatning belgilari quyidagilardir:

-hokimiyatning barcha organlari faqat xalq irodasini ifodalaydigan qonunga bo'ysunadi;

-barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladilar;

-mamlakat qonunchiligida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan bo'ladi;

-fuqarolar davlat oldida javobgar bo'lganidek, davlatning ham fuqarolar oldida javobgar bo'lishi ta'minlanadi;

-huquqiy madaniyat yuqori darajada bo'ladi.

**IJTIMOY HUQUQLAR** -- insonga davlat va jamiyatdan muayyan moddiy yordam olishga imkon beruvchi va shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi huquqlar (ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam olish, uy-joy olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy-texnikaviy faoliyat

erkinligi). Inson va fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-42 moddalarida belgilab berilgan.

**IKKI PALATALI PARLAMENT** – umummilliy vakillik muassasasi – parlamentning tuzilishi. Bunda parlament odatda xar xil tarzda shakllantiriladigan va turli vakolatlarga ega bo'lgan ikkita palatadan iborat bo'ladi.

Ikki palatali parlament hozirgi vaqtda federativ davlatlarda ham, unitar davlatlarda ham mavjud. Parlamentning quyi palatasi doimo aholi tomonidan bevosita saylanadi. Yuqori palata turli mamlakatlarda turli usulda shakllantiriladi. U ba'zi mamlakatlarda bevosita saylov yoki bilvosita saylov orqali shakllantirilsa, ba'zan meros bo'yicha shakllantiriladi, yohud ularning a'zolarini davlat rahbari taynlaydi. Bir qator holatlarda yuqori palata aralash usulda shakllantiriladi: a'zolarining bir qismi saylanadi, bir qismi tayinlanadi. Ba'zi mamlakatlarda quyi palatadan farqli ravishda yuqori palata uchun vakolatlar muddati belgilanmagan, ularning tarkibi qismlab yangilanadi.

2002-yil 27-yanvarda O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimiga o'tish bo'yicha umumxalq so'rovi – referendum o'tkazildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 93 foizi ikki palatali parlament tizimini joriy qilishni yoqlab ovoz berdi.

2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar, 2005-yil 17-20-yanvarda esa Oliy Majlis yuqori palatasi – Senatga saylovlar bo'lib o'tdi.

2005-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining birinchi majlisi o'z ishini boshladi. O'zbekiston ikki palatali parlament tizimiga o'tdi.

**IJROIYA HOKIMIYATI** – hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiliga ko'ra, davlatdagi mustaqil ommaviy hokimiyatlardan biri.

O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Vazirlar Kengashi va tuman (shahar) hokimliklari ijroiya hokimiyati organlari hisoblanadi.

**INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKIL** – parlamentning O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonatashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning inson huquqlariga oid amaldagi qonunlarga rioya etilishi samaradorligini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil ko'pgina xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan institut – ombudsmanning o'zbekcha ko'rinishi. U birinchi bor "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi 1997-yil 24-aprel qonuni bilan joriy etilgan. Inson huquqlari bo'yicha vakil Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida deputatlar orasidan Oliy Majlis vakolati muddatiga saylanadi.

**INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI** – insonga bekamu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarida o'zining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maqom.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini shartli ravishda quyidagi uchta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin:

1) Shaxsiy huquq va erkinliklar (yashash, aybsiz deb hisoblash, shaxsiy dahlsizlik, turar joy dahlsizligi, erkin ko'chib yurish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, axborot olish, tarqatish, vijdon erkinligi va boshq.)

2) Siyosiy huquq va erkinliklar (saylash va saylanish, siyosiy faoliyat yuritish, siyosiy partiya, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish, namoyish va mitinglarda qonuniy asosda ishtirok etish, vakolatli davlat organlariga ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish va boshq.)

3) Ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar (mulkdor bo'lish, mehnat qilish, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, dam olish, nafaqa, ijtimoiy ta'minot, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy texnikaviy ijod erkinligi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish va hokazo).

**JAMIYAT** – odamlarning uyushgan ehtiyojlarini qondirilishini ta'minlovchi, ixtiloflarni bartaraf qiluvchi, madaniyatni saqlab rivojlantiruvchi, madaniyat majmuasi va uning qismlari asosida tashkil topgan ijtimoiy hayot shakllarining sintezi, turli ijtimoiy guruhlarni, tabaqalarni, shaxslarni, oilalarning bir-biriga zid manfaatlarini birlashtiruvchi, ularning munosabatlarini belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarning umumiy shaklini yaratuvchi, turli tashkilot va muassasalarning yig'indisi.

**JAMOAT BIRLASHMALARI** – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan, qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari. Jamoat birlashmalari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-noyabrda "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunda rivojlantirilib, uning 1-moddasida jamoat birlashmalari deb, o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning hohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmaga aytiladi.

**JO'QORG'I KENGES** – Qoraqalpog'iston Respublikasining bir palatali qonun chiqaruvchi organi nomi. Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 75 nafar deputatdan iborat. Jo'qorg'i Kenges o'z faoliyatini bir yilda kamida bir marta chaqiriladigan sessiyalar ko'rinishida olib boradi.

**KONSTITUTSIYA** – davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilish tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonun.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda, Oliy Kengashning XII chaqiriq 11-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, unga 2003-yil 24-aprel, 2007-yil 11-aprel, 2008-yil 25-dekabr, 2011-yil 18-aprel, 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan qonunlar asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Konstitutsiyamiz muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

Asosiy Qonun oldidan muqaddima beriladi, unda qabul qilingan Konstitutsiya xalq irodasi ifodalanishi natijasi ekanligi, xalqimizning o'z taqdirini o'zi belgilashga, birlik va teng huquqlikka intilishi bayon etilgan

Birinci bo'limda konstitutsiyaviy tizimning asosiy prinsiplari jamlangan. Ikkinchi bo'limda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi mustahkamlangan. Uchinchi bo'lim fuqarolik jamiyati qurilishining huquqiy asoslarini o'zida aks ettiradi. To'rtinchi bo'lim davlat va ma'muriy hududiy tuzilishga bag'ishlangan. Beshinchi bo'lim hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi asosida qurilgan davlat hokimiyatining yangi tizimini mustahkamlaydi, oliy va mahalliy davlat hokimiyati idoralari tuzilishini ochib beradi. Oltinchi bo'lim Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibini o'z ichiga oladi.

**KORRUPSIYA** (lotincha "sorruptio" – pora berib sotib olish) – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat.

**KO'PPARTIYAVIYLIK** – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvi darajasining muhim poydevor ko'rsatkichi. Ko'ppartiyaaviylikning o'ziga xos belgisi, bu – siyosiy xilma-xillik, jamiyatda bir necha siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament, davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini-o'zi boshqarish uyushmalari orqali ifoda etish, hamda ro'yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmasidir.

Partiyalar o'z dastur va siyosatlarini jamiyatga taklif etish orqali ularni ro'yobga chiqarishga harakat qiladilar va hokimiyat uchun kurash olib boradilar. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy peshqadam a'zolari sifatida namoyon bo'ladilar.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan buyon ko'ppartiyaaviylikning to'laqonli harakat qilishi, jamiyatda turli siyosiy partiyalar faoliyati uchun huquqiy makon asoslari yaratildi va bu harakat davom ettirilmoqda.

**LEGALIZATSIYA (LEGALLASHTIRISH)** (lotincha "legalis" – qonuniy) – biron bir tashkilotning faoliyatini qonuniylashtirish, biron bir hujjatga, harakatga yuridik – qonuniy kuch berish.

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI** – viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari doirasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida va 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda belgilab berilgan.

**MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISH VAKILLIK ORGANLARI** – mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etishda saylov orqali shakllantiriladigan organ. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga asosan, fuqarolar yig'ini – fuqarolar o'zini o'zi boshqarishning yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga egadir. Fuqarolar yig'inida o'n sakkiz yoshga

to'lgan hamda shahar, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadilar.

**MATBUOT ERKINLIGI** – fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan siyosiy huquqlaridan biri bo'lib, matbuot erkinligi birinchi bo'lib 1789-yilgi fransuz inqilobida fuqaro va insonlarning huquqlari Deklaratsiyasida e'lon qilingan edi. Matbuot erkinligi har qanday matbuot mahsulotlarini (gazeta, jurnal va hakoza) erkin nashr qilish va tarqatishni ko'zda tutadi.

**MILLIY VALYUTA** – mamlakatimiz hududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarini ifodalash vazifasini o'tovchi va qonuniy himoyalangan yagona to'lov vositasi.

1994-yil 1-iyuldan boshlab, O'zbekiston hududida yagona to'lov vositasi sifatida "so'm" muomalaga kiritildi.

O'zbekistonning o'z milliy valyutasiga ega bo'lishi va "so'm" tizimining iqtisodiyotning barcha sohalariga kiritilishi – mustaqilligimizning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'ldi. Har qanday milliy valyutada kuzatiladigan inflyatsiya bizning valyutamizda ham kuzatilsa-da, bu iqtisodiy me'yorlar darajasida bo'lib, xatto bu jahonning ko'pchilik mamlakatiarida kuzatiladigan inflyatsiya darajasidan ancha kam hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston hukumati iqtisodiy islohotlari samaradorligining muhim ko'rsatkichidir.

**"MUSTAQILLIK DEKLARATSIYASI"** – O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri. "Mustaqillik deklaratsiyasi" 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan bo'lib, 12 banddan iborat. Ushbu tarixiy xujjatda o'zbek xalqining davlat qurilishi tarixi, tajribasi, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi asosida davlat mustaqilligi ilk bor e'lon qilingan edi.

**OLIJ MAJLIS** – O'zbekiston Respublikasining Oliy Qonun chiqaruvchi organi.

Oliy Majlis 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan va unga birinchi saylov 1994-yil 25-dekabrda bo'lib o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan iborat.

Oliy Majlis Senati a'zolari 100 nafar bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlisida deputatlar orasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan saylanadi. Senatning qolgan 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII bob, 76-88-moddalarida belgilab berilgan.

**OMBUDSMAN** – inson huquqlarining amal qilishini nazorat qiluvchi muassasalarning xalqaro yuridik atamashunoslikdagi nomi. Bu shvedcha soʻz boʻlib, kimningdir manfaatini ifodalovchi, degan maʼnoni anglatadi. Ombudsman ayrim mamlakatlarda saylanadigan, ayrim mamlakatlarda tayinlanadigan shaxs boʻlib, u inson huquqlariga amal qilishni nazorat qiladi. Agar prokuratura organlari inson huquqlariga amal qilishni faqat qonun asosida nazorat qilsa, Ombudsmanlar bu masalani maqsadga muvofiqlik, vijdonlilik, adolat nuqtai nazaridan nazorat qiladi.

Aksariyat mamlakatlarda Ombudsmanlarga har qanday fuqarolar bevosita murojaat qilishlari mumkin. Ular huquq va erkinliklar buzilishini aniqlasa, tegishli idoralarga huquq va erkinliklarni tiklash haqida taklif kiritadi. Ombudsmanlarning taklif va tavsiyalari tegishli organlar tomonidan bajarilmasa, rad etilsa ular sud organlariga yoki parlamentga murojaat qilishlari mumkin.

Ombudsman instituti ilk bor 1809-yilda Shvetsiyada joriy qilingan boʻlib, Oʻzbekistonda Ombudsman (Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari boʻyicha Vakil Instituti deb yuritiladi) 1995-yil 24-fevralda tashkil etildi. “Inson huquqlari boʻyicha Oliy Majlis vakili – Ombudsman toʻgʻrisida”gi qonun esa 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan.

**OPPOZITSIYA** (lotincha “oppositio” – qarshisiga qoʻyish, taqqoslab koʻrish) – nimagadir yoki kimgadir qarshi harakat. Siyosatda: 1) Oʻz siyosatini boshqa, odatda, rasmiy siyosatga qarshi qoʻyish; 2) Qonun chiqaruvchi, mafkuraviy yoki boshqa tizimlardagi hukmron yoki koʻpchilik tan olgan fikrga qarshi chiqish. Oppozitsiyaning quyidagi turlari mavjud: moʻtadil, radikal, loyol (kelishuvga va hokimiyatni qoʻllab-quvvatlashga tayyor), konstruktiv (sermazmun, ishbilarmon takliflarni ifodalovchi), destruktiv (qoʻporuvchi).

**PARLAMENT** (fransuzcha “parler” – soʻzlashmoq, gapirmoq) – qonun chiqaruvchi organ. Parlament ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarga yoyildi.

Parlament qonun boʻyicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat boʻlib, hududiy saylov okruglari boʻyicha, odatda, koʻppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga toʻlgan fuqarolardan saylanadi. Parlament turli davlatlarda turlicha nomlanadi. Rossiyada Davlat Dumasi, Ukrainada Rada, Serbiyada Skupshina, Shvetsiyada Rikstag, AQSHda Kongress, Isroilda Knesset, Moʻgʻulistonda Xalq Xurali, Afgʻonistonda Xalq Jirgʻasi, Ozarbayjonda Milliy Majlis, Oʻzbekistonda esa Oliy Majlis (1925-1989-yillarda Oliy Sovet, 1990-1994-yillarda Oliy Kengash deb yuritilgan).

**PLYURALIZM** (lotincha “pluralis” – koʻpchilik, xilma-xillik) – jamiyatda va siyosiy hayotda fikrlar, qarashlar hamda gʻoyalarning xilma xilligiga asoslanuvchi demokratik jamiyat belgilaridan biri. Plyuralizm boʻlmagan jamiyatda demokratiyaning tarkib topish jarayoni ham qiyin kechadi. Plyuralizm siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun oʻzaro raqobatida va saylovlarda muxolifatning mavjudligida koʻproq nomoyon boʻladi. Tom maʼnoda plyuralizm demokratiyani harakatga keltirib turuvchi omildir.

**PREZIDENT** (lotincha “praesidens” – oldinda oʻtiruvchi) – Respublika boshqaruvi shaklidagi davlatlarda davlat va hukumat rahbari. Odatda Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshligʻi hisoblanib, davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq

nomidan ish yuritadi. Jahonda birinchi prezidentlik boshqaruvi XVIII asr oxirida AQSHda joriy qilingan. O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi ilk bor 1990-yil 24-martda joriy qilingan bo'lib, O'zbekiston Prezidenti butun O'zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov prinsipi asosida saylanadi.

**PROKURATURA** (lotincha "procurate" – g'amxo'rlik qilish) – davlat tizimidagi mavjud jinoyat ishlarini qo'zg'atuvchi, ayblovchi va sud jarayonida davlat nomidan ayblov olib borish vakolatiga ega bo'lgan organ (tizim). Ba'zi davlatlarda bu organ vakolatiga qonunlarga og'ishmay amal qilishni umumiy nazorat qilish ham kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari mamlakatimiz hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil xolda, faqat qonunga bo'ysunib bajaradi. Prokuratura idoralari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini, davlat, jamoat hamda boshqa tashkilotlarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Bosh prokurori boshchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etadi. Keyinchalik bu masalani Oliy Majlis Senatining tasdig'iga kiritadi.

Viloyatlar prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi. Prokurorlarning vakolat muddati 5 yil.

**RATIFIKATSIYA** – (lotincha "ratus" – yechimini topgan, tasdiqlangan, "facere" – qilmoq, bajarmoq) – davlat rahbari (prezidenti) yoki hukumati (vazir, ministri) tomonidan imzolangan biror bir xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning mamlakat oliy davlat organi (parlamenti) tomonidan tasdiqlanishi.

**REFERENDUM** (lotincha "referendum" – e'lon qilinishi lozim bo'lgan xabar) – jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlardan biri. Ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovozig'a, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etish.

O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, u 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi qonuni bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasida referendum ilk bor 1991-yil 29-dekabrda "Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?", ikkinchi marotaba esa 1995-yil 26-martda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatini 1997-yildan 2000-yilga qadar uzaytirishga rozimisiz?" va 2002-yil 27-yanvarda "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ikki palatali qilib belgilanishiga rozimisiz?", hamda "Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirilishiga rozimisiz?" kabi mavzularda umumxalq referendumlari o'tkazilgan.

**RESPUBLIKA** (lotincha "res" – ish, "publicus" – xalq, jamoatchilik) – davlat boshqarish usullaridan biri bo'lib, bunda davlat organlari xalq tomonidan saylab qo'yish orqali shakllantiriladi. Hozirgi vaqtda dunyoda 230 ga yaqin davlat mavjud bo'lsa, shulardan yarmi respublika shaklida boshqariladi.



**SENZURA** (lotincha “sensura” – davlat nazorati) – hokimiyat tomonidan zararli deb topilgan g’oyalar va ma’lumotlarning tarqalishiga yo’l qo’ymaslik yoki cheklab qo’yish maqsadida bosma mahsulotlar, sahna asarlari va hokazolar mazmun-mundarijasi ustidan nazorat o’rnatish.

O’z vazifasiga ko’ra senzura bevosita yoki bilvosita bo’lishi mumkin. Bilvosita senzura jahonning barcha mamlakatlarida mavjud. U axborot yaratuvchilarga turli (eng avvalo iqtisodiy vositalar orqali) ta’sir ko’rsatishda o’z ifodasini topadi. Bilvosita senzuraning turlaridan biri o’z-o’zini senzura qilishdir, ya’ni axborot yaratuvchining o’zi sensor bo’ladi.

Bevosita senzura axborot yaratish va tarqatish jarayoniga maxsus davlat idorasining ochiqdan-ochiq aralashuvini bildiradi. Bunday idoralarning vakolati davlat sirini oshkor qilmaslikni nazorat qilish bilan asoslantiriladi, urushni targ’ib qilish, parnografiya tarqatish kabilarni ta’qiqlaydi, yoki hukmron tartibni hech bir tanqid qilmaslik uchun barcha mavjud axborotni qamrab oladi. Ayni shunday senzura zamonaviy davlatlarning ko’pchiligida Konstitutsiya tomonidan ta’qiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko’ra senzura yo’l qo’yilmaydi.

**SIYOSIY PARTIYA** – umumiy g’oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi tashkilot. Fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir biriga bog’lovchi eng muhim vositalardan, hozirgi zamon huquqiy-demokratik davlat hayotining zaruriy omillaridan biri.

Siyosiy partiya o’z maqsadlarini siyosiy-huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy qarashlari tizimini yaratadi va keng omma orasida tarqatadi. Jamiyat a’zolarini mumkin qadar keng qamrab, ular eng ma’qullangan partiyaga aylanishga intiladi, turli organlarga saylovlarda dolzarb shiorlarni o’rtaga tashlab, saylovchilarni o’z tomoniga og’dirish uchun kurashadi.

O’zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyati uchun barcha zaruriy qonuniy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bugungi kunda O’zbekistonda quyidagi partiyalar faoliyat yuritmoqdalar:

- 1) Xalq Demokratik Partiyasi (XDP) (1991-yil 1-noyabrda tashkil etilgan).
- 2) “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995-yil 18-fevralda tashkil etilgan)
- 3) Milliy tiklanish demokratik partiyasi (1995-yil 3-iyunda tashkil topgan).
- 4) O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan).

**SIYOSIY TIZIM** – davlat ichki tuzilishidagi o’zaro munosabatlarning xususiyatlarini ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni, umuman, davlat muassasalari tizimini va ularning asosiy tashkiliy shakllarini belgilab beradi. Siyosiy tizim, odatda, mamlakat Konstitutsiyasi va shu asosda chiqarilgan boshqa qonuniy hujjatlarda mustahkamlab qo’yiladi.

O’zbekistonda siyosiy tizim hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo’linishi tamoyili asosida tuzilgan. Alohida tarmoqlarni boshqarish vaziriiklar, davlat qo’mitalari va konsernlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari viloyat, Toshkent shahar, shaharlar va tumanlarning xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardan iborat.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi hozirgi davrdagi ilg'or davlatlarning tajribasini, xalqimizning tarixiy an'analari va mukammal jamiyat to'g'risidagi orzu-umidlarini, mutafakkirlarimiz va jamiyatshunoslarning tavsiyalarini o'zida mujassamlashtirgan.

**SUVERENITET** (fransuzcha "souverainite" – oliy hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlatiladi:

1) Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suvereniteti masalasiga alohida bob ajratilgan bo'lib, uning 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" deyilgan.

2) Xalq suvereniteti – xalqning davlatni boshqarishdagi to'la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma'nolarini anglatadi.

**TOLERANTLIK** (lotincha "tolerantia" – chidam) – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag'rikenglik.

Tolerantlik, bu – har xil e'tiqodlarga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor, hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

**VAZIRLAR MAHKAMASI** – ba'zi davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda hukumat – ijro etuvchi hokimiyatning nomi. Konstitutsiyamizning XX-bobi, 98-moddasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi muassasalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta'minlaydi.

2005-yilda Vazirlar Mahkamasi rahbari – Bosh vazir lavozimi joriy etildi. 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, ya'ni Vazirlar Mahkamasining raisi ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi. Vazirlar Mahkamasining raisi lavozimi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi.

Mustaqillik yillarida Vazirlar Mahkamasi tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. 1993-yil 6-mayda qabul qilingan. 1993-yil 29-avgustda yangi tahrirda joriy etilgan «Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, birinchi marta Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi 1995-yil 23-fevralda tasdiqlandi. Ikkinchi marta 2000-yil 11-fevralda, uchinchi marta 2005-yil 4-fevralda tasdiqlandi. To'rtinchi marta 2010-yil 12-martda Vazirlar Mahkamasi tarkibi quyidagi tartibda belgilandi: Vazirlar Mahkamasining a'zolari – 8 ta, vazirlar – 14 ta, davlat qo'mitalarining raislari – 9 ta.

#### **Vazirlar Mahkamasi a'zolari:**

- Bosh vazir.
- Bosh vazirning birinchi o'rinbosari.
- Bosh vazirning 6 nafar o'rinbosari.

### **Vazirliklar:**

1. Moliya vazirligi.
2. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi.
3. Iqtisodiyot vazirligi.
4. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.
5. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
6. Sog'liqni saqlash vazirligi.
7. Madaniyat va sport ishlari vazirligi.
8. Mudofaa vazirligi.
9. Ichki ishlar vazirligi.
10. Tashqi ishlar vazirligi.
11. Adliya vazirligi.
12. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
13. Xalq ta'limi vazirligi.
14. Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

### **Davlat qo'mitalari:**

1. Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi.
2. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi.
3. Davlat soliq qo'mitasi.
4. Davlat bojxona qo'mitasi.
5. Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi.
6. Davlat statistika qo'mitasi.
7. Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi.
8. Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi.
9. Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi.

**VAKILLIK ORGANLARI** – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari hisoblanadi. Vakillik organlari davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal etadilar.

**VAKILLIK HOKIMIYATI** – ma'lum bir muddatga xalq irodasini ifoda etuvchi parlamentga o'z vakillarini saylash, xalq manfaatlarini ifoda etish orqali hokimiyatni tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga asosan, Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi hisoblanadi va u qonun chiqaruvchilik hokimiyatni amalga oshiradi.

**VIJDON ERKINLIGI** – insonning hojlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'kidlovchi, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yil 25-noyabrda qabul qilingan 36-55-rezolyutsiyasida qayd qilingan insonning asosiy huquqlaridan biri. Mazkur huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd qilingan va 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy

tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsion tuzum asoslariga qarshi qaratilgan harakatlar man etiladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI** – O'zbekiston Respublikasi hududi 447,8 ming km. kv. ni tashkil etadi. Mazkur hududda 12 viloyat. 174 tuman, jumladan, 19 shahar tumanlari, 124 shahar, 97 ta shaharcha, 1214 qishloq, 101 ovul mavjud. Viloyatlarga bo'ysunuvchi shaharlar soni 50 ta, 65 shahar tumanlarga bo'ysunadi. Qoraqalpog'iston respublikasiga bo'ysunuvchi shaharlar soni 8 ta.

Viloyatlar	Tashkil etilgan yili	Hududi	Aholisi ming kishi	Tumanlar soni	Markazi
Buxoro	1938 y. 15 yanvar	40,3	1385,3	11	Buxoro
Samarqand	1938 y. 15 yanvar	16,8	2595,4	16	Samarqand
Toshkent	1938 y. 15 yanvar	15,6	4455,1	15	Toshkent
Farg'ona	1938 y. 15 yanvar	6,8	2597,7	15	Farg'ona
Xorazm	1938 y. 15 yanvar	6,1	1278,9	10	Urganch
Andijon	1941 y. 6 mart	4,2	2121	15	Andijon
Namangan	1941 y. 6 mart	7,44	1863,9	11	Namangan
Surxondaryo	1941 y. 6 mart	20,1	1670,4	14	Termiz
Qashqadaryo	1943 y. 20 yanvar	28,6	2079,1	14	Qarshi
Sirdaryo	1963 y. 16 fevral	5	652,1	9	Guliston
Jizzax	1973 y. 29 dekabr	20,5	928,3	11	Jizzax
Navoiy	1982 y. 20 aprel	111	771,1	8	Navoiy
Qoraqalpog'iston	1925 y. 16 fevral	166,6	1462,3	15	Nukus
O'zbekiston Respublikasi	1925 y. 13 fevral	447,8	27 mln		Toshkent

**SHARQONA DEMOKRATIYA** – Sharq mamlakatlarida, ya'ni aholisining aksariyat qismi ko'proq musulmon ma'naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo'lgan demokratik qoidalar majmuining o'ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo'lishi. Sharqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada tomonlarning kelishuvlariga asoslangan faoliyatidir. Sharqona demokratiya siyosiy tartibsizliklar, bosh-boshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlariga zid deb qaraydi, har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralaydi.

Sharqona demokratiya ham plyuralizm, alternativ jarayon, har bir shaxs yoki guruh manfaatlarini himoya etishni o'z faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri deb hisoblaydi.

**MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY ISLOHOTLAR.**

**AKSIONER JAMIYAT** – turli korxonalar, tashkilot, bank, kompaniya va ayrim shaxslar pul mablag'larini sherikchilik asosida va sohibkorlik maqsadida

birlashtiradigan jamiyat. Muomalaga nominal qiymati ko'rsatilgan aksiyalar chiqarish va uni sotish bunday jamiyatning moliyaviy negizini tashkil etadi. Aksiya egalari dividend shaklida daromad oladilar. Aksionerlik jamiyatining ochiq va yopiq ko'rinishlari bor. Yopiq aksioner jamiyat aksiyalari faqat uning ta'asischilari o'rtasida taqsimlanadi. Ochiq aksioner jamiyat aksiyalari erkin sotiladi va sotib olinadi.

**AKSIYA** (nemischa "aktie" – qimmatli qog'oz) – aksioner jamiyat chiqargan qimmatli qog'oz. Aksiya egasining shu jamiyat mablag'iga qo'shgan hissasini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend (foйда, daromad) tariqasida olishini, uni boshqarib turishda qatnasha olishini tasdiqlaydi. Aksiya qimmatli qog'ozlar bozorida oldi-sotdi qilinadi. Aksiya qiymati aksiyada qayd qilingan pul miqdoridir.

**ANTIMONOPOL SIYOSAT** – iqtisodiyotni monopoliya (yakka hukmronlik)dan xalos etish va monopoliyalarni cheklab qo'yishga yo'naltirilgan davlat siyosati. Antimonopol siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirish va shu orqali tovarlar narxini tushirishdir.

**AUKSION** – maxsus kimoshdi savdo bozori, tovarlarni talabgor xaridorlarga sotish usuli. Aukcion savdo tovarlarining nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha o'tkaziladi. Xaridorlar savdo boshlanguniga qadar aukcion omborlariga qo'yilgan tovar va uning namunasi (lot) bilan tanishadilar. Xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgani tovarni sotib oladi.

Har qanday aukcionlarning umumiy sharti – sotuvchi namoyishga qo'yilgan tovarlar sifatiga mas'ul hisoblanmaydi.

**BANK** – pul mablag'larini o'zida saqlovchi, kredit (qarz, ssuda) beruvchi, pul hisobotlarini, pul chiqarishni (emissiya), qimmatli qog'ozlar (banknotlar, cheklar, veksellar) chiqarishni amalga oshiruvchi va davlatlar, korxonalar, muassasalar va alohida shaxslar orasida o'zaro to'lovlarni va hisob-kitobni amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaruvchi maxsus iqtisodiy institut.

**BARREL** (ingilizcha "barrel" – bochka) – sig'im va hajm o'lchov birligi. AQSHda bir quruq barrel 115,628 ditsimetr kubni, neft barreli 158,988 ditsimetr kubni tashkil etadi. Xalqaro neft savdosida 1 barrel neft 159 litrga teng.

**BARTER** – pulsiz bevosita tovar ayiriblashish. Ko'proq rivojlanmagan tovar munosabatlari davri uchun xos bo'lgan kelishuv.

**BIRJA** (nemischa "bo'rse" – hamyon) – bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli. Tovarlar birjasi, qimmatbaho qog'ozlar (fond) birjasi, valyuta birjasi, tovar bo'lgan "ish kuchi" oldi-sotdisi (mehnat birjasi) kabi turlari mavjud. Birjada brokerlar (dallollar), dilerlar (olib-sotuvchi savdogar), treyderlar (brokerning vakili) faoliyat ko'rsatadi.

**BIZNES** (inglizcha "business" – faoliyat, mashg'ulot) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan ho'jalik faoliyati; sohibkorlik-tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish. Biznes tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir. Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi. Yirik biznesga asosan ishlab chiqarishda 500 dan ortiq kishi band bo'lgan, o'rta

biznesda 20-500 kishi band bo'lgan korxonaga va firmalar, mayda biznesga 10-20 va undan kam kishi ishlaydigan korxonalar kiradi.

**BOZOR IQTISODIYOTI** – ko'pchilik xalqlarga manzur bo'lgan va ular kelajagini ta'minlovchi hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyot. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatda erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish mexanizmi bor. U iqtisodiy stimullarga, ya'ni kishilarning to'q va xotirjam yashash, obro'-e'tiborga ega bo'lish, hayotda o'z o'rmini topish kabi manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi. Bozor mexanizmi iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmidir. Bozor iqtisodiyotiga xos belgilardan biri erkin, ya'ni liberallashtirilgan narxlarning bo'lishi va hamisha narxni hisobga olib, foyda-zararni nazarda tutgan holda ishlashdir.

Bozor iqtisodiyotida daromadlarning yuqori chegarasi belgilab qo'yilmaydi, bu esa kishilarda pul topish ishtiyoqini kuchaytirib, ishlab chiqarishga rag'bat beradi. Boy kishilar ibrat bo'lib xizmat qiladi, boylikka havas uyg'onib, kishilarda boy bo'lishga intilishni kuchaytiradi. iqtisodiy faollik va taraqqiyotni ta'minlaydi.

**BROKER (MAKLER)** – fond, tovar, valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik) qiladigan ayrim shaxs yoki firma.

**BYUDJET** (ingilizcha "budget" – xalta) – davlatning ma'lum muddatga mo'ljallab tuzilgan va qonun bilan tasdiqlangan daromadlari va xarajatlari hisobi bandlar bo'yicha taqsimlangan xujjat. Xarajat qismining daromad qismidan ortiq bo'lishi byudjet taqchilligi deb yuritiladi.

**GRANT** – ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan buyurtma.

**DEBITOR** (lotincha "debitor" – qarzdor) – korxonaga, tashkilot yohud mahkamadan pul yoki mulk qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**DEHQON (FERMER) XO'JALIGI** – oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer maydonida qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiradigan va uni realizatsiya qiladigan oilaviy tovar xo'jaligi. Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi. Dehqon xo'jaligi dehqon xo'jaligi a'zolarining qaroriga binoan; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan tugatiladi.

**DIVERSIFIKATSIYA** (lotincha "diversus" – turlicha, "facere" – qilmoq) – har tomonlama kengayish, qo'shimcha tarmoq yaratish, tarmoqlar sonini oshirish. Ya'ni mavjud iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, korxonaning ilgari tovarlariga o'xshash yoki ilgari ishlab chiqargan maxsulot xiliga texnologik aloqasi bo'lmagan yangi maxsulotlarni ishlab chiqarishga o'tish.

**DIVIDENT** (lotincha "dividendus" – taqsimlanadigan narsa) – aksioner jamiyat foydasining aksiya egasiga tegadigan, binobarin, uning daromadiga aylangan qismi. Har yili foyda aksionerlar o'rtasida (sohiqlar to'planib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mablag' ajratilganidan so'ng) ularning qo'lidagi aksiya miqdori va turiga qarab dividend taqsimlanadi.

**INFLYATSIYA** (lotincha "inflatio" – bo'rish, shishish, qappayish) – narxnavo umumiy darajasining oshishi, real tovarlar takliflariga nisbatan pul massasi ortib, pulning qadr-qimmatini va xarid qobiliyatini pasayib ketishi. Iqtisodda vujudga

keladigan muammolar pul bosib chiqarishni ko'paytirish orqali hal qilinsa yoki qog'oz pullar hajmi o'zgarmagan holda tovar hajmi kamaysa inflyatsiya yuz beradi.

**INFRASTRUKTURA** (lotincha "infra" – quyi, "structura" - tuzilish, joylashuv) – xalq xo'jaligi faoliyatini ta'minlash uchun turli-tuman xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kompleksi: transport, aloqa, savdo, moddiy-texnika ta'minoti, suv bilan ta'minlash, fan, maorif, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Asosiy ishlab chiqarish infrastrukturasi – elektr ta'minoti, transport, yo'l, ombor xo'jaligi va aloqa tarmoqlari hisoblanadi.

**INTEGRATSIYA** (lotincha "integratio" – qayta tiklash, to'lg'azmoq, "integer" – yaxlit, bir butun) – biron bir yagona maqsadni amalga oshirish uchun birlashish. Mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqa va xalqaro MIKYoosda o'zaro birlashib, yaxlit xo'jalik xolatini tashkil etishi.

Integratsiya siyosiy va iqtisodiy yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayoni.

Mustaqillikka erishgan har qanday davlat o'zaro hamkorlik va tenglik asosida ixtiyoriy integratsiyaning yangi shakllari va yo'larini yarata boshlaydi. Jumladan, O'zbekiston ham O'rta Osiyo davlatlari, MDH doirasidagina emas, balki boshqa uzoq Sharq va G'arb mamlakatlari bilan ham iqtisodiy-siyosiy aloqalar o'rnatib, asta-sekin bu aloqalarni kengaytirib, mustahkamlab bormoqda.

**INTELLEKTUAL MULK** – aqliy mulk, ijodiy-aqliy mehnat mahsuli. Fan, adabiyot, san'at asarlari va ishlab chiqarish sohasida ijobiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, informatsion texnologiyalar uchun dasturlar va boshqa aqliy mulk obyektlari kiradi.

**INTENSIV** – jadal; tez; qizg'in; shiddatli; serunum; serhosil. Iqtisodiyotda xo'jalikning miqdor emas, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'sishi.

**INVESTITSIYA** (nemischa "investition" – kiyintirmoq, yasantirmoq) – mablag'ni, ma'lum boylikni qo'shimcha daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki boshqa sohaga joylashtirish. Mablag' sarflash.

Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar turlariga qo'shiladigan barcha moddiy hamda nomoddiy boyliklar investitsiya hisoblanadi. Bu boyliklar pul vositalari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar; ko'char va ko'chmas mulklar (binolar, inshootlar, uskunalar); mualliflik huquqidan kelib chiqadigan mulkiy va nomulkiy huquqlar va boshqa intellektual huquqlar bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik ishining rivoji investitsiyani talab qiladi. Investitsiya bironta ishga mablag' qo'yishni, sarflashni bildiradi. Investitsiya qilishdan maqsad foyda ko'rishdir. Investitsiya keng ma'noda pul chiqadigan har qanday ishga mablag' qo'yish, tor ma'noda ishlab chiqarishning moddiy bazasini rivojlantirishdir. Investitsiya ba'zan kapital mablag'lar yoki kapital sarflar deb ham yuritiladi.

**IPOTEKA** (yunoncha "hypotheke" – garov) – ssuda, qarz olish maqsadida ko'chmas mulk (yer, imorat)ni garovga qo'yish. Qishloq xo'jaligida va sanoatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus ipoteka banklari tashkil etiladi.

**JAHON BOZORI** – xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish orqali bir biriga bogʻlangan mamlakatlar oʻrtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari. Jahon bozori XVI asrdan boshlab shakllana boshlangan va XX asr boshlariga kelib bu jarayon tugallangan. Umuminsoniy iqtisodiy aloqalarning mavjudligi jahon bozoriga barqarorlik bahsh etadi. Jahon bozorida ayirboshlash xalqaro narxlarda va xalqaro valyuta vositasida amalga oshiriladi.

**KAPITAL** (lotincha “capitalis” – eng muhim, asosiy, bosh) – oʻz egasiga daromad keltiruvchi mablagʻ va vosita. Yangi qiymat keltiradigan, yaʼni oʻzini-oʻzi koʻpaytiruvchi qiymat. U ishlab chiqarish vositalarining egasiga ish kuchini yollash orqali qoʻshimcha daromad keltiradi va uni boyitadi. Ishbilarmon ixtiyoridagi mablagʻlar ham kapital (sarmoya) deb ataladi.

**KONSERN** – ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish funksiyalarini markazlashtirish asosida hamkorlikda faoliyat koʻrsatadigan, shuningdek, investitsiyaviy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan, korxonalariga xoʻjalik hisobida xizmat koʻrsatishni tashkil etadigan korxonalarining koʻngilli birlashmasi. Konsern tarkibiga kirgan korxonalar va tashkilotlar orasida oʻzaro korporatsiyalashgan turgʻun aloqalar mavjud boʻlib, ular konsern rivoji yoʻlida umumiy-moliyaviy resurslardan, yagona ilmiy-texnik imkoniyatlardan mushtarak foydalanadilar. Konsern qoidaga koʻra, ishlab chiqarish belgilariga qarab tuziladi va yagona xoʻjalik majmuyi sanaladi. Respublikamizda „Oʻzsuvqurilish“ va „Qizilqumnodirmetallolitin“ davlat konsernlari, „Oʻzavtoyol“ va „Oʻzfarmasanoat“ davlat-aksiyadorlik konsernlari kabilar tashkil etildi va faoliyat koʻrsatmoqdalar.

**KONSESSIYA** (lotincha “concessio” – ruxsat, yon berish) – davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshqa obyektlarni xorijiy davlatlarga, kompaniyalarga va ayrim shaxslarga maʼlum muddatga foydalanishga berish.

**KONYUNKTURA** – ahvol. Biror sohada yuzaga kelgan ahvol, vaziyat, mavjud sharoit; xalqaro ahvol; siyosiy ahvol; siyosiy sharoit.

**KORPORATSIYA** – mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarining aksiyadorlik asosidagi koʻngilli birlashmasi. Korporatsiya tarkibiga kirgan korxonalar ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya orqali oʻzaro bogʻlanadilar. Shu bilan korporatsiya investitsiyaviy sarmoyaning jamlanishiga ham yordam beradi. Faoliyatining tijoriyligi, yaʼni foyda olishni maqsad qilib qoʻyishi, cheklangan javobgarlik, markaziy boshqaruv, aksiyadorning aksiya sarmoyasining oʻziga tegishli qismini erkin tasarruf etishi va boshqalar korporatsiyaga xos boʻlgan asosiy xususiyatlardir. Iqtisodiy islohotlar jarayonida respublikamizda „Oʻzbekpaxtamash“ va „Oʻzavtosanoat“ davlat korporatsiyalari, „Oʻzdonmahsulot“, „Oʻzavtotrans“, „Oʻzmahalliansanoat“ davlat aksiyadorlik korporatsiyalari va boshqalar tashkil etildi va faoliyat yuritmoqdalar.

**LIBERALIZATSIYA** – davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini cheklash. Bozorlarning va raqobatning ochilishi, bozorning amal qilishiga qoʻyilgan turli xil cheklashlarning olib tashlanishi, baholar, foizlarni maʼmuriy yoʻl bilan nazorat qilishning susayishi, markazlashgan holda dotatsiya berish, subsidiya shaklidagi kreditlarning kamayishi va shu kabilar.



**LITSENZIYA** (lotincha “licentia” – erkinlik, huquq) – maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra litsenziyalanishi lozim bo‘lgan faoliyat turi bilan muayyan muddat davomida shug‘ullanish uchun beriladigan ruxsat.

**LIZING** (lotincha “lizing” – bog‘layman) – ijaraga beruvchi shaxsning moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachi ko‘rsatgan mulkni (mashina, asbob-uskuna, transport, ombor kabilar) u ko‘rsatgan sotuvchidan sotib olishi va ijarachiga ushbu mulkni haq evaziga tadbirkorlik maqsadida egalik qilish va foydalanish uchun muayyan vaqtga berishi.

**LIKVIDLIK** – moddiy boyliklarni va boshqa aktivlarni tez sotish va moliya vositalariga aylantirish. Bank tizimida banklarning to‘lov qobiliyati. Ya‘ni bank tomonidan o‘z to‘lov majburiyatlarini vaqtda va to‘liq bajara olish qobiliyati.

**MAKRO VA MIKRO IQTISODIYOT** – iqtisodiyotning turli darajalaridagi holatini tahlil qilishda ishlatiladigan tushuncha. Mikro iqtisodiyot bu – ayrim korxonalar, xo‘jalik yoki oila doirasidagi iqtisod. Makro iqtisodiyot – butun jamiyat, umumdavlat va xalqaro MIKrosidagi yoki milliy iqtisod, turli sohalar, tarmoqlar majmuidan iborat.

**MARKETING** (inglizcha “market” – bozor, sotish, ayrboshlash) – firma (korxonalar) ishini bozor sharoitiga moslashtirishga qaratilgan maxsus faoliyat. Marketing ishi bozorni o‘rganish, narxlarni shakllantirish, bozor talablariga monand ravishda tovarlarni ishlab chiqarish, ularni vaqtda bozorga yetkazish, reklama qilish va xaridorlarga xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

**MENEJER** (inglizcha “manager” – boshqaruvchi) – korxonalar va qarz beruvchi tashkilot hamda uning quyi qatlamining boshqaruvchisi. Menejerlar maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning sir-asrorlarini, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis-boshqaruvchilar hisoblanadi.

**MILLIY KOMPANIYA** – noishlab chiqarish tarmoqlari, ijodiy jamoalar, transport, aloqa va telekommunikatsiya korxonalarini va tashkilotlarining paychilik yoki aksionerlik asosidagi ko‘ngilli birlashmasi. O‘zbekistonda tashkilot etilgan va faoliyat yuritayotgan Milliy kompaniyalar jumlasiga „O‘zbekturizm“ Milliy kompaniyasi, „O‘zbekiston havolar“ Milliy aviakompaniyasi va boshqalar kiradi.

**MONITORING** (lotincha “monitor” – ogohlantirish, tanbeh) – ma‘lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxmin (prognoz) qilish.

**OMMAVIY MULK** – O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida tan olingan ikki mulk shaklidan biri. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo‘ladi” deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 213-moddasiga binoan Respublika mulki va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulki ommaviy mulk hisoblanadi.

Yer va yer osti boyliklari, suv, havolar bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy boyliklar, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika byudjetining mablag‘lari, oltin zahirasi, intellektual faoliyat natijalari (boshqartirish bular byudjet yoki davlatning o‘ziga mablag‘lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo‘lsa) respublika mulki hisoblanadi.

Munitsipial mulk bu – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki. Mahalliy byudjet mablagʻlari, munitsipial uy-joy fondi va kommunal xoʻjalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq taʼlimi, madaniyat, sogʻliqni saqlash muassasalaridir.

**PATENT** (lotincha “patents” – ochiq, tushunarli) – 1) Davlatning mas’ul organlari tomonidan beriladigan va quyidagilarni belgilovchi hujjat: kashfiyot hamda yangiliklar uchun, mualliflik huquqini berish uchun; 2) Baʼzi davlatlarda ayrim turdagi faoliyat bilan shugʻullanish uchun ruxsat beruvchi huquqiy hujjat.

**SANATSIYA** (lotincha “sanatio” – davolash, sogʻlomlashtirish) – korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, uning barbod boʻlishi oldini olish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish.

**UYUSHMA** – turdosh kasbga ixtisoslashgan korxonalarning paychilik asosida tuzilgan ixtiyoriy birlashmasi. Uyushma xoʻjalik hisobiga asoslanib, ilmiy-texnik, tijorat, ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy masalalarni birgalikda hal qilish uchun tashkil etiladi. Uyushmani muassislar kengashi boshqaradi. Muassislar kengashi uyushma boshqaruvini tuzadi va uyushma raisini saylaydi. Islohot yillarida Oʻzbekistonda „Oʻzavtosanoat“, „Oʻzeltexsanoat“, „Oʻzkimyosanoat“, „Oʻzbekipagi“, „Oʻzagromashservis“, „Oʻzqurilishmateriallari“, „Oʻzbeksavdo“, „Oʻzoziqovqatsanoat“, „Oʻzgoʻshtsutsanoat“, „Oʻzyogʻmoytamakisanoat“, „Oʻzparrandasanoat“, „Oʻzbekbirlashuv“, „Oʻzbekcharmoyabzal“ va boshqa uyushmalar tashkil etildi va faoliyat yuritmoqdalar.

**VALYUTA** (italyancha “valuta” – baho, narx) – muayyan mamlakatning maʼlum ogʻirlikdagi oltin yoki kumushga nisbatan qoʻllaniladigan pul birligi. Tarixda valyutalarning oltin, kumush, mis, qogʻoz, xorijiy davlatlar pul birliklari kabi turlari maʼlum.

**XOLDING KOMPANIYALARI** – korporatsiya shakllaridan biri. Xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aksionerlik jamiyatlari „aksiyalarining nazorat paketi“ kompaniyaning ixtiyorida boʻladi. Bundan maqsad yagona tarmoq va ilmiy-texnikaviy siyosat yurguzish, umumiy manfaatlar yoʻlida aksionerlik jamiyatlari faoliyatlari ustidan nazorat oʻrnatish va dividendlar koʻrinishida foyda olishdir. Xolding kompaniyasiga misol tariqasida mamlakatimizda tashkil etilgan 15 ta qishloq xoʻjaligi mashinasozlik korxonalarini birlashtirgan „Oʻzqishloqxoʻjalikmash-xolding“, „Oʻzmevasabzavotuzumsanoat-xolding“ va „Oʻzbekneftgaz“ Milliy xolding kompaniyalarini kiritish mumkin. Shuningdek, „Oʻzbekyengilsanoat“ kompaniyasi, „Oʻzqurilishmaterial“ davlat aksiyadorlik kompaniyalari ham faoliyat koʻrsatmoqdalar.

**XUSUSIY MULK** – Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarida tan olingan ikki mulk shaklidan biri. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida boʻladi” deyilgan.

Xususiy mulk ommaviy mulkdan farqli oʻlaroq yakka tartibdagi va alohida subyektlarga tegishli mulk shakllaridan iborat boʻladi. Uning subyektlari (egalari) sifatida faqat fuqarolargina emas, balki xoʻjaliklar, jamoalar, shirkatlar, ijara va

jamoat korxonalari, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, hayriya va boshqa ijtimoiy jamg'armalar hisoblanadi.

Xususiy mulkning o'ziga xos tomoni shundaki, xususiy mulkdan (masalan: korxonalar, transport, jihoz-usukuna va boshqalar) iqtisodiy foyda (daromad) olinadi (ijaraga berish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishlatish va boshqa yo'llar orqali). Foyda va daromad uchun harakat esa shaxsni faollikka, tadbirkorlikka, ishbirmonlikka undaydi. Bu esa jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

“O'zbekiston Respublikasida xususiy mulk to'g'risida”gi 1990-yil 31-oktabr qonunining qabul qilinishi bilan milliy qonunchilikda uzoq muddatli tanaffusdan so'ng xususiy mulkchilik instituti qayta tiklandi. Chunki sobiq sho'rolar davrida xususiy mulkchilik insonlar o'rtasidagi mulkiy tengsizlik va tabaqalanishni keltirib chiqaradi deb hisoblanib, bu mulk shakli bekor qilingan edi. Mulchilikning faqat davlat (sotsialistik) va shaxsiy mulk shakli saqlab qolingan edi.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi dahlsiz va davlat tomonidan himoya qilinadi.

**SHAXSIY MULK** – fuqarolarning shaxsiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi mulk. Shaxsiy mulk subyektlari ayrim fuqarolar, uning obyekti esa iste'mol buyumlari, turar joy va umuman shaxsiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan vositalardir. Shaxsiy mulk ishlab topilgan daromad, merosga olingan mulk, ish haqi, nafaqa, stipendiya, tomorqa xo'jaligidan tushgan daromad, aksiyadan keladigan dividend, lotereyadan kelgan yutuqlar hisobiga ko'payib boradi.

Shaxsiy mulk obyektlari ehtiyojni qondirish doirasidan chiqib, daromad topish yo'lida ishlatilsa, u xususiy mulkka aylanib ketadi va unga soliq solinadi.

## MAVZU: O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

**ARALASHMASLIK QOIDASI** – boshqa davlatlar yoki xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risidagi qoida. Xalqaro huquqda tinchlikni saqlash va mustahkamlashning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

**BMT (BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI)** (inglizcha United Nations Organization, UNO, UN) – davlatlar va xalqlar orasida hamkorlikni rivojlantirish, hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlatlarning xalqaro uyushmasi. 1945-yilda tuzilgan. BMT Nizomi tinch hayot kechirish xartiyasi (yorlig'i), xalqaro huquqning umume'tirof etilgan kodeksi sifatida tan olingan. BMT Nizomining 1-moddasida quyidagi ustuvor yo'nalishlar ilgari surilgan: xalqaro tinchlik va havfsizlikni ta'minlash, tinchlikka xavf va bosqinchilikka qarshi samarali jamoaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish, tinchlikning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xalqaro baxslarni tinch yo'l bilan, adolat tamoyillariga amal qilgan holda hal etilishiga harakat qilish.

BMTga a'zolik har bir tinchliksevar va BMT Nizomida aks ettirilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishga qodir davlatlar uchun ochiq. 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida bir ovozdan BMTga qabul qilindi.

**BRIFING** – xalqaro kelishuvlar, uchrashuvlar va konferensiyalar jarayonida tadbir qay tarzda o'tayotganligi, tomonlarning pozitsiya va qarashlarini ommaga

yetkazish uchun hukumat rahbari, uning yordamchisi yoki matbuot xizmatchisi bilan ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar bilan o'tkazadigan qisqa uchrashuvi.

**DAVLATLARARO TUZILMALAR** – davlatlararo doimiy va vaqtincha faoliyat ko'rsatuvchi, davlatlararo shartnomalar asosida tashkil etiluvchi ittifoqlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga ko'ra, O'zbekiston ittifoqlar tuzishi, hamdo'stlik va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi mumkin, lekin bu davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga qarshi bo'lmasligi shart.

**EKOSAN** – notijorat, nodavlat (nohukumat) tashkiloti. Ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasining 1992-yili ta'sischi konferensiyasida tashkil qilingan. Jamg'arma 14 mintaqaviy va 200 tuman (shahar) bo'limlariga ega. Korxonalar, tashkilot va o'quv muassasalarida qariyb 2,5 mln. jamg'arma faollari mavjud. Bir qator xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Pokiston, Shvetsariya, MDH mamlakatlari) jamg'arma bo'limlari tuzilgan.

“EKOSAN”ning asosiy vazifalari ekologik muammolarni har tomonlama o'rganish, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqishga va shu maqsadda barcha kuchlarni birlashtirishga ko'maklashish, ekologik madaniyat, ekologik tafakkurni tarbiyalash, aholini atrof-muhit to'g'risida xabardor qilish, buning uchun xalqaro uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ekologik masalalar bo'yicha turli xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar bilan aloqa o'rnatib ish olib borishdir. Jumladan, BMT, YEXHT, YUNISEF, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO va boshqa tashkilotlar bilan EKOSAN yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Ushbu jamg'arma har yili “EKOSAN salomatlik poyezdi” tashkil qilinishi munosabati bilan, ekologik jihatdan og'ir ahvoldagi hududlarda 200 mingga yaqin kishiga malakali tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, insonparvarlik yuklari yetkazib berilmoqda. Har yili “Ekologiya va salomatlik kunlari” o'tkazilmoqda. “ASPERA” nomli tashkilot bilan hamkorlikda “Orol atrofidagi yashovchi onalar va bolalar”ga ekologik hamda mintaqaviy yordam berilmoqda.

**GLOBALLASHUV** (lotincha “globus” – yer shari) – yer sharining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni vaqtda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonidir. Bu jarayon asrdan asrga, ming-ming yillar davom etgan. Insoniyat jamiyati ayniqsa XVI-XX asrlarda XV asrgacha bo'lgan uch million yillik tarixida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarga nisbatan ko'proq ne'matlarni yaratdi.

Globalashuvning ijobiy tomoni shundaki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Uning salbiy tomoni shundaki, ko'p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globalashuv jarayonlarida katta millatlar yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotdan chetga chiqib qoladi. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi – o'z millatining raqobatbardoshligini ko'rsatish, buning

uchun uning faol siyosati, iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir.

Bugungi floballashuv sharoitida mustaqil O'zbekiston fuqarosi hozirgi zamon amaliyoti talab qilayotgan to'rt sifatga ega bo'lishi shart: 1) zamonaviy mutaxassis bo'lish; 2) o'zbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilish; 3) doim o'z bilim doirasini yangilab borish; 4) tadbirkor-tashabbuskor bo'lish.

**GLOBAL MUAMMOLAR** (fransuzcha "global" – umumiy, lotincha "globus" – yer shari) – bitta davlat yoki mintaqaninggina emas, balki butun yer yuzi, insoniyat hayoti va kelajagiga dahldor umumbashariy muammolar. Yer yuzida tinchlikni saqlash, yadro urushining oldini olish, atrof muhitni muhofaza qilish, yer iqlimi isishining oldini olish, yoqilg'i-energetikaning yangi turlarini yaratish, azon qatlamini muhofaza qilish, xalqaro terrorizmning oldini olish kabi muammolar hozirgi paytdagi eng dolzarb global muammolar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston 500 dan ortiq ikki tomonlama va ko'ptomonlama shartnomalar, bitimlar tuzdi, 80 dan ortiq muhim xalqaro konvensiya va shartnomalarga qo'shildi. O'zbekiston teng huquqlar asosida jahonning barcha obro'li va ta'siri kuchli xalqaro tashkilotlariga a'zo bo'lgan.

**INTERPOL** – Xalqaro Jinoyat politsiyasining qisqartirilgan nomi. Interpolni tashkil etish to'g'risidagi qaror 1914-yil Monakodagi konferensiyada qabul qilingan edi. Uning birinchi Nizomi 1923-yilda qabul qilinadi. 1972-yildan boshlab Interpolning shtab kvartirasi etib Parij belgilangan. Interpol jinoyatchilarni ro'yxatga olish xalqaro markazidir. Shuningdek, jinoyatlarning (gumon qilinuvchilarni, bedarak yo'qolgan shaxslarni, o'g'irlangan mollarni) xalqaro qidiruvini muvofiqlashtiradi. Hozirgi vaqtda 150 dan ortiq davlat Interpolning a'zosi. O'zbekiston 1994-yil 15-avgustda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan.

**IHT (Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti)** – xalqaro iqtisodiy tashkilot. 1985-yili Eron, Pokiston, Turkiya hamkorligida tuzilgan. 1992-yil fevraldan Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari a'zo bo'lib kirgan. Tashkilot idorasi Tehron shahrida.

**MAGATE** – Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik. BMT qaroriga muvofiq Nyu-Yorkdagi xalqaro konferensiyada atom energiyasidan foydalanish bo'yicha hukumatlararo tashkilot sifatida tashkil etilgan. Uning Nizomi 1957-yilda kuchga kirgan. Qarorgohi Venada. Uning maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish yo'lida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston ushbu tashkilotga 1994-yil 15-yanvarda a'zo bo'lib kirgan.

**MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)** – sobiq SSSRning uchta respublikasi RSFSR, Belarus va Ukraina vakillari tomonidan 1991-yil 8-dekabrda Minskda imzolangan MDHni tashkil etish haqidagi Bitim, 1991-yil 21-dekabrda (Boltiq bo'yi respublikalari va Gruziyadan tashqari) 11 sobiq Ittifoq respublikalari tomonidan Olma-otada imzolangan Bitimga Protokol va shu sanada imzolangan Olma-ota Deklaratsiyasi asosida tashkil qilingan davlatlararo ixtiyoriy birlashma. 1993-yil 22-yanvarda Minskda qabul qilingan MDH Ustavi O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan o'sha yili ratifikatsiya qilingan. Ustavga binoan Hamdo'stlik maqsadi xalqlar va davlatlarning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, texnika, savdo-sotiq, insonparvarlik va boshqa

sohalardagi teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilish, keng axborot almashinuvi, o'zaro majburiyatlarni vijdonan va so'zsiz bajarishdan iborat.

**OSIYO TARAQQIYOT BANKI (OTB)** – xalqaro mintaqaviy bank. 1966-yilda tashkil topgan. Bank faoliyatining asosiy maqsadi Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga va tashqi savdosiga ko'maklashish, moliyaviy, texnik va iqtisodiy yordam ko'rsatish. Bankning har qanday qarorini hamkorlikda 1/3 ovozga ega bo'lgan AQSH va Yaponiya to'xtatib qo'yishi mumkin. Shtab kvartirasi Manila (Filippin) shahrida.

O'zbekiston ushbu bankka 1995-yil 31-avgustda a'zo bo'lgan.

**TERRORIZM** (lotincha "terror" – qo'rquv, dahshat) – o'z maqsadiga erishish yo'lida ayrim shaxs, shaxslar guruhi yoki g'ayridemokratik hukumat organlari tomonidan muholifat kuchlarini jismoniy kuch ishlatib qo'rqitishdan tortib ommaviy jismonan yo'q qilinishigacha boradigan umuminsoniy o'ta xavfli jinoyat turi.

**VIZA** (fransuzcha "visa" – ko'rib chiqilgan) – biror bir shaxsning mamlakat hududiga kirishi yoki chiqishi uchun ruxsat beruvchi uning hujjatiga qo'yiladigan belgi. Viza mazkur mamlakat hukumati organlari tomonidan ma'lum bir muddatga beriladi.

**XALQARO QIZIL XOCH VA QIZIL YARIM OY JAMIYATI** – urush oqibatida yarador bo'lganlarga, harbiy asirlarga, shuningdek, tabiiy ofatlar va boshqa sabablar bilan kasal bo'lib chorasiz qolgan kishilarga beg'araz yordam berish maqsadida tuzilgan milliy va xalqaro tashkilotlar birlashmasi. Bu harakatga 1863-yil Shvetsariyada asos solingan. Shuning uchun tashkilotning ramzi sifatida qizil xoch Shvetsariya davlat bayrog'idan olingan. Musulmon mamlakatlarida esa tashkilot musulmonchilik ramzi bo'lgan qizil yarim oy tasviri tushirilgan bayroq ostida faoliyat yuritadi. Tashkilotning rahbar organlari Jenevada joylashgan.

Xalqaro Qizil Xoch va Qizil yarim oy harakatining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: insoniylik, holiislik, qo'shilmalik, mustaqillik, ixtiyoriylik, birdamlik, universallik.

O'zbekiston ushbu harakatga 1993-yil 21-yanvarda a'zo bo'lgan.

**XALQARO TIKLANISH VA TARAQQIYOT BANKI** – 1944-yil Bretton-Vuds (AQSH)da o'tkazilgan Xalqaro moliya-valyuta konferensiyasida tashkil etilgan. BMning ixtisoslashtirilgan tashkiloti statusiga ega. Shtab kvartirasi Vashington shahrida joylashgan. Asosiy maqsadi o'ziga a'zo bo'lgan davlatlar iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga yordam berish, chet el xususiy sarmoyadorlarini qo'llab-quvvatlash va sanoatni rivojlantirish uchun qarzlarni berishdan iborat.

O'zbekiston ushbu tashkilotga 1992-yil 21-oktabrda a'zo bo'lgan.

**XALQARO VALYUTA FONDI** – 1944-yil Bretton-Vuds (AQSH)da o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada tashkil etilgan. BMning ixtisoslashtirilgan tashkiloti maqomiga ega. Qarorgohi Vashington shahrida joylashgan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valyuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirish, a'zo davlatlar valyuta kursini, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash, ularga qisqa muddatli va o'rta muddatli qarzlarni berish kabilardan iborat.

1991-yilga kelib unga a'zo mamlakatlar soni 153 ta bo'lib, kapitali 120 mlrd. dollarni tashkil etgan.

O'zbekiston ushbu tashkilotga 1992-yil 21-oktabrda a'zo bo'lgan.

**YEVRAZES** – Yevropa-Osiyo Iqtisodiy hamjamiyati, 2000-yil 10-oktabrda Belorussiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Rossiya va Tojikiston davlat rahbarlari imzo chekkan shartnoma asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. 2005-yil 7-sentabrda Sankt-Peterburg uchrashuvida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning taklifi bilan “Markaziy Osiyo hamkorligi” va YEVRAZES ayni bir xil maqsad va vazifalarni oldiga qoʻyganligini koʻzda tutib bu ikkala tashkilot birlashtirildi.

YEVRAZES davlatlari rahbarlarining 2006-yil 24-yanvardagi Sankt-Peterburg sammitida Oʻzbekiston Respublikasi YEVRAZES aʼzoligiga rasmiy ravishda qabul qilindi. Ammo 2008-yil oktabr oyida YEVRAZES tashkiloti ishida samaradorlik va izchillik kuzatilmayotganligi sababli Oʻzbekiston bu tashkilotdan chiqishini eʼlon qildi. 2008-yil 12-noyabrda tashkilot Oʻzbekistonning YEVRAZESga aʼzolikdan chiqqanligini rasmiy ravishda tasdiqladi.

**YEVROPA ITTIFOQI** – 1993-yilda Yevropa Hamjamiyatlari asosida yuzaga kelgan hamda xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini oʻzida birlashtirgan davlatlararo birlashma. 1991-yilda Maastrixtda (Niderlandiya) Yevropa Hamjamiyati aʼzolari boʻlgan 12 ta davlat rahbarlari imzolagan Yevropa Ittifoqi toʻgʻrisidagi shartnoma 1993-yil 1-noyabrda kuchga kirdi. Shartnoma milliy fuqarolikka qoʻshimcha ravishda Yel fuqaroligini ham joriy etdi. 2007-yil 1-yanvarga kelib YEI ga Bolgariya va Ruminiya davlatlari 26-27- aʼzo boʻlib kirishdi.

Yevropa Ittifoqi quyidagi organlardan iborat: Yevropa Kengashi, Yevropa Parlamenti (Yevroparlament), Yevropa Ittifoqi kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi.

**YEXHT (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti)** – Xalqaro mintaqaviy tashkilot. Uning taʼsis etuvchi hujjatlari 1975-yilda Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjat, 1990-yilda Parijda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Xartiya va unga qoʻshimcha xujjat, 1992-yilda Xelsinkida qabul qilingan “Oʻzgarishlar vaqti chaqirigʻi” Deklaratsiyasi hisoblanadi. Shunga muvofiq YEXHT ning asosiy faoliyat sohalari: xavfsizlik, qurolsizlanish, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya, inson huquqlari va erkinliklari va boshqa masalalarda hamkorlik qilishdan iborat.

YEXHT tarkibiga geografik jihatdan Vankuver (Kanada)dan Vladivostokkacha boʻlgan hududda joylashgan 55 mamlakat xavfsizligi masalalari bilan shugʻullanuvchi umumiyevropa tashkilotidir.

Oʻzbekiston ham ushbu tashkilot bilan faol hamkorlik aloqalarini oʻrnatgan. 1992-yil 18-fevralda Oʻzbekiston hukumati nomidan I.A. Karimov Xelsinkida YEXHTning Yakunlovchi aktini imzoladi. Xuddi shu yilning 9-10-iyulda YEXHTning Xelsinki uchrashuvida Oʻzbekiston Prezidenti I.A. Karimov ham ishtirok etib, uning ishiga raislik qildi.

**YUNESKO** – BMTning taʼlim, ilm-fan va madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti. YUNESKO Ikkinchi jahon urushidan soʻng, 44 ta davlat vakillari Londonda konferensiyaga yigʻilib, YUNESKOni taʼsis etuvchi Ustavni qabul qilishlari bilan tashkil topgan. YUNESKOning amaliy faoliyati 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi Parijda. Tuzilish davrida 28 ta davlat aʼzo boʻlgan boʻlsa, hozirgi kunda unga 186 ta davlat aʼzo.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktabrda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan. YUNESKOning maqsad va vazifalari: ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shish; qonunchilik va adolatlilikka hurmat, irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutdan qat'iy nazar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlash.

O'zbekistonda YUNESKO bilan hamkorlikda Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning 1000 yillik, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik, Amir Temurning 660 yillik tantanalari, Toshkent shahrining 2200 yilligi, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Samarqandning 2750 yilligi keng nishonlandi.

**YUNIDO** – BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatini rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat bo'lgan BMT ning ixtisoslashgan muassasasi. 1946-yilda tashkil etilgan. 1995-yilda 166 ta davlat a'zo bo'lgan. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1994-yil aprelda a'zo bo'lib kirgan.

**YUNKTAD** - BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi. BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo tashkiloti bo'lmagan organi. 1964-yilda tashkil etilgan bo'lib, 168 ta davlat unga a'zodir. Asosiy vazifalari: xalqaro savdoni, davlatlar o'rtasida teng huquqli o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi bo'yicha har xil tavsiyalar ishlab chiqish. YUNKTAD qarorlari rezojyutsiyalar, bayonotlar singari shaklda bo'lib, tavsiya xususiyatiga egadir. Uning rahbarligida ko'p tomonlama bitimlar va konvensiyalar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi YUNKTAD ga 1992-yilda a'zo bo'lgan.

**SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti)** – tinchlik, havfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlararo tashkilot. 2006-yildan oltita davlatni (Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) o'z ichiga oladi. SHHTning shakllanishi 1992-yildan Xitoy bilan chegaradosh beshta sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarining o'zaro chegaralarni aniqlash bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishdan boshlandi. 1996-yil Shanxayda, 1998-yilda Almatida, 1999-yilda Bishkekda o'tkazilgan besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib hal etishga qaratildi. 2000-yil iyulida Dushanba sammitida O'zbekiston Prezidenti kuzatuvchi sifatida qatnashdi, 2001-yil 15-iyunda SHHTga oltinchi a'zo bo'lib O'zbekiston qo'shildi. 2003-yil 28-29-mayda Moskvada SHHTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, 2003-yil sentabrida Pekinda "SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi qabul qilindi. 2004-yil iyunidan tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005-yil iyulida Ostona sammitida Eron, Pokiston va Hindiston, kuzatuvchi maqomidagi Mongoliyaga qo'shildilar.

**CHET EL INVESTITSIYALARI** – chet ellik investorlar asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulukka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad. O'zbekiston o'z



hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari uchun barcha huquqlarni kafolatlaydi va himoya qiladi.

### ***O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarga a'zoligi***

- 1991-yil 25-dekabr - Jahon intellektual mulk tashkiloti (Jeneva)
- 1992-yil 30-yanvar - Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (Praga)
- 17-fevral - Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti – EKO (Tehron)
- 2-mart - BMT (Nyu-York)
- 10-mart - Shimoliy Atlantika hamkorlik kengashi (Bryussel)
- 22-mart - Xalqaro olimpiya qo'mitasi (Lozanna)
- 27-aprel - Yevropa rekonstruksiya va taraqqiyot banki (London)
- aprel - Jahon pochta aloqa ittifoqi – JPI (Bern)
- 22-may - Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti – JSST (Jeneva)
- 10-iyul - Xalqaro elektraloqa ittifoqi (Jeneva)
- 13-iyul - Xalqaro mehnat tashkiloti – XMT (Jeneva)
- 22-iyul - Bojxona hamkorlik kengashi (Bryussel)
- 1-sentabr - Qo'shilmasslik harakati (Jakarta)
- 9-oktabr - Xalqaro Epizootiya byurosi (Parij)
- 21-oktabr - Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki (Vashington)
- 21-oktabr - Xalqaro valyuta jamg'armasi (Vashington)
- 12-noyabr - Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (Monreal)
- Jahon bojxona tashkiloti (Bryussel)
  - BMTning xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi YUNISITRAL (Vena)
  - BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha komissiyasi-YUIKTAD (Jeneva)
  - Parlamentlararo ittifoq (Jeneva)
- 1993-yil 21-yanvar - Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy qo'mitasi (Jeneva)
- 23-yanvar - Jahon meteorologiya tashkiloti – JMT (Jeneva)
- 26-oktabr - YUNESKO (Parij)
- Jahon sayyohlik tashkiloti – JST (Madrid)
  - Temir yo'llar hamkorligi tashkiloti (Varshava)
- 1994-yil 15-yanvar - Xalqaro atom energiyasi agentligi – MAGATE (Vena)
- aprel - BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti – YUNIDO
- 20-aprel - YuNISEF (Nyu-York)
- 22-iyun - BMTning Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasi – ESKATO (Bankok)
- iyun - Ta'riflar va savdoga oid bosh kelishuv (kuzatuvchi)
- 15-avgust - Xalqaro yo'l harakati tashkiloti (Jeneva)
- 28-sentabr - Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti – Interpol (Rim)
- sentabr - BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi – EIK (Jeneva)
- 1995-yil fevral - BMTning giyohvand moddalarni nazoratiga oid dasturi -- YUNDKP (Vena)
- 5-aprel - Yevropa energetika xartiyasi (Bryussel)
- 31-avgust - Osiyo taraqqiyot banki

- 24-noyabr-Kimyoviy qurollarni ta'qiqqlash bo'yicha tashkilot (Gaaga)
- 1996-yil 2-oktabr - "Islom konferensiyasi" tashkiloti (Jidda)
- noyabr - Yadro sinovlarini har tomonlama ta'qiqqlash bo'yicha shartnoma tashkiloti (Vena)
- 1997-yil 7-may - Xalqaro yo'ldosh telekommunikatsiya tashkiloti (Intelsat)
- 3-iyun - Xalqaro ko'rgazmalar byurosi (Parij)
- Xalqaro moliya korporatsiyasi
  - Investitsiyalar kafolatiga doir ko'ptomonlama agentlik
  - Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi
  - Xalqaro suv ta'minoti assotsiatsiyasi
  - Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
  - Xalqaro sport federatsiyasi
  - Xalqaro mototsikl sporti federatsiyasi
  - Xalqaro aviatsiya sporti turlari federatsiyasi
  - Xalqaro suv motor ittifoqi
  - Jahon suv osti faoliyati federatsiyasi
  - Jahon kema modelizmi tashkiloti
  - Jahon avtomodelizm tashkiloti
  - Xalqaro radiohavaskorlar ittifoqi
  - Xalqaro dengiz ko'pkurashi assotsiatsiyasi
  - Xalqaro paxtachilik maslahat qo'mitasi

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	2
1. Oʻzbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy metodologik asoslari.....	4
2. Oʻrta Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy oʻchoqlaridan biri .....	6
3. Oʻzbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish jarayoni tarixidan.....	12
4. Oʻzbek davlatchiligi va uning taraqqiyot bosqichlari.....	24
5. IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygʻonish davri.....	45
6. Moʻgʻullar istilosi va zulmiga qarshi kurash.....	58
7. Amir Temur davrida oʻzbek davlatchiligining yuksalishi. Temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayot.....	62
8. Oʻzbek xonliklari davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik va uning oqibatlari.....	70
9. Turkistonda Rossiya imperiyasi hukmronligi va unga qarshi kurash. Jadidchilik.....	83
10. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining oʻrnatilishi. Istiqlolchilik harakati (1917-1924-yillar).....	95
11. Oʻzbekiston SSR sovet hokimiyati davrida (1925-1991-yillar) .....	114
12. Oʻzbekiston davlat mustaqilligining qoʻlga kiritilishi. Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi .....	127
13. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar.....	140
14. Oʻzbekiston va jahon hamjamiyati .....	147

Adadi 500 nusxa. Hajmi 9,75 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Times New Roman» garniturası. Ofset usulida bosildi.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.  
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.